



**•SHARQ• NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006**



ASR OSHGAN ASARLAR

TOGHY MIROD

**OT KISHNAGAN
OQSHOM**

Qissalar



•SHARQ, NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006

84(5U)6-4 ВАГИЧИ 2ДДОНЕТ—
КИССАЛАР

M—88

1-32 54 26
c

Murod, Tog'ay.


От кишнаган оқшом: Qissalar. / «Asr oshgan asarlar» turkumi — Т.: «Sharq», 2006. — 288 b.

Bu qisseler ne bir kunlarni ko'rmasdi!

Zoti nomard bo'ldi, ushbu qissalar yoqasidan oldi. Og'zi buzuq bo'ldi, ushbu qissalarga tupugini sochdi. Qo'li noplari bo'ldi, ushbu qissalardan butun-butun boblarni o'chirib tashladi.

Oqibat, ushbu qissalar o'z vaqtida pati yulimish tovuq misol chop etildi.

Aqissa, dorilomon kunlar keldi. «Ot kishnagan oqshom»-dagi Ziyodulla chevandozchasiga aytar bo'sak... uloq **BBK.84.(5U)6** ketdil



BBK.84.(5U)6.

© «Sharq-nashriyot-matbaa akademikorlik kompaniyasi» Bosh tahririyyati, 2006.

ODYINDA YURGAN ODAMLAR

I

— *Quloq sol, momosi, quloq sol. Qayerdandir odam ovozi kelyapti...*

Sayrak adirda yonboshlab yotmish bobomiz, momomizga shunday dedilar.

Bobomiz og'izlarini angraygannama ochdilar. O'ng quloqlarini yellar yelmish tarafga tutdilar.

Yellar, ovozlarni yorqin olib kelmadilar.

Bobomiz o'ng kaftlarini quloqlari sirtiga tutdilar. Yelpana qildilar. Nafas olmadilar. Bor vujudlarini berib quloq soldilar.

Bobomiz shunda-da bir nimani eshitmadilar. Chuqur tin oldilar.

Bobomiz oydinga tikildilar.

— *Manovi yoqdan shekilli... — dedilar. — O'zi, vaqting xushmi, momosi? Eson-omon yuribsanmi? To'rt muchaling butmi?..*

1

Sovchilar qadami qizlik eshikka sharaf!

Sovchilar oqshom vaqtি keldi.

Uy bekasi dasturxon yoydi. Xo'jası mezbonlik gildi.

— Xush ko'rdik, xush ko'rdik, — dedi.

— Xushvaqt bo'l, qassob, xushvaqt bo'l, — dedi sovchilar. — Qani, ilohi omin, shu uyda kattakatta to'ylar bo'lsin, olloh-akbar!

— Olloh-akbar! Aytganingiz kelsin!

Palovdan keyin tarvuz so'yildi.

Sovchilar odatlari bo'yicha u yoq-bu yoqdan gapirishib o'tirdi.

Eson qassobni haminqadar eladi. Keyin, maqsadga o'tdi.

— Singlingning boshiga baxt qushi qo'nib turib-di, qassob, uchirib yubormasang bo'ldi, — dedi.
— Aslini bilmay, so'z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar, — dedi qassob. — Kim ekan, u?

2

Qishloqda bir bo'zbola bo'ladi.
Bo'zbola yelkador, pishiq qomatlik bo'ladi.
Kulcha yuzlarida chuqur-chuqur kuldirgichlari
bo'ladi. Qo'y ko'zlik, siyrak qoshlik bo'ladi.
Bo'zbola qomatini g'oz tutadi. Joyida tik tura-di.
Qo'llarini ko'kragiga qovushtiradi yo beliga
tiraydi. Bir nuqtaga tikiladi. Qayerga tikiladi,
nimaga tikiladi?
Bilmaymiz, biz bilmaymiz.
Inchunin, o'zi-da bilmaydi.
Bo'zbolani ilk bor ko'ramiz.
Shunda, bu bola yo qattiq qayg'uda, yo bir
nimani o'ylab o'yiga yetolmayapti, deymiz.
Yurish-turishidan... kekkayadi, o'zidan o'zgani
oyog'i bilan ko'rsatadi, deymiz. Shox-u butog'ing
bormi, muncha kerilasan, deymiz.
U mizoji xush ko'rmish odamlar bilan salom-
alik qiladi. Bordi-keldi qiladi. Chin dildan gapi-
rishadi. Ochilib gurunglashadi.
Ko'ngliga o'tirmaydiganlar bilan salomlashgisi-
da kelmaydi!
Oqibat, bo'zbola bizni nazarga ilmaydi, deymiz.
Oqibat, bo'zbolani birovimiz xush ko'ramiz,
birovimiz noxush ko'ramiz.
U o'zini biz uchun dil-dildan oshno biladi.
Bizga sodiq mehr qo'yadi. Biz bilan hamisha
xayrixoh, hamdard bo'ladi. Bir qorindan talashib
chiqqanlardayin bo'lsam, deydi.
Aqalli, bir, bir yomonligimizni ko'rsa bo'ldil
Bizdan qo'lini yuvib qo'litiqqa uradi. Biz bilan
salom-alik qilmaslik payida bo'ladi.
Bizdan qaytganini bizga-da, birovga-da ayt-
maydi.

Qoboq-tumshuq qiladi. Ichimdan top deb yuradi.
U odamovi!
U olislardan ko'z uzmaydi, kipriklarini-da pir-piratmaydi.

Biz u tikilmish tarafga qaraymiz. Zangori ufq.
Shu! Aqalli bulutlar-da yo'q.
U bizni hayron qoldirib-qoldirib yashaydi!
Bir nimani so'rasak, ha yo yo'q deb qo'ya qoladi.

Qo'liga suv beramiz. Suvni go'yo birinchi
ko'rayotganday tikiladi. O'zicha bosh irg'ab qo'ya qoladi.

Biz og'rinamiz. Minnatdorchilikni tilab olamiz.
•Sen ham odamga o'xshab biror nima de•.
•Nima deyin?
•Hech bo'lmasa, baraka toping, de•.

Shunda u tizzalarini quchoqlaydi. Olis-olislarga — Bobotog' cho'qqilariga o'ychan-o'ychan termiladi. Bobotoqqa termulib-termulib aytadi:
•Chin gaplar ko'ngilda bo'ladi. Tilga chiqsa,
yolg'on bo'ladi-qoladi•.

U yolg'iz bir ashulachini ashulachi deb biladi.
Bu ashulachini Yunus Rajabiy, deydi.

U Yunus Rajabiy ashula aytganda so'zlashuvchi
yo yo'taluvchi odamni ko'rishga ko'zi bo'lmaydi.

U Yunus Rajabiy ashula aytganda iljayuvchi
odamni otishga o'qi bo'lmaydi.

U Yunus Rajabiy ashulalarini bosh egib eshitadi,
muztar bo'lib eshitadi.

U... qo'shiq aytadi!

Adirga o'tga boradi. O't o'rib-o'rib, tevarakka
alanglaydi. Yolg'iz o'zi bo'ladi.

Keyin, o'tni bolish qiladi. Qo'llarini boshi ostiga
chalishadiradi. Olis-olislarga — paxta xirmoni misol
oppoq bulutlar, havolan mish chumchuqlar galasiga
termulib-termulib... dimog'ida qo'shiq aytadi.

Bora-bora lablari-da qimirlaydi...
Sovchi ana shu bo'zboladan bo'ladi!

3

Eson qassob gapni cho'rt kesdi:

— Qoplonmi? Bo'lmaydi!

— Qassob, og'ir bo'l, somonday og'ir bo'l.

— Og'ir bo'lsam-bo'lmasam! Uningiz na salom-ni biladi, na alikni biladi!

— Qassob, ko'ngling bilan eshit — qulqoq aldaydi, aqling bilan ko'r — ko'z aldaydi.

— Uningiz odamga o'xshamaydil

Shunda sovchilar o'z san'atlarini qo'lladi. Biri qo'yib biri, qassob otasi borasida hamd-u sanolar aytdi:

— Rahmatlik otasi ko'p yaxshi odam edi-da...

— Ko'p mard edi...

— Ko'p tanti edi...

— Esonboy otasiga tortmabdi...

— Noshukur bo'lman. Esonboy otasiga quyib qo'yganday tortadi...

— Qani, qaniqayin?..

— Ana, anakayin. Musulmonchilik asta-asta-da...

Sovchilar gap oxirini ana shunday otadan qolmish ana shunday o'g'ilga olib kelib uladi.

Eson qassob oxir-oqibat yon berdi.

— Men bir nima deyolmayman, — dedi. — Og'ayni-jamoa bor, qiz boqqan yangasi bor. Yana bir kelinglar, maslahatlashib olaylik.

4

Kenja surriyot bo'l mish qiz besh yasharligida ota-onadan sag'ir qoldi.

Akasi qo'lida qoldi.

Yanga bo'l mish qoboq-tushmug'iga qarab kun ko'rди.

Yanga bo'l mish qoboq uydi...

Shunda... shunda, sag'ir nafas olmadil! Sag'ir ko'zlar pit-pir etdi. Sag'ir ko'zlar olma terdi.

Sag'ir hadahalab bordi. Jiyani beshigini qo'sh-

qo'llab ushladi. Sag'ir jon-jahdi bilan beshik tebratdi.

♦Beshik tebratsam, yangam qobog'i ochiladi,
keyin, meni urishmaydi...»

Sag'ir ana shunday umidga bordil!

Sag'ir qorni ochdi. Sag'ir barmog'ini so'rdi.
Ammo miq etmadi.

Yanga dasturxon yoydi. Sag'irni dasturxonga imladi.

Sag'ir dasturxon oldiga siljib keldi. Sag'ir barmog'ini so'rib, yangaga mo'ltiradi. Sag'ir barmog'ini so'rib, dasturxonga mo'ltiradi.

Keyin, og'zidagi barmog'ini dasturxonga uzatdi. Barmog'ini avval dasturxon burchiga tegizdi. Undan dasturxon o'rtasi sari ohista-ohista o'rmalatib bordi. Keyin, non chetiga tegizib turdi.

Sag'ir bir tishlamgina non sindirib oldi.

Sag'ir, yangaga qarab-qarab non tishladi,
mo'ltirab-mo'ltirab non chaynadi.

Sag'ir, yangamga yaxshi ko'rinyayin deya,
o'ziday-o'ziday satillarda suv tashidi.

Chin, akasi-da, yangasi-da sag'irni o'z bolasidan kam ko'rmadi. Shunday bo'lsa-da, sag'ir ushbu xonadonda jiyanlari bilan o'z orasida katta tafovut borligini ich-ichidan his etib-etib kun ko'rdi.

Sag'ir munis-da bo'ldi, g'amgin-da bo'ldi.

Sag'ir sertamiz bo'ldi.

Hayotda bo'l mish ilkis qiliqlar, iring gaplarni darhol ilg'ab oldi. Eng yomoni ko'ngliga oldil

Sag'ir ziyrak bo'ldi.

Zarra boshidan hayotga kattalar ko'zi bilan qaradi.

Sag'ir ta'sirchan qiz bo'ldi.

Bari sag'irlilik ishi bo'ldi!

Sag'ir bir qiz bo'ldi, bir qiz bo'ldi-ye!

Sarvgad bo'ldil

Suluv yuzlarini oppoq desak, bizning haqimiz ketadi. Qorachadan kelgan desak, qizning haqi ketadi.

Bug'doyrang bo'ldi!

Barchin yuzli bo'ldi, saraton yulduzli bo'ldi,
parishon zulfli bo'ldi.

O'rim-o'rim sochlari birovga, kimgadir birovga
talpindi.

Bo'lmasa, shunchalar taqim urib-taqim urib
to'lg'onarmidi?

Qop-qora xoli ingichka lablari burchida bo'lsa
bo'lmasmidi? Iyagidagi chuqurchasi ichida bo'lsa
bo'lmasmidi?

Kelib-kelib, o'ng yonog'i qoq uchida-da bo'la-
dimil

5

Akasi xo'p binoyi gap aytdi.

Bunday qiz taqdirini og'ayni-jamoa jamligida
hal etmoq ma'qul bo'ladi.

6

Sovchilar tag'in keldi.

Oradan ikki kun o'tdi.

Og'ayni-jamoalar birovi u dedi, birovi bu dedi.

Birovi arazlab ketdi.

Bari o'z gapini ma'qullatish payida bo'ldi.

Aka bo'l mish bariga birday bo'lib o'tira berdi.

Bo'lar gap qizda qoldi.

Yanga bo'l mish oshxonaga yo'l oldi.

7

Kenja jiyaniga qatiq yalatib o'tirmish Oymomo
yangasidan orlandi. O'ziga qaragan bo'ldi: yelkasi-
ga sirg'anib tushmish iroqi ro'molini yopindi.
Yuqoriga yig'ilib qolmish ko'ylagi barini tortdi,
tizzalarini yopdi.

Jiyani qulochini ochdi, onasiga talpindi.

Onasi kenjasini bag'rige oldi.

Qaynsinglisiga tikildi-tikildi, miyig'ida kuldi-
kuldi.

10

Keyin, qaynsinglisi ko'ngliga qo'l soldi:
— Sen nima deysan?
— Nimani nima deyman?
— Talmovsirama, biror nima de. Sovchi kepti.
— Kimga?
— Menga bo'larmidi, senga-da.
— Eb-ey, men sizga nima qildim? Boring-e!
Oymomo ters bo'ldi. Bilq-bilq qaynamish qozon-ga yuz berdi.
Kosov bilan o'choq kovladi.
Olov hur-hur yondi.
Kenja, onasi yoqasini tataladi.
— Ena, mamma! Mamma ber! — dedi.
Onasi o'g'liga emchak berdi.
— Uyalsang-uyalmasang, bu barimizning boshimizda bor savdo, — dedi yanga bo'lmish.— Biz ham sendayin uyalib edik. Mana oqibati, jiyaning sho'rpillatib-sho'rpillatib emib o'tirib-di...
— Erga tegaman deb o'lib o'tirganim yo'q...
Yanga bo'lmish ketiga chalqayib-chalqayib kuldi. Ko'kragi kenjası og'zidan chiqib ketdi.
— Men seni o'lib o'tiribdi, deb o'ylabman, — dedi. — Menga qara, bugun, bugun bo'lmasa ertaga baribir kelin bo'lasan...
Kenja, mimit qo'llarini cho'za berdi-cho'za berdi. Onasi ko'kragini tag'in og'ziga soldi.
— Joyi chiqib turibdi, xo'p deya ber. Qoplon ikki yelkasiga uy tiksa bo'ladigan yigit.
— Men undaychikin odamni bilmayman...
— Endi bilasan-da. Aytganidan qolma.
Chiroying borida chinoringni top!
Oymomo cho'qqa tikilmish ko'yi o'tira berdi.
Cho'g' Oymomo yuzlaridan, Oymomo yuzlari cho'g'dan qolishmadi.
Yanga bo'lmish kenjasini Oymomoga berdi.
— Bo'ldi, sukul alomati rizo, — dedi.

**Yanga bo'lmish og'ayni-jamoa qoshiga bordi.
Oymomo sukutini aytди.**

**Sovchilar dasturxonga o'ralmish nonni o'rtaga
qo'ydi.**

Qalin aytish boshlandi.

— **Xo'-o'sh...**

— **Elga qarab ayting-da.**

— **Xo'-o'p...**

— **Bo'ldi-e, hech kim qiz uzatib boyigan emas.**

— **O'nta qo'y... shularga rozimisizlar?**

— **Qani, ilohi omin, ikki yosh qo'sha qarisin,
olloh-akbar!**

Yangasi qiz onasi o'rnida fotiha o'qidi.

Non sindirildi.

Sovchilar chorli belqars o'rab ketdi.

Kuyov tarafdan fotiha to'y keldi.

**Fotiha to'yida qo'y, zig'ir moy, guruch,
mayiz... bo'ldi.**

Kelin-kuyovlik davri boshlandi.

**Kuyov, kelin qarindosh-urug'lari oldidan yerga
qarab o'tdi. Ko'zlariga tik qaramadi. Davralarda
yuzma-yuz o'tirmadi.**

Oy o'tdi.

**Kelinnikiga ko'rpa-to'shak matolari bilan paxta
keldi...**

Bu, to'qqiz deb ataladi.

**Bir oqshom kuyovto'ra kelin akasi bir yoqqa
safarlab ketdi, deya eshitdi.**

Oshnalari bilan qayliqlab bordi.

Oshnalar ohista-ohista deraza chertdi.

Derazadan yanga bo'lmish qaradi.

— Kuyov qaylig'i bilan ko'rishsam deydi... —
dedi oshnalari.

Yanga bo'lmish yo'l bermadi.

— Ko'rishgisi kelsa to'y qilsin, — dedi.

12

To'y bozor oqshomi bo'ldi.

To'yga ayta-ayt bo'ldi.

Qizlar kelin tarafga aytdi, bo'zbolalar kuyov
tarafga aytdi.

Qizlar kelinnikiga bordi, bo'zbolalar kuyovniki-
ga bordi.

Kuyovnikida necha-necha qo'yilar boshi ketdi.

Necha-kecha ko'zalar bo'shab qoldi.

Sozlar, xonish havoda havolanib-havolanib
turdi.

To'yxona to'la to'ylovchi bo'ldi.

Ko'chada bolalar shovqin soldi:

— Toboq keldi, kelinnikidan toboq keldil

Darvozadan yelkalari, boshlarida dasturxon
ko'tarmish ayollar paydo bo'ldi. Ayollar kelinniki-
dan o'nta toboq olib keldi.

Toboqlar birida palov, birida qovurma go'sht,
birida qaynatilgan tuxum, yana birida shirgu-
ruch... bo'ldi.

Toboqlar davralarga qo'yildi.

To'ylovchilar ko'ngillari tortmish taomdan
yedi.

Bo'sh toboqlar yig'ib olindi.

Jo'rabsoshi davraga katta ro'mol yoyib aytdi:

— Kuyovto'ra kelib qarab tursin, kim qanday
sovga tashlaydi!

To'ylovchilar atagan sovg'a-salomlarini ro'mol-
ga tashladi. Birov bir kiyimlik atlas tashladi, birov
shoyi tashladi.

Ro'mol deyarli to'ldi.

Duo ezgu bo'ldi:

— To'yniki to'yda qaytsin, olloh-u akbar!

13

13

Kuyov jo'ralar kelinnikiga yo'l oldi.
O'zlariga ajratilmish uyga qo'ndi.

14

Kelin hovli o'ng yuzidagi uyda bo'ldi.
Qizaloqlar derazama-deraza mo'raladi, kelinni
tomosha qildi.
Ichkarida qizlar g'uj bo'ldi. Biri havas bilan,
biri achinish bilan kelinga boqdi.
Kelin ixtiyori qizlarda bo'ldi.
Bir qiz barmoqlarini tupuklab-tupuklab
ho'lladi. Qiz kelin zulflarini bot-bot buradi. Zulflar
gajakdan-gajak bo'ldi.
Bir qiz to'ntariqlik piyola ketiga o'sma ezdi. Qiz
kelin qoshlariga o'sma qo'ydi.
Kelin nigohlari kigiz gulida bo'ldi.

15

Shu vaqt besh-olti odam kelinli uy dahliziga
keldi.
Ichki eshik qiya ochib qo'yildi.
Xayrulla domla kelindan vakil so'radi:
— Sizkim Oymomo Abdiboy qizi, o'zingizni
Qoplonboy Qurbonboy o'g'liga bag'ishlamoq vako-
latini akangiz Esonqul o'g'liga topshirdingizmi?
Sukunat.
Kelin miq etmadi.
— Aytma, aytma, — shivirladi qizlar.
Eshik ketida turmush kuyov jo'ralar qizlarga
pul uzatdi.
Qizlar pulni bo'lib-bo'lib oldi.
Kelin hamon jim bo'ldi.
Kuyov jo'ralar tag'in pul uzatdi.
— Bo'ldimi? Endi aytsin! — dedilar.
— Ay, Xolbuvi, sen hadeb shivirlay berma!
— Shivirlayman! Nima, darrov ha, deya beradi-
mi?

— Ha, deyish osonmi!
— Yegani non emas!
Xayrulla domla qayta vakil so'radi.
Tag'in javob bo'lmadi.
Kuyov jo'ralar biri qo'yib-biri aytdi
— Oymomo, tong otguncha o'tira beramizmi?
— Oymomo, dugonalaringning gapiga kirma,
ular senga g'ayirlik qilayapti!
— Ay, Norgul, shu buzmakorliging bo'lsa senga
birov ham qaramaydi!
— Uyoqda kuyovto'ra intiq bo'lib qoldi!
Qizlar-da bo'sh kelmadi:
— Intiq bo'lsa bo'lari!
— Qirqiga chidagan kuyov, qirq biriga-da chi-
dar!
— Bir tong otsa otibdi-da, hali yanagi tonglar
bor!
Xayrulla domla oxirgi bor — uchinchi bor vakil
so'radi.
Shunda-da javob bo'lmadi.
Uchdan keyin puch bo'ldi.
Domla tashqari ravona bo'ldi.
— Kelin xohlamayapti, nikohni qoldiramiz, —
dedi.
Shunda, oq parda ichidan:
— Ha... — demish zaif ovoz keldi.
Ovozni barcha eshitdi.
Kuyov jo'ralar keta-keta:
— Tag'in xiyol hayallaganingda kuyovsiz qolib
eding! — dedi.
Kulgi bo'ldi.

16

Bo'lak uyda o'tirmish bo'lak domla oldiga
keldilar.
Birov kelindan so'rab keldi.
Kelin vakilini akasiga berdi.
Kelin akasi domla qoshiga cho'k tushdi.

Kuyov keldi. Qaynog'asi hurmati uchun yuziga belbog' tutdi. Yerga qarab o'tirdi.

Dasturxonda bir chinni kosa suv bilan ikkita tandir non bo'ldi.

Domla bolish uzra kitob ochdi. Qiroatli-qiroatli xutba o'qidi. Xush talqin-xush talqin xutba o'qidi:

— Alhamd-u lillahil-lazi ja'alan. Nikoha fasilam baynal halali valharom kama qolallohu: fankixu ma taba lakum minan-nisai. Va qola Rasulullohi, an-nikah-u sunnati av faman rog'iba an sunnati falaysa minni. An-nikohi rog'ibun val mankuhatu marg'ubatun val mahr-u a'lo ma tarozayo. Aqulu qovli haza va astag'firullohal g'offaro li va lakum. (Halol bilan harom o'rtasida nikohni bino etgan Ollohi taologa hamd-u sanolar bo'lsin. Qur'onda Olloh deydi: o'zingizga yoqqan ayollardan nikohlab olinglar. Payg'ambarimiz hadislarida demishlar: oila qurish mening sunnatim. Kim undan yuz o'girsa, u mendan emas. Kuyov yaxshi ko'ruvchi, kelin yaxshi ko'rilgan, o'rtalaridagi mahr roziliklariga binoandir. Shu so'zimni aytib, o'zim va sizlar uchun Ollohdan kechirim so'rayman.)

Domla kelin akasidan vakil so'radi:

— Sizkim, Esonboy Abdiboy o'g'li, singlingiz Oymomo Abdiboy qizini Qoplanboy Qurbanboy o'g'liga shar'iy xotinlikka berdingizmi?

— Ha, berdim, — dedi aka.

Domla, endi kuyovdan so'radi:

— Sizkim, Qoplanboy Qurbanboy o'g'li, Oymomo Abdiboy qizini o'zingizga shar'iy xotinlikka qabul qildingizmi?

— Qabul qildim.

Domla suvdan bir ho'pladi.

Kuyov-da bir ho'pladi.

Nikoh suvidan kuyov jo'ralar-da ho'pladi.

Domla kuyovlik burchlarini aytdi:

— Olti oy tashlab ketmaslik, achchiq shapaloq urmaslik, yalang oyoq qo'ymaslik, halol yurish-turish... Shu shartlarni qabul qildingizmi?

— Ha, — deya bosh irg'adi kuyov.

- Ha, kifoya emas. Qabul qildim, deb ayting.
- Qabul qildim.
- Barakallo.

17

Nikoh o'qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam yelkasidan igna bilan ip o'tkazib-ip o'tkazib oldi.

Bu, kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin, degani bo'ldi.

Ip uchlarini tugmadi.

Kelin-kuyov taqdir-peshonasi tugilmasin, deya shunday qildi.

Hamisha bug'doyday serob bo'lsin, bola-chaqali bo'lsin deya, kuyov boshi uzra bir hovuch bug'doy sepdi.

18

Kuyov oshnalari bilan chimildiqqa yo'l oldi.

Oyog'ida baland poshnali g'archillama etik bo'ldi. Yelkasida beqasam, belida shoyi belbog' bo'ldi. Boshida qo'qoncha do'ppi bo'ldi.

Chimildiqli uy to'la ayol bo'ldi.

Kuyov ayollar orasidan yurdi. Chimildiqda tik turdi.

Kuyov yolg'iz turmasin deya, oshnalaridan birovi yonida yo'ldosh bo'ldi.

19

Kelin poyandozni bir-bir bosib keldi.

Yuzlarida oppoq harir bo'ldi. Boshida ipak ro'mol bo'ldi.

Egnida beqasam kamzul, atlas ko'ylik bo'ldi. Oyoqlarida kavush bo'ldi.

Kelin peshonasida tillaqosh bo'ldi.

Tillaqosh jimjimador ko'zlari yorug'da yalt-yalt etdi.

Qulqolarida zirak bo'ldi. Ko'kraklarida sakkiz kumush nishonli zehigardon bo'ldi.

Zebigardon feruzalari tovlandi, bodomlari tovlandi.

To'yxonani kiyik o't bilan olqor isi oldi.

Olgor bilan kiyik o't qizlar qulog'ida bo'ldi, ko'kraklarida bo'ldi.

Qizlar kelinga bo'lishdi, bo'zbolalar kuyovga bo'lishdi:

— Ko'zingga qara, ko'zingga qara! — deyishdi.

Emishki, yo kuyov, yo kelin birinchi bo'lib birovi oyog'ini bossa, ana shu ro'zg'orda umr bo'yil o'ktam bo'ladil

Kelin, kuyov oyog'idan ko'z uzmadi. Chapiga qarab yurdi. Chap oyog'i bilan kuyov oyog'ini bosmoqchi bo'ldi.

Kuyov epchillik bilan o'ng oyog'ini tortib oldi.

Kelin oyog'i ko'rpaachani bosib oldi.

Kuyov chaqqonlik qilib, kelin oyog'ini bosdi.

Bo'zbolalar g'olibona qah-qah urdi:

— Kuyov bosdi, kuyov o'ktam! — dedi.

20

Kelin-kuyov yonma-yon turdi.

Bo'zbolalar kelin-kuyov poyida davra qurdi.

Qizlarga hazil-mutoyiba gaplar otdi.

Ko'ngillar ko'ngillarni izladi, ko'zlar ko'zlarni izladi.

Ko'zlar xushtor-xushtor boqdi, g'amzali-g'amzali boqdi.

Ko'zlar o'ynadi, ko'zlar chorladi.

Ko'ngillar entikdi, ko'ngillar orziqdi.

Qaysidir ko'ngil oshiq bo'ldi, qaysidir ko'ngil ma'shuq bo'ldi.

Qaysidir ko'ngilda ko'hna dard qaytalandi.

Qaysidir ko'ngilda dard shu lahzadan boshlandi!

21

Peshonalarda manglaydo'zilar yal-yal bo'ldi.

Solinchaklarda bodomnusxa kumush gajaklar, oynador baldoqlar halqa-halqa bo'ldi.

Ko'kraklarda tumorlar, nozigardonlar, uch qatorli shokilalar, to'rt qator shokilalar, to'rt qator-u besh nishonli marjonlar shoda-shoda bo'ldi.

Boshlarda ottuyoq ro'mol, sholro'mol, balxiro'-mol, qulimiro'mol, shotutro'mol, simro'mol, harir ro'mollar havolandи.

Bodomcha, iroqi do'ppilar, chorgul, baxmaltepa do'ppilar g'uj-g'uj bo'ldi.

Elimiz kamalakni matoga ko'chirdi. Oti atlas bo'ldi.

Ana, atlas onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz egnida tovlandи.

Atlasda o'ziga loyiq rangi bo'ldi, rangiga loyiq nomi bo'ldi: Sakkiztepilik, Marg'ilon xonatiasi, Samarcand oqshomi, Marg'ilon mash'ali, Farg'ona yo'llari, Layli, Guli, Shirin, Mahliqo, Shotikapak, Shodiqara, Qo'chqorshohi, Tiri kamон, Oltin kalit...

Bir yil to'rt fasлar ranglarga mo'l bo'ldi: bahor — gulzor, yoz — oftob, kuz — munis, qish — marmar...

Elimiz fasllarni matoga ko'chirdi: Hamisha bahor, Bog'-u bo'ston, Rayhon, Gul va Navro'z, Gulnamozshom, Bargikaram...

Atlas — elimiz tarixi. Atlasda elimiz kechirmish hayitlari bor, fojialari bor.

Atlas — qo'shiq, elimizning azaliy ham so'ngsiz qo'shig'il

22

It g'irillatar,
Kampir o'ldi,
Soch siypatar,
Qo'l ushlatar bo'ldi.

23

Oyna ko'rsatar baridan-da zavqli bo'ldi, baridan-da gashtli bo'ldil

Kayvoni ayol kelin-kuyovga oyna tutdi.

Kelin-kuyov yuzlarini oynadan olib qochdi.
Kelin qarasa kuyov qaramadi, kuyov qarasa, kelin
qaramadi!

Kayvoni ayol kelin-kuyov boshini yonma-yon
ushladi. Yuzlarini oynaga qaratib turdi.

Bir-birlari bilan aytishmaganlariga-da qo'y-
madi!

Kuyov kelin aksi bilan, kelin kuyov aksi bilan
pichirlashib aytishdi:

— Bizni voyaga yetkazmish ota-onamizga ming
bor qulluqlar bo'lsin.

— Akamiz bilan yangamizga undan-da ko'p.

— Bir-birimizga o'la-o'lgunimizcha sodiq bo'-
laylik.

— Undan keyin-da shunday bo'laylik.

— O'g'il-qizlarimiz...

— Bir etak bo'lsin!

24

Chimildiq tushdi.

Kuyov-qayliq chimildiq ichida qoldi.

Ikkita momo chimildiq sirtida qoldi.

Momolar urchuq yigira-yigira, o'z kechmish-
laridan gapirdi, qayliq bo'lmish davrlardan gapir-
di.

Momolar mijja qoqmadi. Kuyov-qayliqni qo'-
riqlab o'tirdi.

Chimildiqda o'tirmish kuyov qaylig'i qoshiga
bordi.

Qayliq bir chimildiqqa qaradi, bir kuyovga qara-
di. Bu qarashda mana bunday dedi:

•Xolisroq o'tirsin, momolardan uyatdir•.

Kuyov qaylig'iga o'pka-gina bilan tikildi. Bu
tikilish mana bunday dedi:

•Ha, deyish shunchalar mushkulmi? Oshno-
larim sarg'ayib somon bo'ldi•.

Qayliq miyig'ida tabassum balqidi.

•Darrov ha, desak kelin o'lib turgan ekan, dey-
dilar•.

«Chin, men darrov ha, debman. Miq etmay o'tira bersam bo'lardi».

«Indamay tura berish kuyovlar emas, kelinlar rasmi. Aslida, birinchi so'rov-da ha, degimiz bor...»

Momolar chimildiqda kechmisj jimjitlikdan alag'da bo'ldi. Birovi ohista chimildiq burchini turdi. Birovi tirsaklab yotdi. Chimildiq ostidan bir ko'zlab mo'raladi.

— Eb-ey, oralaring muncha olis? — dedi. — Yo, bizdan nam tortayapsizlarmi? Nam tortmanglar, bizda qayliq bo'lib edik...

Momolar chimildiqni yopdi.

Ana shunda, chimildiqdan qiqir-qiqir kulgi keldi...

Momolar og'izlarini ushlab kului, bir-birlarini turtib kului, bir-birlarini o'ymichlab kului...

— Hayriyat-a... — dedi.

Tong tagi oqardi.

Kuyov chimildiqni tark etdi.

25

Qorong'i tushdi.

Odam odamni tanimay qoldi.

Kuyov oshnalarini bilan qayliqlab keldi.

Chimildiqli uyda davra qurdi.

Oshnalar zig'ir moyli palov yeb ketdi.

Kuyov yolg'iz qoldi.

Shunda, qayliq kirib keldi.

Qayliq deraza pardalarini tekisladi. Tokchadagi shamni yoqdi. Chiroqni o'chirdi. Sham bilan chimiildiqqa kirdi.

Kuyov-da sham izidan kirdi. Lo'la bolishga yon-boshladi. Shamga tikildi.

Qayliq ro'moli ko'ksiga tusha berdi-tusha berdi. Shunda qayliq ro'molini yelkasiga qayirib tashladi.

Qayliq-da to'lg'ona-to'lg'ona yonmish shamga termuldi...

•...Tog'lar kulrang, qirlar kulrang bo'ldi. Archalar ko'm-ko'k bo'ldi. Adirlar o'rkach-o'rkach bo'ldi. Tavatoshlar ulkan-ulkan bo'ldi. Yong'oqlar azim-azim bo'ldi.

Bir qiz yelkasida ko'za, buloqqa keldi. Ko'zasi ni yerga qo'ydi. Buloq suvlarida yuzini yuvdi.

Shunda, suv ostida turmish bir otliqqa ko'zi tushdi.

Qiz ro'moli bilan yuzini yashirdi, qiz hayolandi.

— Ko'zlariningni yashirma, Oymomo, — dedi otliq.

— Keting, odamlar ko'radi, keting, — dedi qiz.

— Buloq suvlaridan ichayin deb keldim.

Bo'zbola otdan tushdi. Bir qo'lida jilov bo'ldi.

Hovuchlab-hovuchlab buloq suvi ichdi. Bir hovuchini qizga sepdi.

Ot hurkdi, ketiga tis bo'ldi.

Qiz betlarini artdi.

— Ichgan bo'lsangiz, endi keting.

— Ko'zlariningni bir ko'rayin deb keldim.

— Ko'rishga mening ko'zlarimdan o'zga-da ko'zlar ko'pdir.

— Yo'q, har bandaning o'z ko'radigan ko'zları bo'ladi. Sening ko'zlarining — meniki. Kelma, desang, mayli, kelmayman.

— Ko'zlarni deb kelmasangiz-da, buloq suvi ichgani keling....•

Kuyov-qayliq o'z xayollarini bir-birlaridan yashirdi. Ayni vaqtda bir-birlari nimalarni xayol surayapti, shuni bilmogchi bo'ldi.

— Gapir, — dedi kuyov.

— O'zi gapirsin, — dedi qayliq.

— Sen gapir.

— O'zi gapirsin-da.

— Nimani gapirayin?

— O'zimizning oqshomlardan gapirsin, qirdagi bug'doy o'rimidan gapirsin...

— Sen gapir, qirdan qaytib, zardolilar ostida oyoq ilganimizni, men senga zardoli terib berganimni.

— O'zi gapirsin, qo'llari zardoli shoxlarida bo'lsa-da, ko'zları menda ekanini.

— Sen gapir, shamolda ro'moling uchib ketgani, men ushlab kelganimni.

— O'zi gapirsin, ro'molga uzatgan bilagimdan mahkam ushlaganini, yig'layman desam-da, qo'yib yubormaganini.

Sukunat, toshday sukunat.

Kuyov-qayliq xayolan ko'rdi: zardolilar ostiga tap-tap tushdi. Ko'rshopalaklar pir-pir uchdi.

Kuyov-qayliq xayolan eshitdi: yoz chigirtkalari chir-chir etdi. Boyo'g'li uzib-uzib ovoz berdi.

— Yo'q, sen gapir, qo'llaringni ushlaganimni uyalmay-netmay yangangga aytganiningni.

— O'zi gapirsin, aytdim, deya aldasam-da, yangamdan qochib yurganini.

— Aytmaganing chinmi?

— Chin.

— Men yangangga ro'para bo'lomabman, yuzlariga qanday qarayman, deb.

— Bilsa, haliyam aytganim yo'q.

Kuyov zavqlandi. Shiftga tikilib, sukutga ketdi. Jimjitlik qayliq ko'ngliga tahlika soldi. Qayliq xayoli bir yoqlarga ketdi.

— Nimalarni o'ylayapti? — dedi.

— O'zimizning oqshomlarni.

— Zubaydani-chi?

Qayliq kuyovni jon joyidan ushladi.

Kuyov xayoli uchdi-ketdi.

— Sen unday o'ylarga borma, — dedi kuyov. — Chin, qaraganim chin. Men senga aytsam, qaraydig'an vaqtlar edi-da. Kimga qaragan bo'lsam, seni deb qarab edim. Chin, Zubaydaga qaradim. Yo'q, u sen emas bo'ldi. Bolxinga qaradim. U-da sen emas

bo'ldi. Tag'in birovga qaradim. U-da sen emas bo'ldi. Tag'in birovga qaradim. U, sen o'zing bo'lding...

— Shu chinimi?

— Chinim.

Qayliq iyib ketdi. Qayliq dildorlik berdi, qayliq dilbarlik berdi...

— Unda... men sizga... tan berdim!

28

Kuyov-qayliqlar tongi tez otadi!

Qayliq kuyov quchog'idan qo'zg'oldi. Kuyov uzatmish bebosh qo'llarni rad etib tashladi.

— Bo'ldi! — dedi. — Beboslik qila berdi-qila berdi, tonglar boshiga-da yetdi...

Kuyov-qayliq dahlizda bir-birlari boshidan suv quydi. Gunohlardan forig' bo'ldi.

Kuyov belqars o'ray-o'ray eshik sari yurdi. Eshik baldog'ini ushladi. Serrayib qoldi. Yelkasi osha chimildiqqa qaradi.

Qayliq ro'moli uchini g'ijimlab o'ynadi. Barmoqlariga tikildi.

— Endi kelmasin, yomon ekan, — dedi qayliq.

Kuyov ko'ngli tongday yorishdi. Bordi-yu, qayliq bo'l mish qachon kelasiz, deganida kuyov og'rinar edi.

Kuyov katta ko'cha bo'y lab yurdi.

Kuyov ko'zlariga jamiki olam oppoq bo'lib ko'rindi.

Poyidagi yo'l oppoq choyshabday oppoq. Uylar, devorlar, daraxtlar-da oppoq. Qushlar-da oppoq, choyshabdayin oppoq. Ko'cha yoqalab oqmish suvda oppoq. Suv jildirashi-da oppoq, choyshabdayin oppoq.

Tong yetildi.

Yulduzlar so'ndi-so'ndi, Zuhro yolg'iz qoldi.

Kuyov quchoq ochdi — tongni bag'rige bosdi.

Tong bepoyon osmoni, qorga belanmish tog'lari

bilan, parishon adirlari, sarvqomat teraklari bilan
kuyov qo'yniga kirdi.

Kuyov kaft ochdi. Havoda to'zg'imish tong
sochlarini — tong yellarini siladi.

Kuyov tongni o'pib-o'pib oldi!

Ariq yoqalab chopdi.

Balx tut tanasini quchoqladi. Balx tut shox-
chalarini — sochlarini siladi, sochlarini taradi.

Tag'in chopib ketdi.

Ro'parasidan odam keldi.

Kuyov odamzotni ilk bor ko'rmish misol tikildi.

Bu odam itidan-da yomon ko'rmish Ismat ovchi
bo'ldi.

Ushbu damda Ismat ovchi-da binoyiday odam
bo'ldi.

Olamda yomon yo'q, barcha-barcha yaxshi
bo'ldi.

Kuyov umrida birinchi bor Ismat ovchiga salom
berdi.

Hamishagiday salom umidlanmay o'tmish Ismat
ovchi xiyol o'tib oyoq ildi. Hayron bo'lib alik oldi.
Ketga qaradi-qaradi.

— Tarvuzing yorilibdi-da... — deya manqalandi.

Bir ayol kela berdi.

Kuyov joyida qoldi. Qadam bosarini-da bilmadi,
bosmasini-da bilmadi. Yuzlari lov-lov yondi.

Ayol kelayapti...

Endi, ayol zoti ko'ziga qaysi yuz bilan ko'rinda?
Ko'rinsa, ayol zoti yuziga qaysi ko'z bilan
qaraydi?

Kuyov ayoldan yo'lini chap soldi.

Qurban hayit bo'ldi.

Ahli mo'minlar qurbanlik qildi. Jonliq so'yib
qon chiqardi.

Qo'li kalta mo'minlar qassobdan go'sht oldi.

Ahli mo'minlar hayitlik kiydi. Bisotida borlar

ohorli kiyim kiyidi. Bisotida yo'qlar ko'hna bo'lsa-da, ozoda kiyim kiyidi.

Ahli mo'minlar orolandi. Yuzlariga xushbo'y-xushbo'y moylar surtdi. Qoshlariga o'sma tortdi. Ko'zlariga surma surdi. Qo'llariga xino qo'ydi. Ko'kraklariga olqor taqdi.

Mo'minlar bir-birlari uyiga hayitlab bordi.

— Hayitingiz qulluq bo'lzin! — deya muborak-bod etdi.

Kuyov qaylig'iga hayitlik yubordi, qayliq kuyoviga hayitlik yubordi.

Qoplon kuyov tarafdan bir farangi ro'mol, bir juft kavush, uzuk hamda turli-tuman qand-qurs keldi.

Oymomo qayliq tarafdan ko'yak, jelak, belqars hamda qo'iro'mol hayitlik keldi.

Bari qayliq qo'lidan bo'ldi.

Buni ro'molcha qoq belida qip-qizil cho'g'dayin tovlanmish atirguldan bildik.

Atirgul qayliq kuyovga ro'molcha emas, ko'ngil yubormish ramzi bo'ldi.

Kuyov ro'molchani yuzlariga bosib-bosib hid-ladi.

Ro'molchadan... ro'molchadan qaylig'i havosini oldi.

Ro'molchani ko'zlariga surtib o'pdi, peshonasi-ga surtib o'pdi, lablariga surtib o'pdi.

O'pdi-o'pdi, to'rt buklab qo'yniga tiqdi.

30

Hayitda ulkan hovuz bo'yida jiynoq bo'ldi.

Jiynoqda nisholda, no'xat sotdi, holva, pista sotdi.

Bolalar loyshuvillak chaldi, sibziq chaldi.

Qizlar katta tut ostida g'uj bo'ldi.

Sardor qiz jikkak bolaga bir o'ram arqon berdi.

Bola yalang oyoq bo'ldi. Beliga arqon o'radi.

Yo'g'on tutga tirmashib chiqdi.

— Qaysi shoxga tashlayin? — so'radi bola.

— Huv anavi bukri shoxga! — dedi sardor qiz.
Bola ana shu shoxga chiqib bordi. Belidagi arqonni shoxga tashladi. Arqon uchlari yerga borib tegdi.

Shox bilan yer oralig'i yigirma qulochcha bo'ldi.
Bola shu arqondan yerga osilib tushdi.

Yerda kaftini qoshiga qo'yib qaramish qizlar ichini tortdi.

Sardor qiz bolani bir mushtladi.

— O'l-a, yuragimni yording-ku! — dedi.
Bola yer sapchidi, hiringlab kuldi.

— Urmang, bo'lmasa Nurali akamga ayta-man! — dedi.

— Nuraling kim?

— Sizni achchiq zardoli ostida quchoqlab o'padigan Nuralil!

— O'chir-e, ko'rgililing ko'p bo'lgur!
Qizlar gurr kuldi!

Sardor qiz arqon uchlarni tugdi.

Halinchakka bir qiz o'tirdi.

Sardor qizni uyoqdan-buyoqqa olib borib-olib keldi. Keyin zarb bilan qo'yib yubordi.

Qiz halinchak uchishiga qarab goh o'tirdi, goh turdi.

Qiz yellandi, qiz sollandil! Qiz sur'atini oshirgan sayin oshirdil!

Tevarak tomlarda holva yeb o'tirmish hayit-lovchilar halinchak tomosha etdi.

Shunda, Oymomo halinchakladi.

O'ziga qaradi. Ottuyoq ro'molini bo'yniga o'radi.

Sollanib-sollanib bir uchdi-bir uchdi-e! Gir aylanib ketayin dedi!

Halinchak quyidan yuqoriladi.

Oymomo o'tirib oldi.

Halinchak o'ng tarafga ko'tarilib bordi. Joyida muallaq qoldi. Keyin, birdan quyiladi.

Oymomom oyog'ida tik turdi.

Halinchak Oymomo vazni zARBIDA shiddat bilan quyiladi. Quyidan chap tarafga yuqoriladi.

Halinchak bir chap sayin-bir o'ng sayin yuqorilab-yuqorilab turdi.

Hayitlovchilar bosh kiyimlarini ushlab halinchak qaradi.

Shunday bo'lsa-da, do'ppisi tushib ketuvchilar-da bo'ldi, ro'moli uchib ketuvchilar-da bo'ldi.

Qoplon yuragini hovuchladi.

— Yo, pirim-e, yo, pirim-e, — deya pichirladi.

Og'zidagi holva og'zida qoldi, bo'g'zidagi holva bo'g'zida qoldi.

Halinchak ohistaladi.

Oymomom o'zini yerga tashladi. Zarb bilan chopqillab bordi. Bir qizni quchoqlab oldi.

Ana shunda Qoplon yelkasidan nafas oldi. Bo'g'zidagi holvani yutdi, og'zidagi holvani chaynadi.

31

Kechasi qayliq o'yinida bo'ldi.

Qayliqdan qoyilligini yashirmadi.

— Yuragingga balli-e! — dedi. —

Aeroplandalayin uchding-al Senga qarab, mening boshim aylanib ketdil

— Uchib qolayin, bir-ikki oydan keyin uchish sayoqda...

— Nimaga unday deysan?

Qayliq javob o'rnida kuyov qo'lini ushladi, barmoqlarini tortqiladi.

Kuyov darhol anglab oldi.

— Ha-a-a... — deya kulimsidi.

Qaylig'i yuzini bag'riga bosdi. Sochlarini siladi.

Dilnavozlik qildi...

— Otini nima qo'yamiz? — dedi.

— Barchinoy.

— Sen hali...

— Qiz yaxshi-da. Menga yordamchi bo'ladi.

— Yo'q, o'g'il bo'lsin. Otini-da o'ylab qo'yibman: Xushvaqt!

— Keyin?

— Keyin, Xushvaqt ni katta qilamiz. Uylan-tiramiz-joylantiramiz, nevara-chevara ko'ramiz. Men bova bo'laman, sen momo bo'lasan.

Qayliq zavqlanib-zavqlanib kuldii.

— Men bu kishini bovasi deb chaqiraman.

— Men seni momosi deb chaqiraman.

— Bovasi!

— Momosi!

Kuyov-qayliq Xushvaqt yo'lida entika-entika tongni oqladi.

32

Tandir to'la nonlar yopildi.

Kelin bisotlari, yuk-yoplari otlarga ortildi.

Oy to'yxona uzra havolandi.

Supa oldida saman ot bel bo'ldi.

O'ng yoq hamsoya saman jilovini ushlab turdi.

Yanga bo'l mish kelin oyog'idan olib yubordi.

Kelin otlandi.

Kelin bilan bir begunoh bola mingashib boradi.

Bu sharaf xiyla talash bo'ldi.

Og'ayni-jamoadan besh-olti bola:

— Xolam bilan men mingashaman, opam bilan men mingashaman! — deya turib oldi.

Kelinga to'ng'ich jiyanni mingashdi. O'zga bolalar yig'lab qoldi.

Og'ayni-jamoa hovli yuziga chiqdi. Yoppasiga oq fotiha berdi.

Kelin o'ng taraf hamsoyasi ot yetakladi.

Yon qo'shnim — jon qo'shnim bo'ldi.

Ot ostonadan hatladi.

Kelin uzatildi.

Kelin yig'i boshladidi:

— Uvv-uvvv-uvvv...

Yig'ini o'z uyi — o'lan to'shagini tark etajagidan, xesh-aqrabolaridan olislab ketajagidan desakda bo'ladi.

Mo'lt-mo'lt qarab turmish, sel-sebora yig'lab turmush jiyanlari ko'ngli uchun desak-da bo'ladi.

Yo, akasi bilan yangasi bizdan qutulish uchun zormanda ekan, demasin degan andishada yig'laydimi?

Shunday desak-da bo'ladi.

Yo, kuyovi uyiga borajagi quvonchidan, xushvaqtligidan yig'laydimi? Ayniqsa, shunday desak bo'ladi!

Jiyani belidan qo'shqo'llab quchoqlab olmish kelin eshitilar-eshitilmas yig'lab bordi:

— Uvvv-uvvv-uvvv...

Saman terib-terib qadamladi: tik-tik tik...

Hovlilarda itlar hurdi.

Chap taraf chor bog'dan loviyaqovun isi keldi.

To'ylovchilar chor bog' tarafga qaradi. To'yib-to'yib iskadi.

33

Ko'priksda soyalar qora berdi. Ikkita bo'zhola ko'priksda tayog' tutib turdi.

Tayoqni olmasdan ko'priksdan o'tib bo'lindi.

Bo'zbolalalar kelin tarafdan talab qildi:

— Kuyov... beringlar!

Kelin taraf sukut saqladi.

Bo'zbolalalar o'z so'zida turdi:

— Unda, yo'l yo'q.

Ot yetaklovchi qo'ynidan kelin tik mish ro'molardan oldi. Bo'zbolalarga birovdan berdi.

Tayoq olindi, kelin yo'li ochildi.

34

Kuyov uyiga yetib keldilar.

Bolalar kelinga peshvoz chopdi.

— Yashasin, kelin keldi! — deya qiyqirdi.

Darvoza oldida gulxan yoqildi.

Kelin gulxandan uch marta aylandi.

Oqlik uchun, hamisha oqko'ngil bo'lib yurishi-
lari uchun kelin-qudalar yuziga un sepildi.

Yuzlarini ro'moli bilan yashirgan yashirib qoldi, yashirolmagan oppoq un bo'ldi.

Saman qora o'tov oldida oyoq ildi.

Kuyov qayliqni otdan tushiraman dedi. Quchog'ini lang ochdi.

Qayliq kuyov qo'llarini surib tashladi. O'zicha rad etgan bo'ldi.

Qayliq baribir shu quchoqdan tushdil!

Qarindoshlari bilan dugonalari kelin girdini olib turdi.

Kayvoni momo kelinni ro'moli burchidan ichkari yetakladi. Kelin boshini ostonaga egdi.

— Mana shu ostonaga bi-i-ir ta'zim! — dedi momo.

Kelin ostonaga o'xshatib bir ta'zim qildi.

Tag'in bir ta'zimlab, ostonani tavof qildi.

Kayvoni momo kelinni ta'zimlatib-ta'zimlatib ichkarilay berdi.

— Bizni yaratmis Odam Otamizga bir ta'zim!

— Bizni bino etmis Momo Havomizga bir ta'zim!

— Pastroq egil, u kishi ko'p ulug' edi!

— Ha, bo'yginangdan momoginang aylansin-dal Qani, yura ber!

Kelin chimildiqda tik turdi.

Chimildiq bog'ichida o'n sakkiz xil kelinlik kiyimi terildi. Devorlarda oynaxaltalar, choyxaltalar bo'ldi, zardevorlar, so'zanalar bo'ldi.

So'zanalarda «Xush kelibsiz» demish kashtali so'zlar bo'ldi.

Bir so'zanada atirgul ramzi bo'ldi, bir so'zana-da qizil olma ramzi bo'ldi.

Tag'in bir so'zanada og'zida qizil gul tishlab parvozlanmish kaptar bo'ldi.

Kaptar ostida «O» harfi kashtalandi. Kaptar intilmish manzil tarafda «Q» harfi kashtalandi. «O» — Oymomom bo'ldi, «Q» — Qoplon bo'ldi.

Bari kelin ishi bo'ldi!

Kayvoni momo kelinni to'ylovchilarga salom berdira berdi:

*Soydan ho'kiz suvlatgan
Do'mbirasini kuylatgan.
O'g'illarini uylatgan —
Qaynotamga salom!*

*Osmondag'i yulduzday.
Qoshi qora qunduzday,
Dili oydin kunduzday —
Qaynonamga salom!*

Baytlar kayvonidan bo'la berdi, ta'zimlar kelin-dan bo'la berdi:

*Qozonlarning qopqog'i,
Ayollarning oppog'i,
Misli olma yanog'i —
Gulsun opamga salom!*

*G'ijim ro'mol o'ragan,
Burilib oyga qaragan
Sochin silliq taragan —
Sanam xolamga salom!*

*Bog'da uzum g'o'rasi,
Kuyovbekning jo'rasi,
Norguloyning ta'rasi —
Bahrom akamga salom!*

— Kayvoni momo, hamsoyasi Suvon daroz, men qolib ketdim, deb o'pkalayapti.

— Unda, eshitsin:

*Tegirmonning noviday,
Adras to'nning bog'iday —
Daroz akamga salom!*

Norboy cho'pon o'rnidan turib ketdi.

— Ay, momo, kelin nimaga menga salom ber-maydi? — dedi.

— Salom berganim bo'lsin. Eshiting:

*Qopga tiqqan poxolday,
Indan chiqqan shoqolday,
Cho'pon akamga salom!*

Bo'ldi kulgil!

— Hay ukkag'arning momosi-yo, bekor o'pkalabman-al

Kelin keldisi yaxshi, to'y bo'ldisi yaxshil

36

Kelinlar tong saharlab turadi!

Kelin ayollar hamrohligida eshikni ochdi, tuy-nukni ochdi.

Shu xonadonga sodiq bo'lish ramzida it yalo-g'iga ovqat qo'ydi.

Idish-toboqlarga bir-bir ko'z soldi.

Porillab yonmish olovga moy tomizdi.

Bu baxtli bo'lish ramzi bo'ldi.

Nevara-chevarali bo'lib yurayin deya qo'liga go'dak oldi.

Barcha palov yedi.

Kelin bo'lsa, qo'lini-da uzatmadni.

Shunda, kelin osh yemadi, bo'ldi.

Kuyov tog'asi kelin osh yeyishi uchun bir jo'ra sakkiztepkilik atlas aytdi. Ammasi qo'qoncha shoyi aytdi.

— Aytadiganlar og'ziga qarab aytsin! — dedi bir momo.

Chin, aytuvchilar aytmishini kelinchaqiriqda kiygizadi.

Oxirgi kelin osh yemadini qaynonasi aytdi:

— Mana shu uy-joy turish-turmishi bilan seniki!

— Ana bo'lmasa! — dedi barcha.

Ana shundagina kelin palovga qo'l uzatdi.

Yuz ochar bo'ldi.

Kelinlar yuzini ochish begunoh norasidalar ishidir.

Shu bois, momolar to'rt-besh yashar kuyov ukani gjij-gijladi.

Kuyov uka chopqillab bordi. Yangasi yuzidagi
ro'molni tortib yubordi.

Kelin yuz ochdi.

37

To'ylovchi ketdi, to'yxona qoldi.

Kuyov bilan qayliq qoldi.

Ota-onu kuyov-qayliq uchun bo'lak hovli solib
berdi.

II

*Momomiz shundaygina bobomiz qabatlarida
o'tiribdilar.*

*Doka ro'mollari uchlari yellarda hilpiradi-hilpi-
radi, bobomiz yuzlarini siladi.*

*Bobomiz huzurlandilar, bobomiz g'ashlandilar.
Kipriklarini pirpiratdilar, yonoqlari, lablarini
uchirdilar.*

*Doka ro'mol momomiz sochlariday oppoq bo'ldi,
mayin bo'ldi.*

*Ohista-ohista esmish yoz yellari tanga huzur
berdi.*

Yellar salqin bo'ldi, yellar sokin bo'ldi.

Yoz yellaridan yer isi keldi.

*— Bu yil pishiqchilik yaxshi keldi, momosi.
Mevalar mo'l...*

1

Qoplon oyog'ida og'riq turdi.

Iliklarda bir nimalar g'imirlab yurdi. Iliklari
qizidi, iliklari zirqiradi.

Qoplon chalqanchadan yonbosh bo'ldi. Ayoli
tarafga o'girildi.

— Havo sevalab o'tadi, momosi, — dedi.

— Bu kishi qayerdan biladi? — dedi ayoli.

Qoplon oyog'ini aytmadı.

— Bilaman-da, — dedi. — Ko'rshapalaklar
inlaridan uchib chiqmasa, havo ayniydi. Bugun
oqshom ko'rshapalaklar uchmab edi.

34

Og'riq zo'raydi. To'piqlari, bebilchaklari ichi zirqiradi.

Qoplon tashqarilab keldi.

— Aytdim-ku, momosi, — dedi. — Oy o'z gir-dida o'rov tortibdi. Yog'adi, bosib yog'adi.

Chin, yarim tunda yomg'ir ovoz berdi. Yomg'ir to'ntariqli tog'oralarni chaldi, derazalarni chertdi.

Qoplon yotib yotolmadi. Ayvonlab, hovli chirog'ini yoqdi.

Tarnovdan tushmish yomg'ir ko'lma klandi. Ko'lma kka tomchilami yomg'ir chuldiradi.

Hovli burchida mushuk ko'zlarini yiltiradi. O'tlar orasidan qurbaqa sapchib keldi.

Qoplon dimog'i yomg'ir isini tuydi.

Havo ertasi tushda tindi.

Kun yaraqlab ketdi.

Oymomo ko'rpa-to'shaklarni shamollatish uchun hovlidagi simga osdi. Derazalarni lang ochdi.

Oftobro'yaga to'shak tashladi. Dasturxon yoydi.

Qoplon ta'tillandi. Keyin, yonboshladi. Telpagini qoshiga surdi. Ko'zlarini yumdi. O'zini oftoba ga toblab yotdi.

Oymomo oftobiyorda tikish tikdi.

Hovli yuzida makiyon tovuq donladi. Makiyon viqor bilan qadamladi, vazmin-vazmin qadamladi.

— Qurq-qurq-qurq! — deya, ovoziga hamohang qadamladi...

Makiyon ketida olam-jahon jo'ja odimladi. Jo'jalar yum-yumaloq bo'ldi. Limonday-limonday bo'ldi. Sariq-sariq bo'ldi.

— Chiyov-chiyov-chiyov! — deya pildiradi.

Chin, jo'jalar pildir-pildir etdi. Misoli dumaladi!

— Chiyov-chiyov-chiyov! — deya dumaladi.

Shu vaqt hovli uzra bir soya aylandi.

Qoplon ko'zi yumuqligidan ko'rmadi.

Oymomo ko'zlarini qisib qaradi. Nimaligini bilmadi.

G'ojir hovli uzra davra oldi. Favqulodda yerga yulduzday uchdi. Qanotlarini yoyib keldi. Bir

jo‘jani panjalari orasiga oldi. Tag‘in o‘qday yuqoriladi.

Oymomo ana shunda nima gapligini tushundi.
Joyidan sapchib turdi. Qo‘l siltab zug‘um qildi:

— Kish deyman-a, kish, qiyomat qotgur! — dedi.

G‘ojir terak bo‘yi ko‘tarildi.

Panjalarida bormish jo‘ja chiyillab-chiyillab
qo‘ya berdi.

Makiyon falakka sapchib qoqoqladi, jo‘jasiga
talpinib qoqoqladi.

Qoqoqladi-qoqoqladi, shahd bilan tomlab uchdi.
Chiy-chiy-chiy etmish jo‘jasiga talpindi.

Tomdan g‘o‘zapoya g‘aramiga uchdi. Chiy-chiy-chiy,
deya olamlamish jo‘jasiga talpindi.

G‘aramidan simyog‘ochga uchdi. Ammo simyo
g‘och uchiga yetolmadi. Pirr etib yerga uchib
tushdi.

Bo‘ynini cho‘zib-cho‘zib, falakka qaradi. Jo‘jas
chiy-chiy-chiy deya, tobora olislab bordi.

Ana shunda makiyon jo‘jasidan umrbod judo
bo‘lajagini bildi.

Jonholatda Oymomo bekasini aylanib qoqoqladi.
Bolamni olib ketdi, dedi. Oh urib qoqoqladi.

Oymomo bekasidan madad so‘radi. Bolaginamni
olib ketdi, dedi. Faryod urib qoqoladi.

Bolasi olisladidi. Ovozi elas-elas eshitildi.

Makiyon qoqoqladi-qoqladi, taqdirga tan berdi.

Omon qolmish bolalarini ergashtirdi. Katagiga
yo‘l oldi. Bo‘ynini ichiga tortdi. Ko‘zlarini yumdi.

Makiyon, nopayid bo‘lmish bolasi azasini tutdi.

Oymomo makiyon izidan bordi. Katakkqa qarab-
qarab keldi.

— Bola bola-da, — dedi. — Bo‘lmasa, qolgan
o‘n beshta bolasi kamlik qiladimi...

Qoplon ma‘yus bosh irg‘adi.

— Xudo shuni-da ko‘p ko‘rdi, — dedi.

G‘ojir olislamish yoqqa qaradi. O‘zicha fotiha
o‘qidi. Dasturxon uchun o‘qidimi, yo, nopayid
bo‘lmish jo‘ja uchun o‘qidimi, bilib bo‘lmadi.

— Xudo shuni-da qiymadi, — dedi.

Ma'yusdan-ma'yuslandi. Ma'yus bosh egdi, ma'yus xayollandi...

— Nima, biron joyi og'riyaptimi? — dedi Oymomo.

Qoplon ayoliga termildi. Termildi-termildi, siniq ovozda dedi:

— Bilmayman, momosi, bilmayman. Ko'nglimda bir nima yuribdi. Panjalarini botirib-botirib yuradi. Avvallari ahyon-ahyonda yurar edi. Endi bo'lsa na kechani kanda qiladi, na kunduzni kanda qiladi. Ko'nglimni tirnab-tirnab yuradi. Qo'limni suqub, olib tashlayin deyman, bo'lmaydi, bo'lmaydi..

Oymomo so'raganlariga pushaymon bo'ldi. Nafasi ichiga tushib ketdi. Qilt etib yutindi.

Qoplon tag'in ayoliga termildi. Endigi termilishda mana bunday dedi:

«Xo'sh, endi nima qilamiz, momosi?»

Oymomo dasturxonidan ko'z olmadi. Xiyol titramish barmoqlari dasturxon gullarini siladi.

Toshdan-da og'ir sukunat bo'ldi, azadan-da qayg'uli sukunat bo'ldil!

Bolali uy xandon bo'ldi, bolasiz uy zindon bo'ldil!

Oymomo ko'z qirida Qoplonga qaradi. Kipriklari pirpiradi. Ko'z qirini olib qochdi.

Ko'z qiri mana bunday dedi:

«Bilmasam, bovasi, men bilmasam...».

Qoplon etigini kiydi. Qoziqdan qamchini oldi.

Shunda, yelkalari bir ko'tarilib tushdi.

— U-u-uh! — dedi.

Qamchi o'rimi bilan etigi qo'njini qamchiladi, Og'ir-og'ir odimladi. Zinadan pastladi.

Shunda, ichkaridan:

— U-u-uf! — demish oh keldi.

Ayoli!

Qoplon ishiga otlandi.

Uyiga oqshomda qaytib keldi.

— Otasi aytib ketdi, — dedi ayoli.

Otdan tushmasdan otasinikiga yo'l oldi.

Borsa, ota-onasi bilan o'zlarining sovchisi bo'l-mish o'tiribdi.

Qoplon ota-onasidan eshitmaganlarini eshitdi.

— Tokaygacha shunday yura berasan? Javobini ber-da, qo'y! — deya qo'l silkidi otasi.

Onasi ro'moli burchi bilan og'zini ushladi. Yig'lamsiragan bo'ldi.

— Uf-f, kunma-kun oyoqdan qolayapman.

Nevara ko'rolmay o'tib ketamanmi endi... — dedi.

— Nevarangiz ko'p-ku, ena... — deya ming'illa-di Qoplon.

— Har bir gulning o'z hidi bo'ladi. Boshqa nevaralarimning yo'rig'i boshqa, sendan ko'radi-gan nevaralarimnnig yo'rig'i boshqa.

— Sen qatorilar bolali bo'ldi, — dedi otasi.

— O'g'li bornnig o'zi bor, qizi bornnig izi bor.

— Umr o'tayapti. Bo'laringda bo'lib o't, bo'z yo'rg'aday yelib o't.

Qoplon najot istadi, sovchiga qaradi.

Sovchi bu qarashni uqdi.

— Xohlasang, ajral, — dedi sovchi. — O'zim qo'shib edim, o'zim ajrataman. Keyin, ukkag'ar-ning sovchisi umrimga zavol bo'ldi, deya o'pkalanib yurma.

— Mayli, bir o'ylab ko'rayin, — deya qo'zg'aldi Qoplon.

Tokaygacha odamlar qoboq-tumshug'iga qarab kun ko'radi?

Yo shunday o'tib keta beradimi? Umri oxiri-gacha-ya?

Og'ziga yetgan bor, yetmagan bor. Bir kun

**emas-bir kun, birov bilan gapi chap tushadi.
Yuziga aytadi...**

Shunda nima degan odam bo'ladi?

Ko'za kunda sinmaydi, kunida sinadil

Mana, necha yilkim, mung'ayib kun ko'radi.

El-yurt bilan muloqot qilsa, gap ketishiga qarab turadi. Birov bir bema'ni gap gapisra:

— Sizniki ma'qul, — deya bosh irg'aydi.

Bordi-yu, shu gapni boshqa birov inkor etsa:

— Sizniki-da ma'qul, — deydi.

Inkor etmaydi, e'tiroz-da bildirmaydi.

Hayot ketishi, kun o'tishini poylaydi.

Tokaygacha?

Tog' yo'lida yurmish otliq ko'nglidan ana shular o'tdi.

Yo'l yoqalarida adirlar bo'ldi. Adirlar ot tuyoq tovushlari aks sadosini berdi.

Soyda tog' suvi toshdan-toshga urila-urila oqdi, ko'piklana-ko'piklana oqdi.

Osmono'par tog' bag'oyat ko'rakam bo'ldi, tarovatli bo'ldi.

Otliq shu toqqa tikilib bordi, xayollanib bordi.

Sho'ro kotibi qorovullikka olaman, dedi, Albatta, gap-so'zsiz olmaydi. O'zi, qolabersa, boshqalari so'rab-surishtiradi. Nimaga qo'lltig'in-giz ostidagi ishni tashladitingiz, ko'p yillar yonmay-yon ishlagan odamlarga qo'l siltadingiz, demaydimi? Yo'l olis bo'lsa, yana tag'in to'qson so'mlik qorovullik bo'lsa, nimasiga orzumand bo'lasiz, demaydimi? Olisdagi palovdan yaqindagi sho'rva yaxshi demaydimi?

Shunda, nima deydi? Befarzand bo'ldim, eldan tilim qisiq bo'ldi, shu bois, eldan xolisroqda yurayin, deydimi? Minba'd! Indamay tura beradi. Baribir ishga oladi. O'zi aytdi, sadqai suxaniningiz, dedi...

Otliq otini darvoza ustuniga qantardi.

Hovliga kirdi, zinadan ko'tarildi, tor yo'lakdan ichkariladi.

Shunda, nordon-nordon gapirmish kotib ovozini eshitdi. Eshik ketida oyoq ildi. Devorga yag'rin berdi.

Kotib kuyundi:

— Qachon jilovlab qo'yiladi bu ig'vegar, g'a-lamislardan? Qachon bartaraf bo'ladi, bu anonim-chilar-dan? Avval soliq masalasi edi, endi bu! Rahmat, muxbir aka, haqiqatni tiklagani kelibsiz. Umid qilamanki, hujjatlarimizni ko'rib chiqib, o'sha fisq-u fasodchilarning yozganiga yana qaytib ishonmaysiz!

Begona ovoz so'radi:

— Xolliyev Jo'ra!

Kotib javob berdi:

— Bor, Vaxshivorda yashaydi!

— Saidov Olim!

— Bor, Zardaqluda istiqomat qiladi!

— Karimov Xolbek!

— Hayot! Lo'kkada qarilik gashtini surib yuribdi!

— Iltimos, shu odamni bir chaqiring. Bir gurunglashaylik.

— Endi, muxbir aka, Lo'kka olis, ha, olis! Buyog'i, Lo'kkasoydan sel chiqqan! Ot o'tolmaydi!

— Xo'p, To'rayeva Mengsulton!

— Bor!

— Qayerda?

— Xo'jasoatdal! Qarilik nafaqasini o'z vaqtida olib turadi!

— Xo'-o'p. Islomov Bo'riboy!

— H-e, bu anavi chinorlik dala qorovuli! Kuni dalada o'tadi! Bo'ri akani ertalab bekatda ko'rib edim! Yo'l bo'lsin, desam, Denov borayapman, nos tamom bo'ldi, deb edi!

Qoplon ko'zlarini bir yumib ochdi. Oyoq uchida

tashqariladi, tag'in otlandi. Jilovni qo'yib yubordi.
Ot o'z ixtiyorida qadamladi.

Qoplon egar qoshiga tikilib bordi-bordi-da, bir-dan boshini ko'tardi. Shunda, qo'lida jilov yo'qligini bildi. Uzalib, ot boshigacha surilib bormish jilovni tortib oldi.

Ot seskandi, old oyoqlarini xiyol ko'tardi,
yo'lga bel bo'ldi.

Qoplon otni chapdag'i echki so'qmoqdan soldi.

Soyda satil ko'tarib yurmish ayollar oldidan
o'tdi. Adirlab, otiga qamchi bosdi.

Ot g'arq terga botdi, og'ir-og'ir nafas oldi.

Qoplon adir narigi betida otdan tushdi. Ot arqonini toshga o'radi.

Maydarоq bir toshga cho'nqayib o'tirdi.
Tizzalarini quchoqladi. Peshonasini bilaklariga
qo'ydida... ho'ngrab yig'lab yubordi!

U yig'ladi... inson, o'g'ri bo'l, g'ar bo'l, evi
bilan bo'l-da. Shundan ko'ra o'lganining yaxshi
emasmi. Imon qani, odam degan noming qani,
inson... deya yig'ladi.

U yig'ladi... inson, senga pul kerak, inson. Pul
deganlari bir qog'oz-ku, inson. Qog'ozni deb shun-chalikka boardingmi, inson... deya yig'ladi.

Ot quloqlarini dikkaytirib-dikkaytirib xo'jasiga
qaradi.

Qoplon yig'lay berdi-yig'lay berdi. Qizimish
badani sovidi, to'l mish o'pkasi bo'shadi.

Otni xiyol yo'lgacha yetaklab bordi. Ko'zlarini
jelagi o'ngiri bilan artdi. Xo'rsina-xo'rsina, otlan-di.
Chayqala-chayqala, yoqasiga tufladi.

Muxbir so'ramish, kotib aytmish o'sha bandai
mo'minlar ko'z o'ngidan bir-bir o'tdi: Xolliyev,
Saidov, To'raeva...

Bu bandayi mo'minlar... bu bandayi mo'minlar
bundan besh-olti yil muqaddam... rahmatlik bo'lib
edi...

5

Shu-shu, Qoplon kotib yuzini ko'rmadi. Ko'rishi-ni-da xohlamadi.

Kotibni esladi — seskandi, eti jimirladi. Kotibni esladi — bosh chayqadi, yoqasiga tufladi.

Ko'rmish-kechirmishlarini elga joriy etmoqchida bo'lди. Yana tag'in shashtidan qaytdi.

• Ismat mirob Mamat bilan tegirmonda navbat talashib qolib, bechorani qandayin xo'rladi? — dedi. — Yigirma yildan beri ayolingni tug'dirolmaysan-da, yana tag'in o'zingni erkak sanaysan, dedi. Bundayin gapni eshitgandan ko'ra... o'lgan yaxshil Mabodo ko'rgan-bilganlarimni aytib qo'y-sam, kotib eshitib qoladi. Keyin, el oldida haligidayin gaplarni yuzimga soladi. Undaylardan kela-di, ha. Yaxshisi, hali-hozir tilimni tiyganim ma'qul bo'ladi. Xushvaqt o'g'limiz dunyoga kelsin, unday-chikinlar bilan qanday gaplashishni o'zim bila-man!..»

6

Ota-onasi tag'in chaqirtirdi.

— Uyimizdan ilon chiqqanmi? — piching qildi otasi.

— Yo'q, nima edi? — talmovsiradi bolasi.

— Bo'lmasa nimaga qorangni ko'rsatmaysan?

— Bizning gapimiz nima bo'lди?

— Yelib-yuguryapmiz, berib qolar... — deya ming'illadi Qoplon.

— Bersa, shu vaqtgacha berardi-da.

— Ayolingning gapiga kirma! Ayoling aldab yura beradi.

— Ayoling bugun u deydi, ertaga bu deydi...

— O'zi-ku, pushti kuyib ketibdi ekan...

— Endi, seni-da so'qqabosh o'tkazadimi?..

— Nafaslariningizni issiq qilingizlar...

— Nafasimizni issiq qilmay, nima qilyapmiz?

— Qozon to'la osh bo'lsin, yostiq to'la bosh bo'lsin, deyapmiz!

**Qoplon miq etmay qo'zg'oldi.
Ota-onasi ketidan qarab-qarab qoldi.**

7

Qish qaridi.

Yerdan ko'klam hidi keldi.

Brigadir Qoplomni tok kesish uchun aytdi.

Qoplon ro'molga non bilan mayiz tugdi. Tugunni xurjunning o'ng ko'ziga soldi. Chap ko'ziga tokqaychilarni soldi.

Dalaga yo'l oldi.

Otini ariq bo'yiga arqonladi.

Xurjunni yelkasiga tashladi. Yoyilib tok kes-mish odamlarga qarab yurdi.

Hormang, bor bo'ling, qildi.

Tushlik tugunni olma shoxiga ildi.

O'ngirlarini chappa qayirib, belbog'iga qistirdi.

Jo'yak boshida tok kesib boshladi. Novda to'rtinchi bo'g'inidan qaychi soldi. Omon qolmish novda uchini yerga qadab qo'ydi.

Galdagi tok qo'shtana bo'lди. Har tanada to'rt-beshtadan novda bo'lди. Bu novdalar uchini kesib, shunday qoldirib bo'lmaydi. Boisi, bir tokka ko'plik qiladi. Oqibat, uzumi mayda-mayda bo'ladi.

Shu bois, Qoplon tok birovini ayrisidan cho'rt kesib tashladi.

Tanada bitta tok qoldi.

Endi, cho'rt kesib tashlanmish tok kuch-quvvati-da ana shu omon qolmish tokka o'tadi. Bir tokda ikkita tok quvvati bo'ladi.

Ana endi novdalarni uzun-uzun qoldirsa-da bo'ladi. Shig'il-shig'il uzum tugadi.

Shu bois, Qoplon, omon qolmish tok novdalarini to'rtinchi bo'g'indan emas, oltinchi bo'g'indan kesib tashladi.

Qoplon oqshomgacha to'rt jo'yak tok kesdi.

Bo'zbolalar kesilmish novdalarni yig'ishtirib oldi. Kuzda mayiz qilinajak o'choq oldiga olib borib bosdi.

Oqshom Qoplon beli qadala-qadala, otiga arang mindi.

Uyida yonboshlab ta'tillandi-da, o'zini to'shakka tappa tashladi.

8

Oymomo dasturxon yopa-yopa:

— Sinoda bir tabib bor emish, ostonasidan odam uzilmas emish, — dedi.

— Nima qil deysan? — dedi Qoplon.

— Brigadirdan so'rasin, borib kelamiz.

Qoplon ayoliga og'irinib qaradi.

— Qaysi yuz bilan? — dedi.

Oymomo chappa burilib oldi.

— Bu kishiga ish kerak, mol-dunyo kerak.

Qayg'usi bolami... — dedi.

Qoplon yonib ketdi. Tashqariladi. Hovlini aylanib keldi. Chopon o'ng'irini tutamlab aytdi, o'z ovoziga yet ovozda aytdi:

— Menga manavi choponim qolsa bo'ldi, momosil..

9

Qoplon diltang bo'lib o'tirib edi, otasi kirib keldi. U, otasi maqsadini bildi.

— Bor, mol-hollarga qara, — dedi ayoliga.

Otasi joylashib o'tirdi. Fotiha qildi. Yerga qarab gap ochdi:

— Enang aytgan gapni nima qilding? — dedi.

— Qanday gap? — talmovsiradi Qoplon.

— Nevara-chevara orzusi.

Qoplon haminqadar kuyib-yondi.

— E-e-e, ota! — dedi. — Ayol meniki! Buyog'ini o'zimga qo'ying-da, endil!

— Aytmasang-da, ayol seniki, bari gap senda.

— Bo'pti-da!

— Bir og'iz gapni aytib, javobini berib yuborish shuncha qiyinmi?

— Tinch qo'ying, ota, tinch qo'ying!
— Qo'ymayman! Nima deysan, qo'ymayman!
Qoplon o'rnidan turib ketdi.
— Boring, ota, boring, baraka toping!
Otasi angrayib qoldi.
— Nima-nima?! — dedi.
— Tinch qo'yasizmi-yo'qmi, deyapman!
— ...
— Qo'ymasangiz, ana, katta ko'chal
Otasi og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida
goldi.
— Ha-a-all Sen hali meni uyingdan haydayapsanmi?! Meni-ya?!

— Haydayotganim yo'q, tinch qo'ying, deyapman!

— Ha-a-all! Meni-ya?! O'z otangni-ya?! He,
enangni...
Otasi sapchib turdi. Qoplonning qulochakkasiga tortib yubordi. Hovliga otilib chiqdi.
Kaftlarini katta-katta ochdi. Salmoqlab-salmoqlab duo qildi:
— Omin, o'z otangni uyingdan haydagan bo'l-sang, iloyim, kosangning tagi oqarmasin! O'lsang,
otamlab yig'lovching bo'lmasin, ollohu akbar!
Otasi etak qoqib ketdi. Yana qaytib kelmadi.
Bir qish uzun-da keldi, ayoz-da keldi.
Chol ana shu qishdan chiqolmadi.

10

Bir armon folchiga borish bo'ldi. Fol ochirish bo'ldi.
Qoplon bilan Oymomo otlandi. Dahana Obshir qishlog'iga bordi. Hojar ko'r folchi uyini topdi.
Darvozada bir ayol:
— Kechqurun folim kelmaydi, erta saharlab kelsin, deyaptilar, — dedi.
Qoplon bilan Oymomo otdan tushmayin iziga ravona bo'ldi. Xiyla yurdi. Boya o'tmish toshloq oralab yurdi.

Ot ohistaladi. Qalqib-qalqib oldi. Oyoq ilib-ilib oldi.

Qoplon bildi, ot tuyoqlariga tosh botdi. Otiga rahmi keldi. Enkayib, ot tuyoqlariga qaradi.

— Shu, Hojar ko'rga nimaga-da keldik, o'zi, — deya xunob bo'ldi.

— Unday demasin, — dedi Oymomo, — Hojar ko'rni folchimisan-folchi, deydilar. Baloni biladi, deydilar.

— Go'rni biladi, ochiq lahadni biladi! O'z oti o'zi bilan Hojar ko'r bo'lsal..

11

Qoplon bilan Oymomo tong saharlab keldi.

Oymomo yolg'iz o'zi ichkariladi. Tevarakka alangladi. Hayron bo'lib qoldi. Hovli to'la oq tovuq bo'lil Tovuqlar biri qo'yib biri qoqoqladi. Oymomo ketidan ergashdi.

Oymomo tovuqlarni kishkishlab haydadi. Ko'ng-lidan: •o'zi, bu yer uymi, yo, bir tovuq fermami? • degan gap o'tdi.

Nimqorong'i uyg'a kirib bordi.

Uy to'rida oppoq bir momo o'tirdi. Momo oppoq kiyimda bo'ldi. Yelkalariga tashlab olmish ro'molida oppoq bo'ldi. Ro'moli chetlaridan ko'rinnish sochlari-da oppoq-oppoq bo'ldi. Oppoqlikda yuzlari-da sochlardan qolishmadi.

Hojar ko'r yuzlarini yuksak tutdi. Yuzlarini mag'rur tutdi, ulug' tutdi. Go'yo, shipga yuzlanar bo'ldi. Go'yo, bir nuqtaga tikilar bo'ldi.

Uy nimqorong'iligidə ajab bir sehr bo'ldi. Hojar ko'r o'tirishida ajab bir salobat bo'ldi.

Oymomoni nimqorong'i sehri bosdi, Hojar ko'r salobati bosdi. O'tirishini-da, turishini-da bilmadi. Bo'sag'ada serrayib qoldi.

— Kel, aynam, kel, manavi yerga o'tirl! — dedi Hojar ko'r.

Oymomo Hojar ko'r aytmish joyga cho'k tushdi. Hojar ko'rga bel bo'ldi. Yerga qarab o'tirdi.

Hojar ko'r yuzlarini shipdan olmadi, ko'zlarini shipdan uzmadi.

— Emin-erkin o'tira ber, aynam, bu yer tovuq ferma emas, Hojar ko'rning uyi! — dedi.

Oymomo bir qo'zg'olib oldi. Dovdirab qoldi.

— A? — dedi.

— Bu yer Hojar ko'rning uyi, tovuq ferma emas.

Oymomo hang-mang bo'ldi.

— Tovuq qoqoqlashini yaxshi ko'raman, — dedi Hojar ko'r. — Xo'roz qichqirishini undan ham yaxshi ko'raman. Xo'rozlar meni azonda uyqudan uyg'otadi. Shu bois, ko'p-ko'p tovuq boqaman. Soatga ishonmayman. Soatda jon yo'q-da. Joni yo'q nimaga ishonib bo'ladimi!..

Hojar ko'r ko'yak yoqalarini ko'tarib-ko'tarib, ichini shamollatdi.

— Ha-a, otda keldilaringmi, aynam?

— Ha.

— Ot tuyog'ini tosh ursa, Hojar ko'r aybdor emas, aynam!..

Oymomo yuzlarini yerdan oldi.

— Birov sizni aybdor dedimi? — dedi.

— Dedi-da, aynam, xo'jang dedi-da! Hojar ko'r go'rni biladimi, dedi-da! Hojar ko'r biladi, aynam, ha, biladil Hojar ko'r go'rniyam biladi, yerniyam biladil!..

Oymomo lol bo'lib qoldi. Nima deyishini bilmadi.

— Nimaga tumoring yo'q, aynam? — favquloda so'radi Hojar ko'r.

— Bor, — dedi Oymomo.

— Qani, qani?

— Mana.

Oymomo chap qo'lting'iga qo'lini olib bordi. Bir-dan, ko'ngli shuvv, etdi. Tumori joyida bo'lmadi.

Ko'ylagi yoqasidan qaradi. Chin, tumori joyida bo'lmadi.

Kechasi yuvinib-taranib edi. Ana shunda tumorini joyiga taqish xayolidan faromush bo'libdi...

Oymomo yomon vaziyatda qoldi. Qo'lini qo'l-tig'iga qo'yib o'tira berdi.

— Ana, ko'rdingmi, aynam? — dedi Hojar ko'r. — Hojar ko'r biladi, ha, ko'zi ko'r bo'lsayam, Hojar ko'r biladi! Hojar ko'r odamzot ichidaginiyam ko'radi, Hojar ko'r odamzot ichidaginiyam biladi!

Oymomo haminqadar lol bo'lди. Yerga qarab o'tira berdi.

— Hay, anavi mixdagi doirani olib berib yubor, aynam!

Oymomo devorda osig'liq doirani olib kelib berdi.

Shunda, Hojar ko'r doirani emas, Oymomo bilagini oldi. Ko'ktomirini ushlab ko'rди. Uch-to'rt nafas ushlab turdi.

Shundan keyin, doirani oldi. Joylashibroq o'tirdi. Doira ipidan boshmaldog'ini o'tkazdi. Barmoqlarini tuflab ho'lladi. Doirani silkib-silkib chala ketdi, aytib-aytib chala ketdi:

— Hay, azizlar, avliyolar, anbiyolar!.. Qo'ling-dan bermasang, yo'lingdan ber, yo'lingdan bermasang, so'zingdan ber!.. Mag'ribdan desammikin?.. Mashriqdan desammikin?.. Foling kelmayapti, aynam, nima balo, qarib qoldimmi deyman!..

Hojar ko'r doira halqachalarini shildiratib-shildiratib chala ketdi, aytib-aytib chala ketdi:

— A-u-uf!.. Foling ana endi kelayapti, aynam! Astag'furillo, o'zingga shukur-el Aynam-ov, men-dan o'pkalab yurmagan tag'in, bari ayb o'zingda, ha, o'z ichingdal.. Taqdir-peshona ekan-da, aynam!..

Oymomo bosh irg'adi. Folchiga atalmish pulini berdi.

Miq etmayin tashqariladi. Miq etmayin eriga mingashdi.

Yo'da eri belidan quchib yig'ladi. Eri yelkasiga yuzlarini bosib yig'ladi. Piq-piq yig'ladi!

Qoplon nima gapligini fahmladi. Otini ohista-latdi.

— E-e-e, momosi, — dedi. — Shunga-da piq-piqmi? Nima, Hojar ko'ring ichingga kirib chiqib edimi? Hojar ko'ring nimani biladi? O'z oti o'zi bilan ko'r-dal Folchiga ishonma, suvga suyanmal..

12

Olamda Oymomo uchun bor-yo'g'i bitta savol bo'ldi... Savol berguvchi odam-da birov bo'ldi.

Savol til bilan emas, boqish bilan aytildi:

«Endi nima qilamiz, momosi?»

Savolga javob berguvchi-da birov — o'zi bo'ldi.

— So'fi Olloyor bovani ziyorat qilib kelaylik. Kim biladi, o'sha kishi og'rindilarmi... — dedi.

Qoplon otlandi. Ketiga ayolini mindirdi. Oldiga chori qo'y o'ngardi. Vaxshimor yo'l oldi.

So'fi Olloyor ziyoratgohi bodomzor bog'ot qo'ynida bo'ldi.

Qoplon Olloyor mozori poyida qo'y so'yib qon chiqardi.

13

Mozordagi Olloyor otli bu zot kim bo'ldi?

Olloyor asli Samarqanddan bo'ldi. Kattaqo'r-g'onning Minglar qishlog'idan bo'ldi.

XVII—XVIII asrlarda yashab o'tdi. Shayxlar mакtabida hamda Buxorodagi Jo'ybor shayxlari dargohida ta'lim oldi. G'azallar bitdi. «Murod ul-orifin», «Tuhfat ul-tolibin», «Maslak ul-muttaqin», «Sabot ul-ojizin», «Musannib alayhi rahmonni vasiyatları» deya atalmish nazmiy devonlar tuzdi.

Oltmish yoshida uch nafar sodiq xalfalari bilan Samarqandni tark etdi. Borajak manzilini aytmadı. Kechasi bilan zim-ziyo yo'q bo'ldi.

Oiloyor nima uchun kindik qoni tommish yurti, bola-baqrasini tashlab ketdi? Nima uchun borajak manzilini aytmadı?

14

So'fi Olloyor •Sabot ul-ojizin• nazmiy devonida shunday bitdi:

*Ey birodar, meni yaxshi demanglar zinhor,
Zohirim so'finamodir, botinim kin-u niqor.
Aning uchun tog'-u tosh-u, cho'lni qildim ixtiyor,
Shumlig'im, rasvolig'im, tegdi viloyat xalqig'a.
Shu sababdin muhtamid bo'ldim g'ariblar bo'mig'a,
Qaysi holda o'lganimni bilmasun xesh-u tabor...*

O'zi, Olloyor kim edi? Avliyo edimi? Tabib edimi? Shoh edimi?

Olloyor bek edil
Olloyor qirqta xotin oldil
Olloyor boj yig'uvchilar mahkamasida xizmat qildi. Fuqaroga zulm qildi.
Olloyor qamchisidan qon tomdi!

15

Emishki, Olloyor otda shahar aylandi. Yurdi-yurdi, bir ko'priordan o'tdi.

Bunday qarasa, ko'pri osti suv qip-qizil qon bo'ldi.

Olloyor hayrondan-hayron bo'ldi. Xalfalaridan qon boisini so'radi. Bilinglar, o'zi nima gap, dedi.

Xalfalari ko'pri ostiga tushib qaradi.

Ayon bo'ldi: ko'pri ostida bir ayol o'tirdi... Ayol Olloyorni olisdan ko'rdi. Qo'rqiqlar Ko'pri ostiga qarab qochdi. Ko'pri ostida yashirinib o'tirdi.

Ayol bo'yida bo'lin! Boshi uzra o'tmish Olloyor oti dupur-dupuridan... dupur-dupuridan qalt-qalt qaltiradi... bola tashlab qo'ydi!

Suv ana shundan qip-qizil qon bo'ldil

Xalfalari bor voqeani Olloyorga aytib berdi.

Olloyorda picha shoirlik bor-da, bu voqeadan haminqadar ta'sirlandi, haminqadar azoblandi.

Bo darig'o, men shunday odammi-a, deya ezildi. Olloyor... tarki dunyo qildil!

Yurdi-yurdi, Qoratikon qishlog'iga keldi.
Undan Qubodiyon qishlog'iga o'tdi.

Tag'in yurdi-yurdi, Vaxshimor deya atalmish
makon sari doxil bo'ldi.

Gunohlaridan forig' bo'lish uchun toat-ibodatga
berildi.

El-yurt xizmatini qildi.

16

Emishki, Olloyor bunday qaradi. Vaxshimorda
suv bo'lmadi.

Shunda Olloyor soy yoqalab bordi. Soy ostiga
tushdi.

Bir yer namlanib turdi, suv yiltirab turdi.

Olloyor shu namni tayog'i bilan turtdi.

Yerdan suv sizib-sizib chiqdi.

Olloyor xalfasiga:

— Shu tayoq bilan yer chizib, Vaxshimorga iz
qilib bora ber, — dedi.

Shunda xalfasi:

— Suv pastda bo'lsa, Vaxshimor yuqorida
bo'lsa, suv qanday qilib chiqadi? — dedi.

— Sen ilon izi qilib yuqorilab bora ber, suv chiq-
masdan qolmaydi, — dedi Olloyor.

Chindan-da, suv tayoq izidan yuqorilab bordi,
Vaxshimorlab bordi.

Suv quyidan yuqorilab oqdi!

Olloyor suvni elga ko'z-ko'z qildi.

— Qara — buloql — dedi.

Shu-shu, buloq Qorabuloq, deya ataldi.

Qorabuloq yillar mobaynida o'zanini katta oldi.

Mana, ikki asdirkim, Qorabuloq quyidan yuqori-
lab oqdi. Qishin-yozin qurimadi. Qishda iliq bo'ldi,
yozda sovuq bo'ldi.

17

Vaxshimor — ilonlar makoni demakdir.

Chindan-da, o'tmishda Vaxshimor ilonlar ma-
koni bo'ldi.

**Ilonlar Vaxshimor oralab yurdi.
El jonini hovuchlab-hovuchlab kun ko'rdi.
Ana shunda, Olloyor el joniga ora kirdi.**

18

Emishki, Olloyor ilonlar podshosi Oq ilon nomiga noma bitdi.

Nomani yurakliroq bir xalfasiga berdi.

— Bor, Oq ilon saltanatiga borib kel, — dedi.

— Qo'rqaman, taqsir, — dedi xalfa.

— Unda, saltanat qabriga tashlab qayt, uyog'i-ga navkarlari yetkazadi.

Xalfa nomani qo'yniga soldi. Oq ilon qarorgohiga ravona bo'ldi.

Qarorgoh Vaxshimor qiblasidagi Ilonqara degich sayhonlikda bo'ldi.

Xalfa manzilga yetib keldi. Xalfa seskanib ketdi.

Ilonqara g'ij-g'ij ilon bo'ldi! Barmoqday ilonlar, bilakday ilonlar, yo'g'on odam soniday ilonlar!

Sariq ilon, kulrang ilon, qora ilon, ayniqsa, toshrangli chiporlari ko'p bo'ldi!

Xalfa arosatda qoldi. Borishini-da bilmadi, qaytishini-da bilmadi.

Hushi boshidan uchdi, badani jimirladi, peshonasidan terlar oqdi.

Xalfa eson-omon qaytishiga ko'zi yetmadi!

Iziga-da qaytmadil

Qanday-da qaytadi? Pirning gapini ikkita qilib bo'ladimi?!

Yo o'lim, yo pirim!

Xalfa ana shunday qat'iyat bilan Oq ilon qarorgohiga yo'l oldi.

Ilonlar to'lg'ondi, ilonlar chiyilladi, ilonlar vishilladi!

Yerdan go'dak bo'yi ko'tarildi, buqog'ini shishirdi, qop-qora boshlarini cho'zdil!

Inson peshonasidan terlar quyilib bora berdi.

**Rangida rang qolmadi. Oyoqlari o'zinikimi, yo
birovnikimi, bilmadi.**

Jiqqa ter jelagi yelkalariga yopishdi.

Inson qomatini tik tutib bora berdi!

Ilonlar inson ko'rib, bundayini ko'rmasdi!

Oq ilonday qudratli podshohi azim ustiga
bostirib kelyapti-ya! Azaliy sultanatni oyoq osti
qilyapti-ya! Do'q-po'pisalarga pinagini-da buzmay-
di-ya!

O'zi, bor-yo'g'i birov bo'lsa!

Ilonlar chekindi! Ilonlar qarorgohlariga qarab
qochdi!

Inson bostirib bora berdi!

Shunda, katta tosh oldida yotmisht bir nimaga
ko'zi tushdi. Qolmish hushi-da boshidan uchdi!

Yotmisht nima bor-yo'g'i qamchi o'rimiday
keldil Oppoq, jundor bo'ldi!

Bu, podshohi azimning o'zlar bo'ldi!

Inson to'xtadi. Podshohdan ko'z uzmadi. Qo'y-
niga qo'l soldi. Nomani o'zidan bir qadam oldin
tashlamoqchi bo'ldi. Ammo qo'lini cho'zishdan
qo'rqi. Panjalarini ochdi.

Shunda, noma yerga tushdi.

Inson iziga qayrildi. Yelkalarini qisdi. Ohista-
ohista odimladi. Nazarida, podsho izidan kelayot-
ganday bo'ldi. Og'iz-ko'zlarini katta-katta ochdi.
Ketiga qaradi. Yo'q, podsho qimirlamay yotdi.

Shunda, inson ketiga qaramadi, o'qday chopib
qocha berdi!

Oq ilon hukmona chiyilladi! O'z sultanatidagi-
larni qarorgohiga yig'dil!

Inson bir kelib o'rgandi bo'ldi, endi kela beradi,
tinchlik bermaydi, dedi. Ketamiz, inson qadam
bosmaydigan yerlarga ketamiz, dedi.

Jamiki qavmlarini ershashtirdi, o'zini Xo'jayi-
pok daryo suviga tashladi.

Undan Surxondaryo suvigga o'tdi. Surxon-
daryodan suzib chiqib, Zahartepaga o'rлади.

Zahartepa Oq ilon ko'ngliga o'tirmadil

Oq ilonlar tag'in yurish qildi. Bobotog'ga yo'l oldi.

Bobotog'ning Govurgon degan yerini makon etdi...

Mana, ikki asrkim, Bobotog' ilonlar makoni bo'ldi!

Ana sbunday emish-emishlar Olloyor otini ilohiyashtirdi. Olloyor otini avliyolashtirdi.

El, Olloyor mozorini tevaragini devorlab oldi.

El, mozorni ziyoratgoh etdi.

El, yaxshi-yomon kunlarda ana shu mozorga sig'inajak bo'ldi.

19

Olloyor o'layotib, nima deb vasiyat qilib edi?
Ey, farzandsizlar, mozorimga sig'ininglar, men sizlarga farzand beraman, deb edimi?

Olloyor o'limi oldidan qavmlariga mana bunday vasiyat qildi:

*Man o'lsam, ey jam'e mahrami roz,
Mani o'zga o'likdek qilmang e'zoz.
Xas-u xor ustig'a tashlab, tutung xor.
Qilib mandek bahodir jismidin or.
Bo'sag'a ustig'a tashlang tanimni.
Kafan aylang churuk shirohanimni.
Manga hayf etmangizlar tutilmog'on bo'z,
Agar chandiki mardum qilsalar so'z.
Yuboring tez boraturg'on yo'limg'a,
Mabodo qolmagaysiz shumlig'img'a,
Ko'zingizdan chiqormang qatrayi yosh,
Janozam orqasidan otingiz tosh,
Oyog'imdin tutib, sudrang lahadga...*

20

Oymomo mozor sig'indi. To'lib-toshib sig'indi.
Jon-tani bilan sig'indi. Yod bo'lib qolmish nolasini naqarat qildi:

Aylanayin So'fi Olloyor hazratim, sadag'angiz ketayin hazratim, bir umr qulingiz bo'layin, hazra-

tim, menga shafqat qiling... Ko'pga bergen tirnoqni mendan-da ayamang. Men sizga nima gunoh qilib edimki, meni munalik xor-u zor qilasiz? Bilib-bilmay ayb qilgan bo'lsam aybimdan o'ting, hazratim. Men bechoraga rahmingiz kelsin, So'fi Olloyor hazratim...

Ziyoratdan murod hosil bo'lmasdi!

21

Tabiatni to'lg'oq tutdi. To'lg'oqdan farzand tug'ildi. Farzand oti Navro'z bo'ldi.

Yurtimizga Navro'z keldi!

Subhi sodiq mahaldan sarrin-sarrin sabolar esdi. Mayin-mayin sabolar kezdi.

Sabolar tanlarni silab-siypadi, sabolar vujud-larni erkalab-o'ynadi.

Navro'z olamga maysalardan gilamlar to'shadi, boychechakdan sirg'alar taqdi.

22

Navro'z bundan yetti ming yil muqaddam joriy etilmish Quyosh yil-oy kuni bilan barobar bino bo'ldi.

Emishki, Quyosh olamni bir yilda bir bor aylanadi. Shu aylan mish yo'lida o'n ikkita burjga ro'paro' keladi. Quyosh har burjni bir oy mobaynida aylanib o'tadi. Zulmat bilan ziyo teng bo'lmish kunda Hamal deya atalmish burjga yetib keladi.

Quyosh ana shu Hamal burji boshidan chiqmish kunda olam o'zgacha rang oladi. Olam bir boshqa bo'ladi.

Taxmuraslar sulolasidan bo'lmish Jamshid podsho ana shu kunni Navro'z deya atadi.

Keyin, Kayumars podsho bo'ldi.

Kayumars Navro'zni sharafladi, Navro'zni ulug'ladi.

Navruo'zni, hayit qildil!

Shu-shu, Navro'z o'lik-tirik ozod kun bo'ldi.

Navro'z asir-tutqun ozod kun bo'ldi.

Navro'z qirg'inbarot to'xtar kun bo'ldi.

Navro'z kina-kudurat tarqar kun bo'ldi.

Kayumars yil kundari bilan oylariga nom berish uchun azm etdi. Yil joriy etish uchun jazm etdi.

Kayumars tong sahar-tong saharda Quyosh hamal burjining oldingi daqiqasiga kirmish kunni aniqladi.

Olim-ulamolarni yig'di, yil hisob-kitobini ana shu kundan boshlashni aytdi, olim-ulamolar rozi bo'ldi. Yil hisob-kitobini aynan shu kundan boshlab joriy etdi.

Emishki, olamda Izid xudo ilk xudo bo'ldi. Ana shu ilk xudo nurdan Quyosh yaratdi. Quyosh bilan yer-zaminni parvarish etdi.

Izid xudo olamda o'n ikkita haloskor farishta yaratdi. To'rtta farishtani osmon-u falakni baloyi qazolardan asrash uchun yubordi. Baloyi qazolarni tog'lardan beri keltirmaslik uchun to'rtta haloskor farishta jo'natdi. Qolmish to'rtta farishtani esa yer-u zaminni baloyi qazolardan asrash uchun yubordi.

Ana shu Izid xudo Quyosh nurlari barcha-bar-chaga barobar bo'lsin, dedi. Shu bois, Quyosh o'z joyidan qo'zg'olsin, dedi.

Shunda, Quyosh hamal burji boshidan chiqib keldi.

Zulmat bir bo'lak bo'ldi, ziyo bir bo'lak bo'ldi.

Kecha bilan kunduz ana shunday bino bo'ldi.

Kayumars podsho uch yuz oltmish besh kun bo'lmish bir yilni o'ttiz kun-o'ttiz kundan o'n ikkita oyga bo'ldi. Keyin, ana shu o'n ikkita oyni Izid podsho yubormish o'n ikkita haloskor farishta oti bilan atadi.

El-xalq o'z xohish-irodasi bilan adir-qirlarga sayillab chiqdi.

Maysazor adirlarda doshqozonlar osildi.

Ayollar ariq bo'ylaridan yalpiz o't terdi, kiyik o't terdi. Bilq-bilq qaynab turmish qozonlarga soldi.

Qizlar qoraqoshlar terdi. Dimog'lariga bosibbosib iskadi. Quloqlariga taqdi.

Qariyalar ko'zlariga boychechaklar to'tiyo etdi.

— Omonlik, omonlik... — deya, shukrona aytdi.

Qariyalar dilida Navro'z bo'lidi, qariyalar tilida Navro'z bo'lidi.

— Inshoollo, Navro'z bu yil seshanba kuni kelar bo'libdi-da, aqlar? — dedi Umarxon eshon.

— Shunday, shunday, — ma'qulladi mulla Namoz.

— Navro'z seshanbada kelar yil ochlik bo'lmaydi, oshlik bo'ladi. Ertagi ekinlar yaxshi bo'ladi, noz-ne'matlar-da yaxshi bo'ladi. Aybi, taxchilroq bo'ladi.

— Yomoni, qon ko'p to'kiladi. El-yurt orasidan rahm-shafqat ko'tariladi.

— O'g'il otadan qaytadi, qiz onadan qaytadi, ayol eridan qaytadi.

— Podsholar taxtdan qula-qula bo'ladi.

— Yomonlik ko'payadi.

— Yog'in-chochindan ayting.

— Yog'in-chochin... qor kam yog'adi, aqlar.

Yil oxirida sel ko'p keladi.

— O'zi, Navro'z qaysi kuni kelsa yil yaxshi bo'ladi, azizlar?

— Yakshanba kuni kelsa, ko'p binoyi bo'ladi. O'lim-etimlar oz bo'ladi. Fisq-fasod, yomonlik kam bo'ladi. Navro'z dushanba kuni kelsa-da yaxshi bo'ladi. Aybi, bug'doy tanqis bo'ladi.

— Navro'z chorshanbada kelsa, yil qimmatchilik bo'ladi. Qorin-tomoq uchun qon to'kiladi.

— Fisq-fasod, g'alamislik ko'p bo'ladi.

— Payshanbada kelsa, dardmandlik ko'p bo'ladi.

- Shu yili oy bilan kun-da tutiladi, deng.
 - Shunday, aqlar, shunday.
 - Jumada kelsa, yomg'ir mo'l-ko'l bo'ladi.
- Aybi, qahraton sovuq bo'ladi.
- Navro'z shanba kuni kelsa.. o'g'ri-mutta-hamlar yili bo'ladi, mushtumzo'rlar yili bo'ladi.
 - Inshoollo, peshonada borini ko'ramiz.
 - Inshoollo, azizlar, inshoollo, aqlar...
- Dasturxonlarda sumalak, halim, ko'k patir, ko'k somsa, ko'k oshi, deya atalmish dori-darmon taomlar bo'ldi.
- El chehrasi chechak bo'ldi. El ko'ngli ko'klam bo'ldi. El dili ohorli-ohorli tuyg'ular bilan to'ldi.
- Navro'zchilar to'p-to'p bo'ldi. O'zi xush ko'rmish o'yinlar bilan mashg'ul bo'ldi.
- Do'mbira chalib, doston aytmish nechov bo'ldi.
- Davra qurib, doston eshitmishechov bo'ldi.
- Oyoqlarini osmon qilib, dorboz bo'l mish nechov bo'ldi.
- Oymomo qizaloqlar o'yinini tomosha qildi. O'z qizaloqlik davrini yodladi. Ma'yus bo'ldi...
- Shunda, Qimmat momo keldi. Oymomoni qorab o'tirdi.
- Hay-hay-hay, bolaning sadag'asi ket-sang-a! — dedi.
- Oymomo Qimmat momoni ko'rib-ko'rmaslikka oldi.
- Qimmat momo qizaloqlarga qarab o'tira berdi.
- Qimmat momolar har yurtda bo'ladi, har elda bo'ladi.
- Qayerda to'y-ma'raka bo'ladi, o'sha yerda Qimmat momolar bo'ladi. Qaerdan quyuq tutun chiqadi, o'sha yerda Qimmat momolar bo'ladi.
- El Qimmat momolarni to'y-ma'rakaga aytmaydi. Aytmasa-aytmasin, Qimmat momolar o'zlarini kirib kela beradil! Indamaygina kirib kelib, ma'rakalarga qo'shiladi. Ma'raka ishlariga bosh suqadi, ma'raka yumushlariga qo'l suqadi.
- Qimmat momolar el ichiga ana shundayin kirib oladilar-da, asl maqsadlariga o'tadilar...

Qizaloqlar qo'g'irchoq-qo'g'irchoq o'ynadi.

Mohichehra bolasini maysalar uzra yotqizdi:
bolasini beshikka beladi. Bolasi uzra enkaydi,
bolasini emizdi. Bolasini allaladi:

— Alla, bubagim, alla-yo, totli bubagim, alla-yo...

Qimmat momo yer ostidan Oymomoga nazar soldi.

— Yurak-bag'ring kuyib ketayotgandir,
Oymomo? — dedi.

Oymomo miq etmadni.

Qimmat momolar birovlar muvaffaqiyatini ko'r-sa... ichini it tirnaydi. O'z yog'iga o'zi qovuriladi.
Jizg'anak bo'ladi. Kuyib kul bo'ladi.

Oqibat, qildan qiyiq qidiradi. Qandayin yo'l bilan bo'lsa-da, o'zgalar muvaffaqiyatini kamsitadi. O'zgalar muvaffaqiyatini yerga uradi. Mohichehra allasa-da, bolasi uxlay bermadi.

— Yum ko'zingni, yum, — dedi Mohichehra. — Uxlamaysanmi-uxlamaysanmi? Uxlamasang, sad-qayi sarim-a. Hamsoya, huv hamsoya!

Chaqalog'ini yo'rgaklamish Muqaddas javob berdi:

— Huvv! Kim u, bemahalda qichqirgan? Hay, sizmisiz, Mohichehra hamsoya? Men kim emish debman, — dedi.

— Anavi injiqni uxlatolmay sarsonman-da, hamsoya, — dedi Mohichehra. — Puchug'ingizni yuboring, picha beshik tebratib tursin. Men suvgan borib kelayin, hamsoya.

— Puchug'im maktabga ketib edi, hamsoya. Bo'lmasa jonim bilan yuborar edim.

Qimmat momo tizzasiga shapatilab vovaylo qildi.

— Uf-f-fl — dedi. — Farzandsizligi qursin-a, befarzandligi quribgina ketsin-a!

Oymomo rangi bo'zardi, Oymomo yuzini yerga egdi.

Qimmat momolar yomonlardan xolis-xolis yuradi, yomonlardan olis-olis yuradi. Yomonlarni ko'rsa... qochadi! Yomonlar bilan horiqulodda yo'liqib qolsa... Girdikapalak bo'ladi, shirinsuxan bo'ladi, shirinzabon bo'ladi!

Qimmat momolar yomonlardan xolis-xolis yuradi, yaxshilarga osiladi, yaxshilarga sim taqadi. Yaxshilarni sassiq-sassiq gaplar bilan chimchilab-chimchilab oladi. Yaxshilarni zahar-zahar gaplar bilan o'yib-o'yib oladi.

Yaxshilarda yaxshidan-yaxshi fazilat nima? Xudo bermish yuksaklik nima? Xudo bermish ulug'lik nima?

Qimmat momolar aynan ana shularni yo'qqa chiqarish payida bo'ladi!

Masalan, pokdomon odam borasida nopol gap tarqatadi. «Iflos odam!» deydi. Donolar donosi borasida nodon gap tarqatadi. «Picha kamroq», deydi. Haloldan-halol odam borasida harom gap tarqatadi. «Buzuq odami!» deydi.

Gapirganda-da, g'oyat ustamonlik bilan gapiradi. Soddadil qiyofada gapiradi, beg'ubordil qiyofada gapiradi. Yuzlari jonkuyarday bo'ladi, ko'zları mehribonday bo'ladi.

Qimmat momolar topib-topib gapiradi!

Muqaddas chaqalog'i iyagiga barmog'ini nuqib-nuqib erkalatdi. Nuqib-nuqib suydi:

— Chu-chu-chu, shakar bubagim, novvot bubagim, chu-chu-chu. Iyagida chuqurchasi-da bor, asal bubagimning, chu-chu-chu. Xolangga qarab bir kul. Kul, kull Xola, meni kelin qilmaysizmi, de.

Mohichehra o'pka-gina qildi:

— Seni kelin qilmayman, — dedi. — Kelganimda biron marta-da kulmaysan. Qobog'ing-dan qor yog'ilib turadi.

— Kelin qilmaganingizni-da ko'rayin, xola. Hali o'g'lingizning boshini shunday aylantirayin-shunday aylantirayin...

Qimmat momo tag'in tizzasiga shapatilab-shapatilab kuyinchaklik qildi.

— Uf-f-f, shuginalar ena bo'lgisi kelmasa-ya,
Oymomo, shuginalar-a! — dedi.

Oymomom Qimmat momo gapini eshitib-eshit-maslikka oldi. Miq etmay joyidan turdi. Ayollar tarafga yurdi.

Qimmat momo Oymomo ketidan qarab-qarab goldi.

Qimmat momo murod-maqsadiga yetolmadi.
Gapi nishonga tegmadi. Tegsa-da, chala tegdi.

Qimmat momo endi indamay keta beradimi?
Yo'q, indamay keta bermaydi. Bordi-yu, indamay ketsa... tobi qochib qoladi! Yegani-da tatimaydi, ichgani-da tatimaydi. Aza tutadi!

Oymomo yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul, deya ketdimi?

Ketadi-ya, ketadil! Ketganini-da ko'radi!

Qimmat momo hali murodig'a yetadi, hali huzur qiladi...

25

— El-xalq adir-qirlarga oqib-oqib kela berdi.
Nima uchun el-xalq aynan adir-qirlarga kela berdi?

26

Emishki, bir Buqa bo'lar emish. Buqa podada yurajak buqlardan emas emish.

Buqa... Muqaddas Buqa emish!

Muqaddas Buqa samo nur-ziyolardian yaratil-gan emish.

Muqaddas Buqa shoxlari-da shunchaki suyak emas emish. Muqaddas Buqa shoxlari.. oltindan emish! Muqaddas Buqa tuyoqlari-da shunchaki tuyoqlar emas emish. Muqaddas Buqa tuyoqlari... kumushdan emish!

Muqaddas Buqa bir o'zi yurmas emish.
Muqaddas Buqa bir aravani tortib yurar emish.
Muqaddas Buqa aravasida... oy ortib yurar emish!

Muqaddas Buqa odamzotga ko'rinxmas emish!
Hamisha ko'zdan pana bo'lib yurar emish. Shu

boisdan Muqaddas Buqani ko'rish g'oyatda mushkul emish.

Muqaddas Buqa qayerlarda ko'rinish berar emish? Falakda ko'rinish berar emish. Ufqda ko'rinish berar emish.

Muqaddas Buqa nima karomat ko'rsatar emish?

Qaysi inson Muqaddas Buqani bir ko'rsa bo'ldi, o'sha inson xohish-irodalari ijobat bo'lar emish! Bor orzu-umidlari bajo bo'lar emish!

Muqaddas Buqa shunchaki bir ko'rinish keta bermas emish-da. Bordi-yu, inson nazariga tushib qolsa... Muqaddas Buqa... bo'kirar emish!

Muqaddas Buqa bir bor bo'kirsa... yil behosil kelar emish. Ekin-tikindan qut-baraka ketar emish. Oqibat, tanqischilik bo'lar emish...

Xudo yorlaqab, Muqaddas Buqa ikki bor bo'kirsa... yil serhosil kelar emish, yil sermahsul kelar emish. To'kin-chochinlik bo'lar emish...

27

El-xalq ana shu Muqaddas Buqani bir ko'rish orzusida adir-qirlarga sayillab kelar emish!

Boisi, adir-qirlar yuksak-da! Osmon-u falakka yaqin-da!.

Osmon bilan ufq adir-qirlardan kaftday ko'rinish turadi-da!

28

Ayollar o'ynay berdi-o'ynay berdi. Oxir-oqibat, holdan toydi.

Ilik uzildi vaqtida!

Shunda, Xursandoy otli polvonqomat bir ayol davra kirdi. Ayollarni bitta-bittadan o'yinga tortdi. O'zini ketiga tashlovchi ayollarni qo'ltig'idan dast ko'tarib davra olib keldi.

Xursandoy qaysiki ayolni davra olib kelsa, o'sha ayol bilan qo'shilib-qo'shilib o'ynadi. Horish-char-chash nimaligni bilmadi.

Xursandoy uch yasharligida otadan sag'ir qoldi.

Onasi boshqa er qildi. Xursandoy o'gay ota qo'lida katta bo'ldi. Shu bois, suyagi mehnatda qotdi. Oqibat, polvonsuyak bo'ldi!

Qimmat momo o'yladi-o'yladi, ana shu gapni topdi!

— Bo'y-bastini qarang... Ming qilsayam... ikki erkakning zurriyoti-da... — deya sasidi.

Buni eshit mish Xursandoy fe'li aynidi. Ko'nglidagi sayil xushvaqtligi, sayil xurramligi xufton bo'ldi.

Qimmat momoga olayib-olayib qaradi. Ammo yomon gapirmadi.

O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir!

Navro'zda yomon gapirib bo'lmaydi!

Navro'z haminqadar shod-xurramlikda o'tsa, haminqadar xush-xushvaqtlikda kechsa...

Yer-u falak-da haminqadar saxiy bo'ladi!

Osmon-u falakdan mo'l-ko'l yomg'ir yog'adil!

Yer-u zamin-da bo'liq-bo'liq hosil beradi!

El-yurt kelajak Navro'zgacha xush-xushvaqtlikda kun ko'radi, rohat-farog'atda kun ko'radi!

Xursandoy davraga ko'z soldi-ko'z soldi, ayollar orasida mung'ayib o'tirmish Oymomoni ko'rib qoldi. Oymomoni davra yetaklab keldi.

Oymomo o'zini keyiniga tashladi.

— Men o'yinni bilmayman! — deya zorlandi.

— Nima, biz o'yinni bilamizmi? — dedi Xursandoy. — «Bahor» ansamblida o'ynab kelib edikmi?

Oymomo ro'moli uchlarini yelvagay qildi. Barmoqlarini lablari bilan namladi.

Oymomo nozlanib-nozlanib o'ynadi. Barmoqlarini qirsillatib-qirsillatib o'ynadi. Shunday xushro'y o'ynadi-shunday xushro'y o'ynadi!

Davra jo'shdi, davra:

— Kishtala-kish, kishtala-kish, kishtala-kish! — deya chapak chaldi.

Qimmat momo Oymomo o'yiniga qaradi-qaradi-da, o'zicha bosh irg'adi.

— Shunday xushro'y ayol tirnoqqa zor-a,
tirnoqqa-ya! — dedi.
— Unday demang-e, — dedi bir momo.
— Kuyganimdan gapiraman-da, Sora momo,
kuyganimdan! — dedi Qimmat momo. — Bo'lam-
da, ming qilsayam, bo'laginam-da!
— Bo'langiz bo'lsa-da, demang!
Qimmat momo darrov gapni burdi. Birdan...
hiring-hiring kuldi.
— Hazil-da, Sora momo, hazil-da. Hazil gap-
niyam bilmaysizmi! — dedi.
Qimmat momo o'xshatib-o'xshatib vovaylo
qildi:
— Uf-f-f! — dedi. — Xudo itga bergan tirnoqni,
bitga bergan tirnoqni nima qilardi deng, shu
bo'laginamgayam bersal!
Yer yorilmadi, Oymomo yerga kirib ketmadil
Boshi uzra o'ynatmish qo'llarini ohista-ohista
tushirdi. Kaftlari bilan yuzlarnii bekita-bekita,
davradan chiqib jo'nadi.
Navro'zları zahar-zaqqum bo'ldi! Navro'zları
burnidan buлоq bo'ldi!
Ufq qorayib-qorayib keldi. Qop-qora bulutlar
ko'pirib-ko'pirib toshdi. Bulutlar toshib-toshib kel-
di, bulutlar yoyilib-yoyilib keldi.
— Ana, kelayapti, ana, — dedi el.
Kelajak Muqaddas Buqa bo'ldimikin? Ko'pirib
toshmish qop-qora bulutlar Muqaddas Buqa aravasi
g'ildiraklari ostidan o'rlayaptimikin?
Qop-qora ufq guldur-guldur etdi, qop-qora ufq
gumbur-gumbur etdi.
— Keldi, ketdik, keldil! — dedi el.
Guldur-guldur etmish Muqaddas Buqa aravasi-
mikin? Muqaddas Buqa aravasini taraqlatib-taraq-
latib haydar kelayaptimikin?
Qop-qora ufq yarq-yurq etdi, qop-qora ufq yalt-
yalt etdi.
Muqaddas Buqa aravasi g'ildiraklari tog'-tosh-
larga urilib-urilib, chaqin chaqyaptimikin? Yo

Muqaddas Buqa kumush tuyoqlari chaqir toshlarga tegib-tegib, o't chaqnayaptimikin?

— Hozir yomg'ir yog'adi! — dedi el.

Qop-qora bulutlar ichra oppoq bir nima bir yo'qoldi-bir ko'rindi. Muqaddas Buqa aravasida ortib yurmish oy qalqib-qalqib kelayaptimikin?

El-xalq uy-uyiga tarqaldi.

Navro'zchilar ko'ngli ko'klam bo'ldi.

Oymomo ko'ngli... hamon qish bo'ldi!

III

Oy to'lishib qoldi.

Yoz oydini oppoq bo'ldi.

Falak kavkabiston bo'ldi.

Kavkabistonda bir yulduz yulduzzor oralab sayr etdi. Bu, yer yo'ldoshi bo'ldi.

Olis-olislardagi chiroqlar yulduzlarday miltil-ladi.

Adir biqinidagi bahaybat yong'oq barglari mungli shitirladi. Chigirtkalar chirilladi...

Bir qush zardoli shoxlarini shitirlatib-shitirlatib uchdi.

Yo'ng'ichgapoyada otlar kirt-kirt o'tlaydi.

Otlar pishqirdi, otlar kishnadi.

Otlar tarsillatib-tarsillatib yer tepindi.

Tun jarchisi boyo'g'li uzib-uzib ovoz berdi.

— Momosi, shu tevarakda odam bor shekilli...

Momosi, hovlimizdag'i zardolilar suvga cho'lp-cho'lp tushadi. Zardolilarni ko'chada bolalar ushlab yeydi...

1

Oqshom vaqtি Oymomo onamiz tosh bilan katak og'zini yopdi. Katakka cho'nqayib o'tirdi.

Shunda, endi toy-toy bo'l mish uloq bir yiqilib, bir turib kela berdi. Quloqlarini qoqaman deya, tag'in bir yiqilib turdi.

Oymomo onamiz zavqlanib kului. O'ng qo'lini uloqqa cho'zdi. Barmoqlarini o'ynatdi. Uloqni o'ziga chorladi:

— Kel, chigi-chigi-chigi. Kel, toy-toy-toy.. — dedi.

Uloq Oymomo onamiz barmoqlarini yaladi. Murg'ak-murg'ak boqdi.

Uloqqa termulib o'tirmish onamiz xayoliga endi tetapoya bo'l mish go'dak keldi...

Shu vaqt daricha g'iyqillab ochildi. Bola ko'tarib olmish Robiya hamsoyasi keldi.

— Ay, hamsoya, elagingizni berib turing. Bizniki teshilib qolibdi, — dedi.

Oymomo onamiz oshxonadan elak olib kelib berdi.

Robiya hamsoyasi supaga cho'k tushdi.

— Yo, pirim, picha damimni olayin, — dedi.

Keyin, eshitmis-bilmish ig'volardan gapirdi. Ta'bi xushlamovchi ayollar g'iybatini qildi.

Elakka bormish ayolning ellik og'iz gapi bor, bo'ldi!

Ichini bo'shatib ketdi. Xiyoldan keyin tag'in keldi.

— Ay, hamsoya, esim qursin, xiyol bo'lmasa esimdan chiqayin, debdi, — dedi. — Xoldon momonikiga sumalakka boring. Ayollar sizni kayvoni bo'lsin deyapti, vaqtliroq boring.

Oymomo onamiz ich-ichidan suyundi. Boisi sumalak qo'yuvchi-da, sumalakka kayvonilik qiluvchi-da, g'oyat pokiza ayol bo'lmog'i lozim bo'ladi.

«Meni lozim ko'ribdilarmi... menginani lozim ko'ribdilarmi, — demak el nazarida farishtali ayol bo'libman-da? — deya xayollandi onamz. — Shukur, Yaratganning o'ziga shukur, ishqilib, el savobini olar bo'libman...».

Oymomo onamiz sumalak kayfiyatida eshik-orani supurdi. Sumalak zavqida tirikchiligin qildi.

Qoplon otamiz daladan kelib, sumalak daragini eshitdi.

Ha-a, binoyi, — dedi , — menga-da sumalak olib kelasanmi?

— Bu kishiga olib kelmay, kimga olib kelman, — dedi onamiz.

Oymomo onamiz ro'molga bir misqol bug'doy tugdi.

Sumalakka yo'l oldi.

2

Sumalak qayerda qo'yildi?

Sumalak odam nazari tushmovchi joyda qo'yidi.

Zaxdan-zaxe joyda qo'yildi.

Nur-ziyosiz, shomol-havosiz joyda qo'yildi.

Qurt-qumursqasiz, kalamush-sichqonsiz joyda qo'yildi.

Erto'la ana shunday joy bo'ldi!

To'rt-besh misqol bug'doy namlab-namlab yoyildi.

Bir haftalarda bug'doy ko'm-ko'k maysa bo'lib undi. Ko'm-ko'k maysa bo'lib o'sdi.

Maysalar bir-biri bilan ayqashib-ayqashib qoldi. Bir-biri bilan zichlashib-zichlashib qoldi.

Maysalar betiga doka yopib-yopib qo'yildi.

Vaqti-vaqti bilan doka olib-olib turildi.

Maysalarga suv sepib-sepib turildi.

Maysalarga oftob nuri tushirib-tushirib turildi...

Sumalak maysa Navro'z ramzi bo'ldi

3

Xoldon momo ana shu maysalarni keliga soldi.

Oymomo onamiz maysalarni kelida tuydi. Ko'p-ko'p tuydi, xo'p-xo'p tuydi.

Maysalar shira bo'ldi. Maysalar shira berdi.

Oymomo onamiz maysalar bermish shiralarni suvli toboqlarga soldi.

Shira suvda asta-asta eridi. Suv bilan aralashdi.

Oymomo onamiz shirali suvni sumalak qozonga soldi.

Ayollar sumalaklab kela berdi.

Yettita ayol bo'ldi, toqlik bo'ldi.

Juftlik bo'lsa ma'qul bo'ladi.

Ayollar tag'in kimni taklif etishni maslahat-lashdi. Gap aylandi-aylandi, oxiri, Munavvar otli ayolga borib taqaldi.

— Beti qursin, betidan buzilsin!

Bu gapni Xoldon momo aytdi.

Ayollar birdan sergak bo'ldi. Bir-biriga qaradi. O'zgacha qaradi, ilmoqli qaradi. Birin-ketin bosh irg'adi.

— Aytganingiz kelsin! — dedi.

Boisi, elda Munavvar suyug'oyoq ayol, demish gap oralab yurdi...

Sumalak ana shunday ulug' ham e'tiqodga molik taom bo'ldil

Ayollar olib kelmish unlarini sumalak qozonga soldi.

Keyin, sumalak qozon girdida davra qurdi. Gurung berib-gurung olib o'tirdi.

Onasiga ergashib kelmish bolalar uy tevaragida chopishib o'ynadi. Bir-biri bilan aytishib o'ynadi, janjallashib o'ynadi.

Janjalga onalari aralashdi. O'zaro sen-menga bordi.

•Men bo'lsam, aralashmasdim, — xayollandi onamiz. — Bola degani bir begunoh banda-da. Bugun urishadi, ertaga yarashadi».

Oymomo onamiz do'lanaday-do'lanaday kelmish yettita toshni yuvib-chaydi. Qozonda qaynamish sumalakka soldi.

4

Emishki, fony olamda bir onaizor bo'libdi. Onaizor o'z oti o'zi bilan zor ona bo'libdi. Bechoradan bechora bo'libdi. G'aribdan-g'arib bo'-libdi.

Xudoyim xudovando onaizor rizq-ro'zini bermabdi-da, nasibasini bermabdi-da!

Ammo xudoyim xudovando onaizor pushtini beribdi! Onaizor qo'sha-qo'sha farzandli bo'libdil Farzandlari bir etak bo'libdil

Bir oqshom bolalari qo'llarini cho'zib:

— Xo'rak, ena, xo'rak! — deya zorlanibdi.

Onaizor yenglarini turibdi.

— Bolalarimga mazali taom qilib berayin, — debdi.

O'choqqa o't yoqibdi. Qozon osibdi.

O't yona beribdi, qozon qiziy beribdi.

Shunda, onaizor qozonga nima solishni bilmabdi. Uy-ichini qarabdi. Tevarak-boshni qarabdi. Qozon qaynatish uchun biron-bir nima topolmabdi.

Norasidalari bo'lsa, xo'rak, deya zorlanishini qo'ymabdi. Xo'rak deya yig'lay berib-yig'lay berib, uqlab qolibdi.

Onaizor och-nahor uqlab yotmisht go'daklariga termulib o'tiribdi. O'tirib-o'tirib, ko'ngli buzilibdi. O'z taqdirdidan kuyibdi.

— Yo'qchiligi qursin-a, yo'qchiligi-yal — deya qon-qon yig'labdi.

Go'daklar azonda uyqudan turadi. Ochdan-och bo'ladi. tag'in taom, deydi. Xo'rak, deya yig'laydi...

Onaizor ana shu qayg'uda timirskilanib yuribdi-yuribdi. Qozon qaynatish uchun tag'in biron nima topolmabdi.

Shunda, mayda-mayda toshlarga ko'zi tushibdi. Shu toshlardan yettasini sanab olibdi. Toboqda yuvib-yuvib tozalabdi. Toboqdan qozonga solibdi.

Onaizor nahorda qozon qopg'og'ini olib qarasa, qozon to'la taom bo'libdil

Taom oti — sumalak bo'libdil

Shu-shu, sumalak Navro'z taomi bo'lib qolibdi!

5

Shunday qilib, toshlar sumalak bo'lib qaynay berdi.

Tun og'di.

Gurunglar-da ado bo'ldi.

Bir ayol urchuq yigirdi, bir ayol paxta chigit-ladi.

Shunda-da, sumalak tonglari otmadil!

Shunda, Xoldon momo aytди:

— Kelinglar, topishmoq aytamiz, — dedi.

— Xo'p binoyi gap, — ma'qulladi ayollar.

— O'zimizning gurungma-gurung yuradigan topishmoqlardan aytamiz.

El og'zida yurmish topishmoqlardan aytish boshlandi.

Aytishuvni Xoldon momo boshlab berdi.

— Men aytsam, uzun-uzun o'z ketdi, uzun bo'ylik qiz ketdi — qasavasi qarsillab, manglayi yerga tarsillab. Bu nima?

— O'rmak.

— Kichkina qozonning oshi shirin.

— Yong'oq.

— Bukri momom buk etdi, yugurib uyiga kirib ketdi.

— Sichqon.

— Anavi tog'dan qaragan, manavi tog'dan qaragan, o'zimga yarashar deb, balxi ro'mol o'ragan.

— Buzoqboshi.

— Aka-uka bir yashaydi, bir-birini ko'rmaydi.

— Ko'z.

Ayollar tinimsiz o't yoqib turdi, tinimsiz o't kovlab turdi.

Boisi, o't hovuri xiyol pasaysa... sumalak ayniy-di!

Sumalak ana shunday nozikta'b taom bo'ldi!

— Chin qushim, chinni qushim, chin tepaga chiqdi qushim, og'zidan bol uzatib, xalqqa salom berdi qushim.

— Samovar.

- Tog'ni talaydi.
- Bolta.
- It emas, irillamas, odam emas, uyga qo'ymas.
- Qulf.
- Yilting-yilting chirog'im, yillaydi chirog'im, gavhardan ko'p qadri, qadrdom chirog'im.
- Ko'z.
- Uydamisan, marjon, eshikdamisan, marjon, oyoq-qo'ling ko'rinas, qulfdamisan, marjon.
- O'tov uyi og'ichi.
- Tuzi yo'q oshni ko'rdim.
- Bari ayol o'uda qoldil Birov, u dedi, birov, bu dedi. Birov-da topolmadi!
- Shunda, ushbu topishmoqni aytmish Oymomo onamiz huzurlanib-huzurlanib kuldi. Tizzasiga uring-uring kuldi. Ketiga chalqayib-chalqayib kuldi. Kula kula, qo'li bilan sumalakni ko'rsatdi.
- Tuzi yo'q osh — sumalak bo'ldi!

6

Sumalak tonglari olib-olib bo'ldi.
 Ayollarni uyqu elitdi.
 Uyqu Oymomo onamizni-da olib-olib ketdi.
 Ammo onamiz mijja qoqmadi. Kayvoni ayol bo'lib,
 sumalak boqib o'tirdi.
 Oymomo onamiz sumalak boqib-boqib, sumalak
 tonglarni oqladi!
 Oymomo onamiz cho'mich bilan yog'och toboq-
 larga sumalak suzdi.
 Ayollar uyma-uy yurib, sumalak tarqatdi.
 Katta-yu kichik — barcha-barcha sumalak yala-
 dil!
 Emishki, insonda ming bir ikki dard bo'ladi. Su-
 malakdan bir yalamish inson tanasi qirq xil dard-
 dan forig' bo'ladi!

Oymomo onamiz bir cho'mich sumalak oldi.
Uyiga ravona bo'ldi.

Shahodat barmog'i bilan Qoplon otamizga
sumalak yalatdi.

Oymomo onamiz jisman-da dadil bo'ldi, ruhan-
da dadil bo'ldi.

Umidlari uchqunlandi!

«Sumalak tonglarida mijjamni-da qoqmadim! —
o'zidan minnatdor bo'ldi onamiz. — Gunohlarim
bor bo'lsa, ana shu gunohlarimdan forig' bo'ldim.
Gunohlarim yo'q bo'lsa, unda, tag'in-da pokiza
bo'ldim. Bir dunyo savobga qoldim. Ana endi
umidlarim ushaladigan bo'ldi....».

Oymomo onamiz odaticha tong saharlab turdi.
Tirikchiligini qildi.

Uy derazalarini ochdi. Eshik-orani supurdi.

Darvoza zanjirini tushirdi. Ityaloqqa ovqat
quydi. Katak og'zidagi toshni oldi. Mollarga qara-
di. Sigir sog'di.

Sutni dokadan suzib oldi. Keyin, toboqqa quydi.
Chumolidan hadiksirab, simhalinchakka osdi.

Brigadir ko'chadan ovoz berib-ovozi berib o'tdi.

Onamiz choy damladi. Dasturxon burchiga
bostirdi.

Qoplon otamiz-da uyg'ondi.

— Brigadir bozor kuniga bog'ga aytib ketdi, —
dedi onamiz.

— Ha-a. Qayerga borish kerak ekan?

— Achchiq zardolizorga.

— Xo'p xushxabar aytding. Suyunchi bersam-
mikin...

— Xushxabar quridi, shu qoldimi. Qo'lning
sho'ri.

— Xina qo'y.

Onamiz yuzlari yorishdi.

— Yaxshi aytdi, chin aytdi, — dedi.

Choy-ta'tildan keyin onamiz omborxonadan bir siqim quruq xina olib keldi. Suvga botirib ivitdi. Keyin, yog'och keliga soldi. Qayroqtosh bilan may-dalab tuydi.

Oymomo onamiz kechasi yotish oldidan otamiz kaftlariga xina qo'ydi. Kaftlarini yumdi. Girdini tugilmish tok barglari bilan yopdi. Barg ustidan gardi ro'mol bilan o'rab bog'ladi.

Qoplon otamiz ertalab qo'llarini ochib ko'rdi.

Kaftlari qip-qizil xina bo'ldi!

Xinalik kaftni ketmondasta urmaydi!

Onamiz galdag'i kechada-da otamiz qo'llariga xina qo'yajak bo'ldi.

Otamiz qo'l siltadi.

— Hali, qoshimga-da o'sma qo'yarsan? Bor-el — dedi.

Onamiz hiring-hiring kuldi.

— O'z tani sog'ligini o'ylasim, xo'p desin.

Onamiz, otamizni bemahalgachayin avradi. Oxiri ko'ndirdi.

9

Otamiz bilan onamiz ertalab bog'ot otlandi.

Onamiz yo'lda aytdi:

— O'sh degich yerda bir tabib bor emish... — dedi.

— Vaqt qani, momosi. Ish bo'lsa qaynayapti.

— Brigadirdan so'rasisin-da.

— Odamda bet bo'lishi kerak-da momosi. Shuncha yuramiz, brigadir bir og'iz og'ir gapirmaydi.

— Yana tag'in, mehnat kuni yozadi.

— Ha-a, otangga rahmat.

— Bormasak bo'lmas, ko'p zo'r tabib de-yishyapti.

— Unda, keyinroq boramiz. Bo'lmasa, eldan uyat, momosi. El, ishga bir kelib, bir kelmay yurishimizni ko'rsa, ishdan beli soviydi. Yana tag'in,

elning o'g'il-qizlari-da maktabdan keyin ishga kela-di, momosi... Nasib bo'lsa, Xushvaqt kelsin, o'zimiz bilamiz, momosi...

— Nasib bo'lsa, bovasi...

10

Brigadir aytmish achchiq zardolizor ostida otdan tushdilar.

Otamiz xurjunini zardoli shoxiga ildi. Belni yelkasiga qo'ydi. Tokzor oralab yurdi. Dehqonlar qoralab yurdi.

— Hormanglar-ov! — dedi.

— Bor bo'ling-ov! — dedi dehqonlar.

Otamiz bildi, xiyol hayalladi. Shu bois, hadahalab yurdi. Chetdan bir jo'ya oldi. Apil-tapil ish boshladi.

Onamiz otamiz qabatida ishladi.

Dehqonlar oralab yurmish hisobchi ovozini qo'yib aytdi:

— Kelardingiz-da, Qoplon aka! Tushdami, yo, ish oxiridami!

Oymomo onamiz uyaldi. Yuzlarini yashirdi.

— Yuzingizni yashirmang, Oymomo opa, men sizga aytyapman!

— Endi bo'lmaydi-e... — ko'r ovozda dedi otamiz.

Hisobchi otamiz bilan onamiz boshiga keldi. Qo'llarini orqasiga qilib turdi.

— Va'dalarlingizni qopga solib ortsa, ot ko'tarolmaydi! Bo'ldi-da, endil!

— Ayb bizda, hisobchi, ayb bizda!

— Nima, uyingizda yig'lab qoladigan bolangiz bormidi?!

Qoplon otamiz tok tomiriga egilmish ko'yi qoldi. Qaddini rostlashini-da bilmadi, rostlamasini-da bilmadi. Tok tomirlarida g'imirlamish sariq chumolilarga tikilib qoldi.

— Qaytanga bolalilar o'z vaqtida kelayapti! Ana, Xumor, Sanamlar! Bari qo'sha-qo'sha bolalik ayollar!

Oymomo onamiz belni yerga qadadi. O'ng bilagi-ni beldasta uchiga qo'ydi. Peshonasini bilagiga qo'ydi. Yuzlarini bekitdi...

Qoplon otamiz onamiz holidan tag'in-da ezildi, tag'in-da kuydi. Qaddini rostlamay, yer ostidan hisobchiga qaradi. Bu qarash mana bunday dedi:

«Ay, musulmon, peshonangda ayolimiz turibdi-ki. Mayli, meni o'ylama, shu poshikastani o'ylab gapir...»

— Ko'p o'qraymang. Qoplon aka! Men sizga yomon gapirayotganim yo'q! Men qonun bo'yicha gapiryapman!

Qoplon otamiz ko'zlarini pir-pir etdi.

«Qonuning kallangni yesin, hisobchi, kallagi-nangni yesin...».

Qoplon otamiz hisobchidan ko'zlarini oldi. Tok tomirlariga yuz burdi.

Shu vaqt, besh-olti jo'ya narida ishlamish Hasan bobo ovoz berdi:

— Ay, hisobchil — dedi. — Og'zim bor deb karillay berasanmi, bo'lди-da!

— O'zingiz o'ylang-da, Hasan bova! — dedi hisobchi. — Anavi Sanam bilan Xumorning egiz bolasi bor, egiz! Shunday bo'lsayam, o'z vaqtida ishga keladi! Oymomo opaning anavi beldastadan boshqa nimasi bor?!

— Bolasi bormi-yo'qmi, u, sen bilan bizning ishimiz emas, u, Yaratganing ishi, hisobchil..

— Er-xotinning qornidan boshqa qayg'usi yo'q! Yana tag'in, ishga kechikkani kechikkan!

— Bo'lди-e, ko'p karillama-e!

— Bolalik bo'lsayam mayli edi! Bolasini emizadi deymiz, bolasini allalaydi deymiz! Bular kimni emizadi, bular kimni allalaydi?! Er-xotin bir-birovini allalaydimi?! Er-xotin bir-birovini emizadimi?!

Qoplon otamiz qalqib ketdi! Yuztuban yiqlayin-yiqlayin, dedi!

Bovujud, beldastaga suyanib qoldi. Beldasta ushlamish barmoqlari qalt-qalt etdi.

Shahd bilan qaddini rostladi. Olislab ketmish hisobchi ketidan qaradi. Tish g'ijirlatib-tish g'ijirlatib qaradi.

Qoplon otamiz tok jo'yani ishladi. Tok ostini aylana qilib kovladi. Tok belida unib chiqmish patak tomirlarni yulib tashladi. Qari toklarni kundakov qildi.

Oymomo onamiz tok pushtani ishladi. Novdalar uchini sug'urdi. Novdalarni iloji boricha yuqori ko'tardi.

Boisi, novdalar yerda tursa, oyoq tega beradi, kiyim o'ngirlari ilasha beradi. Oqibat, novda pindiqlari uchib ketadi.

Hosil esa, ana shu pindiqlarda bo'ladi!

Otamiz bilan onamiz g'arq terga botdi.

Otamiz ko'ylagi yelkalariga jiqqa yopishdi.

Onamiz entikib-entikib nafas oldi.

Kun qiyolab-qiyolab botdi.

Ishdan qaytar vaqt bo'ldi.

Hisobchi dehqonlarga aytdi:

— Ertaga vaqtliroq kelninglar! Salqinda ish unadi! — dedi.

Jo'na-jo'na bo'ldi.

Nurmat ko'sa tevaragiga alang-jalang bo'ldi.

— Ay, xaloyiq, mening belimni ko'rmadilaringizmi? — dedi.

Dehqonlar ko'saga qaradi. Gurillab kului.

— Nimaga tirjayasizlar, — dedi ko'sa, — ko'rgan bo'lsalaringiz aytingizlar-da!

— Belingiz bozor ketdi! — deya xaxolab kului dehqonlar.

Bir dehqon qo'li bilan ko'saning yelkasini ko'rsatdi.

Nurmat ko'sa yelkasiga qarab, o'zi-da xaxolab kulib yubordi. Boisi, ko'sa belini yelkasiga qo'yib, dastasidan ushlab turdi!

Dehqonlar shu qadar charchadi!

11

Kolxoz otamiz bilan onamizga pilla berdi.
Pillachi agronom bir kaft urug' olib keldi.
Urug'lar yo'ng'ichqa guliday-guliday bo'ldi.
Joni yo'q bo'ldi.
Onamiz urug'larni hovlidagi so'rige yoydi.
Bir quti pilla ikki odamga og'irlilik qiladi.
Shu bois, otamiz brigadirdan tag'in bir odam
so'radi.
Brigadir Qimmat momoni berdi.

12

Qimmat momo darvozadan qora berdi. O'zi gapirib-o'zi qo'yib kela berdi:

— Brigadir aytgandan kela berdim. O'zimning ulpi-tomirlarim bilan ishlaydigan bo'pman-da, dedim. Aylanayin bo'laginamdan, o'rgilayin bo'laginamdan. Qani, bo'laginam, xo'p omonmisiz, xo'p damlimisiz...

Qimmat momo onamiz bilan qo'lтиq ostidan qo'l uzatib ko'rishdi.

— Bo'lam-da, ming qilsayam bo'lam-da, — dedi.
— Yaxshi ko'raman. O'zimcha eslab yuraman. Xudo tirnoqdan qisgan bo'lsayam, o'zlarining tani-joni sog' bo'lsin deyman. Inim qayoqda? Ha-a-al Uyam ko'zimga yaxshi ko'rindadi. O'zimniki-da, o'zimniki.

Qimmat momo asta tizzasiga urdi. O'zicha kuy-gan bo'ldi:

— Uf-f-f, birkam dunyo ekan-da, — dedi. — Mana shu hovlida ikkovgina qorako'z burni oqib yursa, kattalar pilla berarmidi! Kattalar bunday qarasa, keng bir hovlida ikkovgina er-xotin bor. Tirnoq zoti yo'q... Shularga pilla beraylik, degan-da.

Oymomo onamiz yomon vaziyatda qoldi. Nima deyishini bilmadi. Yerga qaradi. Nima qilishini bilmadi. Cho'p bilan yer chizdi.

Qimmat momo bir darvoza tarafga, bir uy tarafga alang-jalang bo'ldi. Keyin, ohista gap ochdi:

— Uyginangda hech kim yo'qmi, bo'lam?

— Yo'q, nima edi?

— Bo'lalarning gapini birov eshitmasin deymanda bo'lam. Hozirgi zamonning odamlari yomon bo'p ketgan, bo'lam.

— Ayta bering, uy ovloq, ayta bering.

— So'ramoqdan ayb yo'q, deydilar... Birov-yarim bilan... bordi-keldi qilib ko'rmadingizmi, bo'lam?

Oymomo onamiz yer chizishni bo'ldi qildi. Chizilmish yerga tikilib qoldi. Qimmat momo nima dedi, mag'zini chaqa olmadi.

— U nima deganingiz? — dedi.

— Sodda bo'lamdan-da, soddagina bo'lamdan-da. Sodda ko'p yaxshi-da. Soddalik — ko'ngil tozalik bo'ladi. Sodda bo'lamdan aylanayin, soddagina bo'laginamdan o'rgilayin. Shu... birov-yarim bilan deyman-da... yotib deyman.

— Nima-nima?

— Birov-yarim bilan yotib... o'zingni bir sinab ko'rmadingmi, deyman...

Oymomo onamiz yalt etib Qimmat momoga qaradi. Onamiz yuzlari lov-lov yondi. Ko'zlari pirpir etdi.

— Og'zingizga qarab gapiring, momo, og'zingizga qarab qapiring!

— Og'zim qarab gapirmsam-gapirmsam-da, bo'lam. Gulday umringni zoe ketkazib nima qilasan, bo'lam...

— Qanday birov-yarim bilan, qanday birov-yarim bilan?! — birdan olov oldi onamiz. — Boshimda haq nikohlik egam turibdi-ku!!!

— Haq nikohlik egangdan yorug'lilik chiqmasa nima qilasan, bo'lam...

— Nima demoqchisiz?! — hamingqadar olovlandi onamiz. — A, nima demoqchisiz?!

Qimmat momo ra'ykorchi bo'ldi.

— Ana, ferma mudirimiz bor, uyurdagi ayg'irday bo'p yuribdi... — dedi. — U bo'lmasa, ana, brigadirimiz bor, kelbati egiz tug'diraman, deb turibdi...

Oymomo onamiz shahd bilan joyidan turdi. Shasht bilan so'ridan tushdi. Kalishini-da kiymadi. Yalang oyoq darvoza tarafga yurdi. Darvoza tavaqalarini lang ochdi. Qo'li bilan ko'chani ko'r-satdi.

— Keting! — dedi. — Hozir keting!

Qimmat momo joyidan turishini-da bilmadi, turmasini-da bilmadi. Bezrayib o'tira berdi.

— Eb-ey, yaxshilikka yomonlik! — dedi. — Men seni bo'lam deb aytib edim, bo'laginam deb aytib edim, eb-ey!

— Men sizga keting, deyapman!

— Eb-ey, men pillaga kelib edim, eb-ey!

— Ketmaysizmi, ketmaysizmi?!

Oymomo onamiz shunday deya, itini chaqirdi:

— Bah-bah-bah, Olapar, bah-bah-bah!

Katak oldida yotmis Olapar chopqillab keldi. Dumini likillatib-likillatib, onamiz o'ngirini iskadi.

— Keting deyapman!! — dedi onamiz. — Bo'lmasa, Olaparni olkishlayman!!

Qimmat momo lik etib joyidan turdi. Kalishini yo'l-yo'lakay kiydi.

— Ketayapman, bo'lam, mana, ketayapman! — dedi.

Qimmat momo Olapardan hadiksirab odimladi. Olapardan ko'z uzmay odimladi. Olaparni yonlab-yonlab odimladi. Ketiga qarab-qarab odimladi.

— It yomon, bo'lam, it bilan o'ynashmang, bo'lam! — deya-deya odimladi.

Darvozadan tashqariladi. Qaddini rostladi. O'zini erkin oldi. Ko'ylak yoqalarini ko'tarib, ichiga tuf-tufladi.

— Ay bo'lam, pillaga qachon kelayin? — dedi.

— Qorangiz o'chsin-e, sizdaychikin pillaching-e!..

Oymomo onamiz darvoza tavaqalarini qars-qars yopdi. Zanjirini sharaq-sharaq zanjirladi. Keyin, darvoza tirkishidan mo'raladi.

Qimmat momo hamon ostonada turibdi! Avzoyi, tag'in ichkari kiraman, deyapti!

Oymomo onamiz tevaragiga alangladi. Bur-chakda yotmisht narvonni sudrab keldi. Darvozaga tirab qo'ydi. Qimirlatib-qimirlatib ko'rdi. Xotiri jam bo'lди.

Uyga kirib, o'zini to'shakka tashladi.

Xo'ng-xo'ng yig'ladi. Yig'lab-yig'lab uxbab qoldi.

13

Oqshom vaqtি:

— Qimmat momo kelmasin, — dedi onamiz.

— Nima uchun? — dedi otamiz.

— Beti qursin!

— Boshqa odam yo'q, momosi. Brigadir shu momoni-da arang berdi.

— Boshqa odam bo'lmasa-da mayli, o'zimiz eplaymiz.

14

Qoplon otamiz dahlizda so'ri qurdi.

Oymomo onamiz yo'ng'ichqa gullarni so'rige yoydi.

Kun taftli bo'lsa-da, pechka yoqdi. Havoni pil-labop etdi.

15

Bir haftada yo'ng'ichqa gullar jon oldi.

Jonivor bo'lib g'imirladi.

Pilla bo'lib bargga kirdi.

16

Qoplon otamiz adirdan barg olib keldi.
Oymomo onamiz shoxcha bargini chilpib-chilpib
oldi. Pilla urug'lar uzra yoydi.
Pilla barg yegan sayin bolaladi.

17

Dahlizdag'i uch qavat so'ri-da pillaga to'ldi.
Otamiz bilan onamiz o'zлari yotib-turuvchi uy
ashqol-dashqolini tashqari olib chiqdi. Temir
so'riga uydi.
Uyda uch qavatli, uch qator so'ri qurdi.
Bu uy-da pilla bilan to'ldi.
Pilla urug'lay berdi.
Otamiz bilan onamiz endi mehmonxona jihoz-
larini tashqari chiqardi. Temir so'riga qo'ydi.
Mehmonxonada uch qator, uch qavatli so'ri
qurdi.
Shunday katta mehmonxona-da pilla bilan to'lib
toshdi.
Boshqa bo'sh uy qolmadi. Yolg'iz oshxona qoldi.
Otamiz bilan onamiz oshxonadagi qozon-toboq-
larni tashqari chiqardi. Temir so'riga qaladi.
Oshxonada uch qavat so'ri qildi.
Hovlidagi temir so'ri ichkaridan olib chiqilmish
ashqol-dashqollar bilan to'ldi.
Tok vayishi osti bargxona bo'ldi.
Otamiz bilan onamiz uchun tirikchilik qiladigan
joy qolmadi.
Tovuq katagi yonida bir gilamlik bo'sh joy
bo'ldi. Bu, qishda yoqilib ado bo'l mish g'o'zapoya
uyumi joyi bo'ldi.
Otamiz bilan onamiz o'tirib-turajak gilamlarini
ana shu joyga olib kelib to'shadi.
— Katak oldi yaxshi-da, — dedi onamiz. —
Tovuqlar qoqoqlab uyg'otadi.
Shunday qilib, otamiz bilan onamiz uylari

to'rini pilla uchun berdi. O'zлari torvuqlar bilan yonma-yon yotdi.

Pilla birinchi uyquga ketdi.

Ikki kecha-yu ikki kunduzda uyqudan turdi.

Ishtaha bilan barg yeb boshladи.

Pillachi agronom kelib ko'rdi.

— Yaxshi, ko'z tegmasin, yaxshi, — dedi.

Pilla ikkinchi uyquni oldi.

Bunda-da ikki kecha-yu ikki kunduz uxladi.

Bu safargi ishtahalari-da yomon bo'lindi.

Bergan bargni berganday, ilma-teshik qilib yuta berdi.

Pilla uchinchi uyquga ketdi.

Bu safar ikki yarim kecha-yu ikki yarim kunda uyg'ondi.

Tag'in-da barg, barg, dedi.

Qoplon otamiz pilla barg yeishini ko'rib:

— Yo, tavba-el — dedi. — O'zлari maydamayda, chinchiloqday-chinchiloqday bo'lsa, qorinlari qayerda bo'ldi ekan...

So'rilar osti tariqday-tariqday qora qumaloqlarga to'ldi.

Onamiz qumaloqlarni peshma-pesh tashlab turdi.

Pilla to'rtinchi uyquga ketdi.

To'rtinchi uyquda bir yarim kun-u tun uxladi.

18

Otamiz tag'in bargga otlandi.

Adirda tut ayrisiga minib shox kesdi. Shox kesa berib qo'llari toldi.

Tut tanasiga yag'rin berdi. Vazmin tin oldi. Olislarga qarab o'tirdi. Ko'zi ketib-ketib o'tirdi...

Shunda, oq eshakli, oq sallali bir chol ariq yoqalab kela berdi.

Otamiz cholni tanimadi.

Chol tut ostidan o'tdi.

Otamiz cholni Namoz boboga o'xshatdi.

Bosh irg'ab, salom berdi.

Ammo chol alik olmadi.
Otamiz sergaklandi. Tanadan mahkam ushladi.
Yerga qaradi.
Chol yo'q...
Yerga sapchib tushdi. Tevarakka alangladi.
Chol yo'q...
Ko'ngliga tahlika tushdi. Yoqasini ko'tardi.
Ichiga tuf-tufladi.
Barg ozroq bo'lsa-da, jamlab boyladni. Otiga
ortib jo'nadi, ketiga qarab-qarab yurdi.
Xayolida, chol ketidan kelayotganday bo'ldi.
Otini lo'killatib-lo'killatib haydadi.

19

Uyga kelib, bir boshqa bo'lib qoldi. Parishon
bo'lib qoldi. G'amgin bo'lib qoldi.
Onamiz molxona tarafdan qo'zi quvib keldi.
— Manavini ushlab bersa bo'lmaydimi? —
dedi. — Bir menga kerakmi, shu ro'zg'or!
Otamiz qo'zi quvib ketdi.
Qo'zi hovlini aylanib chopdi. Xiyol olisda pusib
turdi.
Otamiz panalab-panalab bordi. Birdan qo'zi
oyog'iga qo'l tashladi.
Qo'zi ushlatmay qochdi. Devor qoralab hurkib
turdi.
«O'zi, bu ish yosh bolaning ishi, Xushvaqtning
ishi...» — deya xayollandi otamiz.
Otamiz enkayib-enkayib bordi. Qo'llarini yoyib,
qo'ziga qo'shqo'llab yopishdi.
Qo'zi tag'in ushlatmadni. Dirk etib qochib ketdi.
Otamiz yerga kaftlari bilan borib tushdi.
Kaftlari shilindi. Ust-boshlari chang bo'ldi.
«Xushvaqt bo'lsa edi, bundaychikin qo'zini
xash-pash deguncha ushlab olar edi...» — Tag'in
xayollandi otamiz.
Otamiz qo'zini burchakka qamab bordi.
Quchog'ini katta ochib bordi. Ko'ksi bilan qo'ziga
tashlandi. Bu safar ushladi.

Qo'zini ko'tarib borib, qo'y qoshida quchoqlab o'tirdi.

Boisi, qo'zichoq ko'zdan pana bo'lsa, sovliq iymaydi.

Onamiz sovliq sog'ib boshladi:

Qo'y sog'amani qo'shoqda, turey-turey.

Qo'y ishqini menga yoqqan, turey-turey.

Qo'y sutini ichganlar, turey-turey,

Kundan-kun shifo topgan, turey-turey...

Sovliq iydi, sovliq qo'zisiga tumshuq cho'zdi...

Otamiz ketiga tis bo'lidi. Qo'zini sovliqdan xolislatdi.

Otamiz ko'ngli biryon bo'lidi...

Shu o'tirish, azza-mazza erkak uchun epmi?

Qo'zi ushlab turish, kap-katta odam ishimi?

Tokaygacha Xushvaqt ishiga-da o'zi yuradi?..

Sovdi bo'lib sovdirgin, turey-turey.

Sovsa kadi to'l dirgin, turey-turey.

Buncha kuyma, jonivor, turey-turey.

Taqdiringni ka'ndirgin, turey-turey.

Sovliq ko'zi devorda yurmish mushukka tushdi. Tag'in-da berilib iydi. Boisi, sovliq mushukdan qo'rqadi!

Tog'larga bor, quv olma, turey-turey.

Sovdi bo'lgin, suv olma, turey-turey.

Bolangning yo'qligini, turey-turey,

Ko'nglingga og'ir olma, turey-turey.

Mushuk devordan sapchib tushdi.

Sovliq bir seskandi.

Bolaginang baxtingdir, turey-turey.

Uni olib uxlagin, turey-turey.

Bolalilar ma'rashar-a, turey-turey.

Bolasizlar qarashar-a, turey-turey...

Onamiz joyidan turdi.

— Qo'zini qo'yibersa-da bo'ladi, — dedi.

Otamiz qo'zini qo'yib yubordi.

Katak oldida to'shalmish gilamga keldi.
Bolishga yuztuban tashladi.
Bolish ho'l bo'ldi...

20

Pilla urug'i ochofat bo'ldi!
Onamiz urug'lar uzra barg yoyib, o'ng-chapiga
qaragunicha novdalar shipshiydam bo'lib qola
berdi.

Otamiz kecha-yu kunduz barg tashiy berib,
tinka-madori quridi. Ko'zi ilinib edi, onamiz tag'in
turtdi.

— Tursin, barg olib kelsin, — dedi.
— Boyanagina olib keldim-ku? Bularing to'yadi-
mi o'zi, yo'qmi?
— To'rtinchi uyqudan keyin shunday bo'ladi,
tursin...

— Ko'zim ilingandan turtasan-turtasan!
Anavilaring bo'lsa, ketmon chopib horiganday
uxlagani uxlagan! Ikki kunlab uxlaydi, ularingga
indamaysan! Uyg'ot barini! Bo'ldi, izzati!

— Aytmasa-da, endi uxlamaydi.
— Shu oxirimi? Xayriyat-e!..
Otamiz uyquli ko'zlarini uqalab-uqalab turdi.
Egar qoshiga arqon o'rab, bargga otlandi.

— Aytib qo'yayin, agar yana pilla olaman
desang, mendan o'pkalama! — dedi.

Otamiz boyagi choldan qo'rqi. Boshqa bir
adirdan barg olib keldi.

Uzun shoxlardan novdalar siyirib-siyirib oldi.
Onamizga qo'lтиqlab-qo'lтиqlab tashib berdi.

O'zi-da ichkariladi.
Derazalar gilam bilan yopilishidan ichkari
qorong'i bo'ldi.

Otamiz deraza tokchasiga o'tirdi. Yelkasi bilan
devorga suyandi.

Shunda bir nima eshitdi. Sergak bo'lib quloq
soldi.

Tashqarida shovullab havo yog'di. Shovul-

lashidan, maydalab yog'di. «Ana endi barg olib kelish qiyin bo'ladi. Olib kelsa-da, quritish lozim bo'ladi», — deya xayollandi otamiz.

Otamiz so'rilar aro mo'raladi, onamizni izladi.

— Ay, havo yog'yapti, eshiyapsanmi? — dedi.

— Bekorlarni aytibdi.

— Ana, qulq sol, ishonmasang, ana.

Otamiz dahlizladi. Yorug'da xiyol ko'z ocholmay turdi. Keyin, tashqari qarab, hayron bo'ldi.

Kun charaqlab turdi, yerda bir tomchi-da yomg'ir yo'q bo'ldi.

Angrayib, tag'in ichkariladi.

Ichkarida hamon shovullab yomg'ir yog'di...

Onamiz qorong'idan kinoyali ovoz berdi:

— Ha, yog'ayaptimikin? — dedi.

— Tashqarida kun chiqib turibdi, momosi.

Nimaga unday?

Onamiz piq-piq kuldi.

Otamiz tag'in o'tirdi. E'tibor bilan qulq soldi.

Pilla urug'lar bir vaqtida barg yedi, bir me'yorda barg yedi, yana tag'in, yoppasiga barg yedi...

Ana shu vaziyatda eshitilmish sirli ovoz, yomg'ir yog'ishiga o'xshadi...

Sokin, qorong'i olam bo'ldi. Misoli tun bo'ldi, yomg'ir maydalab-maydalab yog'di: shuvvv...

So'rilar omonat turmish novdalar yerga tap-tap tushdi. Misol, yomg'irdan namiqmish bo'g'ot shox-shabbasi qirs-qirs sinib tushdi...

Yomg'ir ezib-ezib yog'di: shuvvv...

21

Barg tashvishi oxirladi.

Endi, chitir o't topib kelish lozim bo'ldi.

Otamiz adir otlandi. Toshloqdan o'tdi.

Adir poyida oyoq ildi. Jilovga erk berdi.

Telpagini keyiniga surdi. Olis-olislarga qaradi.

Vaxshivor adirlari turnaqator bo'ldi. Qirlari o'rkach-o'rkach bo'ldi. Oxiri ko'rinnadi.

**Adir-qirlar o'ti bo'lganicha bo'ldi. Belga urdi.
To'lqin bo'lib chayqaldi.**

**Qizg'aldoq adirlar, qizg'aldoq qirlar alvon-alvon
tovlandi.**

Otamiz adirladi, otamiz bahor oraladi.

**Dimog'i turfa islarni tuydi. Bir is shuwoq o't
isidan bo'ldi.**

**Otamiz bahor oralab bora berdi. Ana shu isni
taratmish o'tni topdi.**

**Tizza bo'yli, gullari och-sariq o't. Tanasi
ko'kimitir-oq, barglari mayda-mayda o't. Sershox,
sertuk o't.**

Chitir o't ana shu bo'ldi!

**Otamiz chitir o't terdi. Tomiri bilan sug'urib-
sug'urib ola berdi.**

**Chitir o't qo'l tegishi bilan tag'in-da o'tkir is
taratdi. Isi dimoqni qitiqladi.**

**Otamiz otida ikki boylam chitir o't ortib keldi.
Tom ustida yoyib-yoyib quritdi.**

**Pilla urug'lar to'lishdi. O'zini ko'tara olmay
qoldi. O'zini eplay olmay qoldi.**

**Oqibat, bargdan qaytdi, bargdan qoldi. Bargdan
ters burilib-ters burilib keta berdi.**

**Pilla urug'lar karaxt bo'lib-karaxt bo'lib qoldi.
Mudrab-mudrab qoldi.**

**Bu, pilla urug'ining beshinchı uyqusi bo'ldi,
so'nggi uyqusi bo'ldi.**

So'ngi uyqu to'rt-besh soatcha davom etdi.

**Otamiz bilan onamiz chitir o'tlarni dastlab-dast-
lab pilla urug'lar uzra yoydi.**

Pilla urug'lar chitir o'tlarga talpindi.

**Pilla urug' yigiraman desa, joy tanlab o'tirmay-
di. Uchramish joyida yigira beradi.**

**Unda, ne boisdan pillachilar chitir o't terib
keladi?**

**Boisi, chitir o't isi pilla urug'iga xush yoqadi.
Pilla urug' ana shu isga talpinadi. Ana shu is
og'ushida mo'l-mo'l yigiradi.**

**Boisi, chitir o't quyuq-quyuq tukli bo'ladi. Pilla
urug' ana shu tuklarga mo'l-mo'l yigiradi.**

Ana-ana, bir urug' talpina-talpina, arang chitir-ga chiqdi, chitir tanasi bo'y lab yurdi. Shoxlar ayrisiga keldi. O'ziga ma'quliga qarab yurdi.

Novdalar ayrisida joylashib oldi, joyida aylana berdi. Ya'ni, yigira berdi. Har yigirishida o'zidan ipak chiqardi.

Ipak, chitir o't quyuq tuklariga ilashib-ilashib, to'r bo'lди. To'r quyuqlashib-quyuqlashib, boshmal-doqday-boshmaldoqday g'anak hosil bo'lди.

Oppoq-oppoq pilla ana shunday bino bo'lди!

22

Pilla qo'yilmish uylardan qo'lansa hid arimadi.

Hidlar dastidan uylarda o'tirib-da bo'lмади, yotib-da bo'lмади.

Otamiz bilan onamiz bot-bot uy supurdi, bot-bot uy yuvdi. Eshiklar bilan derazalarni lang ochib qo'ydi.

Shunda-da bo'lмади. Pilla qo'yilmish uylardan oy-oylab badbo'y hid arimadi.

IV

Bobomiz sergaklandilar. Qaddini ko'tardilar. Chordona qurdilar. Tizzalarini quchoqladilar. Sallasini ketiga surib qo'ydilar.

Yellar zabi bobomiz peshonasiga xush yoqdi.

Otlar kishnagan tarafdan yangi o'rilmish yo'n-g'ichqa isi keldi.

Bobomiz tun jarchisi ovoz bermish tarafga qaradilar.

Odam ovozlaridan darak bo'la bermadi.

Bobomiz oydin olislarga termildilar. Xayoliy ovozda aytdilar:

— Mabodo suvda zardoli oqmay qolsa, bolalar devordan bo'laydi. Zardoli bering, deyolmaydi. Suv oqib chiqadigan teshikni poylaydi. Shamoli qurg'ur hadeganda bo'la bermaydi. Shunda, bildirmayman-da, o'zim shamol bo'laman. Zardolini

*ohista-ohista silkiyman. Zardolilar duvv-duvv
to'kiladi... Shunda, ko'chadan, ushla, oqib kelayap-
ti, ushla, degan ovozlar keladi...*

1

Toltush emish...

Olapar tut soyasida old oyoqlariga tumshuq qo'yib suvgaga termular emish.

Devor yoqalab oqmish ariqda bir qizil olma bir ko'rini, bir ko'rinnay oqib kelarmish.

Olapar quloqlarini dikkaytirib, olmaga ajablanib qararmish.

Yeb bo'lmasligini bilarmish-da, tag'in oyoqlari-
ga tumshuq qo'yarmish.

Olapar qabatida qizaloqlar davra bo'lib o'tirib bosmalim o'ynar emish.

Bir qizaloq gilosday-gilosday beshta tosh ikkitasini o'ng, ikkitasini chap tarafiga qo'yarmish. Qo'lida qolnish bir toshni osmonga otarmish. Kafti bilan yerga bir shapatilarmish-da, osmondan kelmish toshni qo'li yuzasi bilan ilib olarmish. Qo'li yuzasidan g'oyat nafis, g'oyat epchillik bilan qo'li kaftiga olarmish...

Qizaloq... onamiz qizi emish!

Onamiz... qizi otini bilmasmish!

Qizi bosmalim o'ynay berarmish-o'ynay berarmish! Bosmalimming yovg'on turini o'ynab bo'lib, dahmana, ulug', eshala, eshonqo'zim, shovdir, kichikqon, kattakon, kultepa, yer shapillatar, qayiruv, kelin turlarini-da o'ynarmish.

O'yin yakunlovchi kelin turiga yaqinlashgan sayin murakkablashib borarmish.

Qizi toshni turli-tuman o'ynatib-o'ynatib ilib olarmish. Shu tur nomini o'yin nag'masiga monand bot-bot aytar emish:

— Kelnim bir, kelinim ikki, kelinim uch...

Qizi ko'p turlarni uch marotaba ijro etibdi. Ulug', kattakon degan turlarni olti marotaba, eshonqo'zim turini to'qqiz marotaba takrorlabdi.

Toshni tur oxirigacha yerga tushirmay o'ynabdi. Xatolikka yo'l qo'ymay o'ynabdi. Bordi-yu, biror toshni nomal'qul ilib olsa, yo, adashib ilib olsa, bosmalim o'ynash gali yonidagi qizaloqqa....».

Temir so'rida yotmis Oymomo onamiz seskanib uyg'ondi. Qorayalangbosh turib o'tirdi. Bolishda yoyilib yotmis ro'molini yopindi. Tizzalarini ko'rpa sirtidan quchoqladi. Uyquli ko'zlarini uqaladi. Tevarakka alangladi.

Oy qorong'i bo'ldi. Yulduzlar siyrak bo'ldi.

Robiya hamsoyasi go'dagi big'-big' yig'ladi.

«Kelib-kelib shu mahalda-da yig'laydimi... — deya o'kindi onamiz. — O'zi, hali nima ko'rди? O'g'il ko'rдими, yo, qiz ko'rдими? Qiz ko'rди, qiz! Bosmalim o'ynadi-ku....».

Onamiz esnab-esnab ming'illadi:

— Qiz bo'lsa-da mayli... — dedi.

Qabatida yotmis otamiz-da uyg'ondi.

— Nima balo, elovrayapsanmi? — dedi.

— Yo'q, Robiyaning chaqalog'i uyg'otib yubordi.

— Shuning chaqalog'i yomon yig'loqi bo'ldi-da.

— Aytgili yo'q.

— Yot endi, yot.

Onamiz yotib, ko'zlarini yumdi.

«Hali tong olis, — umidlandi onamiz. — Tushimning oxirini ko'raman. Shunda, qizimning otini bilib olaman....».

2

Kuzda mayiz qilish boshlandi.

Otamiz avval o'z tomorqasi mayizini qildi.

Hosil yaxshi bo'ldi. Besh yuz kilocha mayiz oldi.

O'zi to'qimish ikkita qo'lsavatchani egar qoshi-ga qistirdi. Kolxozi mayiziga yo'l oldi.

Ot qozig'ini tarvuzpoyaga tepib-tepib qoqdi.

Xurjun yelkalab, tokzor oraladi.

Paykallarda chollar tizilib uzum uzdi.

— Xirmon to'lsin-ul — dedi otamiz.
— Yo'lingiz unsin-u! — dedi chollar.
Otamiz chaqqon bo'ldi. Paykalga tushdi.
Uzum boshlarini chirsillatib-chirsillatib uzib,
qo'lsavatga soldi.
Bir bo'zbola zambil savatni paykal boshiga
qo'ydi.
Otamiz savatchasidagi uzumni peshma-pesh
zambil savatga solib turdi.
Zambil uzumga to'ldi.
Bo'zbola choponi orqasini yag'riniga qayirdi.
Bir qo'lini beliga tirab, engashdi.
Otamiz ellik kilocha kelmish savatni bo'zbola
yag'riniga qo'ydi.
Bo'zbola ilon iz so'qmoqdan tepa o'rлади.

3

Tepada ayol-qizlar davra qurib uzum tozaladi.
Oymomo onamiz-da chap tizzasiga tirsaklab
uzum tozaladi.
Onamiz yuzlari so'lg'in bo'ldi. Onamiz kechagi
tushlari o'yida bo'ldi.
Onamiz peshonasida o'tirmish Barchin xola:
— Qani, Oymomo do'stim, bundaygina...
mashqingiz past? — deya ko'ngil so'radi.
— Shunday, o'zim... — deya ma'yuslandi
onamiz.
— Ay, do'stim, so'raganning aybi yo'q... u yoq-
bu yoqqa yuguryapsizlarmi?
— Ha, vaqtı-vaqtı bilan.
— Vaqtı deb o'tirasizlarmi? Ish ado bo'larmidi!
Uyoq-buyoqqa choppingizlar, ko'rsatingizlar-da!
— Borib turibmiz.
— Qayerlarga bordilaringiz?
Shunda, davra yoppasiga sergak bo'ldi.
Onamizdan bir ayol narida o'tirmish Qimmat
momo-da quloq berdi.
— So'fi Olloyor hazratimga bordik, — dedi
onamiz.

Qimmat momo boshini sarak-sarak etdi.

— Voy bechora-ye, voy bechoragina-al — dedi.

— Hazratimni ziyorat qildik. U kishi ohlarimni eshtdilar shekilli, ko'nglimga umid soldilar...

— Voy sho'rpeshona-ye, voy sho'rpeshona-gina-al — dedi Qimmat momo.

— Innaykeyin, Hojar ko'rqa fol ochirdim...

— Voy sho'ring qurgur-ey, voy sho'rginang qurgur-e! Shuncha sarson-sargardon bo'pti-ya!.. — dedi Qimmat momo.

Onamiz ko'kragiga tushmanish ro'moli uchini yelkasiga tirsaklab tashladi. Bir bosh uzum olib, Qimmat momoga qaratib otdi.

Uzum Qimmat momoning betiga borib tegdi. Beti shilt-shilt uzum shirasi bo'ldi.

Qimmat momo betini changallab qoldi.

Onamiz zabit bilan joyidan turdi. Qimmat momoni yulmoqchi bo'ldi, yumma-yumma yulmoqchi bo'ldi.

Afsuslar bo'lsinkim, Barchin xola onamizni ushlab qoldi. Tirsagidan yetaklab, xolisroqqa olib borib o'tirg'izdi.

— Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi! Qo'ying, do'stim, shunga teng bo'lman! — dedi.

Onamiz rangida qon qolmadi. Olisdan chopib kelmishday hansiradi. Qo'llari sovqotmishtay qal-tiradi. Tizzalariga peshonasini qo'yib, ho'ngrab yig'lab yubordi...

— Buniki bir bo'lmasa, ikki bo'lmasa, Bar-chinoy do'stim! — deya yig'ladi. — Yana tag'in xesh emish! Ha, oshingni yeyin, senday xeshimning!..

Qimmat momo onamizni mazzamat qildi.

— Men senga biron yomon gap gapirdimmi, it!!.. — deya shang'illadi. — Ichim kuyganidan, ichim achiganidan gapiraman-da, it!.. Peshonang nimaga bundayin sho'r desam, gap bu yoqda ekan-da, it!!..

— Bedana tezotar bo'lsa, o'z boshini o'zi yora-dil — dedi bir ayol.

**Qimmat momo onamizni mazzammat qildi-qildi,
kaftlarini katta ochdi.**

— Omin! — dedi, — mendayin bir begunoh momoni sochimning oqiga qaramayin urgan bo'lsang, iloyo, olamdan bepusht o'tgin! Mening yoshimga yetolmayin juvonmarg o'lgin, ollohabkar!.. — dedi.

Ayollar ichini tortdi, ayollar bosh chayqadi.

— Iloyo, og'zingdan chiqib, yoqangga yopishsin! — dedi Barchin xola.

Onamiz panoh izladi, onamiz najot izladi.

Yosh to'la ko'zlar olazarak-olazarak boqdi.

Pastda hayrondan hayron qarab turmish otamizni topdi.

Bir ko'ngli, otamiz oldiga borayin, dedi. Aytib-aytib yig'layin, dedi.

Ammo tevarak-boshdan or qildi.

Halqa-halqa ko'zyoshlar ichidan otamizga termuldi. Mo'ltirab-mo'ltirab termuldi...

Onamiz tag'in yig'ladi. Bilaklariga yig'lab-bilaklariga yig'lab qo'ya berdi.

— Dunyoda bir menmi, befarzand! — deya aytib-aytib yig'ladi. — Tirnoqqa zor bo'lib o'tg'anlar nechov! Men hali ko'rарman, umidim ko'p... Farzandning erta-kechi bo'ladimi... Birovga er-taroq beradi, birovga kechroq beradi...

— Bir qishning bir yozi bo'ladi, qarg'aning qag'illagani qoladi, Oymomo do'stim!

— Men uni ko'rdim, Barchinoy do'stim, ko'rdimi! Yaratganning o'zi uni tushlarimga soldi, ko'ngillarimga soldil Nima qilayin, vaqt-soati yet-magan ekanmi, qo'ynimga solmadi... Tushlarim to'ldi, ko'ngillarim to'ldi. Nima qilayin, qo'ynim to'lmay turibdi, quchog'im to'lmay turibdi... Barchinoy do'stim, men uni tolushda ko'rdim, tolushda! Dugonalar bilan tutimiz ostida bosmalim o'ynadi. Ishonmasangiz, Olapar itimdan so'rang. Bosmalimda unga teng keladigani bo'lindi. O'n ikki xilida-da adashmadi. Ayniqsa kelin xilini bir

o'ynadi-bir o'ynadil Dugonalari og'zini ochib o'tira berdi! Men uning otini bilolmay qoldim. Barchinoy do'stim... Robiyaning chaqalog'i big'illab uyg'otib yubordi. Tag'in ko'zlarimni yumib, uning yo'liga qaradim. U boshqa kelmadi... Baribir keladi. Barchinoy do'stim, keladi, mana ko'rasiz... Ana shunda uni shu yerlarga yetaklab kelaman! Mana shu momolaringga bir bosmalim o'ynab ber, deyman, Barchinoy do'stim!..

— Aytganingizga farishtalar omin o'qisin, Oymomo do'stim!

4

Otamiz tepada bo'l mish gaplarni eshitdi. Ammo eshitmaslikka oldi.

Uzum uzib-uzib, ari uyasiga duch keldi.

Ari uyası kungaboqarday-kungaboqarday bo'ldi.

Arilar g'uj-g'uj teshiklarda tumshuqlarini bir-biriga tegizib yashadi. Bordi-yu, chetdan tahdid bo'lsa, arilar yoppasiga hamla qildi. Shiddat bilan uchib kelib, tahdid qiluvchi ko'ziga yo qulog'iga yopishdi.

Otamiz choponi o'ngirini boshiga yopdi. Yenglarini tirsaklarigachayin qayirdi. Bilaklarini yalang'och qildi.

Ohista enkayib, ari uyası osilib turmish tok nov-dani silkidi.

Arilar g'imirladi, yoppasiga qo'zg'oldi. Ikkita-uchtasi otamiz ko'zini mo'ljallab uchdi, qulog'ini mo'ljallab uchdi. Ammo chopon o'ngiriga duch keldi.

Tag'in uchib, yalang'och bilaklarga borib yopishdi. Bilaklarga chim-chim nish urdi. Chim-chim-chim!..

Chim-chim chaqmish ari bo'ldimi yo chibin bo'ldimi?

Bilolmadi, otamiz bilolmadil

Otamiz kayfiyati shu qadar tarang bo'ldil

**Erkaklar peshin chog'i uzum uzishni bo'ldi qildi.
Paykallardan chiqib keldi.**

Ayollar erkaklarni ko'rib, u yoq-bu yog'ini tuzatgan bo'ldi, o'ziga qaragan bo'ldi.

Ayrim uzum donalari kesak orasida qolib yo suv tegib, chirigan bo'ldi.

Ayollar ana shu chirikni mayizjoy bir chetiga olib borib yoydi.

Oftobda ochiq qolib, po'la bo'lib qolmish uzum-lar-da bo'ldi. Bu uzum oftobi mayiz bo'ldi. Oftobi mayiz butun yozi bilan saraton oftobini olib pish-di. Shu bois, ko'p shifoli bo'ldi.

Ayollar ana shu oftobi mayizni alohida yoydi.

Mayizjoy chetida ulkan dasht o'choq bo'ldi. Ana shu o'choqqa o't yoqildi.

Otamiz choponi o'ngirini qayirib, belbog'iga qis-tirdi. Zinadan o'choqqa ko'tarildi.

Qozondagi suvgaga ishqor bilan ohak soldi.

Dasht-biyobonlarda bir o't o'sadi. Mayizchilar shu o'tni terib, to'da qilib kuydiradi. O't kuya-yotib, undan chakillab-chakillab suvi tomadi. Suv kul bilan qo'shib, cho'qir tosh misol qotadi. O'zi kulrang, o'tkir hidli bo'ladi.

Ishqor ana shu bo'ladi!

Mayiz qozon qaynadi.

Otamiz cho'mich bilan qaynagan suv tinig'ini oldi-oldi, bir toza idishga soldi. Qozonni tozalab yuvib oldi.

Keyin ishqor bilan ohak suvini tag'in qaytarib qozonga soldi.

O'tyoqar tinmay o't yoqib turdi.

Ayollar qo'lsavatlarga uzum solib berdi.

Bo'zbolalar qo'lsavat bog'ichidan ko'tarib, otamizga olib kelib berdi.

Otamiz oyog'ini o'choq labiga tiradi. Savat bog'ichidan avaylab ushladi. Bilqillab qaynab tur-mish qozonga pishib-pishib oldi.

Uzumlar sap-sariq bo'ldi.

Otamiz savatni tag'in bo'zbolaga uzatdi.

Bo'zbola ostidan ishqor ham ohak suvi sho'r-sho'r oqib turmish qo'l savatni mayizjoyga tashidi.

Ayollar uzumlarni yoyib-yoyib turdi. Jovuzni alohida, husayinini alohida, kishmishini alohida yoydi.

Boisi, har mayizning o'z ta'mi bo'ladi, o'z-mazasi bo'ladi.

Ana endi uzumlar oftobda hafta deganda quriydi, sap-sariq mayiz bo'ladi!

5

Ishdan qaytar chog'larida brigadir keldi.

Otamiz brigadirni xolisroqqa yetaklab bordi. Niyatini aytди.

Brigadir ajablandi. Boisini so'radi.

Otamiz javob bermadi. Ko'zlarini olib qochdi. O'zicha bosh irg'adi. Ko'nglida: «El-yurtga aralashmayin deyman, uka, tilim qisiq... Vaqtliroq kelganingda, tepadagi gaplarni eshitgan bo'ladidng...» dedi.

Otamiz o'z ko'nglida aytmish gapini brigadirga aytdim, deya o'yldi.

— Shunday, brigadir uka, shunday... — deya tag'in bosh irg'adi.

— Mayli, qorovullik bo'lsa qorovullik-da. Om bor bo'ladimi? — dedi brigadir.

— Yo'q, dala ber, uka, dala ber.

— Maylingiz, unda, Kamarga borasizmi?

— Yo'q, bizga Sayrak adirni ber, uka. Ayolimiz bilan ikkovimizga-da. Ayolimiz o'rniiga-da o'zim tura beraman. Ayolimiz ovqat pishirib berib turadi.

— Maylingiz.

— Shu, Sayrak adirga bir dil ketdi-da, uka...

— Bo'ldi-bo'ldi, gap yo'q! Lekin aytib qo'yay, Yo'ldosh qorovul ko'nmasov. Shunday bo'lsa-da, bir aytib ko'raman.

— Shunday qil, uka, shunday qil...

— Hali-hozircha qimirlab turing, mayizlar tugasin.

•Endi nima qilamiz, momosi?•

Otamiz shunday savol nazari bilan onamizga termuldi.

Onamiz g'ariblandi, onamiz azoblandi.

— Denovda zo'r tabib bor, deyishayapti, — deya pichirladi onamiz. — Borganlar dardiga davo topib qaytar emish...

Otamiz bilan onamiz ana shu tabibga bordi.

Tabib gap indallosini aytdi:

— Bizni e'tiborga olib kelibsizlar, qulluq, — dedi. — Endi, do'xtirga boringlar. Eshon, tabibni qo'ya beringlar. Oldinlari do'xtir yo'q edi, bo'lsada, taxchil edi. El bechora eshon, tabib deb kelar edi. Qo'limizdan kelganicha yo'l-yo'riq berib jo'natar edik. Endi, do'xtir ko'p, do'xtirdan qolmanglar. Lekin Denov do'xtirlariga bormanglar, qo'lga qaraydi... Termizda zo'r bir do'xtir bor. Ana shu do'xtirga boringlar. Mana, manzili...

Otamiz bilan onamiz mol-hollarni Robiya hamsoyasiga tayinladi.

Termiz yo'l oldi.

Qidirdi-qidirdi, tabib aytmish do'xtirni topdi.

Do'xtir yo'llanma so'radi.

Otamiz bilan onamizda yo'llanma bo'lmadi.

— Unda, qabul qilmaymiz, — dedi do'xtir.

Otamiz sarg'aydi.

— Uyimiz ovloq, mol-holga qaraydiganimiz yo'q... — dedi.

Do'xtir kuldi-kuldi... oxiri qabul qildi.

Erkaklar alohida do'xtirga navbatda turdi, ayollar alohida do'xtirga navbatda turdi.

Gal keldi, otamiz ichkari kirdi.

Do'xtir so'rab-surishtirdi. Qog'oz qoraladi. Keyin, otamizni qaradi... Analiz topshirish uchun yubordi...

— Uch kundan keyin keling, — dedi.

Gal keldi, onamiz-da o'z do'xtiriga kirdi...

Otamiz bilan onamiz Termizda uch kun qoldi.
Bozor mehmonxonasida yotdi.
Uchinchi kun do'xtir huzuriga bordi.
Avval otamiz ichkarilab keldi.
— Nima dedi? — so'radi onamiz.
— Sizdan farzand bo'lmasa, boshqa bir erkak-dan-da farzand bo'lmaydi dedi.
Keyin, onamiz ichkarilab keldi. Ma'yus-ma'yus bo'lib keldi, g'amgin-g'amgin bo'lib keldi.
— Nima, dedi-a, nima dedi? — so'radi otamiz.
Onamiz boshini chapiga xiyol egdi. Yerga ko'z tikdi.
— Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug', dedi... — deya pichirladi.
Otamiz ma'qullab-ma'qullab bosh irg'adi.
— Ana, aytdim-ku, bo'ladi deb, ana... — dedi.
Otamiz bilan onamiz qaytib keldi.

7

*Otamiz onasi oyoqdan qoldi.
Yotdi-yotdi, ovqatdan qoldi.
Yotdi-yotdi, tildan qoldi.
Yotdi-yotdi... cholni oldiga ketdi.*

8

Otamiz brigadir oldidan o'tdi.
Brigadir o'z so'zida turdi. Yo'ldosh qorovul oldiga yo'l oldi.
— Endi, siz Kamarga borasiz, — dedi.
Yo'ldosh qorovul hang-mang bo'ldi. Birdan tutab yondi...
Boisi, Kamar olis bo'ldi. Yana tag'in, Kamarda makkajo'xoridan boshqa nima bo'lmasdi. Sayrak adir esa bog'ot bo'ldi, gardi gurd og'iz tegib turdi.
Yo'ldosh qorovul olov oldi.
— Nima uchun endi? — dedi. — Bu yer-chi, misol uchun?
— Bu yerga boshqa odam keladi.
Yo'ldosh qorovul tag'in olov oldi.

— Birday u yoqdan bu yoqqa quv-quv ekan-da! — dedi. — Nima, biz kolxozning o'gay a'zosi-mi, misol uchun?

— Borasiz, borasiz.

— Raisga borsam boraman, Kamarga bormay-man!

— Obbo, siz gapni oling!

Qorovul haminqalar olov oldi.

— Olsam olmasam! Haydasangiz, mana, hay-dang! — dedi. — Bola-chaqam ochidan o'lsayam ishga chiqmayman! Gapim shu, misol uchun!

— Obbo, xo'p-e, xo'p!

— O'zi, kim ekan u, boshida oyи bor arzanda, misol uchun?

— Qoplon akaga deb edim! Mayli, bormasangiz bormang...

Brigadir og'rinib-og'rinib jo'nadi.

Yo'ldosh qorovul qo'llarini orqasiga qildi. Brigadir ketidan qarab turdi. Turdi-turdi-da, brigadir ketidan chopqillab bordi.

— Qoplon akaga bo'lsa mayli, misol uchun, — dedi. — Ko'ngli yarim... Boshqaga bo'lsa, o'lib ham bermasdim, misol uchun.

9

Ertasi otamiz keldi.

Yo'ldosh qorovul bilan tevarak aylanib ko'rди.

— Sizga brigadir hech nima demadimi, misol uchun? — so'radi qorovul.

— Yo'q. Nima edi? — dedi otamiz.

Qorovul xotirijam bo'lib gapirdi:

— Brigadirga aytdim, bu yerning qorovulligi-dan ko'p zerikdim, meni Kamarga yuboring, dedim. Brigadir mayli, dedi, misol uchun.

— Ha-a.

— Keyin, o'rtoq Odilov, siz o'z kasbingizning ustasisiz, o'rningizga o'rningizga tayinlang, dedi. Men aytdim, men bir bor-yo'g'i qorovul bo'lsam, qanday qilib qorovul tayinlayman, o'zingiz tayin-lang, dedim. Unda, o'rningizga munosib o'rningizga

ayting, dedi. Aytgan odamingizni qo'yamiz, gapin-
giz gap, so'zingiz so'z, dedi. Obro'y bor-da, misol
uchun, obro'y bor, ha!

— Shunday, ha, shunday.

— Men xo'p, dedim, misol uchun. Men bir
o'ylab ko'rayin qani, dedim. Ertaga bir xabarla-
shing, dedim. Bizning joyimiz hazilakam joylardan
emas, dedim. Chin-da, shuncha bog'-rog'ga qarab
o'tirishning o'zi bo'ladimi, misol uchun! Joyimga
kimni qo'ysam ekan deb, kechasi bilan o'yadim-
o'yadim! Qishloqda oti odam borki, barini bittalab
g'alvirdan o'tkazdim, barini chertib-chertib ko'r-
dim, misol uchun. Ertasi brigadirga, men Qoplon
akani o'rninga loyiq topaman, dedim!

— Ha-a.

— Bilamiz-da, kim qandayligini, misol uchun!

— Qulluq, qulluq.

— Ana bog', buyursin, misol uchun. Qani,
olloh-akbar, misol uchun!..

Yo'ldosh qorovul ko'ch-ko'ronini yig'ishtirib
ketdi.

10

Otamiz qorovuldan qolmish chaylada cho'nqay-
di. Tizzalarini quchoqladi. Tevarakka nazar soldi.

Sarg'aydi-sarg'aydi, yolvordi-yolvordi, boshi
yetmish joy shu chayla bo'lди.

Nima uchun shu chayla deya sarg'aydi-so'ldi?
Yolg'iz o'zi bildi, yolg'iz xudo bildi.

O'tirdi-o'tirdi... Xudodan-da ko'ngli qoldi!

— E-e-e, bor-el.. — deya qo'l siltadi.

Otamiz... xudoga qo'l siltadi!

«Ey, xudo, sen o'zi qayerdasan, qaylardasan? —
deya xayollandi. — Sen o'zi, bormisan? Bor
bo'lsang, javob ber, yuzaga chiq! Mendayin bir
sho'rpeshona bandang bilan yuzma-yuz bo'l!
Mendayin bir xokisor bandang holini ko'r!

Ayt, o'zi, men bandangni nima uchun yarat-
ding? Shu bechora-da dunyoda yursin, shu g'arib-
da o'z kunini o'zi ko'rib yursin, deya yaratdingmi?

Unda, men bandangni-da xor qilma-da, ey,
xudo, men bandangni-da yolg'iz qilma-da, ey xudo!

Bandangni yarat-yarat, pushti kamari bilan
yarat-da, ey, xudo!

Ey, xudo, esimni taniganimdan buyon xudoga
sig'inib keldim, xudoga topinib keldim, xudoga
ishonib keldim.

Shunday ekan, har ne qilsang qil, pushti kamari
li qil-da, ey xudo!

Dunyodan necha-necha podsholar o'tdi, necha-
necha hokimlar o'tdi, necha-necha kattalar o'tdi...

Pushtsiz umrim mobaynida ko'p-ko'p podsholar-
dan qaytdim, ko'p-ko'p kattalardan qaytdim...

Ammo... ammo yolg'iz sendan qaytmadim, ey,
xudo!

Dilimda-da xudo bo'ldi, tilimda-da xudo bo'ldi!

Shunday ekan, har ne qilsang qil, pushti kamari
li qil-da, ey, xudo!

Bandalaring qay bir podsholarga sig'inmadi,
bandalaring qaybir kattalarga sig'inmadi. Bandalaring
nimalarga sig'inmadi, bandalaring nima-
larga topinmadi...

Bandalaring dinidan qaytdi, bandalaring xudo-
sidan qaytdi, bandalaring imonidan qaytdi!

Sen aynan ana shu bandalaringni surriyotli qilib
yaratding, ey, xudo!

Ojiz qolmishlarimda, chor-nochor qolmishlarim-
da, xokisor qolmishlarimda:

— Ey, xudo, o'zing saqla! Ey, xudo, o'zing
madad ber! — dedim.

Aslo, aslo:

— Ey, partiya, o'zing saqla! Ey, komsomol,
o'zing madad ber! — demadim.

Ammo shunday deguvchilar bo'ldi! Bandalaring
shu darajaga-da bordi!

Sen kelib-kelib, aynan ana shu bandalaringni
surriyotli qilib yaratding, ey, xudo!

Men bandangni shayton yo'ldan ozdirgan vaqt-
lar bo'ldi, shayton yomon yo'lga boshlagan vaqtlar
bo'ldi.

Shunda, o'zimga-o'zim:

— Ey, banda, xudodan qo'rqi! — dedim-da,
yo'ldan qaytdim.

Aslo, aslo:

— Ey, banda, partiyadan qo'rqi! Ey, banda, kom-
soldan qo'rqi! — demadim.

Ammo, shunday deydiganlar bo'ldil!

Dinidan qaytmishlar nechov bo'ldi, xudodan
qaytmishlar nechov bo'ldi!

Sen aynan ana shularga surriyot berding, ey,
xudo, qator-qator surriyot berding!

Meni bo'lsa... men bandangni bo'lsa, surriyotsiz
qilding, ey, xudo!

Chin, bilib-bilmayin gunoh qilib qo'ydim.
Dardimni birovga aytolmadim. Dard bo'lsa, imonni
kuydira berdi...

Shunda men gunohlarimdan forig' bo'lish
uchun tavba-tazarru qildim:

— Ey, xudo, o'zing kechir! — dedim.

Aslo, aslo:

— Ey, partiya, o'zing kechir! Ey, komsomol,
o'zing kechir! — demadim.

Ammo shunday deydiganlar bo'ldil Ko'p-ko'p
bo'ldi, mo'l-mo'l bo'ldi!

Men bo'lsam, dilimda-da xudoni qo'ymadim,
tilimda-da xudoni qo'ymadim!

Men yolg'iz xudoni dedim!

Shunday ekan, bir sodiq bandangni bunchalar
xo'rlama-da, ey, xudo! Bir sodiq bandangni bun-
chalar oyoq osti qilma-da, ey, xudo!

Har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey,
xudo!..»

11

«Men erkakman. Unga qiyin...»

Otamiz ana shunday o'nya bordi.

Onamiz bo'lsa, tushlik olib kela bermadi.

Otamiz oyog'i uyiga tortdi. Uyiga otlandi.

Kelsa, hovli bosh-adoq qulf bo'ldi.

Otamiz ajablandi, otamiz hayronlandi.
Otini darvoza ustuniga boyladi. O'zi devordan
oshib o'tdi.
Yashirincha joylari bo'l mish nosoz radio ichidan
kalitni oldi.
Oshxonaga kirdi. Idish-toboqlarni bir-bir ochib
ko'rди. To'ntariqlik toboq ostidan bir la'li toboq
palov topdi.
Tok vayishi ostiga gilam yoydi. Dasturxon
yoydi.
Chinni kosada shakarob qildi. Choy damladi.
Chordana qurib o'tirdi. Piyoladay-piyoladay
yumaloqlab palov yedi.

12

Shu vaqt, ko'chada ot dupurladi. Devor uzra
sho'ro kotibi yuz berdi.
— Assalomu alaykum, Qoplon aka! — dedi
kotib.
— Vaalaykum-vaalaykum! — dedi otamiz.
— Yaxshimisiz, dimog'lar chog'mi?
— Shukur-shukur, binoyiday. O'zingizdan so'-
rasak?
— Rahmat-rahmat...
Kotib shunday deya, ko'z qiri bilan toboqdagi
palovga qaradi. Og'zi palov ta'mini tuydi...
Devordan oshib o'tmoqchi bo'ldi. Yana tag'in,
niyatidan qaytdi.
Kimsan, qishloq sho'rosi kotibil! Kimsan, sho'ro
vakili! Uy xo'jası taklif qilar?
Kotib ana shunday o'yga bordi.
Otamiz xotirjam-xotirjam palov yedi. Kotibga
qayrilib-da qaramadil
— Bizga qorovullikka o'taman deb, bormadi-
ngiz? — dedi kotib.
Otamiz osham yudmaloqlab-osham yumaloqlab,
javob berdi:
— Endi, uka, so'ng-so'ng o'ylab qarasam, olis-
ning palovidan, yaqinning sho'rvasi yaxshi ekan!

Kotib palovga tamshanib-tamshanib qaradi.

— Ha-a-al — dedi kotib. — Oldiginangizdag
palovginadan deysiz-da?

— Shunday-shunday.

— O'zginangiz yeyayotgan zig'ir moylikkina
palovginadan deysiz-da?

— O'zimiz yeyayotgan zig'ir moylik emas,
paxta moylik palov.

— Ha-a-al.. — Paxta moylikkina palovginayam
yaxshi...

— Shunday-shunday. Bay-bay-bay! O'ziyam,
palovmisan-palov bo'libdi-da.

Kotib bir teskari qarab oldi.

— Ha-a-a-, mayli... — dedi kotib. — Ikki yillik
tomorqa solig'ini to'lamabsiz. Soliqchi bo'lsa kasal.
Buyog'i, rayondan bo'l-bo'l qilyapti. Shunga o'zim
kelib edim.

— Binoyi-da, binoyi, — dedi otamiz. — Endi,
uka, gapning o'naqayini aytSAM, menda pul yo'ql
Menga pul nima kerak? Adirda magazin bo'lmasa,
bozor bo'lmasa...

— Unda qaytamiz?

— Pulning bari ayolimizdal Ayolimiz bir yoqqa
ovul qidirib ketdi. Ovullab kelsin, og'zingizdan
chiqqanini beradil

Otamiz oshamni katta-katta oldi.

Otamiz hadiksiradi: katta xalqi yuzsiz bo'ladi,
surbet bo'ladi! Mabodo, kotib otdan tushib,
indamay kelib o'tirsa nima bo'ladi? Unda otamiz
tobooqdan qo'lini tortadi! Dasturxonidan xolisroqqa
borib o'tiradi!

**Kotib toifasidagilar bilan bir dasturxonidan tuz
yemaydi, bir toboqdan palov yemaydi!**

Marhumlar haqini yeydigan odam bilan bir
tobooqdan palov yeb bo'ladimi? Bo'lmaydi, bo'lmay-
di! Makruh, makruh!

**Kotib, amalni pesh qilish foydasizligini bildi.
Endi o'zga yo'lga o'tdi.**

— Bilasizmi-yo'qmi, sag'al urug'chiligidiz
bor... — dedi kotib.

— Bilaman, o'ngirning uchi...

— Iya, o'ngirning uchiyam urug'-da!

Otamiz kosadagi shakarob suvdan ho'pladi.

Palovga yanada ishtaha bilan qo'l uzatdi. O'ziga o'zi marhamat etdi:

— Katta-katta oling-e, Qoplonboy-e!

Palov borgan sayin kamayib bordi.

Kotib yelkasidan nafas oldi, kotib qiltillab yutindi.

— Ming qilsayam, urug' urug'-da, qoplon aka, — dedi. — Et bilan tirnoqni ayirib bo'lmaydi...

Palov bir cheti jar bo'lib, shu tarafga ag'nab tushdi.

Otamiz bilagidan moy oqdi. Bilagini yalab-yalab, lablarini chapillatdi.

Kotib-da tishini so'rib, lablarini chapillatdi.

— Tomir tortadi... — dedi.

Palov o'rtasida issiq bo'ldi.

Otamiz palovni barmoqlari uchi bilan titib-titib tashladi. Taboqdan palov isi anqidi.

Ay, palov isi, palov islari-ay!..

Kotib chuqur-chuqur nafas oldi. Dimog'i rohatlandil

Peshonasini qashigan bo'ldi-da, barmoqlari orasidan palovga qaradi.

Palov borgan sayin ozayib bordi...

— Bo'lmasa, qorovul bo'laman deganlar ko'p edi, — dedi kotib. — Barini qaytardim. Sizga xo'p dedim...

Otamiz piyolaga chuldiratib-chuldiratib choy quydi. Issiq-issiq choy ichdi. Xo'r-xo'r choy ichdi.

— Ey, xudo, o'zingga shukur-el — dedi.

Kotib toboqqa qaradi. Taboqdagi palovdan asarda qolmadil

Otamiz palov tagida qolmish moyni ichdi. Toboqni yalab-yalab qo'ydi.

O'ziga-o'zi fotiha o'qidi.

Tag'in choydan bosib-bosib ichdi.

Qadlarini rostladi. Tishlarini kovladi. Kekirib-kekirib, o'tirdi.

— Xudoga shukur-e!.. — dedi.

Kotib devordan qo'lini oldi. Otiga achchiq-achchiq qamchi bosdi.

— Odam ko'rganim yolg'on ekan-al!.. — deya kuyuna-kuyuna ketdi.

13

Otamiz endi ishiga otlanayotib edi, onamiz kirib keldi.

Otamiz, onamiz yuziga qayrilib-da qaramadi...

— Qayoqlarda yuribsan? — deya to'ng'illadi.

Onamiz kalishi uchi bilan yer chizdi.

— Denov borib edim... — dedi.

— Denovda pishirib qo'yibdimikin?

— Ayollar, baliq yeb kelamiz deya, yur-yur qildi...

— Ayolimiz baliq yeb yursin, biz bu yoqda och o'tiraylik!

— Tushgacha kelaman deb edim, avtobus hayal-lab qoldi.

— Endi, Moskvaga bor! Keyin, Leningradga!..

Otamiz zarda bilan otlandi.

14

Shoymardon ferma mudir o'g'li qo'lini halolladi.

To'shakda yotmisht o'g'il ko'nmadi. Yuzini goh o'ng tarafga, goh chap tarafga burib yig'ladi.

O'g'il qabatida tizzalab o'tirmish usta Majid asbob-anjomini hozirladi. O'tkir pakkisini kaftida qayradi.

— Qo'rqlama-yel Chibin chaqqandayin ham bo'lmaydi! — deya dalda berdi usta Majid.

— Chibindi qo'ying, shamol esib o'tganday bo'ladi! — dedi usta shogirdi.

Qoplon otamiz o'g'ilchaga pul uzatdi.

— Ma, tarlon ot oll — dedi.

— Ana, boyib ketding!

— Menga bergenlarida jon-jon deb ko'nardim!

— Shuncha pulgayam yo'q deysanmi? Unda,
tur, o'zim yotaman!

Nurali bobo shunday deya, to'shakka talpindi.

— Usta bova, men yotayin!

— Qo'ying-e, o'zi yotadi!

O'g'il tevarakka alangladi. Odamlar yuzi jiddiy
bo'lди. Biri qo'yib biri, uning o'rniغا yotayin, deya
intildi.

Shunda, o'g'il tinchidi.

O'g'il og'ziga tandir non tutdilar.

— Tishla, tishla! — dedilar.

O'g'il non tishladi.

Usta ruhiy san'atini qo'lladi. O'g'ilni gap bilan
chalg'itdi. O'g'ilni xotirjamlatdi. Payt poyladi...

— Ay, yashal — dedi. — Necha puling bor? Ot
olsang meniyam mindirasanmi-yo'qmi? Balli!
Qoplon bovang chin aytadi, ot olsang Tarlonidan
ol!. Huydar-huyda-a-ar!..

— Huydar-huyda-a-ar!.. — jo'r bo'lди odamlar.

O'g'il nonni jon-jaqdi bilan tishlab... uzib oldil!
Unsiz-unsiz yig'lab qo'ya berdi.

Usta kesik joyga kuydirilgan paxta kulini bosdi.
Ustidan bukilmaydigan do'ppi qoplab qo'ydi.

15

Qoplon otamiz yon uyga kirib o'tirdi.

Shoymardon ferma mudirning to'xtamishlik
mol do'xtir oshnasi keldi.

Ichkariladi. Qo'li halollanmish o'g'lon bilan
so'rashib keldi.

Barcha bilan ko'rishdi. To'rlab o'tirdi. O'ng
tarafdan bitta-bittalab so'rashdi. Gal uchinchi
odamga keldi.

Qoplon otamiz sergaklandi. Eshikka qarab-qarab
qo'ydi. Boshini quyi egdi. Dasturxon chetini
qayirib o'ynadi. Choynak qopqog'ini shiqillatib-
shiqillatib ochib-yopdi.

Gal Qoplon otamizga keldi.

Mehmon, qo'li ko'ksida so'rab boshladı:

— Yaxshimisiz, aka...
Otamiz qo'lini ko'ksiga qo'ydi.
— Shukur-shukur, — dedi.
— Bola-chaqalar o'sayaptimi?
— Shukur...
— Nevara-chevaralar katta bo'layaptimi?
— Shukur.
— Chopqillab-chopqillab yurishibdimi?..
Otamiz qo'li ko'ksida bo'lди. Egik boshini irg'ab o'tira berdi.
Otamiz to'y-to'y laganlari, yegan-ichkanlari burnidan chiqdi!

16

Otamiz uyiga yonib-yonib keldi!
Nimaga endi, faqat bola-chaqani so'raydi?
Nimaga manavi dang'illama uyini so'ramaydi?
Muhtasham hovlisini so'ramaydi? Ko'krakdor otini so'ramaydi?
To'da-to'da qo'ylari bor. Qo'sha-qo'sha mollari bor. Qo'ylari yilma-yil qo'zilaydi. Mollari yilma-yil buzoqlaydi. Nimaga mol-holini so'ramaydi?
Bog'lari har yili besh yuz kilolab mayiz beradi.
Nimaga mayizlarini so'ramaydi?
O'zi hamisha otday bo'lib yuradi. Tani-joni sog' bo'lib yuradi. Ishlasa, ikkita-uchta erkakning ishini qiladi. Mo'l-ko'l mehnat haqi oladi. Nimaga bularni so'ramaydi?

17

Otamiz ichkariladi.
Uzala tushib uxmlamish onamizga qaradi. Jag' suyaklari bo'rtib-bo'rtib qaradi...
Birdan.. onamiz bilagidan olib, otib yubordi!
Onamiz misoli to'rva xaltaday uchib, yuzlari bilan yuk-yopga borib o'rildi. Shunday zarb bilan urildi... Zarbidan ketiga chalpak bo'lib yiqildi...
Onamiz dovdirab qoldi, onamiz esankirab qoldi.

— A-a-a... — deya, zaif ham qaltiroq ovoz berdi.

Sapchib turib o'tirdi. Kaftlari bilan yalang boshini yopdi. Entikib-entikib nafas oldi. Qo'rqaqidan chirillamoqchi-da bo'ldi.

Ojizona ovoz bilan, yolvoruvchi ovoz bilan:

— Men bu kishiga nima qildim... — deya shivirladi.

— Nimaga uxlaysan?

— Hamma uxlaydi-ku...

— Senga kim qo'yibdi uplashni!

— Hamma uxlaydi-ku...

— Senga uplashni kim qo'yibdi deyapman? Ayt! Aytmaysanmi, aytmaysanmil..

Otamiz, onamiz yalang boshidagi qo'llarini siltab tashladi. Sochlarni bilagiga o'rav oldi.

Otamiz chap qo'li onamiz bo'g'ziga bordi...

Onamiz:

— Xrr-xrr-xrr... — etdi.

Otamiz panjalari tag'in-da botdi-botdi...

— Xrr-xrr-xrr...

Onamiz iyagi yuqoriladi. Tag'in yuqoriladi... Ko'zlar jon berajak buzoq ko'zlariday olayib-olayib bordi.

Onamiz ko'z qorachig'lari yo'qolib qoldil! Oqlari ko'payib qoldil!

18

Otamiz seskandi... Qo'llari bo'shashdi...

Ketiga qaray-qaray, tashqariladi. Zinapoyada haykalday turdi. Entika-entika, olamga qaradi...

Olam bir hovuch! Qishloq choldevor! Keng yuzli hovli tovuq katagi!..

Obtovada qo'liga suv quydi.

Qo'liga suv yuqmadi. Suv barmoqlari orasidan qumday to'kilib ketdi.

Suvi yo'qdir, degan o'yda obtova qa'rige qaradi. Eti sovuqda junjikmish odamday seskanib bosh ko'tardi.

Obtova baldog'ini mahkam ushlab qotib qoldi.
Obtovani otib yuborishini-da, ushlab turishini-da
bilmadi.

Obtova qa'ri poyonsiz suv bo'ldi. Suv qa'ridan
bir odam otamizga baqrayib qarab turdi. Baq-
raymish yuz vajohatli bo'ldi...

Otamiz mixdan qamchini oldi. Otiga qarab
yurdi.

Ot arqonini egar qoshiga o'radi. Sapchib ot-
landi.

Darvozadan enkayib o'tdi. Qorovulligiga yo'l
oldi.

19

Qorovulligida otini yo'ng'ichqapoyaga qantardi.
Chaylasiga qarab yurdi.

Ariq bo'yida yovvoyi bog' gullariga duch keldi.
Enkaydi, gullarga dimog'ini qo'ydi. Dimog'i bo'y
payqamadi!

Gullar gul emas, tikon. Tikon uchiga qistirib
qo'yilmish qizil qog'oz!

Otamiz aftlari burishdi. Yo'lida davom etdi.
Adirladi.

Chaylada gilamga to'kilmish chayla xas-cho'p-
larini qoqdi. Ko'rpacha yoydi.

Taxlog'liq ko'rpachalarga orqa berib o'tirdi.
Oyoqlarini uzatdi.

Lippasidan nosqovoq oldi. Nosqovoq ostiga
chertib-chertib, kaftiga nos to'kdi. Og'zini osmon
qilib, tanglayiga nos otdi.

Lablarini cho'chchaytirdi. Nos yuqi kaftini
soniga artib-artib oldi.

Ketiga chalqaydi. Harommag'zi bilan ko'rpa-
chaga suyandi. Telpagini peshonasiga qo'ndirdi...

Shu o'tirishda o'tirdi-o'tirdi... nos elitdi... ko'zi
ilindi...

Tog'ni qora bulut bosdi. Bulutlar bag'rida son-siz tasmalar tortildi: tog'ga yomg'ir yog'di.

Qop-qora bulutlar tobora pastladi. Qirlar bulut ichida qoldi.

Otamiz adiri-u qirlar qoq oralig'ida bo'ldi. Otamiz misoli jar oralig'ida, ulkan tosh ustida o'tirdi.

Jar tubsiz bo'ldi...

Otamiz hademay ana shu jarga tushib ketadi. Tushib ketishini birov-da bilmaydi. Birov-da so'rab-surishtirmaydi. Nom-nishonsiz yo'qladi...

Kimi-da so'raydi? Kimi-da surishtiradi? Kimida eslaydi?..

Otamiz ovozi boricha baqiradi. Qo'llarini uzatib baqiradi.

Kimi-da ovoz beradi? Qirlarmi? Qirlar aks sado beradi. Mayna qilmishday, otamiz ovozini qaytaradi.

Otamiz qo'llari shalvirab qoladi. Endi, yolg'iz tayanchi bo'l mish, yolg'iz ilinji bo'l mish ayolini chaqiradi.

Ayol qo'lidan nima keladi? Yig'i keladi!

Qop-qora bulutlar Archako'tal cho'qqilarini chalib ketdi. Televizor stansiya, To'xtamish tova qirlari-da ko'rinnmay qoldi. Bulut katta lalmi cho'qqilarini-da bosdi.

Shunda... shunda, bulutlar orasida bir chol paydo bo'ldi. Chol ust-boshlari oppoq bo'ldi. Soqollari-da oppoq bo'ldi.

Ostidagi eshagi-da oppoq bo'ldi. Taqimida uzun hassa bo'ldi.

Otamiz cholni qayerdadir ko'rganday bo'ldi. O'ylab-o'ylab, esladi: bargga borganda ko'rib edi.

Otamiz ko'ngliga tahlika tushdi: «Kim bo'ldi, bu mo'ysafid?» deya o'yadi.

Bulutlar aro momaqaldiroq qarsilladi. Ayqash-uyqash tasmalar yonib-o'chdi: yashin chaqnadi.

Otamiz seskanib tushdi.

Chol parvoyiga-da kelmadi. Chol yaqin keldi. Yuzlari yaqqol bo'ldi.

Otamiz choldan ko'z uzmadi. Ko'nglidagi tahlilikalar tarqala bordi.

•Kim bo'ldi ekan, bu mo'ysafid? Samad bobomikin? Uning eshagi qora edi-ku? Qarshi maxsummikin? Yo'q, maxsum eshakni befarosat hayvon deb minmaydi•.

Otamiz o'ylab o'yiga yetdi... Seskandi... Yoqa ushladi...

•Yo, qudratingdan! Chiningmi shu?•

Ichida kalima qaytardi. Cholga yanada sinchiklab tikildi.

•Ko'rinishi aytib turibdi. Shunday bo'lса-da, shoshmagan ma'qul. Kim biladi, ko'zimga shunday ko'rinyaptimi. U kishida barchaga ayon belgi bo'ladi. Shundan bilsa bo'ladi•.

Otamiz sapchib turdi. Cholga peshvoz yurdi. Qo'li ko'ksida bo'ldi.

— Assalomu alaykum! — dedi.

— Vaalaykum, bolam, vaalaykum! — alik oldi chol. — O'tir, turish darkor emas, o'tir. Men bir yo'lovchi odamman. Xo'sh, bolam, adirlardan ketmay qolding, nima, biror sehri bormi?

Otamiz cholga sinchiklab-sinchiklab tikildi. Aniq bir fikrga kelolmadi.

— Siz Samad bova emasmisiz? — dedi.

Chol rad ma'nosida bosh chayqadi.

— Ha-a, bildim, bildim! — dedi otamiz. — Siz Hasan mirobsiz. Tog'dan suv yoqalab kelayapsiz. Toshloqda sel kelishidan qo'rqib, qir oshib kelayapsizmi?

Chol qah-qah urdi.

Bulutlar, adirlar kulgidan zirillab ketdi.

Yomg'ir qiyolab-qiyolab yog'di.

Yashin to'lqinlanib-to'lqinlanib chaqnadi.

— Bo‘lmasa, kimsiz? Ayting-da, odamni qo‘r-qitmay!

Otamiz chol qoshiga keldi.

Chol olis bog‘lar, paxtazorlarga o‘ychan boqib turdi.

— Qani, omonmisiz, esonmisiz..

Otamiz shunday deya, chol qo‘lini kaftlariga oldi.

Chol seskanib qo‘l tortdi.

Otamiz cholni tanidi: hazrati Xizr bobo! Boisi, boshmaldog‘ida suyagi yo‘q! U kishining boshmaldog‘i suyaksiz bo‘ladil

Hazrati Xizr bobo odamzod mushkulini oson qilajak, hojatini chiqarajak ezgulik piri!

Otamiz o‘zida yo‘q quvondil Dardiga davo to-pishday bo‘ldil! Entikdil! Yayradi!

Ana o‘sha zot, ana! Shu zotning bir og‘iz so‘zi!

Nima uchun shu zotni vaqtliroq yo‘qlamadi?

Ana, oxiri o‘zları yo‘qlab keldil O‘zlariga o‘zları aytgan-da, borayin, shunday bir kuygan bandam bor, dardiga quloq solayin, degan-dal

Hazrati Xizr aytsalar, yo‘qdan bor bo‘ladil

Hazrati Xizr bobo og‘rindilar.

— Men yo‘liqqan odamlar ichida eng noma‘quli sen bo‘lding, — dedilar.

— Men nima qildim, hazrati Xizr bovajonim? — dedi otamiz.

— Qo‘l uzatib, odobsizlik qilding.

— Aybimdan o‘ting, hazrati Xizr bovajonim, aybimdan o‘ting!

Otamiz tevarakka alangladi. Tevarak ovloq bo‘ldi.

Umrida birinchi marta... birinchi marta... inson oldida tiz cho‘kdil

Kaftlarini insonga cho‘zdi. Yonoqlaridan mar-jon-marjon yoshlari sizdi...

Dardini yorib-dardini yorib qo‘ya berdi:

— Hazrati Xizr bovajonim! Sadag‘angiz ketayin, hazrati Xizr bovajonim, meni avf eting!

Men tabib deb chopdim, folchi deb chopdim, nodonlik qildim, ko'rlik qildim! Avf eting, hazrati Xizr bovajonim! Aslida sizni yo'qlashim darkor edi! Men qayoqqa borishimni bilmadim-da, qayerda ekanningizni bilmadim-da, hazrati Xizr bovajonim! Qola bersa, huzuringizga borishga haddim sig'madi! Men bir faqir odam bo'lsam, qanday-da boraman! Endi, ovora bo'lib o'zingiz kelibsiz, bovajonim! Qulluq, bovajonim, qulluq! Hazrati Xizr bovajonim, men bir sho'rpeshona bandaman! Tirnoqqa zorman! Eshityapsizmi, tirnoqqa zorman! Nima tilasangiz tilang, manavi chophonimgacha sotaman, aytganingizni aytgandayin bajo keltiraman! Menga bir farzand bersangiz bo'ldi, hazrati Xizr bovajonim!..

— Menga mol-dunyo darkor emas...

— Unda, menga bir farzand bering, hazrati Xizr bovajonim! Dunyodan qo'li ochiq ketmayin, hazrati Xizr bovajon! Mayli, bizga bittagina Xushvaqt bo'lsa-da bo'ladi! Faqirga palov! Bilasizmi-yo'qmi, Xushvaqt yo'lida ko'zimiz to'rt, hazrati Xizr bovajonim!

— Dunyodan ko'p noliy berma...

— Bizni bu dunyoga bog'lab qo'ygan emas, hazrati Xizr bovajonim! Bir kunmas-bir kun tanamiz soviydi. Shunda, kim bizning isi chirrog'imizni qiladi? Kim otamlab yig'laydi? Kim enamlab yig'laydi? Birov, hech bo'lmasa birovgina otamlab yig'lasa ekan, birovgina enamlab yig'lasa ekan, hazrati Xizr bovajonim!

— Boriga shukur qil.

— Izidan o'g'il qoldirib, otasi uchun motam tuttirmagan erkak, erkak bo'ptimil! Orqasidan qiz qoldirib, enasi uchun qora kiydirib, aza ochdirmagan ayol, ayol bo'ptimil! Dunyoga keldim deb yurmasinlar. Hazrati Xizr bovajonim! Ko'pga bergen tirnoqni bizdan-da darig' tutmang! Menga rahmingiz kelmasada, enasiga rahmingiz kelsin, Hazrati Xizr bovajonim! Poshikaasta kuyib-kuyib, adoyi

tamom bo'ldi, o'lik bo'lib go'rda yo'q, tirik bo'lib to'rda yo'q, hazrati Xizr bovajonim!..

— Men senga farzand berganman...

— Bergarningiz yo'q, hazrati Xizr bovajonim, bergenningiz yo'q! Siz meni birov bilan adashtiryapsiz, hazrati Xizr bovajonim! Usta Qulmatga kelbat beraman, o'sha deyayotgandirsiz-da? Chin, usta Qulmatda farzand bor, oltital Menda bo'lsa, birovda yo'q, hazrati Xizr bovajonim!..

— Qanday otasanki, o'z farzandingni bilmaysan? Hali ko'p-ko'p farzand beraman.

— A? Ko'p-ko'p farzand beraman dedingizmi? Qachon-qachon? Qulluq, hazrati Xizr bovajonim, qulluq! Qani edi, ko'p-ko'p bo'lsa! O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qilig'i, hazrati Xizr bovajonim!..

Hazrati Xizr bobo ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

22

Qosh qoraydi.

Bog'otda odam oyog'i tindi.

Otamiz qorovulligidan qaytib keldi.

Onamiz chappa burilib yig'ladi.

— Ko'rgan kunim qursin... — dedi.

Otamiz betini olib qochdi.

— Yig'lama-ye... Men senga nima qildim... — dedi.

Onamiz aytib-aytib yig'ladi:

— Shu bo'g'ganida o'lib keta bersam bo'lmas-midi...

Otamiz talmovsirab turib oldi.

— Men bo'g'dimmi? Men-a? — dedi. — Odamga tuhmat qilma-ye, men adir-da edim.

— Bo'lmasa kim? Robiya hamsoyaning erka-gimi?

— Seni bo'g'cimmi? Seni-ya? Qachon-qachon?

— Dardi chipqon, qachon-qachon!..

— Shu gapingga noma'qulning nonini yebsan. Men hozirgina bog'otdan keldim.

— Shu kishining esi joyidami o'zi?
— Esim joyida, ha, esim joyida...
— Esi joyida bo'lsa, shuytadimi?
— Bo'ldi-bo'ldi. Undan ko'ra, suyunchini
cho'z...

Otamiz bo'lib o'tmish gapni aytib berdi.

Ayta-ayta, shiplarga qarab jilmaydi, dera-zalarga qarab jilmaydi!

Sho'rvani-da jilmaya-jilmaya ichdil

— Ha-a-a, beshik-meshiging bormi o'zi, momosi? — dedi.

— Beshik nima qiladi...

— E, hali beshiging yo'qmi? Unda, shu bozor Denov borib kelganim bo'lsin!

— Hali vaqtli.

— Vaqtli bo'ptimi, ehtiyot-da.

— Men o'zim aytaman...

— Ha-a-a, sening gaping juft, momosi...

23

Onamiz yuragi o'ynadi, onamiz ko'ngli aynidi.

Qo'llari yuzini og'ziga tutdi. Osmonga qarab-qarab esnadi:

— A-a-auf, -a-a-auf!..

Otamiz esnashdi o'zicha tushundi. O'zida yo'q suyundi.

«Ana, hazrati Xizr bovamizning marhamati, anal» deya xayollandi otamiz.

Otamiz onamizga siperish qildi.

— Endi, o'zingni og'ir ishlardan tiy, — dedi. —

Xafagarchiliklardan saqlan. To'yib-to'yib uxla. Ko'nglimda sen uchun atab yurganlarim bor. Kuni kelsin, aytaman.

— Nima ekan, u?

— Hali-hozir aytmayman. Kuni kelsa, aytaman.

— Aytsin, hozir aytsin.

— Yo'q, bo'lmaydi. Aytsam, sen birovga aytib qo'yasan.

— Aytmayman, aytsin, aytmayman.

Otamiz derazaga qarab-qarab:
— Qo'shiq aytib beraman, — dedi sokin.
Onamiz hayrondan-hayron bo'ldi.
— Nima-nima? — dedi.
— Qo'shiq aytib beraman, deyman... — dedi,
tag'in-da sokin-sokin.
Onamiz og'zini ushlab kului.
— Shu kishi qo'shiq aytadimi? — dedi.
— Esa-chi...
Onamiz piq-piq kului.
— Shu kishi-ya?
— E, bizga nima qipti?..
Onamiz bolishga yumalab kului.

24

Otamiz adirlarga sig'may qoldil!
Yo'lda horib qoladi deya, onamizga tushlik
tashittirmadi.
O'zi kelib ketar bo'ldi.
Bo'lар-bo'lmas gaplar aytib, onamizni kuldirib-
kuldirib turdi.
Kunlar ketidan kunlar o'tdi, tunlar ketidan tun-
lar o'tdi.

25

Otamiz tun chirog'ini yoqib yotdi.
Uy nimqorong'i bo'ldi.
Otamiz chalqanchadan yonbosh bo'ldi.
Onamizga o'girildi. Bilagini onamiz bo'yni ostidan
o'tkazdi. Onamiz yuzlarini quchog'iga oldi.
Otamiz chap qo'li Xushvaqtning ilk... ilk
beshigiga ketdi. Qo'li beshik bo'ylab yurdi, beshik
uzra yurdi. Bir yuqoriladi, bir pastladi.
Kafti muloyim-muloyim olamni qayta-qayta
siladi. Siladi-siladi, bir manzilda oyoq ildi... Yo'q,
yo'q...
Kafti tag'in quyiladi-yuqoriladi. O'ng-u chapga
borib keldi. Kafti yugurdi, kafti yeldi, kafti izla-
di... Yo'q, yo'q...

Otamiz ilk beshikka qo'lini yuzini tutdi. Bor e'tiborini, bor diqqatini qo'li ixtiyoriga berdi. Yuragini qo'li yuziga jo qildi... Yo'q, yo'q...

O'ng qulog'ini onamiz ko'kraklari ostiga qo'ydi. Nafasini yutdi. Bir lahma qotib qoldi.

Qulog'i ostida onamiz yuragi duk-duk urdi...

Ilk beshik bor! To'qqiz oy-yu, to'qqiz kunlik muloyim olam bor!

Xushvaqt yo'q, Xushvaqt!

Otamiz hafsalasi pir bo'ldi... Onamiz yuziga yuzini qo'ydi...

Onamiz piq-piq yig'lab qo'ya berdi.

— Yig'lama, bo'ladi. Hazrati Xizr bovamiz ayt-dilar-ku...

Otamiz shunday deya, o'zini-da, onamizni-da ovutdi.

Onamiz otamiz bilan tag'in-da jipsroq yotdi. Soqollariga yuzlarini siladi.

Olis ayriliqdan keyin ko'rishmishdayin, bag'ridan qo'yib yubormadi.

Olis sog'inishdan keyin ko'rishmishdayin, bot-bot o'pdi.

Erkalatishlardan armoni qolmadi...

— Ertaga bozorlab kelmaydimi?

— Bozorlaganim bo'lsin!

26

Onamiz sahar mahali otamizni uyg'otdi.

Otamiz bozor otlandi.

Onamiz zim-ziyo olamga boqdi...

Oy hali tug'madi. Shu bois, olam zimiston bo'ldi. Onamiz oy tug'ajak tarafga qarab turdi-turdi-da... o'zini oyga mengzadi, taqdirini olamga mengzadi!

•Oy-da mendayin tug'madi. Olam-da taqdirim-dayin zim-ziyo bo'ldi...• deya o'ksidi.

Onamiz otamiz bilan xo'shlashdi.

— Mayli, xush borsin-xush kelsin, — dedi.

Otamiz zim-ziyoga singib ketdi.

Onamiz darvoza qirrasiga peshonasini qo'ydi.
O'ksib-o'ksib yig'ladi...
Ko'chada echki ma'radi.
Onamiz qayrilib qaradi.
Echkilari ko'chaga tizilib chiqdi.
Onamiz echkilarni ichkari qaytardi. Darvozani
ichkaridan zanjirladi. Zanjirdan cho'p o'tkazdi.
Supaga kelib o'tirdi. Peshonasini tizzalariga
qo'ydi.
Tag'in yig'ladi...

27

Bari gap Termizda hal bo'ldi.
O'shanda do'xtir onamizga bor gapni aytdi.
Otamizga aytmish gap... teskarisini aytdi!..
Onamiz do'xtir gapiga ishonmadi. Otamizdan
pinhona Denov do'xtirlariga bordi. O'zini sinchik-
lab-sinchiklab qaratди.
Denov do'xtirlari-da Termiz do'xtirlari aytmish
gapni aytdi.
Onamiz otamizga bildirmadi. Ayollar bilan
Denovdan baliq yeb keldim, dedi.

28

Onamiz ichiga yutib yurmish dardlari o'sha
kundan e'tiboran ko'zlarida balqib qoldi.
Yurakni yashirsa bo'ladi. Boisi, yurak ko'rinn-
maydi. Yurak jamiki dardlarni pinhon tutadi.
Ammo ko'zlarni yashirib bo'lmaydi. Ko'zlar
o'zini o'zi fosh etadi.
Shunday bo'lsa-da, otamiz payqamadi!
Otamizga ochiq-oydin aytisinmi? Qanday aytadi?
Aytish, o'zini o'zi inkor qilish bo'ladi! Ayollik
sha'nini yo'qqa chiqarish bo'ladi!
Keyin ayolman deb yurmasa-da bo'ladi!
Mabodo aysa, gap chiqadi, elga yoyiladi...
Yo'q, ikki dunyoda-da aytmaydi!
U bir erkak, zo'r bir erkak baxtini bog'lab
yuribdi!

Erkak hademay ellikka kiradi. Erkak orzularga to'la, erkak umidlarga to'la!

Erkak tinimsiz yelib-yuguradi, erkak intiq bo'lib qaraydi, erkak izlaydil Ko'ngil mevasini izlaydil Shu mevani topajagiga ishonadi, qo'liga olib o'ynatajagiga ishonadi! Yuzlariga, bag'irlariga bosajagiga ishonadi!

Ana, erkak beshikka ketdi! Hademay, beshik ko'tarib keladi!

«Momosi, mana, Xushvaqtning beshigi...» deydi.

Aniq shunday deydi!

Onamiz bo'lsa... aldaydil Ko'ra-bila turib aldaydi, yonma-yon yotib aldaydi, ko'zlariga tik qarab aldaydi!

Kimni aldaydi? Umrida ko'z ochib ko'rmish suyuklidan-suyukli odamini aldaydi!

29

Tong tagi oqarib-oqarib kela berdi.

Onamiz molxona tarafga yurdi.

Mol-hollarga qaradi. Sigir sog'di. Buzoq emizdi. Mol-holni podaga haydadi.

Qo'shiq aytib-aytib sog'mish mollari, xo'sh endil

Onamiz katak og'zida turmish toshni oldi.

Katakda yotmisht tovuqlar hadeganda chiga bermadi. Ichkarida qurq-qurqlab tura berdi.

Onamiz enkaydi. Katak ichiga qaradi.

Moyak tugib bermish tovuqlari, xo'sh endil

Onamiz oshxonada xiyol turdi. Tevarakni qaradi. Sirg'alib tushmish dokani tag'in toboqlarga yopdi. Tag'in tushib ketmasin deya, doka burchlarni toboq ostiga bostirdi. Taom yuqi idish-toboqlarni qatron qilib yuvdi.

Kelin bo'lib, o't yoqmish o'choqlari, xo'sh endil

Kelin bo'lib, moy tomizmish qozonlari, xo'sh endil

Onamiz tandir boshiga keldi, ro'moli uchlarini

yelkalariga tashlab enkaydi. Tandirga qaradi.
Tandirga suyog'lik otashkurakni oldi. Otashkurak
bilan uyum-uyum tandir kulini oldi. Tandir og'zini
yopib qo'ydi.

Kelin bo'lib non yopmish tandirlari, xo'sh endil!
Onamiz eshik-orani supurdi. Uy shiplarida
osilib turmish qora qurumlarni olib tashladi.
Derazalarni yaraqlatib artdi. Uylarni supurib-sidir-
di. Yuk-yoplarni kelishtirib-kelishtirib taxladi.

Kelin bo'lib kelmish uylari, xo'sh endil!
Onamiz zinada cho'nqayib o'tirdi.
Tag'in yig'ladi. O'pkasini bosolmay yig'ladi.
Hiq-hiq yig'ladi.

30

Oftob olmalar uchini chalib yubordi.
Onamiz ro'moli uchlari bilan bet-boshini o'radi.
Darvoza taraf yurdi. Darvozadan tashqariladi.
Devordan bo'yladi. Qadrdon hovlisiga qaradi.
So'nggi... so'nggi bor qaradi...
Ohista-ohista yurdi-yurdi, tag'in oyoq ildi.
Ketiga qayrilib qaradi.

Shunda, izidan iyarib kelmish Olapar itini
ko'rди.

— Qol, qoll — dedi.

Olapar besh-olti qadam qoldi. Ammo, tag'in
iyarib keldi.

Onamiz oyoq ilsa, Olapar-da oyoq ildi. Onamizga
qarab-qarab tura berdi.

Onamiz hafsalasi pir bo'ldi. Yo'lida davom etdi.
Onamiz to'lib-toshib odimladil, bosar-tusarini
bilmay odimladil!

Poyidagi mana bular qator-qator uylarmi?
Yo'q, bular mayda-mayda oq toshlar! Rangli-
rangli kesaklar!

Onamiz toshlar bilan kesaklarni yanchib-
yanchib odimladil!

Mana bular nima? Teraklarmi? Tutlarmi?

Yo'q, bular nogiron-nogiron giyohlar!

Onamiz giyohlarni ezib-ezib odimladi!
Hay, bo'y bermish tog'larmi?
Yo'q, tog'lar emas, yo'q! Bular bolalar o'ynaya-
jak hammompish uylar!
Onamiz hammompish uylarni bosib-bosib odim-
ladi!
Tog'lardagi qorlar... qop-qora bo'ldi!

31

Bu vaqt otamiz Qizilsuv bo'yiga kelib qoldi.
Loyqa daryo yoqaladi, sayoqroq kechuv izladi.
Tavakkal qildi, bir yoymadan ot soldi.
Daryo ot qornini yuvib-yuvib oqdi.
Otamiz kechuvdan chiqdi. Daryo bo'yida joy-
lashmish loyqo'rg'on sari ko'tarildi.
Otini qo'rg'on oldi oxonaga boyladi. Taroqi
xurjunni buklab-buklab qo'ltiqladi.
— Bismillahi rahmoni rahim! — deya bozor
oraladi.
Bozor tumonat odam bo'ldi. Qadam bosadigan
yer taxchil bo'ldi.
Havoda kabob, somsa, manti hidi anqidi.
Sonsiz ovozlar quloqni garang qiladi. Kim
gapiroapti, kimga gapiroapti, nimani gapiroapti,
bilib bo'lmadi.
Bozor sonsiz chumchuqlar g'imirsib chirqilla-
yotgan uyaday bo'ldi!
Otamiz bozorchilar bilan to'qnashib-to'qnashib
yurdi, turtinib-turtinib yurdi.
Favqulodda pillachi agronomga duch keldi.
Agronom otamizni ko'rib-ko'rmaslikka oldi.
Otamiz agronom bilagidan qo'shqo'llab ushladi.
Agronom yalt etib o'girildi.
— E-e, Qoplon aka! Bozorlabsiz-da? — dedi.
Otamiz qo'ltig'idagi xurjunga ishora qildi.
— Tirikchilik, ha, tirikchilik! — dedi.
— Ha-a, ma'qul-ma'qul!
Agronom yo'lida davom etdi.
Otamiz agronom ketidan qarab-qarab qoldi.

«Befahml Diplom bo'lgan bilan, farosat bo'lma-gandan keyin, qiyin ekan-da...» deya o'yladi.

Yo'lida davom etdi. Mayiz bozorini yonlab yurdi.

Mayizchilar tizilib o'tirib ovoz berdi:

— Kep qoling. Ho'jasoatning mayiziga!

— Arzon qildim, kilosi o'n so'm!

— Sinoning mayizi sho'r bo'ladi, Xo'jasoatnikidan qolmanglar, misol uchun!

Otamiz oxirgi gapni aytmish Yo'ldosh qorovul-ni tanib qoldi. Yo'lini atayin qorovul oldidan soldi. Qorovul oldida atayin ohista-ohista odimladi. Atayin qirinib-qirinib yo'taldi.

— Yo'lingiz unsin, Qoplon aka! — dedi Yo'ldosh qorovul.

Otamiz go'yo, favqulodda ko'rishib qolmishday, yuzlari yorishdi.

— E, ha, inim, bozoringiz unsin! — dedi.

— Aytganingiz kelsin! Qani, bundaygina yurib-siz, misol uchun?

Otamiz qo'li bilan xurjunni ko'rsatdi.

— Tirikchilik, mana, tirikchilik! — dedi.

— Hozir yo'l bo'lsin, misol uchun?

Otamiz... otamiz niyatiga yetdi!

— Shu, beshik bozoriga borayapman, Yo'ldosh inim! — dedi.

— Ana-anal! Buyursin, buyursin, misol uchun!

Otamiz tag'in-da ochildi.

— Qulluq-qulluq! — deya bosh irg'adi.

— Aytganday, to'ng'ich nevaramizni ko'rayapsiz-da, misol uchun?

— Shunday, shunday!

Yo'ldosh qorovul o'ylanib qoldi. Bir nima demoqchi bo'ldi. Og'iz juftladi-da, yana tag'in indamadi.

— Bir nima demoqchi bo'ldingiz shakilli, inim? — so'radi otamiz.

— Endi, Qoplon aka, yoshingiz ulug', sizga oqsoqolchilik qilib bo'ladimi, misol uchun!

- E, oqsoqlchiligi bo'ptimi, ayta bering-da!
- Misol uchun aysam, eski beshik yaxshi, aka! Ayniqsa, serfarzandlarning beshigini olsangiz, nur ustiga nur bo'ladi, misol uchun!
- Unda, beshik olmaganingiz ma'qul, deysizda?
- Ha-dal Mana, biznikini olib turing, misol uchun!
- Unda, sizning aytganiningizga yurdim, inim!.. Otamiz iziga burildi.

32

Do'konlarni aylandi. Olmasa-da, ayrim narsalar narxini so'rab-surishtirdi.

Do'konlarni aylandi-aylandi, kitob do'koniga kelib qoldi.

♦Eh-he-e-el — dedi ichida. — Buncha ko'p qog'oz!

Endi ketmoqchi bo'lib edi, ichkaridan bir qiz chiqib keldi.

— Ha, bova, qanday kitob berayin? — dedi.

Otamiz, yo'q degan bo'lib bosh chayqadi.

— O'g'ilmi, qizmi? Necha yoshda?

Otamiz ketishini-da bilmadi, ketmasini-da bilmadi. Nima deyishini-da bilmadi!

— O'g'ill — deb yubordi.

Qiz tokchadan katta kitob olib uzatdi.

— Mana shuni oling, — dedi.

Otamiz kitob yuzini tomosha qildi.

Kitob yuzida ulkan mushuk cho'nqayib o'tirdi.

♦Kitob ana shu mushuk haqidadirov...» deya o'yładi.

Kitobni qaytib berdi.

Turdi-turdi, o'ylab qoldi. Chindan-da kitob olib borsa bo'lmaydimi? Xushvaqt katta bo'lsa o'qiydi-da?..

Otamiz eshitgan-bilgan kitoblarini bir-bir yodga oldi.

— Shu, Kumushbibidan bormi? — dedi.

- Qanaqa Kumush?
- Haligi, marg'ilonlik Kumushbibi.
- Yozuvchimi?
- E, yo'g'-e, haligi... Otabekning qaylig'i-chi?
- Ha-a, •O'tgan kunlar• deng. Bor, bor.
- Shundan ber, Kumushbibidan ber.
- Qiz kitobni topib keldi.
- Otabek kerak emassi? — deya jilmaydi.
- Kumushbibi qayerda bo'lsa, Otabek-da shu yerda bo'ladi-da.
- Otamiz do'kondan choyxonaga yo'l oldi.
- Ikki kilo qovurilgan baliq oldi. Yarmini o'zi tushlik qildi. Yarmini qog'ozga o'rav, xurjunga soldi.
- Ayolimizga, — dedi o'zicha.

33

- Otamiz hamsoya-qo'llarnikiga ovoz berdi.
- Ay, hamsoya, o'sha yoqda bizniki yo'qmi? — dedi.
- Bugun ko'rmadik, — javob berdi hamsoyalari.
- Birov-yarim bilan gap sotib o'tiribdi-yov deya, hovuzdan xabar oldi.
- Hovuzda-da bo'lindi.
- Supaga cho'nqaydi. Ayoli yo'liga qaradi.
- Darvoza tiq etsa qaradi.
- Qosh qoraydi.
- Mollar podadan qaytdi.

34

- Otamiz toqati toq bo'lidi.
- Qahr bilan otlandi. Qaynog'asinikiga yo'l oldi.
- Ostonada otdan tushmay ovoz berdi.
- Ay, bu yoqqa bir qaranglar! — dedi.
- Ichkaridan ayol ovoz berdi.
- Derazadan to'kilmish nurni bir soya kesib o'tdi.
- Ostonada qaynagachisi qora berdi.

— Shu yoqqa bizniki keldimi? — so'radi otamiz.
— Keldi, qani, ichkarilang, — dedi qaynagachisi.

— Yomon...

Otamiz: «yomon xotinning uyi ko'p, poraxo'rning go'yi ko'p», deya uzib-uzib olmoqchi bo'ldi.

Ammo, ayoli og'iroyoq arafasida ekanini o'yladi. Shashtidan qaytdi.

— Mehmon degan qosh qorayguncha o'tira berar ekan-da. Ro'zg'or deganni-da o'ylaydi-da... — dedi.

Qaynegachisi ichkarilab qaytdi.

— Bormayman, deyapti, — dedi.

— Nima-nima deydi?

— Bormayman, keta bersin deyapti.

— Eh..

Otamiz otdan tushdi. Otni darvoza ustuniga bog'ladi. Ichkariladi.

Shu vaqt derazadan to'kilmish nurni tag'in bir soya kesib o'tdi.

Galdagi uy derazasi yorishdi.

— Qani? — dedi otamiz.

— Ana, narigi uyga o'tib ketdi, — dedi qaynegachisi.

Otamiz qaynegachisi ko'rsatmish uyga kirib ketdi.

Xiyoldan keyin qaytib chiqdi.

Qaynegachisi qoshiga keldi.

Boshi bilan onamiz o'tirmish uyga imo qildi.

— Anaviga nima bo'ldi? — dedi.

— Bilmasam.

— Gapirsam, miq etmaydi?

— Kim biladi. Ertalab o'zi kirib keldi. Endi uyimga bormayman, dedi. So'rab edim, indamadi.

— Yo, biron nima deb aynitdingizmi?

Qaynegachisi bir parda ko'tarildi.

— Ha, qaynsinglim kun sayin yasharib kelayaptil — dedi. — Sizdan aynitib, o'n sakkiz yashar bo'zbolaga beraman!

— Bo'lmasa, nimaga bunday qiladi?
— Men ne bilaman? Ana ayolingiz, ana siz!
Gaphaela bering-dal
 Otamiz tag'in onamiz oldiga kirib ketdi.
 Bu safar ko'p qolib ketdi.
 Bir mahal, eshik qarsillab-qarsillab yopildi.
 Qaynegachi derazadan tashqari qaradi.
 Hovlida otlanayotgan kuyovini ko'rdi.

V

Kavkabistonda oy balqidi.
Oydin sutga chayganday oppoq bo'ldi.
— Ko'zlaringga boqishlarim... boqishlarimizning
o'zi bir doston, momosi. Bovujud, shoirlar bilmadi,
bilsa, elga yoyardi... Men senga aytsam, momosi,
boqishlar-da hali o'zimizniki...
 Olis-olis oydinlar.
 Olis-olis oqshomlar.
Endi qaytib bo'lmas olis bir olam...
— Gohida atayin o'yda o'tiraman, momosi,
bolalar meni yo'q deb o'ylaydi, devordan oshib kira-
di. Zardolilarga chiqadi, to'ygunicha yeydi. Qo'yin-
larini to'ldirib ketadi. Men yayrab-yayrab qaray-
man... eshityapsanmi, momosi, bizning zardolilarni
bolalar yeyapti, bolalar! Shu, ko'cha yuzlariga-da
mevali daraxtlar eksammi deyapman, momosi.
O'tgan-ketganning og'zi tegadi-da, bolalar yeydi-
da...

1

Otamiz yolg'iz yashadi.
Achchig'i tarqalguncha ayoli yo'qligi bilinmadni.
Keyin-keyin bilindi.
Ayolini qo'msab-qo'msab entikdi. Bolishni
bag'riga bosib-bosib entikdi. Hovlini aylanib-
aylanib entikdi...
Ayoli xumor qildi!..

Otamiz otlandi. Yo'lga tushdi. Zim-ziyo ko'chalaridan yurdi.

Qaynog'asi devori oldida oyoq ildi. Devordan bo'yladı.

Zim-ziyo hovliga bot-bot qaradi. Entikib-entikib qaradi...

Ayoli havosini olib-olib qaytdi...

2

O'yladi-o'yladi, tog'asini qaynog'asinikiga yubordi.

Tog'asi kuyinib-kuyinib qaytib keldi.

— Ko'r bo'l, ha, ko'r bo'll! — deya yer mushtladi. — Ko'rgina bo'll!..

— Og'zingga tosh-el — dedi xolasi.

Tog'asi tag'in yer mushtlab-yer mushtlab kuyindi:

— Otang rahmatlik aytdi, enang rahmatlik aytdi, ajrash, turmushing turmush bo'llmaydi, dedil! Aytganlari keldimi? Mana, keldil! O'zingning umringni o'zing ko'kka sovurding! Uyam o'ylagan-da...

— Nimani o'ylagan-da? — dedi otamiz.

— O'ylagan-da, erkak odamning qayg'usi bolumi, o'zim ketib, peshonamni bir sinab ko'rayin degan-da!

— Ketsa, keta bersin! — dedi xolasi. — Ayoli topiladi! Po'lat pichoq qinsiz qolmaydi!..

• Yo, chini bilan u shunday o'nya bordimikin-a?•

Otamiz xayolidan shu gap o'tdi.

O'tirdi-o'tirdi, dadil ham kesib gapirdi:

— Bo'pti, endi yangi ro'zg'or qilganim bo'lsin.

3

Tog'asi xesh-tabor bilan kengashdi, maslahatlashdi.

Otamizga ayol qidirdilar.

Ikkita ayol topdilar. Ikkovini-da eri mashina falokatida ketibdi.

Biri o'ttiz beshlarda, farzandsiz bo'ldi. Biri qirqlarda, qo'sh farzandli bo'ldi.

Xolasi ra'ykorchilik qildi.

— Eshik ko'rganni olma, beshik ko'rganni ol! — dedi. — Oygul binoyi, farzandi bor...

Tog'asi sovchilikka yo'l oldi.

Ayol bo'lmish ota-onasini ko'ndirdi. Ayol bo'lmish bolalarini ko'rди.

Bolalar bir-biridan suyumli bo'ldi!

— Yaxshi bo'ldi, jiyanimizga farzand bo'ladi, — dedi tog'asi.

4

Onamiz, otamiz yangi ro'zg'or qilayapti, deya eshitdi.

Onamiz kuyib-kuyib ketdi!

Deraza tokchasiga tirsakladi.

— Go'rga bo'lsa, menga nima... — deya pichirladi.

Kaftini iyagiga qo'ydi. Boshini chapga xiyol qiyshaytirdi, tashqariga tikildi.

Yuzlari lov-lov etdi. Yonoqlari bulk-bulk uchdi. Ko'kraklari osti o'pirilib tushayotganday bo'ldi. O'pirilish ko'ksini borgan sayin quyiga bosdi.

Buni og'riq-da deb bo'lmaydi, g'ashlik-da deb bo'lmaydi.

Go'yo, ko'kraklari ostida zilday bir nima ipda osilib qoldi. Bordi-yu, iplar uzilsa, qomatini ko'tarib turmish zilday nima yerga tushadi, chilchil bo'ladi...

5

Ko'kragi ostidagi zilday nima birdan toshday qotib qoldi.

Onamiz kerishdi. Shunda-da bo'lmadi.

Qotib qolnish nima yumshab-da ketmadi, tushib-da ketmadi.

Onamiz uqalamoqchi bo'ldi. Barmoqlari borishi bilan ko'krak etlari pir-pir uchdi. Etlari o'zini olib qochdi.

Onamiz endi barmoqlarini olisroqdan olib bordi, avaylab olib bordi. Kafti bilan ohista-ohista uqaladi. Ko'zlarini yumib uqaladi.

Ko'kraklari ostida barmoqlari soyasini his etdi.

Nihoyat, ko'ksini g'ijimlamish zilday nima qo'yib yubordi.

Peshonasidan sovuq-sovuq terlar oqdi.

O'tirdi-o'tirdi, miyig'ida kuldil. Bir gapni ma'qullamishday, bilinar-bilinmas bosh irg'adi.

Ich-ichidan kuya-kuya:

— Uylansa, oq butum qora kuyarmidi... — deya pichirladi.

6

Ayol zoti azzancha o'ziga to'q bo'lsin, yegan-ichgani oldida bo'lsin, azzancha serurug' bo'lsin, seravlod bo'lsin, baribir... baribir, o'z oti o'zi bilan... zaifa bo'ladi!

Shu bois, ayol zoti hamisha boshida panohi bo'lishini xohlaydi.

Ayol zoti azzancha o'ziga mustaqil bo'lsin, mag'rur bo'lsin, baribir, ana shu panohiga bosh egib yashaydi.

Bosh panohi amaldormi? Bosh panohi kam-bag'almi? Ko'rmi yo kalmi? Bosh panohi mayibmi?

Baribir, ayol zoti uchun baribir!

Ko'mirchi bo'lsin, temirchi bo'lsin, to'rt devor ichida suyukli bo'lsin!

Ayol zoti ana shu bosh panohiga suyanib yashaydi!

Boshi ochiq...

Ayol zoti azzancha xo'rlikni ko'taradi, azzancha tahqirlashni ko'taradi. Ammo «boshi ochiq», degan gapni ko'tarolmaydil

«O'nta o'g'lim bo'lmasin... cholim o'lmasin»,

demish gap, ayollar yuragidan otilib chiqqan bo'ladil

Bu dunyoga kimni boylab qo'yib edi-da, ayol zotini boylab qo'yadi?

Dard bor, bosh yostiqqa tegish bor.

Ana shunda, suyab turg'izajak tanmahram kunga yaraydi. Ana shunda, og'izga suv tomizajak tanmahram kunga yaraydi.

Erkak zoti yomon bo'lib tug'ilmaydi! Qarsak ikki qo'ldan chiqadi!

O'zi yaxshilab oladil Nima desa, xo'p deydi! Qo'lini kosov qiladi, sochini supurgi qiladi!

Mayli, bolalari onamizni o'z onasi o'rnida ko'rmasa-da, mayli! Ammo onamiz ularni o'z bolasi o'rnida ko'radi! Bir onachalik qaraydi!

U kishi ana shunday bir erkakdan umidvor bo'ldi!

7

Otamiz qaynog'asi darvozasida oyoq ildi.
Uzangidan oyoq oldi. Otini yetaklab ichkariladi.

Ichkarida jamoa jam bo'ldi.

Otamiz jamoa bilan yuzma-yuz bo'ldi. Yugan tutamlab, dol turdi.

Salmoqlab-salmoqlab, ayoli javobini berdi:

— Ikki taloq! Bo'ldimi? — dedi.

Deraza oldida o'tirmish Oymomo onamiz o'z javobini eshitdi.

Onamiz akasi muztar bo'lib qotib qoldi.

Hamsoya-qo'llar achinish ham qayg'urish bilan bosh chayqadi.

— Qaynsingilginam umri xazon bo'ldi! Boshqa erkakka tushganida haligacha nevarali bo'lardi!

Bu gapni onamiz yangasi aytdi.

Hamsoya-qo'llar dalda berdi:

— Taqdir-peshona ekan-da, kim o'ylabdi dey siz...

— Hali joyi chiqadi!

- Joyi chiqsa, beramiz!
- Hali qo'chqordayin-qo'chqordayin o'g'illar ko'radi!
- Hali popukdayin-popukdayin qizlar ko'radi!
- Teshik munchoq yerda qolmaydi!..

8

Otamiz jamoadan ko'zini olib qochdi.
 Yerga qaradi. Mung'ayib qoldi.
 Yer ostidan tog'asiga qarab-qarab oldi.
 O'zini juda-juda yomon sezdi. Oyog'i ostida yer bormi-yo'qmi, bilolmadi. O'zini omonat sezdi.

Mung'ay mish ko'y i ketiga qayrildi. Yerdan ko'z olmay ot yetakladi. Ohista-ohista odimladi. Yer sungalab-yer singalab odimladi. Mung'ayib-mung'ayib odimladi.

Bosh ko'tarish uchun majoli-da qolmadi, haddi-da qolmadil Bosh ko'tarish uchun botinolmadi!

Ichkaridan tog'asi ovozini eshitdi.

— Endi, bari xudo tarafdan, quda, — dedi tog'asi. — Siz ham, biz ham aybdor emasmiz. Endi, kelin bo'lmish yuk-yoplarini olib kelish uchun borasizlarda. O'zim boshida turib, ipidan ignasi-gacha bo'lib beraman...

Otamiz yer ostidan ketiga qaradi. Yurak-bag'ri haminqadar ezilib-ezilib ketdi!

Hamisha qayqayib-qayqayib yurmish oti, hamisha ko'krak kerib-ko'krak kerib yurmish oti... boshi xam bo'lib-xam bo'lib qadamladil Yerga tumshuq berib-tumshuq berib qadamladi! Yerga ko'z tikib-ko'z tikib qadamladi!

♦ Yomon bo'ldi, ko'p yomon bo'ldi, — xayollandi otamiz. — Endi shuni, shu jonivor bilmasa nima qipti?♦

Otamiz hadahaladi. Darvozadan tashqariladi.
 Uzangiga oyoq ildi. Otiga qamchi urdi.

Otamiz chayladan adoqladi.

Adir adog'ida qantarilmish otini mindi. Uyiga yo'l oldi.

Darvozani ochdi. Ko'chada sochilib yurmish mol-hollarni ichkari kiritdi. Mol-holga qaradi. Otini oxuriga boyladi.

Hovli o'rtasida serrayib qoldi.

Hovli zim-ziyo bo'ldi. Milt etmish shu'la bo'lmadi.

Ichkarilab, uy chirog'ini yoqdi. Ko'rpachaga cho'zildi. Etigi qo'njidan qamchini oldi-da, ohista-ohista etik qo'njiga urdi, ko'rpachaga urdi, devor-ga urdi.

Yotib yotolmadi, uxbab uxlolmadi.

Tag'in tashqariladi.

Bir qurbaqa sapchib-sapchib keldi. Derazadan to'kilmish nurda to'xtadi.

Nur, otamiz g'ashini keltirdi. Ichkarilab, chiroqni o'chirib keldi.

Tok vayishi ostida cho'k tushdi. Oyoqlarini chalishtirdi. Joylashib o'tirdi. Vayish ustuniga yag'rin berdi. Boshini-da ustunga qo'ydi.

Boshi uzra nazar soldi. Qop-qoramish vayishga tikildi. Tikildi-tikildi, ko'zlaril ilindi...

Xo'rozlar qichqirig'idan, buzoqlar ma'rashidan uyg'ondi.

Tobora yorishib kelmish osmonga qaradi. Mung'ayib-mung'ayib qaradi. G'aribona-g'aribona qaradi...

Otasi bor edi, otasiga suyanar edi. Otasi qazo qildi.

Ayoliga suyanib qoldi.

Onasi bor edi, onasiga suyanar edi. Onasi-da ketdi.

Tag'in ayoliga suyanib qoldi.

Endi, yolg'iz suyanchig'idan-da ajraldi. Yolg'iz

yupanchidan-da ajraldi. Yolg'iz yupanchidan-da ajraldi. Yolg'iz panohidan-da ajraldi.

To'rt tarafi qibla bo'lib qoldil!
Endi... Manavi ustunga suyanib qoldi!

10

Otamiz otiga qaradi-yurdi.

Qo'ylar yemish dardida otamizga suykaldi.

Otamiz qo'ylarni turtib-turtib tashladi, jerkib-jerkib tashladi.

Otini egarladi, tashqari yetakladi.

Darvozani tashqaridan qulfladi. Egar qoshidan oldi, uzangiga oyoq ildi.

Ot shaxdam-shaxdam qadamladi.

Tong yellari hur-hur esdi.

Otamiz tegirmon oldidan yo'l oldi.

Tegirmon ostidan shovullab otilmish suv yo'lni ko'ndalang kesib oqdi.

Otamiz kechuvda jilovni bo'sh qo'ydi.

Ot bosh ko'tarmay-bosh ko'tarmay suv ichdi.

Shunda:

— Assalomu alaykum, Qoplon aka! — demish ovoz keldi.

Ovoz qayoqdan keldi, suv shovullahida bilib bo'lmadi.

— Men bu yoqdaman, misol uchun! — dedi ovoz.

Otamiz tegirmon supasida turmish Yo'ldosh qorovulni ko'rди.

Qorovul bel bog'idan qo'shqo'llab ushladi. Kulib-kulib qarab turdi.

— Tegirmonga keldingizmi, misol uchun? — dedi.

Otamiz nima deyishini bilmadi.

— Shunday, shunday... — deya bosh irg'adi.

Yo'ldosh qorovul tap etib supadan tushdi.
Otamiz bilan ko'rishib-so'rashdi.

— Bug'doyingizni qaysi burchakka qo'yib edingiz, misol uchun? — dedi.

— Nima edi?

— Bug'doyingizni ichkaridan topib olaman-da, tegirmonga solaman, misol uchun. Tushgacha tegirmondan chiqadi. Tushda kelib otga ortib keta berasiz, misol uchun.

— Yo'q...

— Yo'g'i bo'ptimi, misol uchun. Bog'qorovul bo'la turib, tushgachayin o'tira berasizmi? Uzumlariningizni chumchuq yeb ketadi, misol uchun! Mana biz o'tirsak, bo'la beradi. Biz makkajo'xori qorovuli. Makkajo'xorini it yeydimi, misol uchun...

Otamiz xo'rsindi. Tevarakka alangladi. Yo'l bo'yi simyog'och simlarida tizilib turmish qaldirg'ochlarga tikildi.

Yo'ldosh qorovul, otamiz istihola qilayapti, deya o'yladi. Tag'in gapga tushdi.

— Navbatda turganlar janjal qiladi, deb o'ylayapsizmi, misol uchun? Chin, tegirmon navbat bilan, deydilar, misol uchun. Lekin men tegirmonchi bilan gapirishaman-da. Shunday-shunday, deyman-da, misol uchun...

Otamiz qamchi sopi bilan qaldirg'ochli simlarga ishora qildi.

— Shu simlarda tok bor-a? — dedi.

— Ha, tok bor, misol uchun.

— Unda, nimaga qaldirg'ochlarni tok urmaydi?

— Shuni bilmadim-a, misol uchun. Chopib borib, Nikolay montyordan bilib kelayinmi, misol uchun?

Ot suvdan bosh ko'tardi.

Otamiz otni tizzalari bilan niqtab haydadi.

Ot suv sachratib-suv sachratib kechuvdan o'tdi.

Otamiz yo'lida davom etdi.

Yo'ldosh qorovul otamiz ketidan qarab qoldi.

11

Otamiz tegirmondan olisladni.

Tonggi havodan badanlari junjikdi. Choponi o'ngirlari yonlariga yoyildi.

Bor vujudi bilan, bor tani bilan... qo'msash qo'shig'ini aytdi...

Ulkan tol tevaragini bir aylanib oyoq ildi. Yerga tushdi. Otini tol tanasiga boyladni.

Yelkasidan nafas oldi. Badanlari qizidi. Yoqlarini ochdi.

Azim yong'oq ostiga bordi. Yong'oq tanasiga suyanib o'tirdi...

12

Poyida buloq suvlari tiniq oqdi, sokin oqdi.

Po'st tashlamish yong'oqlar buloqqa cho'lp-cho'lp tushdi. Buloqda qalqib-qalqib oqdi...

Otamiz buloqdan hovuchlab-hovuchlab oldi. Og'zini chaydi. Yuziga sepdii. O'zini sovutdi.

Buloq bo'yidagi kiyik o'tlarga termilib o'tirdi-o'tirdi... Eslash qo'shig'ini aytdi...

13

*...Zardoli bargi misol qayrilma oy, bulutsiz oqshom osmonida havolandii.

Oqshom tag'in-da oppoq, tag'in-da nafis bo'ldi.

Qovjirab yotmish qiyooq o'tlar shamolda chayqaldi. Shamolda ayqashdi, ajib tovush berdi.

Barglar shitir-shitir etdi.

Pishib me'yorida o'tib ketmish zardolilar yerga tap-tap tushdi.

Oqshomdan zardoli hidi anqidi.

U, Oymomo sochini ushladi...

Oymomo ro'moli chetidan o'pkalanib-o'pkalanib qaradi...*

Eslash qo'shig'i avj oldi:

— Ha-a-ay...

Otamiz otlandi. Adirga yo'l oldi.

Adir g'uj-g'uj daraxt bo'ldi. Zardoli, olma, jiyda, yong'oq, do'lana... bo'ldi. Ularni tabiat ekdi, tabiat ko'kartirdi. Shu bois, oti yovvoyi olma bo'ldi, yovvoyi yong'oq bo'ldi.

Bu yil daraxt barglari uchi sariq-sariq bo'ldi. Demak, qish kech keladi. Bordi-yu, barglar ostidan sarg'ayib boshlasa, qish erta keladi.

Otamiz ot jilovini o'z holiga qo'ydi.

Yer sinchiklab-yer sinchiklab qaradi...

Shu yerlarda... Xuddi shu yerlarda bir so'qmoq bo'lar edi. So'qmoq bog' tarafidan... Oymomo ishdan qaytar edi. Otamiz xuddi shu yerda Oymomo yo'lini poylar edi...

Bu, ko'rishuv qo'shig'i bo'ldi!

Endi u so'qmoqlar yo'q...

So'qmoqlar ko'milib ketdi. Izsiz, nom-nishonsiz ko'milib ketdi...

Bir kaltakesak xazonlarni shitirlatib-shitirlatib chopdi.

Ot seskanib oyoq ildi. Qulog'ini ding qildi.

Otamiz jilovni orqaga burdi.

Ot o'zi yurmish egri so'qmoqdan yuraman, dedi.

Ammo otamiz otni tikkasiga soldi.

Yo'lda yo'ng'ichqapoya keldi, ariq keldi, o'rchuqur keldi. Ot baridan sapchib o'tdi, baridan irg'ib o'tdi.

Ko'rishuv qo'shig'i poyonladi.

Qo'shiq yovvoyi daraxtlar ostida qoldi. Nom-nishonsiz so'qmoqlarda qoldi...

16

Otamiz Sayrak adirda jilov tortdi. Egar qoshiga jilov ildi.

Ot bo'yni ko'zoynak ilon misol gajak-gajak bo'ldi.

Ot pishqirdi. Old tuyoqlari bilan tars-tars yer tepdi.

Otamiz, qamchi sopi bilan telpagini ketiga surdi. Qamchili qo'lini soniga tiradi.

Yelkadan nafas oldi. Qirinib yo'taldi. Qo'shiq ayta berib qaqrab qolmish tomog'ini namladi.

Nazarini bog'larga berdi...

17

Shu ko'yi o'tirdi-o'tirdi... o'zining so'nggi... eng so'nggi qo'shig'ini boshladni...

Bu, xayrlashuv qo'shig'i bo'ldi, alvido qo'shig'i bo'ldil

Tonglar bepoyondir, bepoyon! Olis-olis ufqlarda tong. Bobotog' cho'qqilarida tong. Dagraz suv ombori uzra tong. Qishloq uzra tong. Bog'larda tong. Terak uchlarida, barglarida tong. Gala-gala chumchuqlar parvozida tong. Ot yollarini o'ynamish sokin yellarda tong. Kuylovchi soqolini silamish salqin sabolarda tong.

Qo'shiqda-da tong!

18

Sokin bog' uzra bir gala chumchuq o'ynadi.

Chumchuqlar turnaqator bo'lib tizildi. G'uj bo'ldi. Yoppasiga terak shoxlariga yopirildi. Tag'in parvozlandi.

Jimjit terak qo'ynida parr etmish ko'r ovoz keldi.

Bir to'rg'ay havolanib-havolanib o'ynadi. O'z o'yinidan, tong havosidan mast bo'lib sayradi. Bir joyda muallaq turdi. Chalqancha yotdi. Quyiga

sho'ng'idi. Tag'in yuqoriladi. Ko'kka to'sh berdi.
Joyida qotib qoldi. Tag'in to'lqindayin-to'lqindayin
parvozlandi...

Alvido qo'shig'i avjida bo'ldi!

19

Kun, tongni yoqib yubordi.
Olamdan oppoq parda ko'tarildi.
Bobotog' cho'qqisida turmish dum-dumaloq
kun, teraklar uchini chalib ketdi.
Bir terak shoxida chumchuqlar zorlanib-zor-
lanib chirqilladi.
Chumchuqlar ilon ko'rsa, ana shunday zorlanib
chirqillaydi...
Alvido qo'shig'i qiyomda bo'ldi:
— Lalaylam, la-a-am!...
Bebosh sabolar terak barglarini chappa-chappa
gayirdi.
Fotmachumchuqlar shoxma-shox likilladi.

20

Qishloq tarafdan kelmish so'qmoqda otliqlar,
eshaklilar ko'rindi, piyodalar ko'rindi.
Birov uloviga savat osib oldi, birov qo'ltig'iga
savat qisib oldi.
Dehqonlar uzum uzishga kela berdi.

21

Brigadir otini yo'ng'ichqapoya girdiga boyladi.
Terakzor yonlab yurdi. Chumchuqlar zorlan-
mish terak oldiga bordi.
Enkayib-enkayib qaradi. Birdan... iziga qarab-
qarab qochdi.
Brigadir qo'lini qoshi ustiga qo'yib qaradi.
— Hoy, Qoplon aka! — dedi. — Belni olib cho-
ping! Anavi terakda bir darranda o'ralib yotibdi!

22

Otamiz alvido qo'shig'ini bekam-u ko'st aytdi.
Umrida ilk bor... ilk bor, qo'shig'ida so'z ish-latdi.

Qo'shiq qiyomida ko'nglidan bir so'z otilib chiq-di:

— ...Ku-u-uyga-a-ay!..

Otamiz alvido qo'shig'ini bog'lar oralab bo'lin-mish mehnatkashlarga qarab aytdi.

Mehnatkashlarni qo'shiq bilan kuzatdi.

Mehnatkashlar ishlariga qo'shiqli bo'lib ketdi!

23

So'qmoqda bir qizil kiyim ko'rindi.
Boshida doka ro'moli bo'ldi. Qo'lida savatcha bo'ldi.

Odimlari vazmin-vazmin bo'ldi.

Bu, asl qo'shiqning o'zi bo'ldi!

Asl qo'shiq turganda muxammas qo'shiqqa yo'l bo'lsin! Asl qo'shiqqa taraf yo'q!

Qo'shiq beixtiyor adirdan enib boshladi.

24

Brigadir, qo'li qoshi ustidaligicha qoldi.

25

Ot, asl qo'shiq oldini oldi.

Asl qo'shiq chapdan yo'l oldi.

Ot, asl qo'shiq oldini oldi.

Asl qo'shiq o'ngdan yo'l oldi.

Ot, tag'in oldinni oldi.

Asl qo'shiq nima qilishini bilmadi. Yerga qarab qoldi.

Shunda, qo'shiq otdan tushdi. Ot bo'yniga qo'lini qo'ydi. Olis turdi.

Asl qo'shiq ro'moli yerllarda hilpirab-hilpirab turdi.

Qo'shiq, asl qo'shiq qo'lidan savatchani oldi.

Egar qoshiga ildi. Bir qo'li bilan ot jilovidan ushladi. Bir qo'li bilan asl qo'shiq ro'molidan ushladi.

Ohista-ohista qishloqqa yo'l oldilar.

Qo'shiqlar yuzma-yuz bo'lib, nimalarni gapi-rishdilar?

Qo'shiqlar yig'lab-yig'lab, mana bunday gapi-rishdilar:

— Umrinbizni olmayin dedim, bovasi, yolg'iz o'g'ilsiz...

— Shu gapingga noma'qulning nonini yebsan, momosi. Senga kelgan dardga o'zim ko'ndalang, momosi...

26

Brigadir olislik qildi.

Shu boisdan eshitmadi.

Ammo barini ko'rib-bilib turdi.

— Ha, kuchingdan, bizning qorovull — deya jilmaydi.

VI

Oy suzilib-suzilib bogdi.

Bobomiz ozg'in panjalarini havoda ochib yumdlar.

— Esingdami, momosi, — dedilar. — O'shanda-da oy yorug' edi, yop-yorug' edi...

Bobomiz kaftlari bilan qovjirab-qovjirab yotmishtaslarni paypasladilar.

— Men ot ni jildirib kelayin, momosi, — dedilar. — Sen o'tirib tur. Qo'rqmaysanmi, o'zi?

Bobomiz adirdan endilar. Ariqdan hatladilar. Yo'ng'ichqapoya oralab yurdilar.

Ot quloqlarini dikkaytirdi. Ketiga tis bo'ldi.

Xo'jasini tanidi, bo'y berdi.

Bobomiz ot yollarini siladilar. Silab-silab erkalatdilar.

Ot qozig'ini sug'urdilar. Hali ot og'zi tegmagan

yerga tepib-tepib qoqdilar. Jabdug'ini da ot oldiga olib kelib qo'ydilar.

*Bobomiz ana shu jabduqqa picha cho'nqaydilar.
Oyoqlarini uzatib-uzatib o'tirdilar.*

*Kaftlari bilan yo'ng'ichqalarni siladilar.
Kaftlarini yuzlariga surtdilar, burunlariga bosdlar.*

Kaftlarini to'yib-to'yib iskadilar.

Shunda... shunda, artiq yoqalab kelmish qoralarga ko'zları tushdilar.

Yo'ng'ichqa isli kaftlari bilan soqollarini tutamlab-tutamlab qaradilar...

1

Necha-necha qizg'aldoqlar ochildi.

Barglari sochilib-sochilib ketdi.

— Do'xtir bizning ichimizga kirib chiqibdimi, momosi. Do'xtir aytta beradi-dal Ana, Jo'raqulni do'xtirlar odam bo'lmaydi, dedi. Bemorxonadan olib keting, dedi. Ana, yuribdi, otdaygina bo'libi..

— Chin, bovasi chin.

— Bilasan, Hazrati Xizr suygan bandalariga yo'liqadilar. Menga yo'liqdilar, farzand beraman, dedilar. U kishi yuzimdan o'tolmaydi, momosi. Odamning yuzi issiq-da, momosi.

— Aytganlari kelsin, bovasi.

— Bo'g'irsoq, yog'li patir qil. Ertaga ishga olib boramiz. Arpaga o'roq tushar emish. Mehnat hayti-da.

— Uff, ishning oxiriym bormikin-a.

— Tirikchilik, momosi, tirikchilik. Odamning yuzi chidamaydi. Yana tag'in Hushvaqt hayallayapti. Hushvaqt o'rniqa-da mehnat qilmasak bo'lmaydi. Odamlardan uyat. Xushvaqt kelsin, o'zimiz bilamiz...

— Kattalar qo'yar.

— E, qo'ymay nima? Xushvaqtday ulimiz bo'ladi-da, kattalardan qo'rquamizmi? Birovi g'ing

deb ko'rsin! Hay, ko'p javrama, ana ulimiz ishlayapti, deymiz. Bor, yo'lingdan qolma, deymiz. Bari uyalib qoladil Qola bersa, Xushvaqt ulimizni o'ylaydi. Chol-kampirga indamaylik, uli xafa bo'ladi, deydi. Ulimizning yuz-xotirini qiladi. Hali-hozir kimimizning yuz-xotirini qiladilar, momosi...

2

Necha-necha qovunlar pishdi.

Tarvuzlar tars yorildi.

Uzumlar mayiz bo'lди.

— Eshitdingmi, momosi, Vaxshivorda birov yetmishida farzand ko'ribdi. Yana tag'in, o'g'il emish! Ana ko'rdingmi, erta-kechi bo'lmaydi. Sabr qilsang, g'o'rada holva bitadi. Sabrning tagi oltin, momosi.

— Aytganlari kelsin, bovasi.

— Aytganday, yana paxtani deyapti, momosi.

•Hazorbog'» sovxoziiga yordamga boramiz ekan, o'n besh kunga.

— Ikkovimiz-da boramizmi?

— Yo'q, bir o'zim boraman, momosi. Brigadir o'zingiz borasiz, dedi. Biladi-da, bir o'zim ikki-uch kishining ishini qilishimni biladi-da, momosi.

— Biladi, brigadir biladi, bovasi.

— Brigadir, siz choyxonachi bo'lasiz, dedi. Men aytdim, choyxonachilik yarimjonlarning ishi, men paxta teraman, dedim.

— Unda, men nima qilayin, bovasi?

— Sen mol-hollarga qarab, uyda o'tir, momosi. Sening ulushingni-da, Xushvaqtning ulushini-da o'zim bajaraman. Xushvaqt kelsin, oyoqni uzatib yotganimiz bo'lsin, momosi.

— Aytganlari kelsin, bovasi.

3

Necha-necha barglar sarg'ayib xazon bo'lди.

Qizlar kelin bo'lди.

Bolalar kuyov bo'lди.

Toylar ot bo'ldi.

— Hazrati Xizr lafzlaridan qaytmaydilar, momosi. Bordi-yu, qaytsalar, yodlaridan ko'tarilgan bo'ladi. Unda, tag'in eslariga solaman, momosi. Hazratim, bizning ulimiz nima bo'ldi, biz ulimiz yo'liga qarab o'tiribmiz, deyman. Qanday qilib aytasiz, deysanmi? Bilasanmi-yo'qmi, Hazrati Xizr odamga uch marta yo'liqadilar. Men, endi ikki bor yo'liqdim. Hali yana bir yo'liqishim bor. O'shanda aytaman-da, momosi. Ishonchim komilki, u kishi uzrlarini aytadilar-da, lafziga amal qiladilar...

— Aytganlari kelsin, bovasi...

4

Necha-necha qorlar yog'di.

Suv bo'lib-suv bo'lib oqdi.

— Men senga aystsam, momosi, Yaratganning o'zi beraman desa, qo'shqo'llab beradi. Sendan-menden so'rab o'tirmaydi. Ma, ol, qulim, deydi. Mana ko'rasan, momosi...

— Aytganlari kelsin, bovasi...

5

Avji saraton bo'ldi.

Oftob lov-lov yondi.

Oftob olamni jingirtob-jingirtob qildi.

Oftobda suv qaynayin-suv qaynayin, dedi.

Shunday kunda ramazon keldi.

El ro'za tutishini-da bilmadi, ro'za tutmasini-da bilmadi. Ro'za tutayin dedi, kun ko'z ochirmadi, kun nafas oldirmadi. Ro'za tutmayin dedi, mo'min-musulmon uchun ro'za qarz-da bo'ldi, farz-da bo'ldi.

Otamiz bilan onamiz o'ylab-da o'tirmadi. Kun oftob tugul, olov purkasada, ro'za tutarman bo'ldi.

Boisi, el-yurt oldida o'zlarini qarzdor bildi, el-yurt oldida o'zlarini aybdor bildi...

Qola bersa, otamiz bir umidi Laylat ul-Qadr bo'ldi...

Emishki, yil, melodiy olti yuz o'ninchi yil bo'ldi. Oy, Ramazon oy bo'ldi.

Ollohi taoloning Jabroil otli bir farishtasi bo'ldilar. Ollohi taolo ana shu farishtasini huzurlariga chaqirdilar. Jabroil farishtasidan Muhammad alayhissalomimizga vahiy yubordilar.

Bu amal Qur'oni karim oyatlari yoddan aytila boshlamish ilk kechada sodir bo'ldi.

Ollohi taolo ana shu tariqa-ana shu tariqa, Muhammad payg'ambarimizga vahiy yo'llay-vahiy yo'llay berdilar.

Melodiy olti yuz o'ttiz ikkinchi yilgachayin ana shundayin vahiy yo'llab turdilar.

Emishki, Qur'oni karim ana shunday bino bo'ldi!

Shu boisdan Ramazon muqaddas oy bo'ldi.

Qur'oni karimday mo'tabar ham tabarruk kitob bino bo'ldi, muqaddas bo'ladi-da!

Shu boisdan Ramazonda mo'min-musulmonlar ro'za tutdi.

Oydin bo'ldikim, Laylat ul-Qadr ollohi taolo Muhammad rasulullohimiz uchun yaratmish kecha bo'ldi.

Arabcha «layl» so'zi o'zbekcha «kecha» demakdir. Arabcha «qadr», o'zbekcha «taqdir» demakdir.

Oydin bo'ldikim, Laylat ul-Qadr, «taqdir hal bo'lajak kecha» demakdir.

Jumlayi mo'minlarga ayonkim, yillar hisob-kitobi Quyosh Yer girdida aylanmis davriga qarab sanaladi. Shunga binoan har kelajak yangi yil eski yilga nisbatan o'n kun-o'n kun oldin keladi.

Ramazon hijriy-qamariy yillar to'qqizinchi oyi bo'ladi.

Demak, Laylat ul-Qadr har yili bir vaqtda kelmaydi. Turli kechalarda keladi. Ramazon oyi oxirgi toq kechalarida keladi. Xususan, o'n yettinchi, o'n to'qqizinchi, yigirma birinchi, yigirma uchin-

chi kechalarda keladi. Ko'pincha, ramazonning yigirma yettinchisida keladi.

Laylatul-Qadr kelajak kecha mo'min-musulmonlar nimaniki tilasalar, tilaklari bajo bo'ladi. Orzu-umidlari ushaladi.

7

Otamiz-da, onamiz-da, Laylat ul-Qadrni... ulug' bir zot, deya o'yлади!

— Laylatul-Qadr har bandasini kiga-da kela bermaydi, momosi, — dedi otamiz. — U kishi o'z suygan bandalarnikiga keladi. Kimda-kim busbutun ro'za tutsa, ana shu bandasini kiga qadam ranjida qiladi.

Otamiz ramazon kechalarini sanab ro'za tutdi.

Necha-necha kechalar bedor o'tdi.

Otamiz ko'z ilmayajak kechalar bo'ldi.

Onamiz kiprik qoqmayajak kechalar bo'ldi.

O'zлари to'shakda bo'ldi, bor vujudlari tashqirida bo'ldi. Quloqlari ding bo'ldi.

Laylatul-Qadrni cho'chitib yubormasinlar uchun yo'talmay yotdi. Ohista-ohista gapirishdi. Tiq etmish tovush chiqarishmadи.

Eshiklar bilan derazalarni lang-lang ochib qo'yдilar...

Ramazon-da oxirladi.

Mo'min-musulmonlar ro'zalarini ochdi.

Ramazon hayiti bo'ldi.

Onamiz chayindi-tarandi, o'ziga oro berdi.

Haylik liboslarini kiydi.

Qabriston yo'l oldi.

Ota-onasi boshiga bordi. Ota-onasi qabriga chiroq yoqdi: paxta tolasini eshit-eshib, pilik qildi. Zig'ir moyga belab oldi. Cho'p uchiga o'radi. Cho'pni qabr bag'riga qadadi. Gugurt bilan pilik uchini yoqdi.

Pilik uchi lip-lip yondi.

Onamiz lip-lip yonmish pilikka termuldi...

Onamiz onasi rahmatlikni yodladi, onamiz otasi rahmatlikni yodladi.

Yodlab-yodlab yig'ladi...
Onamiz ota-onasi boshidan qaytarda duch kelmish yetim-esirni qutladi.
— Hayitingiz qulluq bo'lsin! — dedi.
Yetim-yesirlarga bir so'm-bir so'mdan hayitlik berdi.
Otamiz-da ozoda kiyimlarini kiydi. Jiynoq bo'lajak hovuz bo'yiga yo'l oldi.
Yo'lida uchramish mo'min-musulmonlarni qutladi, beva-bechoralarni qutladi.
— Hayitingiz qulluq bo'lsin! — dedi.
Beva-bechoralar qo'liga uch so'm-uch so'mdan hayitlik berdi.
Otamiz beva-bechoralar duosini oldi.
Bekatlarda o'tirmish xokisor bandalarni qutladidi, uch so'm-uch so'mdan hayitlik berdi.
Otamiz xokisorlar duosini oldi.
Hovuz bo'yida g'uj bo'lib turmish bolalarni ko'rди. Bolalar nisholda tevaragida uymalandi. Bildi, bolalarning tangasi yo'q, bo'lsa, nisholda olib yejar edi.
Otamiz bolalarga bitta-bittadan nisholda olib berdi.
Bolalar nisholda yalay-yalay tarqaldi, otamizga qaray-qaray tarqaldi.
Otamiz bolalar duosini oldi.
Yo'l-yo'lakay hamsoya-qo'llarni hayit bilan muborakbod etib keldi.
— Laylatul-Qadr kelaman desa, Ramazon deb o'tirmay, kela beradi, momosi... — dedi otamiz.
— Aytganlari kelsin, bovasi... — dedi onamiz.

8

Onamiz to'lishib-to'lishib qoldi.
Yonoqlarida sepkil toshib-sepkil toshib qoldi.
— Oymomoning bo'yida bo'pti, ko'z tegmasin.
— Yaratganning o'zi nolasini eshitibdi, kech bo'lsayam beribdi.
— Farzandning erta-kechi bo'ladimi.

— Ishqilib, eson-omon qutulib olsin.
Onamizni ko'rmishlar ana shunday dedilar!
Aslida... unday emas!
Ayol zoti chinakam farzand dog'ida kuysa...
farzandni qalban orzu qilsa... xuddi bo'yida
bo'lmishday to'lishadil Ayol ruhiyati shunday, ayol
tani shunday, ayol qalbi shunday!
Tabiat ayolni farzand uchun yaratadi.
Farzand — ayol baxti bo'ladi, shon-sharafi
bo'ladi, yuz-xotiri bo'ladi!
Ona — ayol zoti uchun oliydan-oliy martaba
bo'ladi!

9

Onamiz dardi ichida bo'ldi. Birovga sir bermadi.
O'tirdi-o'tirdi, Robiya hamsoyasinikiga o'tdi.
Hamsoyasi ayvonda o'g'lini osmonga otib
o'ynadi. Har otishida go'dak qiyqirib-qiyqirib
kuldi.
Onamiz ko'zi tandirga qiya tashib yurmish
qizda bo'ldi. Ana, o'sha yig'loqi chaqaloq, anal
Do'posday qiz bo'ldi!
Onamiz qizga tikildi-tikildi, ich-ichida shunday
dedi:
«Big'-big' qilmaganingda... qizimning otini
bilib olar edim...».
Hamsoyasi go'dagini beshikka beladi. O'g'li tili-
dan aytdi:
— Ay momo, meni tebratib turing, enam non
yopib kelsin. Katta bo'lsam, men ham qizingizning
beshigini tebrataman.
— Aytganing kelsin... — dedi onamiz.
Hamsoyasi tandirga qarab ketdi.
Onamiz beshik tebratdi.
Chaqaloq onamizga qarab-qarab keldi.
Onamiz-da kuldi.
— Ha, kulishni-da bilasanmi? Kulishni-ya? —
iyak silkidi, — Kul, kula ber!..
Chaqaloq mimit qo'llarini shunday peshonasida

osilmish tumorga uzatib-uzatib kului. Og'zida bitta-da tishi bo'lmadi!

Onamiz beshikka engashdi. Shunda... shunda, dimog'i go'dak isini tuydi...

Onamiz umrida gullar, barglar isidan bahra oldi. Turfa ko'katlar, taomlar isidan bahra oldi. To'yib-to'yib iskadi.

Ammo... go'dak isidan tarovatlisini ko'rmadi, go'dak isidan hayotbaxshini ko'rmadi!

Ay, go'dak islari, go'dak islari-ay..

Go'dak ko'zlarilari ilinib-ilinib ketdi. Momomiz ko'zlarini yumib, beixtiyor dimog'ida alla aytdi:

Alla-allá, akdi bor-a, alla-yo, alla-yo.

Uyquning ham vaqtı bor-a, alla-yo, alla-yo.

Alla aytgan enangni-yo, alla-yo, alla-yo.

Qop-qoraygan baxti bor-a, alla-yo, alla-yo.

Allada Sherobod dashtlariday anqillab yotmish ko'ngil nolasi bo'ldi.

Ko'ngil dardi bo'ldi, armoni bo'ldi.

Ko'ngil fojiasi bo'ldi!..

Dasht-u dalada uzum, alla-yo, alla-yo.

Uzganimni kim bilar-a, alla-yo, alla-yo

Hasratu armon bilan, alla-yo, alla-yo,

Jon berganimni kim bilar-a alla-yo, alla-yo...

Onamiz ko'kraklari uchida igna sanchilmishday-yigna sanchilmishday bo'ldi.

Onamiz kafti bilan ko'kraklarini siladi. Siladi-siladi, birdan... chap ko'kragini changalladi. Changalladi-changalladi... Chayqaldi-chayqaldi... Ketiga shilq etib tushdi...

Onamiz ko'kragiga... sut keldi.

10

— Hamsoya, so'rab edingiz, keldilar, ko'zingizni oching.

Onamiz ko'zlarini ochdilar...

Otamizga termuldilar. Za'faron yuzlari yorish-

dilar. So'niq ko'zlarini xiyol oydinlashdilar. Ma'yus tabassum berdilar.

Barmoqlarini qimirlatib-qimirlatib, otamiz qo'lini izladilar.

Otamiz titramish qo'lini kaftlari orasiga oldilar.

Onamiz yuzlari tag'in-da yorishdi. Otamiz kaftalarini his etdilar-dal!

Onamiz ko'zlarini yumib-ochdilar, yumib-ochdilarn...

Otamiz sokin o'tira berdilar.

Shunda, ayollardan birovi otamizni turtdi.

Otamiz turtmish ayolga qaradilar. Ana shundagina nima gapligini tushundilar...

Ko'ngillari orziqib-orziqib ketdilar...

Otamiz, onamiz yuzlariga egildilar.

— Momosi, mendan rozi bo'l, momosi... — dedilar. — Ko'zingni och, momosi, mendan rozi bo'l...

Onamiz tag'in ko'zlarini yumib-ochdilar, yumib ochdilar... Bilinar-bilinmas bosh qimirlatdilar...

Otamiz o'kirib yubordilar...

11

Ayollar ovoz berdilar:

— Voy, hamsoyam-e, hamsoyam-e!..

Onamiz bir kecha mehmon bo'ldilar. Bir uy ayollar qurshovida yotdilar.

Ichkarida ayollar onamiz tevaragida halqa bo'lib sadr tushdi.

Tashqarida erkaklar uy tevaragini aylanib-aylanib yig'ladi. Aytib-aytib yig'ladi:

— Xolamov-v, xolamov-v!..

— Opamov-v, opamov-v!..

— Ammomovv-v, ammomov-v!..

Chor tarafga chopar ketdi.

Chopar qishloq ko'chalari bo'ylab jar soldi:

— Xaloyiq, barchangiz Qoplon qorovulnikiga janozaga! Bu hammaning boshida bor savdo, xaloyiq!..

12

Odamlar oqib-oqib kela berdi.
Uy odamlar qurshovida qoldi.
Odamlar onamizni yodladilar,
— Bechorani ellikni qariblagan ayol deb bo'lmash edi.
— Ikki yuzi qip-qizil anorday edi.
— So'ramoqdan ayb yo'q, bechora nechada ketibdi?
— Qirq sakkizda, deyishayapti.
— Shunday, ellikni qariblab boribdi.
— Endi, ellikda deb duo oladi-da?
— Shunday-shunday, ellikda deb duo beriladi.
— O'zi, bemorxonada deyishib edi-ku?
— Do'xtir, olib ketinglar, odam bo'lmaydi,
debди...

13

Yosh-yalanglar momomlab-momomlab yig'ladi:

*Osmondag'i qirq yulduz
Qiyalab ketadi botgani,
Voy momom-ov, momom-ovv!
Men momomni bir o'payin,
Qiyomat ketadi yotgani,
Voy momom-ov, momom-ovv!*

Yoshi qaytishlar onamlab-onamlab yig'ladi:

*Hovlimizning tolini
Tobut bo'lsin, debmidik
Voy enam-ovv, enam-ovv!..*

14

Uvol-savobchi ayollar uylarni bir-bir qaradi.
Uylarda to'shalmish gilamlarni ko'tarib-ko'tarib
ko'rди.

Bir uy osti taxtasiz yer bo'ldi.
Ayollar ana shu taxtasiz uy gilamini yig'ib oldi.
Uy o'rtasiga bo'yra to'shadi. Ikki obtova suv olib
keldi.

Ayollar onamizni kaftlarida olib keldi. Ana shu bo'yra uzra yotqizdi.

Uvolchi ayol obtovada suv quydi, savobchi ayol...

Onamizni yuvdi! Boshdan adoq yuvdi. Silab-siy-pab yuvdi...

Ayollar onamizni oppoq surpga o'rab-o'rab oldi. Kaftlarida tobutga yotqizdi.

Onamiz so'nggi manzillariga... so'nggi manzillariga pok-pokizagina bo'lib jo'nadilar.

15

Tobutga-da oppoq surp yopildi.

Bu, yoshini yashab o'tdi, alomati bo'ldi.

El tobut poyida... onamiz poyida tizilib-tizilib janoza o'qidi.

Tobut... onamiz el kaftida qalqib-qalqib jo'nadi.

El tobutga... onamizga talpindi. Tobutni... onamizni kaftida ko'tarib borish niyatida bo'ldi. Aqall qo'lini tekkizib borish payida bo'ldi.

El tobut ketidan... onamiz ketidan qabriston bordi.

16

Onamiz lahadga qo'yildi.

Mozorga tuproq tortildi. Tuproqqa chim bosildi.

Odam boshi bir so'mdan isqot berildi.

Bir dastro'moldan oq yirtish berildi.

Domla qabr boshida qiroat bilan-qiroat bilan Qur'on o'qidi:

— Auzu billahi minash, shaytonir-rojim. Bismillahir-rohmanir-rohim! Tabarokallazi biyadidil mulku va huva ala kulli shayin qodir. Allazi xolaqol mavta val hayata liyabluvakum ayyukum ahsanu amala. Va huval azizul-g'ofur allazi xolaqo sab'a samavatin tibaqo. Ma taro fi holqirroxmani min tafavut. Farji'il basaro hal taro min futur. Summar jiil basar. Karrotayni yanqolib ilaykal basaru xo siav va huva xasir. (Toshbo'ron qilingan shaytondan Ollohnning panohiga sig'inaman. Behad

rahmli, nihoyatda mehribon Olloh nomi bilan! Egalik qo'lida bo'lmish zot ulug' bo'ldi. Va u har narsaga qodir. Ul zotiki yaratdi hayotni va mamotni. Imtihon qilish uchun qaysinisi amal jihatdan yaxshiroq. Va u g'olib mag'firotlik, qaysiki yaratdi yetti osmon tabaqasini. Ko'rmaysan Olloh yaratishida biror kamchilik. Tikkin ko'zingni. Ko'rasanmi biror yoriq. So'ngra tikkin ko'zingni qayta-qayta. Qaytadi ko'zing senga noumid bo'lib va tolib).

Yuzlarga fotiha surtildi.

Tuproqdan yaralmish onamiz, tag'in tuproq bo'lib ketdilar!

VII

Qoralar ariq yoqalab-ariq yoqalab kela berdi.

— *Ketganga o'xshaydilar, ko'rinxayaptilar.*

— *Yo'q, hali ketmaganlar. Yonboshlab yotgan bo'lsalar kerak.*

Ma'shuq ovoz bobomizga tanish tuyuldi. E'tibor bilan eshitdilar.

— *Manavi yerga o'tiraylik.*

— *Sabr, qil, qo'lro'mol bilan o'tlarni artib tashlayin, ana, endi o'tir.*

— *Uh, pidananing isini. Yulmang, bizdan keyin ham keladiganlar bor. Isini kaftimda olib beraman. Mana, iskang.*

— *Yo'q, qonmadim. Uchlarini silkib yubor.*

Bobomiz hayrat bilan yoqa ushladilar... «Yo, tavba, ma'shuq ovoz hamsoyasi Mengto'raning qizi bo'ldi. U buyoqda nima qilib yuribdi? Yo... Yo'g'e! U hali go'dak-ku. Darrov-a? Aytib bo'lmaydi, qiz bola shayton bo'ladi. Uyoqdan buyoqqa qaraguncha bo'y beradi»...

Oshiq ovoz bobomizni hamingadar hayron goldirdi.

Oshiq ovoz momomiz, akasining o'g'li bo'ldi...

Jimjitlik bo'ldi. Ma'yus kulgi bo'ldi.

— *She'r o'qib berayinmi? Yaqinda yodlab oldim.*
Qara, eshit:

*Yorishmoqda olis chek ham.
Tong fusunkor, suluv biram.
G'azal yanglig' jarangdor dam,
Yangroq havo esingdami?*

*Sukunat bo'ldi. Qo'lingiz muncha qattiq, demish
ovoz bo'ldi. Ovoz erkali bo'ldi. Ginadan ko'ra, min-
natdorlikka moyil bo'ldi.*

*Boshlanar to'rg'aylar huyi.
Tabiatning tonggi to'yi,
Yorug' ro'yo esingdami?*

*Bobomiz beixtiyor bosh irg'adilar. Oydin rangi.
ko'k yo'ng'ichqa bo'yi, baytdan hayflari chog' bo'ldi.*

— *Qara, tag'in bir she'r o'qib berayin.*

Baytlar g'amza bilan o'qildi.

*Xayollari, o'ylari qo'ynidagi bobomiz, xushvaqt-
liklari, ruhiy hayatlari qo'ynidagi bobomiz baytlarni
eshitmadilar. Adir betidagi qop-qora yong'oqqa ter-
mildilar. Yuksaklanib ketmish Vaxshivor qirlariga.
Keragotog' cho'qqlari bag'rida elas-elas oqarib
ko'rinnish oppoq qorga tikildilar.*

Baytlarning so'nggi misrasini eshitdilar.

*Bobolarim birin-ketin suyak surib o'tgan yer.
Momolarim sochlarini qirqta o'rib o'tgan yer.*

*Yuzlarida, ko'ngillarida yorug' tabassum
o'ynadilar.*

— *Hay-hay-hay... — deya pichirladilar.*

— *Bunday bemahalda qolib ketmasdilar-ku? —
dedi oshiq.*

— *Ketgilari kelmayapti shekilli, — dedi
ma'shuq.*

— *Ko'ngillari buzilib o'tirgandir.*

— *Kechroq enam, bobongning mol-hollariga
qarayin deb, darichadan qaytib keldi. O'zlari qara-
yotgan ekanlar, vayron ko'ngillarini battar vayron
qilmayin deb bormadim, dedi.*

- *Otam, har oqshom momongnikiga borib molholga qara, dedi.*
- *Oqshomlari borsak, bir-birimizga gap qo'shmaymiz, maylimi? Bo'lmasa bilib qoladilar.*
- *Mayli.*
- *Qorong'ilatib adir aylanamiz...*
- *Momomiz qazo qilganidan buyon televizor, radio qo'yaymiz.*
- *Biz ham qo'yaymiz.*
- *Enam qora kiyib yuribdi.*
- *Mening otam bir kuni yangiroq kiyimini kiyib shaharga bormoqchi bo'lib edi, enam urishdi, odammisiz o'zi, dedi. Otam farosatsizligidan o'zini koyib, yana qora kiydi.*
- *Biz ham qora kiyimlarimizni kiyib yuribmiz.*
- *Enam taqinchoqlariniyam sandiqqa solib qo'ydi.*
- *Ukalarim oqshomlari ashula aytib o'ynardi, enam urishdi. Azalimiz, bovang eshitib qolsa nima degan odam bo'lamiz, dedi.*
- *Endi momomizning qirqi o'tguncha shunday bo'ladi.*
- *Bovamiz buyoqlarga kelib yurishimizniyam bilarmikinlar? — dedi ma'shuq.*
- *Bilmasalar kerak, — dedi oshiq.*
- *Momomizning vafoti kuni sen ham yig'ladimmi?*
- *Bo'lmasam-chi, uyni aylanib, momomlab yig'ladim.*
- *Men enamlab yig'ladim.*
- *Qara, ketibdilar.*
- *Yuring, Sayrak adirga endi biz chiqamiz... Oshiq-ma'shuq qo'zg'oldi. Ariq yoqalab yurdi. Bobomiz ko'ngillari yorishdi. To'lqinlandilar. O'tirishlarini-da, turishlarini-da bilmadilar. Ketlariga xiyol chayqalib, ko'zlarini yumdilar. Entikibentikib nafas oldilar. Kiyimlari o'zlariga torlik qilayotganday bo'ldilar. Yoqalarini ko'tarib-ko'tarib, ko'kraklarini shamollatdilar.*
- Joylaridan avaylab turdilar. Etaklarini qoqdi-*

lar. O'tira berib qotib qolmish qaddilarini rostlash uchun bellariga qo'llarini tiradilar.

*Adirlamish oshiq-ma'shuqlardan ko'z uzmadilar.
Suqlanib-suqlanib qaradilar...*

Beixtiyor... beixtiyor qishloqqa borajak so'qmoq-dan yo'l soldilar...

*— Momosi, men ularni ko'rdim... — dedilar.
Men senga aytib edim-u. Hazrati Xizr yuzimizdan o'tolmaydi deb!..*

Bobomiz oyoq ildilar. Sayrak adirga qayrilib qaradilar.

*Bobolarim birin-ketin suyak surib o'tgan yer.
Momolarim sochlarini qirqta o'rib o'tgan yer...*

*Bobomiz boshlarini egganlaricha turib qoldilar!
— Momosi, yur, ketamiz... — dedilar.*

Bobomiz yo'llarida imillab, bir-bir bosib davom etdilar.

Shunda, Sayrak adirda... hassasi... qarilik has-sasi qolib ketganini esladilar.

*— Mayli, ularga qolsin... — deya qo'l siltadilar.
Boshlari g'uvillab, o'zlarini majolsiz his qildilar.
Ko'z o'nglari g'imirladi.*

Oyдинlar to'lqinday chayqaldi. Oyдинlar to'lqinday mavjlandi.

Bobomiz xasta qalblari o'rtandi, g'arib qalblari o'rтandi. Ko'zlar yoshga to'ldi. Ko'z yoshlari oyday oppoq soqollariga sizib tushdi.

— Momosi, men ularni ko'rdim. Ular bayt aytdi, eshitayapsanmi, bayt!.. — dedilar.

Bobomiz ko'z oldilari oydinlandi. Tag'in Sayrak adirga qayrilib qaradilar.

Sayrak adirda ikkita qora qoldi.

Biri oshiq, biri ma'shuq bo'ldi.

Oshiq bilan ma'shuq bir ikkita bo'lib qoldi, bir bitta bo'lib qoldi...

Bobomiz jilmaydilar.

*— Ana, bizning bolalarimiz! — dedilar.
Hazrati Xizr bovajonim, umringizdan baraka toping!..*

Bobomizning jilmaymish yonoqlaridan betinim yoshlar sizdi.

Momomiz vafotidan keyin ko'z yoshlari qurib qolganday bo'lib edi. Qaylarda yotib edi, shashqator yoshlar?

Shashqator yoshlar bobomiz lablariga sizdi, iyaklariga sizdi.

Bobomiz ko'z yoshlarini yenglari bilan artib oldilar. Adirdan ko'z uzmadilar.

— Ana, bizning nevaralarimiz! — dedilar. — *Qulluq, Hazrati Xizr bovajonim, qulluq!*

Bobomiz ko'ngillaridan nimalardir toshib kela berdi.

Bu toshqinni qayg'u desak-da bo'ladi, xushvaqtlik desak-da bo'ladi.

Bobomiz ko'ngillaridan qayg'uli xushvaqtlik o'ksib-o'ksib kela berdi.

— Yur, ketdik, momosi, endi biz kelmaymiz... — dedilar.

Ko'zları kulmish bobomiz, yuzları kulmish bobomiz, yonoqları kulmish bobomiz, labları kulmish bobomiz tantana qildilar.

— Bu adirlar bizniki! — dedilar.

O'ksiklar zarbidan yelkalari silkina berdi.

— Bu oydinlar bizniki! — dedilar.

Ko'ngillari tinmayin o'ksimish bobomiz, yelkalari tinmayin silkinmish bobomiz so'nggi bor, so'nggi bor oyoq ildilar. Qomatlarini adl tutdilar.

Sayrak adir, adirda o'tirmish o'g'il-qizlariga tantana bilan qaradilar.

Bobolarim birin-ketin suyak surib o'tgan yer.

Momolarim sochlarini qirqta o'rib o'tgan yer.

Bobomiz so'qmoqdagi so'nggi qadamlarini bosa-bosa, oydindagi so'nggi so'zlarini ayta-ayta, yo'llarida davom etdilar:

— Endi ketsak mayli!..

1980.

OT KISHNAGAN OQSHOM

1

Birodarlar, ko'rgilik, ko'rgilik!

Bir erta uyg'onib, kallamga qo'l yugurtirdim.
Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi. Par-
voyim falak bo'ldi, yura berdim. Onamga-da ayt-
madim.

Chaqalar kun sayin bolaladi. Katta-katta bo'ldi.
Qo'tir bo'lib qichidi.

Shunda, qishlog'imiz do'xtiriga bordim. Do'xtir
fu, deya aftini burishtirdi. Yurchidagi kalxonaga
olib jo'nadi.

Yo'lda mashinadan tashlab qochdim. Ushlab
kelib, yana mashinaga bosdi.

Kalxonada... Uh, aytgili yo'q. Do'xtir degani
berahm ekan. Onamni ko'rdirim, birodarlar, onam-
ni...

Bari kalga qaytadan jingala soch bitdi. Mening
kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch bitmadil
Do'xtirlar ajablandi, kamdan kam uchraydigan
voqeа, dedi. Xo'rligimdan yig'lab-yig'lab uyga
keldim.

Onamiz tap-taqir kallamni ushlab-ushlab ko'rdi.
Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib yig'ladi.

— Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi,
degani shu-da, — dedi.

Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin qulog-
larimgacha bostirib kiyib yurdim. Maktabda-da tel-
pagimni olmadim.

Matematika muallimimiz oyog'ini tirab talab
etdi:

— Bosh kiyimingni olmasang, dars o'tmay-
man! — dedi.

Old qatorda o'tirgan sinf oqsoqolimiz muallim-

ga bir nimalar dedi. Ammo muallim o'z so'zida turdi:

— O'quvchi darsda yalangbosh o'tirishi lozim!
Qoida shunday!

Telpagimni kallamga bosib ushladim.

— O'quvchi Qurbonov, senga aytyapman!

Miq etmadim. Muallimimiz telpagimni boshimdan yulib oldi. Derazadan tashqariga otib yubordi.

Sinfimiz bolalar kulgisidan zirillab ketdi.
Bolalar kallamni oftobga mengzab qiyqirdi:

— Ura-a-a, kun chiqdi!

Kallamni qo'llarim bilan yashirdim, ho'ngrab yig'ladim. Siyohdonni olib, muallimning yuziga otdim. Tegmadi. Keyin, tashqari otildim. Maktabdan qochib ketdim.

Yana qaytib maktabga oyog'imni bosmadim. Direktor bilan sinf rahbarimiz kelib tavallo qildi. Onamiz aldab-avradi. Baribir maktabga bormadim.

Beshinchchi sinf kallam bilan qoldim.

2

Odamlar meni kal deydigan bo'ldi! Ziyodulla kal emish! E, tavba-e, tavba-e!

Avval-avval uyatdan quloqlarimgacha lovullab yondim. Ko'nglim o'ksidi. Keyin-keyin botmaydigan bo'ldi. Kal so'zi ko'nglimga singdi. Quloqlarim kalga o'rganib qoldi.

Endi, Ziyodulla kal, demaydiganlardan o'pkaladim. Ayniqsa, pochtachidan hafsalam pir bo'ldi. Qachon ko'rsa o'rtoq Qurbonov, deydi. G'ashim keladi. Meni mayna qilayotganday tuyuladi.

Bir safar jerkib tashladim:

— Nimaga meni o'rtoq Qurbonov deysiz? Men bir amaldormidimki, yo, diplomim bormidiki, o'rtoq Qurbonov deysiz? Bor-yo'g'i beshinchchi sinf kallam bo'lsa. Ko'p mayna qilmang, sochim bo'lmasayam tarog'im tillodan!

— Bo'lmasa nima deyin?

— El qatori Ziyodulla kal deya bering. O'z otim o'zim bilan...

Xudoga shukur-e, endi pochtachi-da kal deydi-gan bo'ldi! Diplom so'ramaydigan turli ishlarda ishladim. Qorovul bo'ldim, go'loh bo'ldim. Oxiri podachi bo'ldim. El qo'yini boqdim.

Adirlarda qo'y boqib, nay chaldim. Nafasim yet-may qoldi. Shunda, eski bir do'mbira topdim. Do'mbiramni sayratdim, bepoyon adirlar, yoyilib o'tlayotgan qo'ylar, cho'qqilar uchida uzmay chug'urlayotgan qushlar, pag'a-pag'a oppoq bulut-larga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to'ylar, olis yaldo-kechalari bobolarimiz biri qo'yib biri aytar edi. Bobolarning ko'plari rahmatlik bo'ldi. Rahmatliklarday doston aytib bo'lmaydi. Bizniki, baholi qudrat...

3

Birodarlar, siz so'ramang, men aytmayman... Oti Momosuluv emish. Yuzlari kulchadaymi, yo, suluvmi? Ko'zları qorami, yo zig'ir gulidaymi? Qoshlari quyuqmi? Quyuq bo'lsa, qayrilmami? Ke-chasiligidan ko'rmas emishman, bilmas emishman.

Ko'roydin emish. Momosuluvlar ko'chasida telba bo'lib yurar emishman. Bir nima yo'qotgan-day tentirar emishman. Yo'l chetidagi toshga cho'nqayibman, kaftlarimni iyamgimga tirabman. Oyga mahliyo bo'lib-mahliyo bo'lib termilibman. Oyning beti kir emish. Oyga sonsiz oshiqlar mahliyo termildi. Oy qaysi oshiqa bir o'pich berdi? Oy qaysi oshiqa vafo qildi?

Oyga qo'l siltab, o'rimdan turibman. Momosuluvlar devoridan oshibman. Iti yo'q emish. Daraxtlar panalab, derazasiga termilibman. Olmalardan uzib-uzib yebman. Keyin, ayvoniga, undan ichkariga kiribman. Timirskilanib, to'shangini tapingman. Momosuluv uyg'onib ketibdi, chirillayman, ket, debdi. Men yolvoribman. Qo'limni

uzatibman. U qo'limni qaytarib, o'zimga suribdi.
Keyin, Momosuluvning qo'yniga kiribman!

Birodarlar-ye, jamiki olam bir taraf, qo'yin
deganlari bir taraf ekan! Ahay-ahay!

Boriga shukur qilsam bo'lmasmidi? Tek yotsam
bo'lmasmidi? Qo'yniga qanoat qilsam bo'lmasmidi?

Men tinmas, Momosuluvning ko'ngliga-da kirib-
man! Oshiqona-oshiqona qadamlar bosib, ko'nglini
ovlabman. Zim-ziyo bir olam emish. Tevarak huvil-
lab yotarmish. Qimirlagan jon yo'q emish. Erkak
zotining o'zi tugul, izlari-da yo'q emish. Be-
hishtday bir olam emish.

Tevarakka alanglab, kular emishman: ushbu
behishtga mendan o'zgalar kelmabdi!

Ko'nglimni zo'r bir xushvaqtlik qitiqlar emish:
ushbu behishtga birinchi bo'lib men qadam qo'yib-
man! Ahay-ahay!

Ko'zimni ochsam uy zimiston, bolishni qu-
choqlab yotibman.

Uyqum qochdi. Uyqumni quvalab, shiftga qarab
yotdim. Chin, qishlog'imizda shunday qiz bor. Oti
Momosuluv.

4

Ertalab ta'til qildim. Belimga tushlik o'radim.
Zarang tayog'imni oldim.

Elburutdan podayotoqqa bordim. Bir toshga
yonboshlab oldim.

El qo'y-echkilarini haydab keldi. Shunda...
shunda, u-da keldil

Men o'rnimdan turib qaradim. Xayolimda,
yuzlarim lovullab qizidi.

U qo'lidagi xivichni qo'ylari ketidan otib yubor-
di. Iziga qayrilib ketdi. Menga qayrilib-da qarama-
di. Ajabo, u kecha meni ko'rdimikin? Uyalganidan
tez qayrilib ketdimikin?

Birodarlar, shu qiz ko'z oldimdan ketmay qoldil!
Kechasi-da, kunduzi-dal! Shu qizga sovchi qo'ydim!

— Tegmayman, kallasi kal, — debdi.

Yo, pirim-ey, yo pirim-ey! Kal bo'lsa nima bo'pti? Gap jundami? Junda aql bormi, xohlagan yeriga bita beradi-da. Birovga quyuq bitadi, birovga siyrak bitadi. Yana birovga bitta-da bitmaydi. Bu yaratganning ishi-da!

Jun ekish dehqonchilikmidiki, ayb bo'lsa! Ana, kallasiga jun ekmadi, eksa-da, sug'orib, parvarishlamadi, oqibat, qurib qoldi, desa. Mayli, ana unda meni kamsitsin. Ziyodulla kalda erkaklik uquv yo'q, mushtday kallasiga jun ekib ololmadi, desin. U yaxshi er bo'lmaydi desin...

Men baribir shashtimdan qaytmadim. Sovchini bosib qo'yaberdim.

— Aytib qo'yinglar, men hali ot olib, ko'pkari chopaman! — dedim.

Momosuluv noz qilib-qilib, oxiri ko'ndi!

To'y-tomosha bo'ldi. U mastona-mastona qadam qo'yib, chimildiqqa kelin bo'lib kirdi. Men mardona-mardona odim qo'yib, kuyov bo'lib kirdim.

Momosuluvga ko'rgan tushimni aytib berdim.

— Sen ham shunday tush ko'rib edingmi? — dedim.

— Ko'rib edim, — dedi.

— Chiningni ayt, — dedim.

— Chinim, — dedi. — Lekin, taniyolmay qolib edim, chiroq o'chiq edi, — dedi.

— O'sha men edim! — dedim, ko'kragimga urdim.

— Siz ekanligingizni bilib tegdim-da, — dedi.

— Ahay-ahay! — dedim.

Birodarlar, Momosuluv tushimda. Cho'lpon edi, hushimda Oy edi, qo'ynimda Oftob bo'ldi!

Bir suruv qo'y sotdim. Pulini belimga o'radim. Namoz chavandozni oldimga solib, Oboqliga jo'nadim.

**Birodarlar, bizning Surxonda mana bunday gap
bor: ot olsang, Oboqlidan ol, ayol olsang, Irg'alidan
ol!**

Buning mag'zi shuki, ot deganlari dev! Ot bepoyonlikni deydi. Ot masofa nimaligini bilmaydi. Ot qahraton qishda-da dasht-biyobonlarda chopib o'sadi. Ana shunda dirkillagan ot bo'ladi! Qo'l-tiqlari cho'ziladi, ko'kraklari enlik bo'ladi! Uchqur keladil! Bedov ot bo'ladi!

Oboqli ana shunday dasht!

Irg'ali deganida qiz bor! Irg'alining qizlari zuvalasi pishiq keladi. Kiymagani yettinchi kalish kiyadil! Barining beli baquvvat, bo'limli bo'ladi. Irg'alining qizlarini quchoqlasa, qo'yin to'ladi! Irg'alining qizlari ko'rgan farzand-da alpomish-kelbat bo'ladi. Boisi, Alpomish ayni shu Irg'alida o'tgan-da!

Ana, bildingizmi, elning gapi qayoqqa bora-yapti?

Men ikki kun ot sayladim. Oboqli dashti gala-gala ot! Dasht changitib chopib yuribdi! Bir yashar qulunlar, uch yashar toylar, to'rt yashar g'o'nonlar, besh yashar do'nonlar! Sag'risiga uy tiksa bo'ladigan baytallar! Haybatli ayg'irlar!..

Birovini ushlab, old tuyoqlarini juftladim. Tuyoqlari orasidan musht urdim. Mushtim o'tmadi. Bordi-yu o'tsa, yaxshi ot bo'ladi. Qo'yib yubordim. Yana birovini ko'rdim. Durustgina-yu, faqat qorni yo'q. Bor bo'lsa-da, juda tor. Buniyam qo'yib yubordim, bo'lmaydil!

Birodarlar, ot olsang, ho'kiz qorindan ol, ho'kiz olsang, ot qorindan oll!

Orqa kezanagi bolaning bilagiday bo'lib turadi-gan ot yaxshi keladi. Shundayini izladim. Yo'liq-madim. Qopqog'i enlik ot-da yaxshi bo'ladi. Bundayinga-da ko'zim tushmadi.

Galani aylanib yurdim. Bir bo'zga ko'zim tushdi. Shuni ushladim. Tishlarini ko'rdim. Yoshi yet-tida bo'lsa-da, hali oziqli tishi chiqmabdi. Aslida,

besh yoshida chiqadi. Demak, endi chiqmaydi. Oziq tishsiz ot xosiyatli ot bo'ladi!

Birodarlar, shu bo'zga dil ketdi!

Uch mingni naqd sanab berdim. Bo'zni minib keldim.

Omborxona oldidagi ustaxonaga olib bordim. Bo'zga burov soldim: ipga tayoqcha bog'ladim, tumshug'idan o'rav buradim. Burov tayoq bo'z tumshug'iga botdi. Bo'zni qimirlatmay qo'ydi.

Usta bo'z oyoqlariga nag'al qoqdi.

Birodarlar, asov otni taqa to'xtatadi!

Hovli chetida oxur qildim. Bo'zni shu oxurga bog'ladim.

Onamiz norozi bo'ldi. Beti burishib-burishib og'rindi. Labini burib ming'illadi:

— Otim nimam... otdan mashina yaxshi... — dedi.

— Mashinam nimam? Oti borning — qanoti bor, — dedim.

— Otga yemish qani...

— Yemish? Xudo har jonivorni o'z rizqi ro'zi bilan yaratadi. Ot bitdi — qanot bitdi. Yemish to-piladi.

Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo'q! Joni yo'q temir odamga el bo'lmaydi! Temirning yuragi yo'q-dal! Ot odamga el bo'ladi. Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!

6

El menga-da burnini jiyirib qaradi, otimgada burnini jiyirib qaradi. El, og'zini ushlab kuldi, piqliq kuldi, qo'li bilan ko'rsatib kuldi, pana-panalarda kuldi.

Bildim, el, Ziyodulla kal, otangni ko'rdim — ahmadi forig', onangni ko'rdim — tovoni yoriq, ko'rpaningga qarab oyoq uzat, dedi. O'zing bir sag'ir bo'lsang, senga kim qo'yibdi otni, dedi. Yana tag'in kal bo'lsang, kalga otim nimam, dedi. Kalga eshak ham bo'ladi, dedi.

Birodarlar, el shunday! El og'ziga elak tutib bo'lmaydil! Odamzot shunday! Bor bo'lsa, ko'rolmaydi, yo'q bo'lsa, berolmaydi!

Shunday ekan, odam bo'laman desangiz, el og'ziga e'tibor bermang! Odam bo'laman desangiz, el gapiga parvo qilmang! Ammo beparvo-da bo'lman!

Birodarlar, ot azzancha xosiyatli bo'lsa-da, azzancha fahm-farosatli bo'lsa-da, azzancha xush-suvrat bo'lsa-da, baribir, ot, o'z oti o'zi bilan ot! To'rt oyoqli jonivor! Dumli hayvon!

Dunyoda nima mo'l, to'rt oyoqli jonivor mo'll! Duch kelmish to'rt oyoq jonivorni qanday bo'lsa, shundayligicha el orasiga olib kirib bo'ladimi? Bo'lmaydil Qanday bo'lsa, shundayligicha el qilib bo'ladimi? Bo'lmaydil Avvalambor, to'rt oyoqli jonivorni ot qilmoq lozim!

To'rt oyoqli jonivorni ot qilishning o'zi bo'lmaydi. Dumli hayvonni odamga el qilish barchaning-da qo'lidan kelmaydi!

To'rt oyoqli jonivorni ot qilish uchun, avvalambor, ko'ngilda bo'lmosg'i lozim! Avvalambor, badanda bo'lmosg'i lozim!

Barakalla! Bor-da, badanda bor-dal! Ko'ngilda bor-dal Shu boisdan ot oldim-dal Ahay-ahay!

Dostonchi doston aytadi. Xato aytsa, shartta bas qiladi. Boshqatdan, tuzatib aytadi.

Shoir kitob bitadi. Kitobida bir joyi yoqimsiz bo'lsa, shoir qalam bilan shartta-shartta o'chiradi, yoqimli qiladi.

Rasmchi surat chizadi. Suratda odam qoshi qoshday bo'lmasdi. Ot yoli yolday bo'lmasdi. Qiyomiga kelmadi. Rasmchi darhol odam qoshini qoshday qiladi, ot yolini yolday qiladi.

Chavandoz bo'lsa, otni tuzatolmaydi!

To'rt oyoqli jonivor ot bo'layotib... ha-ha, ot bo'layotib... nima fe'l-atvor topsa, shu fe'l-atvori-da qoladi. Nima qiliq topsa, shu qilig'ida qoladi.

Nima ko'rsa, nima bilsa, nima o'rgansa, barcha-barchasi tanasida qoladi, miyasida qoladi.

Ana shundan keyin chavandoz otni tuzataman desa, o'ziga javr qiladi. Otni tuzatib bo'lmaydi!

Birodarlar, sara ot, chavandoz aql-zakovatidan bino bo'ladi! Sara ot, chavandoz qalb qo'ridan bino bo'ladi!

Shu bois, bo'zni tarbiyalay berdim, kecha-yu kunduz tarbiyaladim. Zo'r berib tarbiyaladim. Qanday qilib tarbiyaladim? Aytmayman, birovlar bilib qoladi, aytmayman...

7

Birodarlar, bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday oppoq bo'ladi! Bordi-yu, ajdodida bo'lsa, to'qqizga to'lganda tarlon bo'ladi. To'qqiz yoshida bo'zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo'ladi. Shundan boshlab u bo'z emas, Tarlon ot bo'ladi. Tarlon — xol-xol ot! Tarlon — otlar sarasi!

Birodarlar to'riq otning yuzdan biri yaxshi bo'ladi, tarlon otning yuzdan biri yomon bo'ladi!

Birodarlar, ot tanimasang, Tarlon ol!

Bizning bo'z to'qqizga to'ldi, to'qqizda bo'ldi. Shunda... shunda, bir orzum, o'n orzu bo'lib bolaladi. Bir quvonchim o'n quvonch bo'ldi!

Birodarlar, bo'z otim — Tarlon bo'ldi! Men Tarlon otli bo'ldim!

Otning sarasi menda, quling o'rgilsini menda!

8

Tarlonni qora ishlarga solmadim. Adirlarda o'ynoqlatib mindim. O'ynoqlatib-o'ynoqlatib qo'y boqdim.

Shunday bir kunda kolxozi raisi shofyori ot choptirib keldi. Uni rais yuboribdi. Borib, Ziyodulla kalni olib kel, debdi. Radiordan odam kelibdi. Eng yaxshi podachini aytинг, radioda chiqaraman, debdi. Shunda, rais meni aytibdi.

Avval-avval ishonqiramadim. Shofyorga sin-

chiklab qaradim. Chin gapga o'xshadi. Shundan keyin qo'ylarni shu yaqindagi Asad cho'ponga tayinlab keldim.

O'zimda yo'q xushvaqt bo'ldim. E, yashang-e, rais aka-ye, dedim. Bizga o'xshagan kallarning yaltiroq boshiga-da oftob chiqsin debsiz-da, dedim. E, shop mo'ylovingizdan-e, dedim.

Yo'lida uyimizga tushdim.

Hali tutilmagan beqasam choponimini kiydim. Telpagimni kiydim... Binoyiday orasta bo'ldim.

9

Tarlonni idora oldiga bog'ladim.

Do'mbira, tushlik solingan xurjunni yelkamga tashladim. Asta-asta ichkariladim.

— Assalomu alaykum! — dedim.

— Aha, kelng uka, kelng.

Gilamdan avaylabgina yurdim. To'rda niqmatda yalpayib o'tirgan odam bilan qo'shqo'llab ko'rishdim.

Darrov tanidim, bu o'zimizning qishloqlik Rixsiyev bo'ldi.

Men qayerga o'tirishimni bilmay kalovlandim. Rixsiyev barmog'ini nish qilib joy ko'rsatdi.

Xurjunimni derazaga qo'ydim. Omonatgina o'tirdim. So'rashayin degan maqsadda Rixsiyevga qaradim.

— Aha, familiyangiz nima edi, uka? — so'radi Rixsiyev.

— Ziyodulla kal! — dedim.

— Aha, ha-ha-hal Yo'q, familiyangiz? Qurbanov? Aha, yaxshi, yaxshi! Sog'liq qalay, o'rtoq Qurbanov? Otday bo'lib yuribsizmi?

— Shukur muxbir aka, shukur. Otday bo'lmasakda, yuribmiz. Ishqilib, birnavi. O'zingiz qanday, bardamginamisiz? Bolalar chopqillab yuribdimi? Qachon bo'lsa, sizni maqtayman. Mana, bizdan-da yozadiganlar chiqdi deyman.

— Rahma-a-at, rahma-a-at. Gap bunday, o'rtoq Qurbanov, men, siz haqingizda radioocherk yoza-man!

— Eb-ey, u nima deganingiz, muxbir aka?

— A? Ha-ha-hal Ha, o'rtoq Qurbanov, o'rtoq Qurbanov! Shunaqa janr bor! Aha, publitsistik janr! Bunda qahramonlar madh etiladi!

— Ha-a, xayriyat-e. Men yomon gapmikin deb-man. Endi, men sizga aytsam, biz unga arzi-maymiz-da, muxbir aka.

— Aha, yo'lini qilib arzittiramiz-da, o'rtoq Qurbanov. O'zimizning qo'limizda-yu. Mana qog'oz, yozing. Ruchka yo'q? E, chatoq-ku.

— Bizda tayoqdan boshqa nimayam bor, muxbir aka.

— Xo'p, mana, ruchkayam berdim. Qani, bo'ling. Ungacha reportyorni tayyorlab turaman.

— Shu, muxbir aka, xatimiz bundayroq. Beshinchchi sinf kallamizga yarasha. Siz so'rang, men aytayin.

— Yo'q, yozing. Og'zingizga kelganini palapartish gapirasiz, uni borib, montaj qilishni ayt-sangizchi! Yozing: «Quyosh zarrin kokillarini yoyib, ufqdan bosh ko'tardi...» Yo'q, o'chiring. Badiiy qismini o'zim yozaman, sizga og'irlik qiladi. Aha, boshladik: «Bolaligimdan cho'pon bo'lish orzum bor edi. Shu orzu meni cho'ponlikka chorladi. Maktabni bitirib, qalb amri bilan kolxozda qoldim. Mana, hozir javlon urib mehnat qilmoqdaman...» Aha, endi plan, majburiyatarni yozing. Kim bilan sotsialistik musobaqa o'ynagansiz? Ana shuni yozing. Keyin, har bir sovliqdan qo'shimcha qanchadan qo'zi olmoqchisiz? Ana buni yozing!

— Muxbir aka, men el qo'yini boqaman, chakana cho'ponman.

— Aha, shundaymi? Obbo-o, rais do'ppi olib kel desa, boshni olib keladiganlardan ekan-da. Xo'p, yozavering-chi. Mehnatlaringiz taqdirlanganmi?

— Esa-chi, muxbir aka, esa-chi. Raisimiz har ko'rganda to'xtab, ko'rishib-so'rashadi. Rahmat, uka, rahmat, deydi. Elning xizmatini qilyapsan, deydi. Yelkamga qoqib-qoqib qo'yadi.

— Ha-ha-ha! Bori shumi? Ha, o'rtoq Qurbonov, o'rtoq Qurbonov! Bular abstrakt gaplar! Radio-ocherkka konkret faktlar kerak! Ordenlar! Medallar! Yorliqlar!... Hmm, bo'pti, o'rtoq Qurbonov, sizga ruxsat.

Qalamni Rixsiyevga uzatdim. Qulog'imning ketini qashidim. Magnitofonga qaradim.

— Muxbir aka, xabaringiz bormi-yo'qmi, uncha-muncha doston aytib turaman.

— Aha, shundaymi?

— Ota-bovamizning hunarini yerda qoldirmayin deyman-da. Kalning nimasi bor, temir tarog'i bor. Ana, ana, do'mbiram bor.

— Aha, hunarni asrabon netgumdur oxir, olib tuproqqamu ketgumdur oxir! Alisher Navoiy!

— O'l mang!

Jo'shib ketdim. Do'mbiramni olib dostonimni boshladim. Dostonimda bir hovliga kelin keldi. Hovlida gulxan yoqildi, chanqovuz chalindi. Kelin otda keldi. Ot olovni bir aylandi. Ot doston bo'ldi.

*Bali boli boling bor,
Ming tumorli noring bor,
Jasadingga qarayman
Chopadigan haling bor.*

— Malades, o'rtoq Qurbonov, malades. Aha, endi, chanqovuz, gulxan... eski gaplar, o'rtoq Qurbonov. Doston, ha, doston! Zamon, davr nafasi yo'q. Intellektuallik yo'q, intellektuallik! Ko'rib turibsiz, hozir atom asri. Mana, kosmonavtlar yana oyga uchdi... Xo'p bo'lmasa, o'rtoq Qurbonov.

Xayr-ma'zurni eshitib eshitmaslikka oldim, bilib bilmaslikka oldim. Do'mbiramni chuldiratib, doston aytib qo'yaverdim.

*Otlardi boqsang qashib boq,
Olisdan suvini tashib boq,
Sira uzmagin yemini,
Yemini yemiga qo'shib boq.*

Bir qiyo boq, ey, umidli dunyo!

— Aha, yaxshi, yaxshil A-a-auf, chyort, uyqu bosayapti. Nima desak, ekan... otlar... otlar patriarhal hayvon, o'rtoq Qurbonov. «Otni boqsang qashib boq, suvini tashib boq!» Xo'sh, nima bo'pti? Ma'lum gap-kul! Albatta otga suv beradi-da, bo'lmasa benzin berarmidi? Qup-quruq didaktika! Xalq og'zaki ijodi, ha, xalq og'zaki ijodil Primitiv, primitiv! Intellektuallik yo'q, intellektuallik! Intellektual problemalar ko'tarilib, ijobiy hal qilinmagan! Ijodingizga muvaffaqiyat, o'rtoq Qurbonov. Izlaning, ko'proq klassiklarni o'qing. Aytaylik, Betxoven, Chaykovskiy, Ashrafiy...

Rixsiyev qo'zg'oldi. Ketar bo'ldi.

Shunda, Rixsiyevlar qo'yи esimga keldi. Balki, qo'ylari yuzxotirini qilar, degan umidda qo'ylari dan gap ochdim.

— Muxbir aka, qo'ylaringiz yaxshil — dedim. — Dirkillab-dirkillab o'ynab yuribdl

Rixsiyevning yuzlari yorishdi.

— Aha, aytganday, bizning qo'ylar yaxshi yuribdimi, o'rtoq Qurbonov? — dedi.

Ko'nglimda umid uchqun berdi. Qo'limni ko'ksimga qo'yib, bosh irg'adim.

— Shukur, muxbir aka, shukur. Yaxshi yuribdl — dedim. — O'zlariyam... qo'yisman qo'y-dal

— Aha, qo'y!..

— O'lman!

— Qo'y, qo'-o'-o'y! Qo'y yaxshil

— O'lman!

— O-o-o, qo'-o'-o'y! Qo'y yaxshi narsa!

— O'lman! Ayniqsa sizning qo'ylaringiz! Ming qilsa-da, hi-hi-hi, ming qilsa-da, muxbirning qo'ylari-da.

— Aha, rahma-a-at, rahma-a-at!

— Anavi to'ng'ich akangizning qo'yłari bo'lmaydil Bari o'ziday kaltafahml Sizning qo'yłaringiz shunday dono, shunday o'qimishli... Hay-hay-hay, sadag'asi ketsang, muxbirning qo'yłarining!!

— Aha, rahma-a-at, rahma-a-at!

— Bir kuni deng, hayt-hayt, deya qo'yłarni soyga haydadim. Qo'yłar o'zini qirga urdi. Faqat sizning qo'yłaringiz soyga qarab yurdi. Men, ha, omon bo'lgurlar-e, ming qilsa-da, muxbirning qo'yłarisan-da, dedim.

— Aha, rahma-a-at, rahma-a-at! Qo'yłarni tarbiyalang, o'rtoq Qurbonov, qo'yłarni tarbiyalang!

— Bay-bay-bay, qo'yłaringiz muxbirning qo'yłari ekanligi shundaygina bilinib turadi-ya! Mol egasiga o'xshaydi, deganlari shuda...

— Aha, rah-ma-a-at, rahma-a-at!

Rixsiyev tashqariladi.

Xurjunimi yelkalab, izidan yurdim. Tarlonni minib, adirga yo'l oldim.

Birodarlar, ko'nglim og'riyapti...

10

Tarlonni boylovga tashladim.

Otxonadagi baland oxurga bog'ladim.

Go'ng chiqariladigan teshikni janda bilan kechalari yopib qo'ydim, kunduzlari ochib qo'ydim.

Tarlonga arpa yem berib boshladim.

Azonda to'rt kilo arpa yem berdim.

Tushda olti kilo arpa yem berdim.

Oqshomda besh kilo arpa yem berdim.

Kaftimda tuz berdim.

Tarlon tuzni kapalab-kapalab yedi.

Kaftimda oq qand tutdim.

Tarlon qandni lablari bilan oldi. Qars-qars yedi.

Endi so'yilgan qo'y quyrug'ini tuzlab-tuzlab berdim...

Birodarlar, ot usti behisht, og'zi do'zax!

Rosa qirq kecha-yu qirq kunduz bo'ldi.

Ana shunda Tarlonni otxonadan olib chiqdim.
Tarlonni sovuta boshladim.

Hovli etagida arqonini uzun tashlab bog'ladim.
Tarlon bo'ynini ko'zoynakli ilon misol gajak-gajak
qildi. Qoziqni aylanib chopdi. Old oyoqlarini
ko'tarib kishnadi. Arqonini selkillatdi. Dirk-dirk
o'ynab kishnadi. Tarlon mast bo'ldil!

Arqon yetadigan yerkarda oz-ozdan xashak yoydim.
Tarlon goh u uyumdan, goh bu uyumdan xashak yedi.

Kuniga bittadan xom tarvuz berdim. Tarlon
tarvuzni qarsillatib-qarsillatib yedi.

Fayzi sahar vaqtি Tarlonni jabduqlab mindim.

Katta ko'chada ohista-ohista qadamlatib yurdim.

Tong oqardi.

Xo'rozlar qichqirdi. Itlar hurdi.

Ko'cha yuzidagi radiokarnay nag'ma chaldi.

Ariqlarda jildirab-jildirab suvlar oqdi.

Sahar yellari xur-xur esdi. Bizlarni silab-siyapadi...

Tarlon vazmin-vazmin qadam tashladi. Tuyoq
tovushlari bir maqomda tikilladi: tik-tik-tik...

Oldimizdan ariq keldi.

Oyoq ildim. Tarlonni ariqdan sapchitmadim.
Sapchitsam, ichidagi moyi uzilib tushadi. Keyin,
bir yilcha ko'pkarida chopolmaydi.

Shu bois, ariqni aylanib o'tdim.

Tarlonni suvladim. Izimizga qaytdim.

Tarlon tag'in terib-terib qadam tashladi: tik-tik-tik!

Tarlonni qirq kun sovutdim. Tarlon bir yerda
turolmay goldi, tuyoqlari yerga tegar-tegmay
yurdi. O'ynoqlab-o'ynoqlab, osmonga sapchidi.
Quyundayin uchgisi keldil

Paxta terimi tamom bo'ldi.

To'ylar boshlandi.

12

Birodarlar, ot bilmaydigan nima yo'q!
Ot qor-yomg'irni, dovulni oldindan biladi.
Ayniqsa, to'y-ma'rakani darrov biladi. Boisi,
to'yda ko'pkari bo'ladi-dal!
Bizning Tarlon kechasi bilan pishqirdi.
Alag'da bo'ldim, choponimni yelkamga tash-
ladim, tashqariladim.
Oy yorug', osmon ochiq bo'ldi.
Tarlon qoziqni aylanib chopdi.
Tarlonnii ushладим. Yollarini siladim.
Bir yerda to'y bor-ov, dedim.
Aytganim bo'ldi.
Ertasi kuni shundaygina yonimizdagи Obshir
qishlog'idan to'yxat keldi.
Omborxonada ot abzallarini — terlik, bellik,
chirgi, boz, jahannik, jul, pushton, quyushqon,
yugan, ko'pchik, uzangili egarni qo'ltiqlab keldim.
Tarlonnii qashilab-qashilab egarladim. Og'ziga
suvliqni solib, yuganladim. Peshonasiga do'lana
shoxidan bo'lgan ko'ztumor ildim.
Egar qoshidan oldim. Uzangiga oyoq soldim.

13

Obshirga yigirma otliq bo'lib bordik.
Surnay navosi chiqayotgan, osmonga quyuq
tutun o'rlayotgan to'yxona ostonasida oyoq ildim.
Bizga Turdi podachinikidan joy tegdi.
Telpagi qulqolarini tushirib olgan bir odam
bizni tor ko'chalar bo'ylab ergashtirdi. Podachi-
nikiga olib bordi.
Podachi darvozasi xiyla past bo'ldi. Oti mo'min-
lar ostonadan egarga enkayib o'tdi. Oti boqiliqlar
yerga tushib, yetaklab o'tdi.
Birodarlar, otga minsang — boshingni o'yla,
yerga tushsang — otingni o'yla!
Chavandozlar otlarini yalang'ochladi. Egar-
abzallarni daraxt shoxlari ayrisiga ildi. Supalar,
devorlarga qo'ydi.
Chavandozlar otlarni shamollatdi.

Tarlon yerga ag'nadi. Goh o'ng, goh chap yog'iga ag'nadi. Badani qichig'ini qondirdi. O'zini o'zi qashidil Tag'in oyog'ida turdi. Oyoqlarini kerib-kerib silkindi. Badan-yollariga ilashgan xas-changlarni qoqdi.

Tarlon ustiga gilam tashladim. Pushtonini salqi qilib tortdim. Qozig'ini tepib-tepib qoqdim.

Safar chavandoz qora to'rig'i qozig'ini Tarlon yonidan qoqdi.

G'ashim keldi. Ensam qotdi.

— Safar aka, — dedim. — To'rig'ingizni xolis-roqqa oling, baraka toping.

— Hech nima qilmaydi, yer keng.

— Men yerni qizg'anmayapman. To'rig'ingiz tepong'ich, shuni o'layapman.

— Ko'ngilni keng qiling, ot tepkisini ot ko'taradi.

To'riq bizning Tarlonga yomon-yomon qaradi.

Men, ana, ko'ryapsizmi, demoqchi bo'ldim. Ammo Safar chavandoz mehmonxonaga jo'nadi. Izidan qo'l siltab qoldim. Keyin, men ham bordim.

To'yxonadan ulushimiz — turli noz-ne'matli dasturxon, ikkita shisha keldi.

Uy bekasi qozon osdi. Palovga urindi.

Chavandozlar davra bo'lib o'tirdi. Sabzi to'g'rab berdi.

Shu vaqt otlar achchiq-achchiq kishnadi. Tarlon ovozini darrov tanidim, chopib chiqdim.

Safar chavandoz to'rig'i old oyoqlarini ko'tarib pishqirdi, Tarlonga yopishdi.

Men olisdan qo'l siltadim. Tarlonga do'q urdim:

— Bo'ldi, bas! — dedim.

Tarlon o'zini keyinga oldi. Old tuyoqlari bilan yer tirnadi. Tishlarini irjaytirib kishnadi. To'riqni ogoh qildi. Yaqinlashma, degan bo'ldi.

Tarlon no'xtasidan ushладим. Tarlonni tinch-lantirdim:

— Bo'ldi! Tak-tak-tak! Tak deyman! Safar aka, ana, aytmadimmi, to'rig'ingiz odam emas deb! Mana, Tarlonning ko'nglini og'ritdi!

— Odam so'zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavandoz! Shunday-shunday topishadi-da!

Safar chavandoz to'rig'ini Tarlondon xolis oldi. Otlar tinchidi.

Palov yedim. Kechasi olishni* tomosha qildim.

14

Ertalab ta'tillanib, otlandim. Lalmi dashtga yo'l oldim.

Dasht bir-biriga ularashib ketgan adirlar oraliq'ida bo'ldi. Kunbotar qo'ng'ir tusli qirlar bo'ldi. Dasht chetlari yo'g'on-yo'g'on tutlar bo'ldi.

Ko'pkari tomoshaga kelganlar shu tut shoxlari-da, devorlarda chumchuqdayin tizilib o'tirdi. Tevarakkagi adirlarda to'da-to'da bo'lib yonboshlab yotdi.

Adir betlarida chavandozlar otlarini yalan-g'ochladni, otlarini ko'pkariga shayladi.

Men ham adirning bir chetini oldim. Tarlonni yalang'ochladim, yerga yumalatdim. Keyin egar bosdim.

Oyog'imga paytava o'rading. Xurjundan ko'pkari etigimni olib kiydim. Etik baland poshnali etik, takaning terisidan bo'ladi. Teri teskarisi ichiga qaratib tikiladi. Teskarisi yaltiroq, sirpanchiq bo'ladi. Yuzasi terining o'ng tarafidir. Etikni mol charvisi bilan moylab turaman. Shunda suv, qor, sovuq o'tmaydi, yirtilmaydi.

Butlari bir qarichcha yirtiq cholvorimni kiydim. Cholvorimni atayin yirtib qo'yibman. Bo'lmasa, ko'pkarida butimga biron nima ilashadi, cholvorimni og'igacha ayirib yuboradi.

Telpagim qulog'ini tushirdim. Uzangiga oyoq ilib, egar qoshidan oldim. Dashtga qarab endim.

Chavandozlar tevarakni aylanib chopdi. Chavandozlar otlarini pishitdi.

* *olish* — kurash.

Odamlar qishloq tarafga qaradi.

— Ana, uloq kelayapti! — dedi.

Qishloqdan ikki otliq keldi. Birovi oldida qora uloq. O'ngarib oldi. Otliq uloqni oldimizga olib kelib tashladi.

Chavandozlar uloqni otlariga iskatdi. Uloq yon-verini, tevaragini aylantirib ko'rsatdi.

Otlar to'p bo'ldi.

Yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qizil, mo'ylovli bir odam uloq boshiga keldi.

Ana shu mo'ylov bakovul bo'ldi. Qamchi sopini boshi uzra ko'tardi. Jarangdor ovozda aytdi.

— Chavandozlar-ov! Gapimni o'ng qulog'ing bilan-da, chap qulog'ing bilan-da, eshitib oll Chilvir solma — bir! Bir-birovingni yomon gap bilan so'kma — ikkil! Qamchi solma — uch! Yiqilgan chavandoz ustiga ot solma — to'rt! Ot qochganda ushlashga yordam ber — besh! Ol, ha-oll

Bakovul shunday dedi-da, o'zi to'dadan chetga chopib chiqdi. To'dani aylanib chopib, jar soldi:

— Birinchi zotiga bir ro'mol, o'n so'm puli bor!
Eshitmadir demanglari!

Chavandozlar to'daga ot soldi. Otlarini qimti-di, otlarini tizzalari bilan niqtadi, otlarini qamchiladi, otlarini uloqqa haydadi.

Uloq sonsiz ot tuyoqlari orasida qoldi.

Qo'llar uloqqa talpindi, ammo ololmadi.

— Ha-ha-ha!

— Chu-chu-chu!

— Bos-bos-bos!

Talpinishlar samara bermadi. Uloq yerdan qo'zg'olmadi. O'zini uloqqa urayotganlar o'zi-da, otlari-da g'arq terga botdi. Chavandozlar dastlabki shashtidan qaytdi, otlar shashtidan qaytdi. Ayrim chavandozlar to'da chetiga chiqdi, peshonalarini artdi, tomoshago'y bo'ldi.

Endi, to'da tevaragida yurgan chavandozlar o'zini uloqqa urdi.

Men Tarlon boshi uzra qamchi havolatdim.

Tarlonni qimtib-qimtib, to'daga haydadim. Tarlon otlar siquvida turtinib-burtinib uloqqa yetib keldi. Uloqni bir aylanib to'xtadi.

Men qamchini sopidan tishlab oldim. O'zim uloqqa uzaldim. Endi ko'tarib edim, bir ot tuyog'i bosib qolib, uloq qo'limdan tushib ketdi.

Tarlonni otlar to'dasi surdi. Tarlon qalqib-qalqib, uloq naryog'iga gandiraklab o'tdi. Chetga chiqib goldi.

Tarlon shashti qaytmasin, ruhi tushmasin, deya bir chaqirimcha yerga chopib borib, chopib keldim. Go'yo uloqni olib chiqdim!

15

Uloq yerdan qimirlamadi.

Shunda bakovul zotni oshirdi.

— Chavandozlar-ov, eshitmadim demanglar, ustiga yana bir go'sam serka qo'yildi!

Chavandozlar chuh-chuh, deya otlarini uloqqa chorladi. Sag'rilariga tars-tars qamchilar urdi.

Otlar pishqirdi, otlar kishnadi.

Nihoyat, uloq yerdan ko'tarildi. To'da asta-asta jonlandi. Otlar qulog'i lik-lik etdi. To'da pastga siljidi.

Bakovul jar soldi.

— Uloq ko'tarildi, uloq ko'tarildi!

To'da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi. dupur-dupur-dupur... otlar uloq tevaragida chopdi. Bor e'tiborlari uloqda bo'ldi.

— Uloq ketdi! Uloq Burnoch bilan Samanda borayapti!

Nimaga burnoch ot deymiz! Boisi, burnoch ot peshonasida qashqasi, burni uchida olasi bo'ladi. Butlari-da ola bo'ladi. Burnoch otning xili ko'p bo'ladi. Ko'k burnoch, qora burnoch, to'riq burnoch, jiyron burnoch!

Saman ot bo'lsa, sariq, yollari, dumlari qora bo'ladi. Yol-quyrug'i oqlari-da bo'ladi.

Burnoch bilan Saman qulogqlarini quyon qulog-

lari misol chimirib chopdi, zinkiyib chopdi. Uloq oralarida shalvirab bordi. Uloqning bir buti Burnochda, bir buti Samanda bo'ldi.

Chavandozlar o'z taraflariga chalg'ayib, tortishib bordi. Tevaragida o'nlab qo'lllar uloqqa uzaldi, ammo yetolmadi. Yetganlari uloqni yulib ololmadi.

Otlar Burnoch bilan Samanni o'rab chopdi, dupur-dupur-dupur...

— Uloq Burnoch bilan Samanda borayapti! Uloq Samanga o'tdi, uloq Samanda! Bos!

Darhaqiqat, Saman chavandozi epchillik bilan uloqni taqimiga bosdi. O'ng tarafiga qiyshaydi. Jilovni o'ngga burdi. Saman yo'lini o'ngdan soldi.

Chavandozlar talashish foydasizligini bildi. Birin-birin orqada qoldi.

— Halo-o-o! Samanniki halol! Tashla, Saman, tashla! E barakalla-yel Saman, kel, haqingni ol!

Saman uloqni yerga tashladi. Bakovulga qarab yurdi.

Chavandozlar yerga tushgan uloqqa qarab yurdi. Yana uloqqa yopirildi. Uloq bu gal maydagina bir to'riqda ketdi.

Birodarlar, to'riq ot malla bo'ladi. Bo'yni xuddi ko'zoynakli ilon misol gajak-gajak bo'ladil

16

Yanagi uloq menga nasib etdi.

Men uloqdan umid qilmadim, to'da chetida turdim. Uloqni Yaratganning o'zi yetkazdi.

Bir qizilko'k uloqni yerdan sudrab chiqdi. Qizilko'k shundaygina yonimizga keldi. Shunda chavandozi uloqni ot tizzasi bo'yи ko'tardi.

Men enkayib, uloqqa yopishdim. Qaddimni ko'tardim, Tarlon biqiniga tizzamni nuqib ayqirdim.

— Ha-a!

Tarlon bir yulqinib, to'dadan uzib chiqdi.

Ketimdan chavandozlar ot soldi. Ko'plari menga yetib keldi, uloqqa uzaldi.

Shunda Tarlonga qamchi bosdim. Ammo Tarlon jadallamadi, aksincha, tobora sekinlab chopdi.

Hayron bo'lib, olg'a qaradim. Ana shunda nima gapligini bildim. oldinda bir odam bo'yi soy bo'ldi...

Nima qilishimni bilmadim. Jilovni buraman degunimcha soy labiga kelib qoldim. Tarlon soy yoqalab chopdi. Uloq soy tarafda bo'ldi. Shu sababli-da uloqqa birov kelolmadni.

Shunday bo'lsa-da, qo'li uzun chavandozlar Tarlon sag'risi, Tarlon bo'yni osha uloqqa uzaldi. Men uloqni bermadim. Ayniqsa, Tarlon uloqni ber-gisi kelmadi.

Soy yoqalab chopdim. Shunda-da bakovul ovozi-dan darak bo'ljadi. Endi jilovni qo'yib yubordim. Taqimimdag'i uloqni qo'shqo'llab ushladim. Tarlon endi o'z bilganicha chopdi. Soyda esa, adog' bo'ljadi...

Chavandozlar ketimdan qolmay ta'qib etdi.

Shunda Tarlon birdan... soyga qarab zinkiydi. Old oyoqlarini ko'tardi, o'zini soyga tashladi.

Etlarim jimir-jimir etdi. Ko'zlarim otilib chiqib ketayotganday bo'ldi. Oyog'im yerdan uzilganini tuydim. O'zimni muallaq sezdim. Ko'nglimdan, o'lgan shunday o'lar ekan-da, degan gap o'tdi. Ko'zlarimni chirt yumdim, uloqni qo'yib yubor-dim...

Zo'r bir zarbdan qalqib ketdim. Yuragim tovonimga tushib ketganday bo'ldi. Hushim boshimdan uchdi. Jonholatda Tarlon bo'yniga yopishdim. Mahkam quchoqlab oldim...

Ko'zlarimni chidim. Yo, tavba, Tarlon hamon chopib borayapti. Endi soyda chopib borayapti.

Tarlon bir-bir bosib, oyoq ildi. Boshini egdi. Pishillab nafas oldi.

Men qaddimni rostladim. O'zimga keldim. Men tag'in ko'zimni yumdim.

Yuqoridan bakovul ovoz berdi.

— Zot joyida! Zot joyida qoldil!

Yuqoriga o'girildim. Otliqlar soy labida qator bo'lib qaradi. Uzalib, jilovni oldim. Yuqoriga chiqadigan yo'l qidirib, soy yoqaladim.

Yuqorida chavandozlar salmoqlab-salmoqlab gapirishdi.

— Odamning boshi aylanib ketadi-ya!

— Shu Tarlonda ikkita yurak bor!

— Bordi-yu, bitta bo'lsa, o'zining kallasiday!

— Tarlon dilovar ot ekan!

Bakovul tayinladi:

— Tarlon-ov, uloqniyam olib chiq! — dedi.

Men o'zimni eshitmaslikka oldim. Uloqqa qaytib borgim kelmadi. Bir nishabroq yerdan yuqoriladim.

Egar-abzallar oldiga bordim. Tarlonni yalang'ochladim. Tarlonning bor vujudini qarab ko'rdim. Oyoqlarini siladim. Xudoga shukur, lat yemadi. Yerga yumalatib-yumalatib sovutdim. Bosh-adoq qashiladim. Bo'ldi, endi Tarlonni uloqqa solmayman. Bo'ldi, Tarlon g'olib bo'ldi...

18

Keyin... keyin, o'zimning-da, araz fe'lim tutdi...

Birodarlar, sizga bir nima aytayinmi? Men araz urishni yaxshi ko'raman! O'layin agar-a!

Oy tug'adi, o'ttizida to'ladi. Shu oyda biror bir nimadan, aqalli bir martagina bo'lsa-da, arazlamasam bo'lmaydi. Shu oyda kun ko'rganday bo'lmayman!

Ko'nglim g'ash bo'lib yuradi. Bir nima yo'qotganday tevarakka alanglab qolaman. Bahonatalab bo'laman. Biron-bir bahona izlayman. Qildan qiyiq chiqaraman. Ignaday nimani tog'day qilib ko'nglimga olaman. Tumshuq qilib olaman!

O'zimni o'zim xo'rangan deb bilaman. Ko'nglim cho'kib... otam bechorani eslayman! Odamlar meni sag'irligimni bilib xo'rlayapti, deyman. Sag'ir bo'pmiz, aybdor bo'pmizmi, deyman.

Undan keyin... kallamdan o'pkalayman! Xo'rلانىشىم boisini kal kallamdan ko'raman. Kallam kal-da, bo'lmasa, meni shunchalik xo'rلارمىدىلار, deya o'ksinaman.

Shunda: uzangi yo'ldoshlarim oraga tushadi. Ot jilovini ushlab, tavallo qiladi:

— Bir martagina shaytonga hay bering, Ziyodulla chavandoz! — deydi.

Arazlashimning ana shu yerlari ko'nglimga yog'day yoqadil Qobog'imni uyub-uyub, olislarga qarayman. Miq etmayman!

Uzangi yo'ldoshlarim yanada g'ayrat qiladi.

— Ziyodulla chavandoz, siz ko'p ulug' chavandozsiz, shu safar bizni o'ylang! — deydi.

Ahay-ahay! Jonning huzuri-ya! Vujudim huzur qiladi, vujudim rohat qiladi!

Ana shunda moyillik beraman! O'ychan-o'ychan bosh irg'ayman.

— Mayli, ko'p qo'ymadilaringiz, yuzlaringizdan o'tolmadim, — deyman.

Ko'pdan buyon araz urish xumor qilib yurib edi. Mana, qulay vaqt keldi! Yaratganning o'zi suygan bandasiga yubordil Bahona-da binoyiday bo'ldi: ot insonni deb jonini ayamadi, bakovul bo'lsa, ot fidoyiligini taqdirlamadil Ana bahona!

19

Men arazlab o'tira berdim.

Bir jiyron ot eseldanang otib keldi. Bakovul oldiga bordi.

Birodarlar, jiyron — malla ot bo'ladi. Oyog'i olapaycha. Ayrimlari peshonasida qashqasi-da bo'ladi. Bunisida yo'q bo'ldi.

Jiyron chavandozi soqoldor chavandoz bo'ldi. Chavandoz ovozi nordon-nordon bo'ldi, ammo xushtalqin bo'ldi:

— Ay bakovul, mo'yloving bo'lgan bilan, insofing yo'q ekan! — dedi. — Qara, Tarlon o'zini qayerdan tashladi! Ot sendan, mendan qo'rqqanidan tashlamadi, yo'q, odamzotga fidoyiligidan tashladi! Bundayin botir ot boshidan zar sochsang-da, haqing ketmaydi! Ber haqini!

— Uloq qo'lidan tushib ketdi! — dedi bakovul.

— Bersang berding, bermasang, shu Tarlonga uyimdan bir qo'y olib kelib beraman! Ayt, bo'larini ayt!

Bakovul arosatda qoldi. Nima qilishini bilmadi, nima deyishini bilmadi. Haq berayin desa, boyatdan buyon bot-bot bekor, dedi. Endi gapidan qaytish bo'ladi. Haq bermayin desa, tag'in bo'lmadni. Soqoldor chavandozda avzoy yomon, uydan qo'y olib kelib beradi. Yomon-yomon, ana unda yomon! Bakovul nomiga yomon, to'y nomiga yomon!

Bakovul o'yladi-o'yladi, oxiri gapini qaytib oldi. Soqoldor chavandozga yuzlandi.

— Chavandoz bova! — dedi. — Oshingni yesa-da mard yesin, boshingni yesa-da mard yesin! Bunday tantilikdan keyin, haq sizdan aylansin! — dedi.

Bakovul menga bir serka bilan yigirma besh so'm pul berdi.

20

Ko'pkari oxirigacha yonboshlab yotdim.

Uzangi yo'ldoshlarim bir marta-da uloq olol-madi.

Ko'pkaridan qo'lini burunlariga tiqib qaytdi.

Shunda, uzangi yo'ldoshlarimga yuz soldim.

— Endi qaysi yuz bilan elga ro'para bo'lamiz? — dedim. — Yigirmaday chavandoz-al Olganimiz bor-yo'g'i bitta serka bo'lsa! Shuniyam tilab oldik!

Chavandozlar boshi egik bo'ldi. Bilmadik, deya yelka qisdi.

— Yaxshisi, bunday qilamiz. Yo'lda oyoq

ilamiz. Qishloqqa qorong' ilatib-qorong' ilatib kirib boramiz. Binoyimi?

— Binoyi, binoyi, — dedi chavandozlar.

Qishloqqa bir adir qoldi.

Chavandozlar otdan tushdi. Adirda yonboshlab yotib oldi.

Toshday qorong'i tushdi.

Chavandozlar tag'in otlandi.

Birov-yarim duch keladi, degan hadik bilan men oldinda yurdim. Oldimda serka bor-da. El ko'zi...

Aytganim bo'ldi. Toshloqdan o'tib, bir qoraga yo'liqdim. Yo'lni burib soldim.

Qora olisdan ovoz berdi:

— Hay, o'sha yoqda bir ola mol ko'rmadilaringizmi?

— Ko'rmadik.

— Ziyodulla chavandoz? Senmisan? Ko'pkari-dan qaytdilaringmi?

— Shunday, shunday!

— Qalay, quruq qaytmadilaringmi, ishqilib?

— Esa-chil!

— Bilinmayapti-ku!

Men oldimdag'i serka junini og'ritib-og'ritib tortdim. Serka uzib-uzib ma'radi.

— Eshityapsizmi, ovozini?

— Ha, yaxshi-yaxshi! Ishqilib, bo'sh kel-manglari! Sizlar, elning e'tibori-da!

— Ana shunday ovozli jonlilardan barimizda bor! Xurjundagi qat-qat to'nлarni aytmasak-da bo'ladi!

21

Boysunga to'yga jo'nadim. Yer bilch-bilch loyligidan, ot dumini tugib qo'ydim.

Birodarlar, boysunliklar qitmir el, baxil el, ichiqora el! Birovg'a bir nima qiymaydi! O'zлari bo'lolmaydi, bo'lganni ko'rolmaydi! Bizning oma-dimizni kamsitadi! Bizning muvaffaqiyatimizni yerga uradi! Parokandaligimizni ko'rib quvonadil

Yayrab kuladi, miriqib kuladi! Voy bechora-ye, voy bechora-a, deydil Nachora, birodarlar, nachora, sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi!.. Bugungi ko'pkari-da-da shunday bo'ldi.

Sho'rchidan Fayzulla chavandoz keldi. Vo ukkag'ar, ana chavandoz! Besh ketdim! Ostidagi oti qizbel! Suv ilonday chopdi! Uloqni ketma-ket ikki bor ayirdi!

Uchinchisi menda ketdi.

Uloq goh sho'rchiliklarda, goh bizda, goh vaxshivorliklarda yurdi. Boysunliklarga tegmadi.

Fayzulla chavandoz uloqni uchini bor yerdan uzib oldi!

Ana shunda boysunliklar kuyib ketdi! Bir boysunlik Fayzulla otining jilovidan tortib qoldi. Yana bir boysunlik uloqni yulqib-yulqib tortdi, Fayzulla chavandoz qo'lidan tushirib yubordil

Fayzulla chavandoz yana uloqqa uzaldi. Yana uloqni olib jo'nadi. Qizbeli toziday chopdi!

Boysunliklar keyinda qolib ketdi. Ammo ulkan bir ayg'ir izma-iz yetib bordi. Ayg'ir chavandozi uloqqa uzalmadi. Yo'q, uzalmadi. Ayg'ir, Fayzullaning Qizbelini ko'kragi bilan urib o'tib ketdi! Qasddan qildi, qasddan!

Fayzulla chavandoz Qizbeli umbaloq oshib yiqildi. Fayzulla Qizbel oti boshidan yerga aylanib tushdi.

Qizbel sapchib turdi, besh-olti odim qo'ydi. Keyin, chavandoziga qarab yurdi. Chavandozi oldida oyoq ildi.

Fayzulla chavandoz yiqilish zarbidan irg'ib turib ketdi. Ust-boshlarini qoqdi.

E, tavba-ye, tavba-yel! Chavandoz devordan ag'nasa, albatta bir yeri lat yeysi. Maydagina eshakdan yiqilsa, xiyol vaqt qimirlamay yotadi. O'qday uchib borayotgan otdan yiqilsa, hech nima ko'rmaganday, sapchib turib ketadi!

Birodarlar, eshak yiqitsa, tuyog'ini to'shaydi, ot yiqitsa, yolini to'shaydi!

Fayzulla chavandoz Qizbel oldiga bordi. Qizbel badaniga yopishgan loylarni artdi. Qorniga sidirilib tushgan egarni oldi. Qaytatdan egarladi.

Tag'in to'daga ot qo'yib keldi. Uloqqa qahr bilan yopishdi.

Bu safar boysunliklar uloqni ot tuyoqlari ostiga bostirib oldi.

Fayzulla chavandoz uloqni tuyoqlar ostidan tortib ololmadidi. To'dadan entikib-entikib chiqdi.

— sig'sa ot min-da, bachchag'ar! O'l-e, shu kuninga-ye! Tfui! — dedi.

Fayzulla chavandoz tupigi ulkan ayg'ir sag'risiga sachradi.

Fayzulla chavandoz araz urib ketdi. Izidan uzangi yo'ldoshlari jo'nadi.

22

Boysunlik chavandozlar uloq ololmasligini bildi. Endi qing'irlik yo'liga o'tdi.

Uloqqa chilvir soldil Chilvir yarim qulochcha keladigan arqon bo'ladi. Yo'g'onligi boshmaldoq-day bo'ladi. Uchlari bilak bilan egar qoshi sig'adi-gan qilib tugiladi. Chavandoz chilvirni uloq kezanagidan o'tkazib olib, bilagiga o'raydi. Ana undan keyin uloqni tortib olib bo'lmaydi!

Uloqqa chilvir solishning zo'r bir xili bor.

Boysunliklar ayni shu zo'rini qo'lladi: birovi bir amallab uloqni yerdan uzdi. Chilvirni kezanakdan o'tkazib oldi. Uchlarni egar qoshiga ildi. Keyin, uloqni taqimiga bosib chopdi.

Shu uloqni olib bo'ladimi? Yo, chavandozni egar-abzali bilan ag'darib olib bo'ladi, yo, oti bilan qo'shib yiqitib olib bo'ladi. Bo'lmasa, olib bo'l-maydil!

— Chilvirl Chilvir soldil

— Ay bakovul, to'riq chilvir soldil

— Harom, to'riqning ulog'i harom!

Bakovul barini ko'rib turdi, barini eshitib turdi. Ammo yelkasini qisdi, labini burdi, talmovsirab turib oldi.

— Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo'hton qilmang! To'riq, kel, haqingni ol! — dedi.

Chavandozlar gapi besamar bo'ldi. Ko'plar ko'pkaridan qo'lini yuvib, qo'litiqqa urib ketdi.

Sho'rchilik Hamdam chavandoz ketayotib, mana bunday dedi:

— Ay bakovul, shunday haq olib yegandan ko'ra, ko'chadan... terib yesalaring bo'lmaydimi? Bir mo'min banda o'zi yemay, o'zi ichmay yig'indi, elga to'y berdi. O'yla-da, imonsiz! Shu haromliging o'zingga, o'zingga bo'lmasa, bola-chaqangga uradi, mana ko'rasan!

Bakovul yerparchin bo'ldi. Ammo gapidan qayt-madi:

— Okun, chilvir solmagani haqiqat! — deya chikilladi.

— E, tupurdim, shu haqiqatinggal
Hamdam chavandoz etagini qoqib ketdi.

23

Birodarlar, chavandozlar nimaga etagini qoqib ketayapti? Adolatga! Nimaga tupurib ketayapti? Adolatga! Kimdan arazlab ketayapti? Adolatdan! Bir to'da nomard, imonsizga achchiq qilib, adolatni o'tga tashlab ketayapti!

Birodarlar, biz hamisha adolat, adolat deymiz. Tildan qo'yamaymiz. Adolatsizlikni ko'rib, xuni-biyron bo'lamiz. Hayotdan, taqdirdan nolymiz. Adolat yo'q, adolat osmonda, deymiz.

Yo'q, birodarlar, adolat yerda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorishib yotibdil! Adolatni kim bundayin xor qilayapti? Biz — o'zimiz! Men, siz, Fayzulla chavandoz, Hamdam chavandoz! Ana, ular qochib ketdil Shu-da, adolat jafo chekayotganda qochamiz! Adolatdan yuz o'giramiz! Ko'rib, ko'rmaslikka olamiz!

Bir imonsiz adolatni bo'g'sa, yo'limizni chap solamiz. Yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da

qutul, deymiz. Yomon bilan teng bo'lmayin, deymiz. O'zimizni bilmaganga olib o'tiramiz. Tilimizni tishlaymiz. Obro'yimiz ketib qolishidan, yo, amalimizdan ayrilib qolishdan qo'rqamiz. O'zimizga g'anim orttirishdan qo'rqamiz. Qo'y-qo'ya ber, to'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi, deya qo'l siltaymiz.

Ana, bari qochib ketdi! Qochish, bizning uzangi yo'ldoshlarga-da yuqdi.

— Yuring, ketdik! — dedi.

Men jerkib berdim:

— Hech qayoqqa ketmayman! Ko'pkari oxiri-gacha chopaman! — dedim.

— Nima qilasiz, shular bilan teng bo'lib! Bularning jazosini xudo bersin!

— Nimaga endi bari nimani xudoga solasizlar?! O'zlarining odam bo'lib nima qilib yuribsizlar?! Xudo bo'lsa, shunday imonsizlik bo'larmidi!

Uzangi yo'ldoshlarim ko'nglimga qaradi.

Bir boysunlik chavandoz yonidagiga shivirladi:

— Yaxshi bo'ldi, bari ketayapti. Uloq endi o'zimizga qoladi.

24

Qahrim qo'zigandan qo'zidi. Tarlonni Samad chavandozga berdim. O'zim Samadning chekkagir ko'k samanini mindim. To'da girdini poylab yurdim.

Bir boysunlik uloqqa yana chilvir soldi. Lip etib yonidan bordim, uloq butidan ushладим. Uloqdan qo'limni olmadim.

Oxiri boysunlikning oti holdan toydi. O'ziningda hafsalasi pir bo'ldi. Uloqni qo'yib yubordi. Uloq yerga tushib ketdi. Men ushlab qololmadim.

Ko'k samanni olisdan qayirib keldim. Peshonamni yengim bilan artdim. Yoqamni ko'tarib-ko'tarib, ko'kragimni shamollatdim. Shunday rohatlandim, shunday rohatlandim. Shunday rohatlandim, shunday rohatlandim! Tani jonim yayradi! Savob ish qilganday bo'ldim!

Endigi uloq vaxshivorlik Yo'ldosh chavandozda bo'ldi. Yo'ldosh uloqni chilvirsiz, halol olib ketdi.

Yo'ldosh chavandozga ziyon bermadim, oshiga sherik bo'lmadim.

Tag'in to'da chetiga borib turdim. Ostimdag'i ko'k saman og'irligini orqa oyoqlariga soldi. Ketiga xiyol chayqalib turdi.

Endi Jiyron otli bir boysunlik uloqni olib jo'nadi.

Men darrov ko'k samanni yonidan qo'shdim. Uloqqa ushslashdim. Basma-bas ushslashdim. Tengma-teng ushslashdim.

Bechora chavandoz chap berib, chap berib, ko'p chopdi.

— Qo'yib yubor, haqning yarmini beraman, — deya shivirladi.

O'zimni eshitmaslikka oldim, uloqni ushlab chopdim.

Boysunlik alamidan yomon-yomon o'graydi, yomon-yomon chaqchaydi. Burab-burab so'kdi. Oxiri uloqni tashlab yubordi.

Ishqilib, boysunliklarga uloq bermadim. Boysunlik chavandozlar uloq ololmadi.

Bakovul barini ko'rib turdi, barini bilib turdi. Ana endi... ana endi, qitmirning borib turgan qitmiri qiladigan ishni qildi: uloqni to'dadan chetga olib jo'nadi. So'raganlarga:

— Butlari shalvirab qolibdi, — deya javob berdi.

Chavandozlar bakovul yo'liga qarab turdi. Bakovul to'daga yangi uloq so'yib keladi, deya umid qildi.

Xiyol o'tdi, bakovul qaytib keldi. Uloqni to'daga olib kelib tashladi.

Uloqni ko'rib, yoqalarimni ushladim. Yo, tavba, yo, tavba! O'sha-o'sha uloq. Lekin bo'yni yo'q! Butlari yo'q! Haligina bor edi, bakovul qirqib tashlabdi! Bunday uloqni yerdan ko'tarib ho'lmaydi! Boisi, ushlaydigan yeri yo'q! Junidan ushlab ko'tarayin desa, juni yulinib ketadi!

Shunday bo'lsa-da, chavandozlar noumid shayton deya, uloqqa talpindi. Ammo yerdan uzib ololmadi.

Bakovul ko'nglidagiday bo'ldil Ana endi bakovul ko'pkarining oxirini aytdi:

— Eshitmadir demanglar, olgan-olgan! Olgan-olganiga shu uloqning o'zi, bir kilo yog', bir kilo guruch, sabzisi bor! Ol!

Bunday uloqni yerdan uzib olishning bir yo'li bor. Lekin juda-juda qiyin...

Baxtash tavakkal! O'zimizning Tarlonni minib oldim. Uzangi yo'ldoshlarimga, bot-bot tayinladim. O'zim uloqqa qarab yurdim. Uzaldim, uzaldim... tag'in uzaldim... uloq junini eti bilan qo'shib ushladim, g'ijimlab ushladim. Bor kuchim bilan siltab ko'tardim, egar qoshiga o'ngarib oldim! Ko'kragim ostiga bosdim, bilaklarim bilan bosdim!

Ko'z ilashmay qoldil

Qolgan ish, Tarlon ishi bo'ldi! Tarlon tulkiday chopdi!

Ko'pkari oxiri menda ketdi. Men zafar qozondimi

Birodarlar, o'zbek eli o'r keladi, o'zi o'jar, zo'r keladil

25

Rixsiyev qishloqqa ko'chib keldi.

Birov urilib keldi dedi, birov shahardan bezor bo'lib keldi, dedi. Urilib keldimi, surilib keldimi, ishqilib keldi. Maktabda muallim bo'ldi.

Bizdan ikki hovli narida ota meros ko'hna hovlisi bor edi. Ana shu hovlida yashadi. Qish bo'lsada, hashar qildi, hovlisini sozladи.

Bir kuni meni-da hasharga aytdi. O'lmayinning kunidan bordim. Hamsoyachilik, qosh bor, qoboq bor-da.

Rixsiyev supada yonboshlab oldi. Qo'lini loyga urmadi. Hasharchilarga gap berib turdi.

Birodarlar, Rixsiyev quloq-miyani qoqib, qo'lga

berdil Bidir-bidir... Olamda gap qolmadi! Qayerda urush bo'layapti, qayerda surgun, qaysi mamlakat podshosi qayerga bordi, nimaga bordi, nima dedi, poyezdda bordimi, samolyotda bordimi, mezbonlar bilan quchoqlashib ko'rishdimi, yo, qo'l uchida ko'rishdimi, hech nima qolmadi!

Boshim g'uvillab qoldi. Tishimni tishimga qo'yib chidadim.

Rixsiyev ertaga-da hasharga aytdi.

— Kelolmayman, ertaga ko'pkari bor, — dedim.

Shu vaqt uydan odam keldi. Palovga qaramadim, hadahalab uyga bordim. Uyimizda chaqaloq inga-ingaladi.

Birodarlar, men ota bo'ldim, ota! O'g'il! Xumor xolamiz o'g'limizga momochi bo'ldi!

Tongni ko'z yummay oqladim.

26

Ertalab Tarlonni suvlatmadim. Yemni kamroq berdim. Qishloq mashrig'idagi chimzorga bordim.

Otlar siyrak bo'ldi. Borlari-da o'zimizning otlar bo'ldi. Mehmon otlar taxchil bo'ldi.

Tarlonni to'daga soldim. Tarlon to'daga kirmadil Keyiniga tisarildi. Suvlig'ini chaynadi, boshini sarak-sarak etdi.

Tizzam bilan biqiniga niqtadim, sag'risiga qamchiladim.

Tarlon seskandi, Tarlon turgan joyida yer depsindi.

Ko'z qo'rqitar uchun boshi uzra qamchi havolatdim.

Tarlon ursang ur, mana, degandayin qulqlarini chimirib turdi.

Bildim, Tarlonda kayfiyat yo'q, bildim!

Birodarlar, har bir otning o'z fe'l-atvori, kayfiyati bo'ladi. Ot kayfiyati yo'q kunlari insonga bo'yin egmaydi. Ana shu kunlari inson ko'p g'ashiga tegsa, inson yelkasidan g'archillatib tish-

lab olishdan-da, qovug‘iga tarsillatib tepishdan-da qaytmaydi!

Bunday vaqtarda ayrim chavandozlar qamchi dastasi bilan otning boshiga uradi. Oqibat, ot jon achchig‘ida chavandozini yiqitib qochadi.

Ana shunda ot insondan bezadi. Ot insondan qaytadi! O‘zining devlar ajdodiga tortadi! Ajdodlarini qo‘msaydi, adirlarga qarab qochadi. Galalarga borib qo‘siladi. Ayg‘irlari bilan ko‘rishadi, biyalari bilan suykashadi. Ajdodlarining havosini oladi! Bir-birlari bilan iskashadi. Inson zotidan nolib-nolib boshlaydi, ko‘nglini yorib-yorib boshlaydi, dardini to‘kib-to‘kib boshlaydi... Dev boshim bilan insonga bosh egdim, deydi, ta’zim qildim, deydi, qul bo‘ldim, deydi, ammo el bo‘lmadim, deydi...

Yo‘q, kayfiyati yo‘q kunlari otga indamaslik lozim bo‘ladi, ko‘ngliga qarash lozim bo‘ladi!

Shu boisdan Tarlonni oshiqcha zarbalamadim. To‘da tevaragini aylanib yurdim. Shunchaki tomoshago‘y bo‘ldim.

Chimzorda yer yorib chiqqan cho‘qir toshlar ko‘p bo‘ldi. Shu bois, chavandozlar ko‘ziga qarab chopdi. Otlarini qoqilib ketishdan avaylaydi.

Oqtuyoq otlar bir chetda tomoshago‘y bo‘ldi. Boisi, oqtuyoq otlar toshli yerda chopolmaydi. Toshlar tuyog‘ini urib tashlaydi.

Ko‘pkari oxirida bakovul jar soldi:

— Chavandozlar deyman-ov, bugun ot kam keldi! Uzoq-yaqindagilar to‘yning ikki kunidayam ko‘pkari bo‘lishini bilmagan-da! Shu boisdan Qobil polvon ertaga katta ko‘pkari beradi! Armonda qolma!

Uyda Tarlonni iliq suv bilan yuvdim. Qashilab-qashilab parvarishladim.

Xufton vaqt-xufton vaqt to‘yxona tevaragini aylantirdim. Karnay-surnaylar ovozini eshittirdim, to‘yxona havosini oldirib-oldirib keldim. Keyin, hovli etagiga solqi qilib boyladim.

Yarim kechada Tarlon kishnadi.
Tashqariladim, Tarlondan xabar oldim.
Tarlon old oyoqlari bilan yer tirdi. Qoziqni
aylanib-aylanib chopdi. Pishqirib-pishqirib chopdi.
To'y havosi Tarlonni qo'zg'adi. To'y havosi
Tarlonni ko'pkariga chorladi!
Tarlon tushkun kayfiyatdan foriq' bo'ldi!

27

Ertasi kuni otlar serob bo'ldi. Ot ko'pligidan
binoyiday otlar-da to'daga tumshug'ini tiqolmadi.

Bir osh pishirim vaqt o'tdi. Uloq yerdan qimir-
lamadi. Qimirlasa-da, besh-o'n odim sudralib borib,
tag'in tushib goldi.

Oxiri bir Cho'bir ot enlik ko'kragi bilan to'dani
yorib-yorib, uloqni olib chiqdi. To'da chetida
chag'ir otliq bir chekkagir chavandoz uloqni poylab
turib edi, shu chekkagir chavandoz chag'ir otini
Cho'bir yonidan soldi. Jipslashib keldi-da, uloqni
yuldi-ketdi. Ellik-oltmish qadamcha chopib bordi.

Katta-katta ko'pkarilarda uloq to'dadan sag'al
chiqsa bo'ldi, halol bo'ladi. Shu bois bakovul dar-
rov qamchisini boshi uzra ko'tardi:

— Halo-o-ol! Tashla, Chag'ir, tashla! — dedi.

Birodarlar, chekkagir chavandoz o'roqda yo'q,
mashoqda yo'q, xirmonda hozir chavandoz bo'ladi!

Chekkagir chavandoz to'da chekkasida gir bo'lib
poylab yuradil Shu sababli-da ularni chekkagir dey-
dilar. O'zлari-da, otlari-da chekkaga o'rgangan
bo'ladi. Chekkagirlar to'dadan uloq ololmaydi.
Chekkada turib, tayyor oshni poplaydi. Uloq to'da-
dan chiqdimi, bo'ldi, chekkagir uloqni tulkiday ilib
ketadi.

Uloqni to'dadan olib chiqqan chavandoz esa,
mehnatiga kuyib qoladil

Men ming azob bilan uloq olib chiqdim. Mening
ulog'imni-da shu Chag'ir chekkagir yulib ketdi.
Men sonimga urdim, attanglab qola berdim.

Chag'ir chekkagir boshga bitgan balo bo'ldi.

Shunda men, bir ustalikni qo'lladim. Uloqni oldim-da, kun tarafga qarab ot soldim. Kunga yuzma-yuz chopdim.

Yonimda kelayotgan Chag'ir ot yo'lda qolib ketdi. Boisi, Chag'ir otning ko'zi ko'k bo'ladi! Kunga qarab chopolmaydi! Ko'zlar shafaqlanadi!

— Tarlonniki halol, Tarlonniki halol! Tarlon, ma, haqing! Chavandozlar, endi qoralik qo'yaman! Mana! — dedi bakovul.

Bakovul shunday deya bir yirtim qizil matoni ko'z-ko'z etdi. Matoni yarim qulochcha cho'p uchiga ildirib, bayroqcha qildi. Bayroqchani chimzor chetidagi kattaroq o'choqday chuqur labiga qadadi.

— Mana shu chuqur qoraliki! Kimki uloqni shu chuqurgacha olib kelib tashlasa bir qo'y, ellik so'm pul, bir to'n oladi! Qulog'i og'irlar bo'lsa, qaytarib aytaman...

Qoralik — ko'pkarining eng mushkuli, eng qiyinidir. Shu sababli-da ko'pkari g'ururidir, ko'pkari yuzidir. Qoralikni halollash chavandozga-da, otga-da faxr! Uloqni qoralikka bir marta olib borib tashlash, to'dadan uch marta uloq ayirishdan ziyod!

28

Ko'pkari qizigandan-qizidi.

Shu vaqt, Jo'ra bobo ot yo'rttirib keldi.

— Ziyodulla chavandoz, bizning to'riqniyam bir ko'ring, ukam, — dedi.

Jo'ra bobo shunday deya, otdan tushdi. Jilovni menga uzatdi. Men Tarlon jilovini unga berdim. Boboning qora to'rig'ini mindim.

Jo'ra boboning gapini yerda qoldirib bo'lmaydi. Jo'ra bobo oltmisidan oshib qoldi. Ammo farzandi yo'q...

Ikki marta uylandi. Ikkovida-da farzand bo'l-madi. Uchinchisiga uylandi. Bundan-da bo'l-madi. Qo'yib yuborgan ayollar boshqalarga tegib-tegib ketdi. Bolalik bo'lib-bo'lib ketdi.

Shunda, Jo'ra boboning boshi egilib qoldi. Yuzi ko'ksiga qarab qoldi. Davralarda dasturxonidan ko'z olmadi. Ko'chalarda etiklari uchiga qarab yurdi. Ovozini qo'yib gapirolmadi...

Jo'ra bobo bir nimaga e'tibor berdi. Jo'ra bobo, degan ot eldan qoldi. El o'zini, yo, uyini ko'rib, Jo'ra boboni esladidi. Ko'rishib, bardammisiz, Jo'ra bobo dedi. Bu uy Jo'ra boboniki, dedi.

Boshqalarning oti bo'lsa, hamisha el og'zida bo'ldi. Aytaylik, hamsoyasining o'g'li maktabga boradi. Muallim yo'qlama qiladi. Murodov, deydi. Hamsoyasining o'g'li sapchib turadi, men, deydi. Sinfga bir kunda oltita muallim kiradi. Demak, hamsoyasi Murodning oti olti bor jaranglaydi. Hamsoyasining sakkiz bolasi bor. Bari maktabga boradi. Har birovi otasining otini kuniga olti marta jaranglatadi! Demak, hamsoyasi bir kunda qirq sakkiz bor el og'ziga tushadi!

Yana tag'in, ko'chalarda necha martalab oti aytiladi. Bu kimning o'g'li? Murodning o'g'li? Bu kimning qizi? Murodning qizil..

Jo'ra bobo joniga to'ydi. Bir tushda qoradori yedi. Ustidan sovuq suv ichdi. Yorilib o'lmoqchi bo'ldi!

Bir chinni kosa suvni og'ziga olib bordi. Lablariga tekkizdi. Shunda, birdan aynidi. Mardona-mardona, achchiqma-achchiq ish qilish fe'li tutdi! Suvni zarda bilan otib yubordi. Kosa chil-chil bo'ldi...

Mol-ko'yalarini sotdi. Puliga qaymoqrang «Jiguli» oldi. Rulni hamsoyasining to'ng'ich o'g'liga berdi.

— Aytgan yeringa mindirib borib kelsang bo'ldi. — dedi. Asl maqsadi boshqa bo'ldi. Asl maqsadi — mashinasi ko'chani changitib yursin, odamlar bu Jo'ra boboning mashinasi, desin. Jo'ra boboning mashinasi qaymoqrang, desin. Yo'lda GAILlar ushlab ujjat ko'rsin, Jo'ra bobo, degan nomni o'qisin...

Farzandlar nasibasini-da, farzandlar rizqi ro'zini-da ana shu To'riqqa yedirdi...

Qaridi, o'zi uloq chopmadi. Shunday bo'lsa-da, to'riqni ko'pkarilarga boqdi, ko'pkarilarga shayladi. Chavandozlar bilan oislardagi ko'pkarilarga bordi. Birovning oti tolib qolsa, yo yaramay qolsa, ana-shu chavandozga To'rig'ini berdi.

Jo'ra boboning dardi yolg'iz bo'ldi, dardi ezgu bo'ldi: to'rig'i uloqni ayirsin. Bakovul uloqni Jo'ra boboning oti ayirdi, deya jar solsin. Jo'ra boboning oti, kel, haqingni ol, desin. Ko'pkari ahli Jo'ra bobo degan nomni eshitsin. Qulog'i og'irlar uloqni kim oldi, deya qayta so'rasin. Shunda bakovul, uloqni Jo'ra boboning oti oldi, deya qayta-qayta jar solsin. Jo'ra bobo degan nomni olam-jahon odam eshitsin...

Bakovullar-u chavandozlar Jo'ra bobo dilidagini darrov ilg'ab oldi.

Ko'pkarilarda Jo'ra bobo to'rig'ini marhamat etsa, chavandozlar yo'q demadi. Ko'ngliga qaradi. Jo'ra bobo to'rig'ini bersa berdi, bermasa, atayin so'rab oldi.

Bakovullar Jo'ra bobo ko'nglidan bordi.

29

Jo'ra boboning to'rig'iga qoralikni ko'rsatib keldim, qoralikni iskatib keldim.

Xiyol o'tdi, to'da guvillab qo'zg'oldi. Uloqni bir Chil ot olib chiqdi.

Birodarlar, Chil otning bir yeri ko'k, bir yeri oq, yana bir yeri qora bo'ladi. Shu boisdan chil-dal

Chil yo'lini chap solib-chap solib chopdi. Chag'ir chekkagir Chilga yaqin-da borolmadi. Chekkagir armonda qoldi.

Bakovul qamchisini boshi uzra silkidi.

— Bekor, Chilniki bekor! Qoralikka tushmadil! — dedi.

Chin, uloq chuqur labida ilashib oldi. Uloq chuqur ichiga tushsagina halol bo'ladi.

Bakovul uloqni qoralikdan xolisga olib borib tashladi.

— Chavandozlar, qo'yilgan zotlar joyida qoldi! Ol-ha, ol! — dedi.

Boyanagi chil ot uloqni tag'in olib chiqaman dedi. Bir havasim keldi, bir hayratim keldi. Nimaga endi faqat shu chil ot olayapti? Hatto chekkagirlarni-da dog'da qoldirayapti?

Farosat bilan qaradim. Bir talay uzangi yo'ldoshlari Chil ot tevaragini o'radi. Chil chavandozi uloqni xotirjam uzalib oldi. To'dadan sug'urila boshladi. Uzangi yo'ldoshlari o'zga otlarni Chilga yo'latmadi, yo'l bermadi. Go'yo uloqqa talashayotgan bo'lib, Chil otni o'rab-o'rab chopdi. Chil sag'risiga qamchilab-qamchilab, madad berib-madad berib chopdi.

— Darband! hayda, Darband! G'ayrat qil, Darband! — deyishib chopdi.

— Bos, bo'sh kelma, Darband! — deyishib chopdi.

Demak, bular darbandlik chavandozlar bo'ldi. Darbandlik chavandoz uloqni taqimiga bosib oldi. Ayqirib-ayqirib ot qo'ydi:

— Oho-hay, oho-hay, oho-hay! Hay otam, hay otam-a, hay otaginam-a! Hayda-yal..

Birodarlar, Darbandlik chavandoz otni otam deyapti, otam! Ahay-ahay!

Chil ot bu safar uloqni dangal tashladi.

— Halo-o-ol! Chil, chil deyman-ov! Uloqni olgan yeringga olib borib tashla! Chavandozlar, endigi zotga katta bir ho'kiz qo'yildi. So'ysang bir to'yni to'ydiradi! Ol, armonda qolma!

To'da yana qoralikka qarab ot qo'ydi. Uloq bu gal «8-Mart» kolxozilik Samanda bo'ldi.

«8-mart»liklar haybarakalla qildi:

— Qo'yma, «8-Mart», qo'yma!

«8-Mart», ehtiyot bo'l, ketingdan Chag'ir borayapti!

— Bos, joning boricha bos!
— «8-Mart», otni qamchilal!
Ho'kiz «8-mart»liklarda ketdi.

30

Endigi uloqni men olib chiqdim. Otlar oldimni oldi. Yo'limni yopib chopdi, yonlarimni yopib chopdi. Otlar meni qoralikka yo'latmadni.

Birodarlar, yolg'iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da, dong'i chiqmaydi!

Alamid dan xunob bo'ldim. O'zimizning chavandozlarga baqirdim:

— Jonlaring bormi?! Kelinglar-da endi!

Shundagina bizning chavandozlar o'ziga keldi. Gapni bir yerga qo'ydi.

Men yana uloqqa kirdim. Uzalib, uloqni yerdan uzdim. Jo'ra boboning to'rig'i olg'a yurdi.

Bakovul jar soldi:

— Uloqni Jo'ra boboning oti ko'tarayapti, Jo'ra boboning!

Besh-olti qo'l uloqqa uzaldi. Ammo men kuch bermadim. Uloqni bor kuchim bilan ushlab oldim. To'dadan sug'urilib chiqdim.

— Uloq Jo'ra boboning otida! Eshitmadim demanglar, Jo'ra boboning otida!

Uzangi yo'ldoshlarim tevaragimni olib chopdi. O'zga otlarga yo'l bermadi. Jo'ra boboning To'rig'ini qamchiladim, haybarakalla qildim.

— Ha, bos, Jo'ra boboning oti!

— Ha, selkillagan yolingdan aylanayin! Haydaya, Jo'ra boboning oti!

— Iy-iy-iy, iy-iy-iy!..

Dupur-dupur-dupur... Otlar pishqirdi, otlar kishnadi. Yollar selkilladi. Dumlar tovus pati misol yoyildi. Tuyoqlar ostidan chang o'rлади. Dupur-dupur-dupur...

Jo'ra boboning oti qoralikka zabit bilan keldi. Chuqurdan sapchib o'tdi. Shunda uloqni qo'yib yubordim.

— Hal-o-oll Jo'ra boboning to'rig'iniki halol!
Jo'ra boboning to'rig'i, kel, haqingni ol!

Haqni olib, Jo'ra boboning oldiga bordim. Jo'ra
bobo jilmayib, bosh irg'adi. Tevarakka g'olibona
ham xushvaqt qaradi. Ko'rdilaringmi, uloqni biz-
ning otimiz oldi, degan bo'ldi.

31

Qish qaridi.

Havoda ko'klam isi anqidi. Boychechaklar keti-
dan qoraqoshlar ochildi.

Ko'klamni bag'rimga bosdim, to'yib-to'yib
iskadim.

Bir gap eshitib, ko'klam kayfiyatim qish bo'ldi.
Ko'klam rangim sindi.

— Jamiki otlar go'shtga topshirilar emish.

Kolxoz radiouzeli shunday dedi.

Brigadir uyma-uy yurib aytdi. Vajini so'radim.
Brigadir yelka qisdi. Ko'rsatkich barmog'i bilan
shipni ko'rsatdi.

— Bari yuqoridan, bizda gap yo'q, — dedi.

Brigadir aytgan yuqoridan odam keldi. Idora
oldida ko'rdim. Yonida ikkita militsioneri-da bor.

Kattalar uyma-uy yurib, ot oldi.

El ot bermayin desa — kattalar! El yoqalashayin
desa — yonida shapkalar!

El ostonagacha otlariga ergashib bordi.

El qonqora qaqqshadi.

El dardi ichida bo'ldi.

32

Ha-ye, dedim, peshonada borini ko'ramizda-ye,
dedim.

Hofiz qassobdan ikki kilo qo'y go'sht oldim.
Belboqqinamga tugib, uyga keldim. Supada chor-
dانا qurib, go'sht nimtaladim. Lahimni bir yoqli,
suyakni bir yoqli qildim. Ukkag'ar Hofiz qassob
sersuyak qilib beribdi. Xiyla ovora bo'ldim.

Shu vaqt, Tarlon pishqirdi.

Ko'zimni go'shtdan olib qaradim.

Tarlon joyida telbalarcha irg'ishladi. O'zini uyoqqa urdi, buyoqqa urdi. Tasir-tusur yer tepdi. Old oyoqlari orasiga tumshuq tiqdi. Qorniga tumshuq cho'zdi. Sag'riniga tumshuq cho'zdi. Tumshug'i sag'rinlariga yetib-etmadni.

Dumlari bilan sag'rinlarini urdi, qorinlarini urdi.

Orqa oyoqlarini ketiga siltab-siltab pishqirdi. Go'yo bir nimani tegan bo'ldi.

Men avval-avval, Tarlon sho'xlashib o'ynayapti, deb o'yladim.

Yo'q, Tarlon sho'xlashib o'ynamadi.

Tarlon dingilladi! Ding-ding etdi!

Shu Tarlon yo ya'juj-ma'juj ko'rди, yo olabo'ji ko'rди, deya o'yladim.

Hadahalab bordim. Tevarak-boshni qaradim. Ya'juj-ma'juj-da ko'rma-dim, olabo'ji-da ko'rma-dim.

Hayron bo'ldim. Ot arqonini ushладим.

— Tak-tak, tak deyman! — dedim.

Tarlon shunda-da dingilladi. Dingillab, arqonini yulqidi. Dingillab, arqonini silkidi.

Ketimga chalqayib oyoq tiradim. Arqonni qo'sh-qo'llab tortdim. Shunda-da bo'lindi. Dalbanglab-dalbanglab ketdim. Bor-e, deya arqonni qo'yib yubordim.

Bor e'tiborim bilan qaradim. Bor farosatim bilan o'yladim. Qarab-qarab topdim, o'ylab-o'ylab topdim.

Bizning Tarlonga go'balak doridi!

Go'balakda bingak pishiday zahar nish bo'ladi.

Shu nishini ot badaniga suqib-suqib ola beradi.

Go'balak osmondan tushmaydi, yerdan chiqmaydi. Chetdan-da uchib kelmaydi.

Unda, go'balak qayerdan keladi? Go'balak otning o'zida bo'ladi! Ot deb atalmish har bir j-nivorning o'z go'balagi bo'ladi!

Go'balak otning qayerida bino bo'ladi? Go'balak
otning dumi ostida bino bo'ladi!

Shu bois, go'balak otpashsha deyiladi!

Bir qo'lim bilan ot arqonidan mahkam ush-
ladim. Bir qo'lim bilan kallamdan telpagimni
oldim. Telpagimni shaylab turdim.

Go'balak ot dumi ostidan chiqdi degandan, tel-
pagim bilan tapillatib urib o'ldirdim.

Joyimga qaytib borib o'tirdim.

Tarlon tag'in qozig'ini aylanib-aylanib chopdi.
Dirk-dirk o'ynadi. O'ynab-o'ynab pishqirdi.

Tarlon go'balakdan xalos bo'ldi-da! Endi,
o'ynaydi-da!

Tarlon dumlari yoyildi, yollari hurpaydi. Yol-
lari bir chap bo'ynida, bir o'ng bo'ynida o'ynadi!

Bir qo'lim go'shtda, bir qo'lim pichoqda qoldi.
Ko'zim Tarlonda qoldil! Yo, pirim-ey, yo, pirim-ey!
Go'shtga topshiradi? Shunday zotni-ya? Shunday
xushro'y zotni-ya? Go'sht qiladigan boshqa jonivor
quridimi? O'zi, qanday qilib go'sht qiladi? Mana
bundaymi?

Dasturxonagi go'shtga tikildim. Ana shunday-
da? Tarlon hademay shunday bo'ladi-da? Lahimi
bir yoqli, suyagi bir yoqli bo'ladi-da? Eb-ey, eb-ey!

Keyin, kalla-poychasi alohida bo'ladi. Tuyoq-
larini itga otib yuboradilar. Itlar tuyoqlarni g'ajib
yeysi. Faqat tuyoqdag'i nag'allar qoladi.

Yollar bilan dumlarini ko'mib tashlaydilar.
Yollar tuproq ostida chiriydi. Shunday yollar-a? Bu
yol emas, ipak, ipak! Bu yol emas, do'mbira tori,
do'mbira tori!

Tarlon ot emas, Jumanbulbul kuylagan «Qun-
tug'mish»! Fozil Yo'ldosh kuylagan «Alpomish»!

Gajak-gajak bo'yinlar bo'yin emas, do'mbira,
do'mbira!

«Kuntug'mish» ni go'shtga topshirib bo'ladimi?
«Alpomish» ni go'sht qilib bo'ladimi?

Tarlon dirkillab-dirkillab o'ynadi. Birdan oyoq
ildi. Orqa oyoqlarini keng yoydi. Boshini sarak-

sarak qildi. Old oyoqlarini ko'tardi! Tag'in, tag'inda ko'tardi. Old tizzalarini xiyol bukdi. Old tuyoqlari yerga egildi. Quloqlari olg'a ding bo'ldi.

Tarlon orqa oyoqlarida tik turdi!

Devor uzra olis-olislarga qaradi. Bobotog' cho'qqlariga qaradi. Qaradi-qaradi... bor ovozi bilan kishnadi!

Qishloq uzra kishnash taraldi. Xayol qildim, adirlardan aks sado keldi. Xayol qildim, kishnash Bobotog'gacha bordi.

Birodarlar, tani jonim rohat qildil! Jonim entik-di, tanim yayradil! Ko'nglim xo'rsindi, ko'nglim jo'shdi.

— Ahay-ahay! Ha, ovozginangdan-a! — dedim.
O'zim kulib, o'zim aytdim!

— Ha, jon! — dedim.

Kishnash emas, rubobiy musiqa eshitganday bo'ldim! Do'mbira sozi eshitganday bo'ldim!

Birodarlar, ot — rubobiy musiqa, ot — ko'rakam suvrat!

Bali-ye, Tarlonboy-ey, bali-ye!

Ko'zim yana qo'limdag'i go'sht bilan suyakka tushdi...

Yo'q-yo'q, o'lsam-da yo'l qo'yayman...

33

Yarim kechasi Tarlonni jabduqlab mindim.
Obshirga ot qo'ydim.

Obshir qishlog'i kunbotarida oq tuproqli adirlar, tepalar mo'l. Ana shu tepalar nishabida kamarlar mo'l. Tarlonni ana shu zimiston kamarlardan birovga olib kirib bog'ladim.

Kun yoyildi, olam munavvar bo'ldi. Ana shunda uyga qaytib keldim. Ta'tillanib, podayotoqqa bordim.

Oqshom vaqtি o'n kilo arpa bilan bir qop samonni aralashtirdim. Qosh qoraytirib, qopni orqalab jo'nadim. Yo'lda terladim. Dam olib-dam olib bordim. Qopni kamarga suyab qo'ydim. Kaftimda

gugurt chaqdim. Tarlon ko'rsin, meni tanisin deya, olovni yuzimga olib keldim. Tarlon yemsirab, ilti-joli pishqirdi.

Tarlonni yetakladim. Shu yaqindagi ariqdan suvlab keledim. To'rvasida yem berdim. Badanlarini qashiladim. Tarlonga qarab-qarab ketdim.

Uyda tamaddi qildim, yonboshladim. Oyoqlarimni yozdim. «Vaqt» eshittirishlari-da ado bo'ldi. Shunda, to'shakka o'tib yotdim. Ko'zim ilindi, ko'zim ketdi.

Bir mahal, ayolimiz turtdi.

— Tursin, birov chaqirayapti, — dedi.

Uyqusirab, qo'zg'oldim. Choponimni yelkamga tashlab, tashqariladim.

Olapar itimiz darvozaga tarmashib-tarmashib hurdi. Olaparimizga do'qlab-do'qlab bordim. Olapar dumini likillatib-likillatib, o'zini chetga oldi.

Darvozani ochib qaradim. Ostonada raisimiz, undan keyin do'ppili odam bilan ikkita militsioner bo'ldi.

Raisimiz boshi bilan do'ppili odamga ishora qildi.

— Bu kishi rayon vakili, qishloq xo'jalik boshqarmasidan, — dedi.

— Binoyi, binoyi. Qani, ichkarilangizlar.

Do'ppili odam ichkariladi. Ketidan boshqalari ergashdi.

Kattalarga sinchiklab-sinchiklab qaradim. Do'ppili katta mendayin bir kal bo'ldi. O'zimizdan ekan, dedim.

Kal katta tevarakka alanglatdi.

— Ot qani? — dedi.

— Qanday ot? — dedim.

— Ot qanday bo'ladi? To'rt oyoqli, ikki qulogli ot-da.

— Menda unday ot yo'q, katta. Kaldan taroq so'rama, deydilar. Siz bo'lsa, ot so'rab o'tiribsiz.

— Top, top, kallani garang qilma! Adi-badi

aytishib o'tirishga vaqt yo'q. Senga o'xshaganlar-ning soni mingta!

— Menda ot nima qiladi, katta. Ana, qarangizlar. Bo'lsa olib keta beringizlar.

Kal katta barmoqlarini o'ynatib, militsioner-larga imo qildi.

— Tintinglar! — dedi.

Militsioner bilakday xitoyi fonarlarini yoqdi. Molxona, otxonalarni qarab keldi.

— O'zi yo'q, tezagi bor ekan, — dedi.

Kal katta menga yuzlandi.

— Ana, tezagi bor deyapti-yu? — dedi.

— Men sizga aytsam, katta, eshikli uy, mehmonlarning oti tezak tashlagandir-da. Tashlama deb bo'lmaydi, mehmon ot.

— Familiyang nima? Xo'-o'sh, Qurbanov, ta-a-ak, Qurbanov Ziyodulla. Mana, ro'yxatda turbsan, oting bor. Gap shu, ertaga yana kelamiz. Otni topsang topding, topmasang, o'z o'pkang o'zing bilan bo'lsin!

Kal katta darvozaga qarab yurdi. Ketidan militsionerlar shaxdam odimlar otib jo'nadi. Raisimiz kattalar ketidan pildirab ergashdi.

Shunda, ichkaridan onamiz chiqib keldi.

— Ayt, ulgu berib ketsin, — dedi.

Kattalarga darvoza ostonasida yetib oldim.

— Katta, uyda chaqalog'imiz bor, otini Ibrohimboy deydilar.

Kal katta yelkasi bilan gapirdi:

— Nima qilay shunga?

— Chaqaloqli uyga bemahalda kelib bo'lmaydi. Mabodo birov bilmasdan kelib qolsa, undan ulgu olib qolish lozim.

— Qayerdan olasan?

— Bizga baribir. O'ngiringizning uchidan maydagina bir ip bo'lsa-da mayli. Ayollar chaqaloqli uyda ipni isiriqqa qo'shib tutatadilar.

— Endi, shungayam etagimni yirtaymi?

— Yo'q, yirtish darkor emas, katta. Kiymingizga ilashgan biron-bir qil bo'lsa-da bo'ladi.

Kal katta qo'l siltadi. Yo'liga burilib ketdi.

Men qaytib keldim.

— Ulgu bermadi, — dedim.

Onamiz qarg'ab-qarg'ab ichkariladi. Taypoq tobogda isiriq tutatdi. Chaqaloqli uyni uch aylan-tirdi. Ziyon-zahmatlarni quvdi.

34

Kattalar xo'jako'rsinga lalmi do'q urib ketdi, deb o'yadim.

Yo'q, ertasi kuni tag'in keldi.

Iskalanib-iskalanib otxonani qaradi, chaqaloqli uyni qaradi.

Kattalar qilig'i hamiyatimga tegdi. Tishimni tishimga zo'rg'a bosib turdim.

— Xo'sh, qani? — dedi kal katta.

— Nima qani?

— Ot!

— Ot? Katta, siz menga qaysi bozordan ot olib berib edingiz? Denovning bozoridanmi, yo, Sho'rchnining bozoridanmi?

— Tishingni ko'p g'ijirlatma, biz sendan qo'rqlaymiz! Yaxshilikcha otni chiqar! Qo'sha qo'sha mol, qo'y, tovuq, ot... buncha hayvonni nima qilasan? Ana, magazinda hamma narsa muhayyo. Go'sht deysanmi, sut, kefir deysanmi...

— Katta...

— Nima, yo, kapitalist bo'lmoqchimisan? Kechirib qo'ysan! Biz sotsialistik jamiyatda yashayapmiz! Hademay kommunizmda yashaymiz! To'g'rimi, o'rtoq rais?

Raisimiz labbaygo'y bo'ldi.

— To'g'ri, kommunizm sari bormoqdamiz! — dedi.

— Yo, ot minib bosmachi bo'lmoqchimisan? Kechirib qo'ysan! O'zi, ajdodingda bosmachi o'tmaganmi? Bir tekshirib ko'rish kerak...

— Katta, unday demang. Otam bechora Sovet tuzumini deb qurban bo'ldi. Otga kelsam, ot —

yigitning yo'ldoshi, katta. Qolabersa, ot bilan ko'pkari chopamiz.

— Iya-iya, sen o'zi qaysi jamiyatda yashayapsan, miya? Shu paytgacha eshakning qulog'iga tanbur chertyapmanmi? Ko'pkari — eskilik sərqitil! Ko'pkari — yovvoyilar o'yinil!

— Katta... o'zi, kal kalla — kalla emas ekan-dal Bir mening kallam shundaymikin desam, siznikiyam menikidan qolishmaydi!..

— O'chir-e...

— Katta, enamni so'kmang. U bechora ichkarda nevarasiga qarab o'tiribdi. Sizga bundayin beposhna gaplar ep bo'lmaydi.

— O'chir deyman-e...

— Esa, men ham sizning...

Gapim oxiriga yetmay qoldi. Kal katta quloch-kashlab jag'imga urdi. Qo'li ayolning qo'liday ekan, jag'im og'rimadi. Gapimni oxirigacha yetka-zib aytdim.

Shunda kal katta ketimga tepmoqchi bo'lib shaylandi. Men o'zimni chetga oldim. Chap berib qoldim.

Kal katta o'z shashti bilan, o'z zabti bilan supadan uchib ketdi. Chuqurga borib tushdi.

Raisimiz dovdirab qoldi.

— Eb-ey, eb-ey!.. — dedi.

Chuqurga sakrab tushdi. Kal kattani suyab olib chiqdi.

Kal katta hansirab-hansirab nafas oldi. Qo'li bilan meni ko'rsatdi.

— Ushlanglar, banditni ushlanglar! — dedi.

Ikki militsioner ikki yonimdan keldi. Qo'llarimni ketimga qayirdi. Ketimga bir tepdi. Kolxoz idorasiga olib bordi. Maydagina mashinaga bosib jo'nadi.

Yo'lda qusib-qusib bordim.

Birodarlar, benzin isini yomon ko'raman! Benzin boshimni aylantiradi. Ko'nglimni aynitadi, qustiradi. Osmondan tushganday bo'lib qolaman.

Rayonga keldim. Organ oldida mashinadan

tushdim. Kal katta ketidan chap tarafdag'i oynavand xonaga kirdim.

Telefon oldida o'tirgan militsionerlar o'rnidan turdi. Kal katta militsionerlarga kiyimlarini ko'rsatdi, dardini aytди.

— Hamkasblarning bilan davlatga go'sht olish uchun borib edik, — dedi. — Mana bu tipga otni ber, desam bermadi. Meni tutib so'kdi. Onam ham qolmadi, xotinim ham qolmadi. Keyin, bir urib chuqurga ag'anatib yubordi. Mana fakt — ustboshim loy! Hamkasblaring jonli guvoh! Ana, rais ham bor. To'g'rimi, rais?

— To'g'ril To'g'ril Chuqurga yumalatib yubordil — ma'qulladi rais. Bir militsioner so'kinib, oldimga keldi.

— Uh, hayvon, uh bandit! Sen hali rahbarlarga qo'l ko'taradigan bo'ldingmi? — dedi.

Militsioner ichimga urdi. Men ichimni ushlab, boshim bilan devorga suyandim. Ko'nglim ozdi, ko'z oldim qorong'i bo'ldi. Odamlar goh uchta, goh to'rtta bo'lib ko'rindi... Xona bir yumalab, yana joyiga keldi.

Militsioner kal katta oldiga qog'oz qo'ydi.

— Mana, raport yozib, boshliqqa olib kiring. Buni bir tiqib qo'yaylik, ko'zi ochiladi.

Kal katta qog'ozni to'lg'azib, olib ketdi. Xiyol o'tib, yana qaytib keldi.

— Tush oldimga! — dedi.

Men oldiga tushdim. Tor yo'lakdan hovliga chiqdim. Keyin yana bir xonaga kirdim.

Xona to'rida baqaloqli bir odam o'tiribdi. O'tirishidan katta odam ko'rindi. Yelkasidagi yulduzlari-da katta-katta bo'ldi.

Kal katta qo'li bilan meni ko'rsatdi.

— Mana bandit! — dedi.

To'rdagi katta vazmin ovozda so'radi:

— Nega rahbarlarni urasiz, o'rtoq Qurbonov?

Men bor gapni qo'shib-chatmay aytib berdim. To'rdagi katta endi nima deysiz, degan bo'lib, kal kattaga qaradi. Kal katta o'rnidan turib ketdi.

— Yolg'on! U o'zini oqlayapti! Biz rahbarlarga ishonasizmi, yo, mana shunga o'xshagan podachiga ishonasizmi?

— Albatta rahbarlarga ishonaman. Rahbarlar yolg'on gapirmaydi.

— Bo'pti-dal!

O'pkam to'lib-to'lib keldi. Dimog'imda ming'irladim:

— Katta bova, meni melisalarlingiz urdi...

— Nima-nima? Urdi?

— Eshik oldida urdi. Hushdan ketib qoldim....

— Unday bo'lishi mumkin emas, hozir chaqiramiz.

Ostonada ichimga urgan militsioner qora berdi. Qo'lini chekkasiga tekkizib g'o'daydi.

— Buyrug'ingizga binoan keldim, o'rtoq polkovnik! — dedi.

— Leytenant Ismatov, ayting-chi, nega bu kishini urdingiz?

— Kimni? Qo'limniyam tekkizganim yo'q, o'rtoq polkovnik!

— Urdi deyapti-ku.

— Sof leytenantlik so'zim, qo'l ko'targanim yo'q! Ana, serjant Xalilov ham bor, chaqirib so'rashingiz mumkin.

O'ng qo'limni qornimga qo'yib ko'rsatdim.

— Manavi yerimga urdi... — dedim.

Shunda kal katta gapga suqildi.

— Qo'limniyam tekkizgani yo'q, o'zim ustida edim! — dedi.

To'r dagi katta menga yuzlandi.

— Ana, eshitdingizmi, o'rtoq Qurbonov? — dedi. — Biz urmaymiz! Sovet militsiyasi urmaydi!

Birov ichkariladi.

— Kal, qayerdasan? — dedi.

Ichimga urmish militsioner ovozini darrov tani-dim.

Joyimdan turdim. Darvoza taraf yurdim.

Militsioner yoqamdan bir qo'llab ushladi. Bir-ikki silkiladi.

— Nimaga meni boshliqqa sotding? — dedi.

— Sotmadim, birodar, bor-yo'g'i urganingizni aytdim, — dedim.

— Urdim? Qachon urdim?

Militsioner chotlarim oralatib tepdi.

— Men urdimmi?

Militsioner sozlab tepdi.

— Seni urdimmi?

Militsioner yomon tepdi!

— Men-a? Seni-ya?..

Chotlarim uyushib-uyushib og'ridi. Achishib-achishib og'ridi.

Ketim bilan shilq etib tushdim...

Tong-saharlab badrabxona tozaladim. Hovli supurdim. Ko'cha supurdim.

Onamiz bilan ayolimiz xo'rak olib keldi.

Onamiz yig'lab-yig'lab hol so'radi.

Ayolimiz kuyib-kuyib ko'ngil so'radi.

Onamiz bilan ayolimiz biri qo'yib biri qarg'adi:

— Senlar mening bolaginamni oyoqosti qilgan bo'lsang, sen shapkalarни xudoyim xudovando oyoqosti qilsin!

— Xudoyim xudovando, bolaginangning o'lganini ko'r, sendaychikin shapkalar!

— Xudoyo, shu otlar bilan qo'shilib, o'zing ham go'sht bo'lib ket, sendaychikin shapkalar!

— Xudoyo, qirg'inning oldida qirilib ket, sendaychikin shapkalar!

— Ilohi omin, xudo bandam desa, Muhammad payg'ambar ummatim desa, shul shapkalar elga ermak, xalqqa shaloq bo'lsin, ollohu akbar!

Onamiz bilan ayolimizga Tarlonni aytmadim.

Ayol zoti og'zi bo'sh bo'ladi. Birov-yarimga aytib qo'yadi.

Qolabersa, Tarlonni yolg'iz o'zimga o'rgatib edim. Shu bois, Tarlon mendan o'zgani o'ziga yo'latmaydi. O'zgalar qo'lidan yem-da yemaydi.

36

Rosa o'n kunda ozod bo'ldim.

Yo'lda ko'nglimga hadik tushdi. Hadik tanam-ga-da yoyildi.

Uyim qolib, Obshirga yo'l oldim.

Adirga o'rладим. Kamar oldida serryib qoldim. Ketimga chalqaydim. Ko'kragim otilib ketadigan-day bo'ldi.

Kamarda... kamarda to'rt tayoq ustida bir nima turdi. Joni bormi, yo'qmi, bilib bo'lindi. Ikkita nima yiltiradi. Ko'zlar bo'ldimikin?

Ichkari kirdim. Tarlon bo'yniga osilib-osilib yig'ladim. To'yib-to'yib yig'ladim...

Tarlonni kamardan olib chiqdim. Adirdan pastga yetakladim. Tarlon ohista-ohista pastladi. Pastlayotib, old oyoqlari bukildi. Yig'ilib ketayin-yiqilib ketayin, dedi.

Ariqdan sag'al suvladim. Ariq yoqalatib yetakladim. Oyoqlarini yozdim. Qashilab yuvdim. Yana suvladim.

Kamarga qaytarib olib keldim. Burchakda tur-gan qopdan to'rvada yem olib kelib osdim.

Tarlon jonlanganday bo'ldi.

37

Birodarlar, necha-necha qorabayirlar ketiga qarab-qarab ketdi.

Necha-necha jayronlar kishnab-kishnab ketdi.

Necha-necha samanlar go'sht bo'lib ketdi!

Qishloqda otlar kishnamay qoldi.

Saharlari ko'chalarda ot tuyoqlari tikillamay qoldi.

Oqshomlari otlar tarsillatib yer tepinmay qoldi.
Adirlarda otlar dupur-dupur chopmay qoldi...
Chavandozlar chemakdoshi urushdan qaytma-
gan bo'zbola misol mung'ayib qoldi.
Kelinlar otda emas, mashinada keladigan bo'ldi.
Olamni mashina ovozi buzdi: dut-dut-dut...
Qishloqda ot nomi o'chdi.

38

Ora sovidi. Qishloq tinchidi.
Ana shunda Tarlonni uyga olib keldim.
Chavandozlar beliga pul o'rab, Oboqliga yo'l
oldi. Oboqlidan ot olib keldi.
Ot bilan ajab gaplarni-da topib keldi.
Go'shtga ot olish ko'pga kelgan to'y emas
emish. Oboqli taraflarda otlar bus-butun emish,
tus-tugal emish...

39

Bu gap qishloqdagi besh-olti arizaboz qulog'iga
yetdi.
Arizabozlar qulog'i ding bo'ldi. Arizabozlar
kechalari uyma-uy yurdi, ariza to'pladi.
Bir kecha biznikiga keldi. Arizabozlar sultonni
bo'lmish Botir mirob sirli ovozda tayinladi:
— Darvoza ichkaridan tambalansin. Hovli chir-
rog'i o'chirilsin. Bola-chaqa bu uyga yaqin yo'latil-
masin. Ichkari eshik zichlab yopilsin. Deraza
pardalari tushirilsin. So'ng, qarshimizga kelib
o'tirilsin!
Botir mirob aytganlarini bajarib keldim. Dav-
raga qo'shilib o'tirdim.
Arizabozlar boshimdan kechgan savdoni gapirib
berishimni so'radi.
Men sir bermadim, talmovsiradim. Boisi,
o'shanda o'n kun yotganim elga doston bo'ldi. El
orasida yuruvsiz bo'ldim. Mana, dostonim deyarli
unut bo'ldi. Ko'ngilsiz dostonimni yana qo'zg'agim
kelmadi.

— Botir aka, bo'lgan ish bo'ldi, buyog'i sindi.
Qo'ying, shu arizabozlikni, — dedim.

— Iya-iyal Hey, og'izga qarab gapirilsin! Kim arizaboz? Bizmi? Biz yozuvchimiz, bilib qo'y, yozuvchil Xalq yo'lidagi, haqiqat yo'lidagi yozuvchilarimiz! Anavi g'azal, roman... yozuvchilar yana nima yozadi, o'rtoq Hamidov?

Qabatidagi adabiyot muallimi o'z ulushini qo'shdii:

— Poema, ballada...

— Ha-ha! Poema, ballada yozuvchilaring yozuvchi emas, biz yozuvchi! Mana, biz! Yozuvchilaringning asarlarida fakt yo'q, adres yo'q! Masalan, mana o'zimizning Tog'ay! Bo'ri bechoranning o'g'li! O'lishni kitob qilib yozdi. Endi ko'pkariniyam kitob qilayotgan emish. Yozishga yozdi, lekin tekshirtirmadi, chora ko'rdirmadi. Xalqqa nafi tegmadi. Xalq yozuvchilarining kitobini pul sarf qilib oladi. Vaqtini isrof qilib, erinmay o'qiydi. Keyin... qayg'uli asarni nima deydi, o'rtoq Hamidov? Ha-ha, tragediya! Tragediya bo'lsa ta'sirlanib yig'laydi. Agar... o'rtoq Hamidov? Vovo-vo, satirk bo'lsa, qah-qah urib kuladi. Bari quruq safsata! Xalqning biron-bir ishini bitkazib bermaydi. Xalqning kam-ko'sti esa achib yotibdi. Xalqqa kim amaliy yordam beradi? Biz! Demak, asl yozuvchi biz! To'g'ri, yozganlarimizni kitob qilib chiqarmaymiz. Asarlarimiz turli idoralarda qolib ketadi. Lekin kitob qilib chiqaramiz desak, chiqaramiz. Ana, sandiqda yuzlab shikoyat asarlarimiz nusxasi taxlanib yotibdi. Ikkinchchi marta og'izdan arizaboz degan gap chiqarilmasin, ha!

— Tavba qildim aka, tavba qildim.

— Shunday bo'lsin! Endi gapirilsin. Boshidan boshlansin.

— Shu, bir kechasi mendan beshbattar iyig'i chiqqan bir kal keldi. Yonida ikkita shapka-dabor...

— Menga qaralsin, nima, dunyoning ishi ko'p-

karimi? Kal deyilmasin! O'rtoq Falonchiyev deb aytilsin! Shapkang kim? Militsioner? Menga qaral-sin, shapka inson emas! Shapka — lattal Shapka — karton qog'oz! Shapkani javobgarlikka tortib bo'lmaydi! Leytenant Falonchiyev, serjant Falonchiyev deb aytilsin!

— Xo'p. Oy hamsoyamiz Qulmat polvonning teraklari uchiga osilib qolgan-da...

— Uf-f, mabodo shoir-poir emasmisan? Bo'lmasa nega oydan, yulduzdan gapirasan? Oydan pastga tushilsin! Yerdan gapirilsin! Lirika suvga borib aytilsin! Bizning ishimiz jiddiy, xalq ahamiyatiga molik ish! Sudlarda qatnashilganmi? Yo'q? Unda, kolxoz hisobot majlisida kaminaning nutq so'zlagani ko'rilganmi? Ana, kamina majlisda qanday gapirgan bo'lsa, ana shunday gapirilsin!

Botir mirobning kolxoz umumiy majlisida gapirishini yodladim. Xuddi mirobdai qo'llarimni qornimga qovushtirdim. Boshimni tik tutdim. Kiprik qoqmadim. Dona-dona qilib aytib berdim.

Mirob oldimga qog'oz bilan qalam qo'ydi.

— Endi qanday aytilgan bo'lsa shunday yozilsin. Nimaga? Beshinchi sinf? Ma'lumoting mendan bir sinf yuqqori bo'laturib yozolmaysanmi? Ha, mayli. O'rtoq Hamidov, siz yozing, bu kishi qo'l qo'yib beradi.

Birodarlar, arizabozlardan Denov qolmadi, Termiz qolmadi, Toshkent qolmadi. Idorama-idora chopdi.

Arizaboz degani ajabtovur el bo'ldi. Bo'lmasa, arizabozlarning otini olmadi. Arizabozlarga yel-yugur, deb, birov bir chaqa bermadi. Arizabozlar o'zlarini yonidan o'zlarini chopdi.

40

Bir safargisida meni-da ergashtirib jo'nadi.

— Boshingdan o'tgan savdoni o'z tiling bilan o'zing aytib berasan, — dedi.

— O'zi, qayerga borayapmiz? — dedim.

Botir mirob shahodat barmog'ini labiga bosdi.

— Tish-sh-sh! — dedi.

Arizabozlarga ergashdim. Dushanbega yo'l oldim. Yo'lda avtobus derazasidan ikki marta quşdim.

Dushanbedan Moskvaga uchdim.

Urimda birinchi marta samolyotda uchdim. Qani, ko'rayin, qani, samolyot degan ulov qanday-chikin ekan, dedim.

Samolyot bir pasaydi, bir ko'tarildi. Yuragim tovonimga tushib ketganday bo'ldi.

Keyin, joyida turib qoldi. Nag'masi ko'p bo'ldi. Odamning yuragini yordi. Ulov bo'lsang, sidirg'a yur, ukkag'arning samolyoti, dedim.

Samolyotdan ko'nglim qoldi. Ulovligi yo'q ekan, ha, demadim.

Samolyot derazasidan qarab hayron bo'ldim. Shundaygina ostimizda paxta uyulib yotibdil Samolyot tegayin-tegayin deydi.

Qabatimdag'i Hamidov muallimga yuzlandim.

— Eh-he, paxtani qarang, paxtani! — dedim.

Hamidov qaradi. Keyin, ketiga chalqayib kuldil Telpagimni yulib oldi. Taqir kallamga shapatiladil Kallamga shapatilab-shapatilab kuldil.

Kallamni yelkalarim orasiga oldim. Kaftim bilan bekitdim. Telpagimni tortib olib kiydim. Tag'in derazadan qaradim. Ana endi bildim. Ko'rinyotgan paxta emas, oppoq bulutlar bo'ldi.

Moskvada tushdim, arizabozlar ketidan ergashdim.

Moskvada nima ko'p, mashina ko'p bo'ldi. Bitta-da ot bo'lmadil

Avtobusda yurdim-yurdim, bir joyga keldim. Yo'l chetida turdim, o'tkinchi-ketkinchi mashinalarga qo'l ko'tardim. G'uj-g'uj mashinalardan birovi-da to'xtamadi. Ko'taraberib, qo'llarim char-chadi. Turaberib, oyoqlarim toldi. Qornim qur-qur qildi. Toqatim toq bo'ldi.

Shunda uzun bir mashina jiring-jiring etib

kelaberdi. Tezlab kelayapti-da, deb bo'lmaydi, ohistalab kelayapti-da deb bo'lmaydi. Yaqin kelib, yanada ohistaladi. Farosat qildim, qo'l ko'tarsam, to'xtaydigan ko'ngli bor.

— Ay, Hamidov muallim, bu qanday mashina bo'ldi? — dedim.

— Tramvay, — dedi muallim.

— Ko'cha yuzida simyog'ochday bo'lib turamizmi? Ana shu tramvayni kira qilamiz! Xarajati mendan! — dedim.

Hamidov muallim kului.

— Tramvay qimmat, — dedi.

— Qimmat bo'lsa bo'lari Ketsa, bir qo'yning puli ketar! — dedim.

— Unda, o'zingiz kira qiling.

Chopqillab bordim. Tramvay oldini oldim. O'ng qo'limni boshim uzra ko'tardim.

— Ay, tramvay, ostanovka! — dedim.

Tramvay jiring-jiring etib oyoq ildi. Tramvaychi derazadan qaradi. Menga iyak qoqdi. Ha, nima deysan, degan bo'ldi.

Men o'ng qo'limni olg'a sermadim.

— To'g'riga! — dedim. — Aytgan pulingni beramiz! — dedim.

Tramvaychi bosh-adog'imga qaradi-qaradi-da, bosh irg'adi. Mayli, degan bo'ldi. Boshmoldog'i bilan tramvay eshigiga ishora berdi.

— Ayda! — dedi.

Shunda eshik taraq etib ochildi. Men lip etib tramvayga minib oldim. Ketimdan arizabozlar mindi.

Arizabozlarga havolanib-havolanib qaradim.

— Ana, bir og'iz gap! — dedim.

— Ha, kuchingdan, Ziyodulla kall! — dedi Botir mirob.

Tramvay bir yurdi, bir to'xtadi. Chayqalib-chayqalib xiyla yurdi.

Bir joyda Hamidov muallim:

— Hozir tushamiz! — dedi.

Birinchi bo'lib men tushdim. Tramvay kira

qilishga qildim, endi kira haqini to'layin, deya qo'ynimni kovladim.

Shunda Botir mirob:

- Men to'ladi, — dedi.
- Ha-a, binoyi, — dedim.

Shu, Botir mirob ko'pga tushib ketdiyov. To'rt odamga kira haqi to'lashning o'zi bo'ladimi. Tushsa tusharl Nima, mirobga meni ergashtirib kel, dedimmil Ergashtirib keldimi, to'lasin-da!

Arizabozlar katta bir idoraga kirib ketdi. Men ostonadagi qorovul oldida qoldim. Arizabozlar o'r-gatgan gaplarni ichimda bot-bot qaytarib o'tirdim.

Nihoyat, arizabozlar chiqib keldi. Kattalar meni yo'qlamabdi. Arizabozlar gapiga ishonibdi. Yaxshi bo'libdi. Tag'in kattalar salobati bosib, duduqlanib qolamanmi, deya qo'rqib edim.

41

Ertasi kuni Dushanbega uchdim. O'tirganlar shahodat barmog'ini likillatib, o'rtada laylakqushday lo'killab yurgan qizni imladi. Qiz ularga mayda idishda suv olib keldi.

Mening boshqalardan qayerim kam? Kallam kal bo'lgan bilan, telpakning ostida ko'rinnmaydi.

Dadil bo'ldim, o'zimni bir sinab ko'rmoqchi bo'ldim. Shahodat barmog'imni likillatib, qizni imladim. Suv, deya og'zimni ko'rsatdim. Qiz bosh irg'adi, suv olib keldi. Suvni bir yutishda yo'qotdim. Boshqalarday bosh irg'adim.

— O'lman! — dedim. — Katta qiz bo'ling.

Ko'kragimni kerdim, baqalog'imni shishirib o'tirdim.

Oynadan pastga qaradim. Past o'zimizning Vaxshivorsoyga kelbat berib ketdi. Qator-qator uylarni ko'rdim. Mayda-mayda qoralarni ko'rdim. Hamidov muallimga, shu bizning qo'ylarmikin, degim keldi. Tag'in kallamga shapatilashidan qo'rqedim. Gapimni ichimga yutdim.

Samolyot Dushanbeda gurs etib tushdi.

Taksida qishloqqa keldim.

Men qayerga borib keldim? Odamlar buni biladimi? Ana shuni odamlarga bildirgim keldi. Qayerga bordim, qayerda bo'ldim, barini aytib, maqtangim keldi. Uyga bormadim. Katta ko'chada ohista-ohista vazmin-vazmin qadamlar bosib yurdim. Odamlarga quyuq-quyuq salomlar berdim. Dush kelgan odam bilan qalin-qalin so'rashdim. Qozontobog'igacha qoldirmay so'radi!

El og'ziga mahtal bo'lib qaradim. El, ko'rinxmay ketdingiz, Ziyodulla chavandoz, deya so'ramadi!

Ko'chani tag'in bir aylanib keldim. El aqalli, kamnamosiz, Ziyodulla kal, demadi! Uch kun-a, uch kun qishloqda bo'lmadim! Yaxshimi-yomonmi, shu elning molini boqayapman. Odamning qadriyam shunday bo'ladimi. Qadrimga kuydim. Ay, qadrim-a, bechora qadrim-a!

Eldan xafa bo'lib, uyga keldim. Choy ichib, yonboshladim. O'ngimga ag'darildim — bo'ljadi, chapimga ag'darildim — tag'in bo'ljadi! Tars yorilib ketguday bo'ldim!

Moskvada yo'l-yo'lakay bir kilocha qand-qurs olib edim. Bola-chaqa qo'limga qaraydi, dedim-da.

Ana shundan bir siqimini qo'ynimga soldim. Tarlonni minib, Mamat oshnamiznikiga yo'l oldim. Devordan bo'ylab ovoz berdim.

— Mamat! Mamat uydami, kelin? Uyg'ot, gap bor! — dedim.

Mamat ichkaridan uyquli ko'zlarini uqalab-uqalab keldi.

Men, tevarakdag'i hamsoya-qo'llar eshitsin uchun, ovozimni qo'yib gapirdim:

— Yaxshiman, dimog'ing chog'mi? Ma, manavi qandni neveralarimga bo'lib ber, yesin! Mozor bosib kelgan-da, tabarruk!

— Qayerlardan so'raymiz?

— Moskva!!!

— «Moskva» kolxzozimi?

— Kolxoz? Qanday kolxoz? Sen o'zi, meni kim deb o'ylayapsan? Men uncha-muncha joylarga bor-mayman! Borsam, faqat Moskva shahri azimlarga boraman, ha! Faqat Moskvall!. Juda past ketsam, Dushanbelarga shunchaki, yo'l-yo'lakay oyoq ilib o'taman! Menga qara, kun qiyom vaqt-i-qiyom vaqt-i uyingning ustidan bir samolyot uchib o'tdimi? Qanotlarida parragi-da bor?

Mamat sergak tortdi. Osmonga bir qarab oldi.

— Uchib o'tganday bo'ldi, nima edi?

— O'lma! Men senga bir narsa aytayinmi? Shu samolyotning ichida men bor edim!

— Ha, kuchingdan!

— O'ng yog'ida o'tirib uchdim! Parrakning shunday yonida, ha!

— Vo ukkag'ar, Gagarin bo'l-ey!

— Kim? Eb-ey, Gagarining kim bo'ptil Osmonga lip etib uchgan-da, qaytib tushgan. Men to'rt osh pishirimdan-da ko'p uchdim!

— Eh-e-e! Yoril-e, bachchag'ar-e, yoril-e!

— Ko'rib turibsan, chakana odam emasman!

Endi men bilan o'ylab gapirish!

— Bo'ldi, bo'ldi, taraf yo'q.

— Yana bir gap. Samolyot osmonda varrakka o'xshagan bilan mayda emas ekan, ha! Ichi Obshirning kamariday keladi!

— Kir uyga, choy ichamiz.

— Yo'q, ishim zaril. Shunday o'tayotib, bir hol-ahvol so'rashib ketayin dedim...

Jilovni bo'shatdim. Tarlon yo'l oldi.

Birodarlar, parday yengil bo'ldim!

43

Birodarlar, Moskvadan odam kelibdi. Shlyapasi bor emish!

Shlyapali odam rayon kattalarini yig'ibdi. Kal kattani o'rtaga olibdi. Ana shunda masala oydin bo'libdi.

Oydin bo'lishicha, hukumat, hamma o'z imko-

niyatiga yarasha go'sht topshirsin, debdi. Buyruq rayonga kelibdi. Rayon kattalari kal kattani bizga vakil etib yuboribdi.

Kal katta bir zina yuqori o'smoqchi bo'libdi. O'sish uchun go'sht topshirishdan foydalanmoqchi bo'libdi. Qaysi yo'l bilan bo'lsa-da, go'sht topshirishni muddatidan oldin, oshirib bajarib, kattalarga yaxshi ko'rinoqchi bo'libdi, yelkasiga qoqtirmoqchi bo'libdi. Shu yo'l bilan ko'zlagan amaliga minmoqchi bo'libdi.

Birodarlar, bir kalning hiylasi — qirq kishini charchatadil!

Kal katta o'z niyatiga elni talab erishmoqchi bo'libdi, elni xo'rlab erishmoqchi bo'libdi.

Shlyapali katta kal kattani urishib-urishib, amalidan olibdi. Partiyadan o'chirmoqchi bo'libdi.

Shunda, kal katta ho'ng-ho'ng yig'lab qo'ya beribdi. Shafqat qilibdi.

— Erkak odamning yig'lagani — o'lgani, — debdi.

Birodarlar, haq saqlasa balo yo'q, haq qarg'asa davo yo'q!

Ayni kunlarda kal katta choyxonada yonboshlab yotar emish.

— Haqiqat yo'q, bu dunyoda haqiqat yo'q... — der emish.

Birodarlar, o'zing yaxshi — olam yaxshi, o'zing yomon — olam yomon!

Choynagidagi choyi oq emish! O'zi quyib, o'zi ichar emish.

Elga ermak, xalqqa shaloq emish!

44

Birodarlar, shukur-shukur, arizabozlarning boriga shukur!

Arizabozlar nohaqlikka yo'l qo'ymaydi. Harom-tomoqlarga kun bermaydi. Elning haqini birovga yedirmaydi.

Arizabozlar bo'lmasa, kattalar biz avom elni

**bozorda sotib yeydi! Arizabozlar bo'lmasa, kattalar
biz avom el og'zidagi oshni yulib oladi!**

Arizabozlarga mehrim tushib qoldi!

**Bozor oqshomi barcha arizabozlarni uyimga
aytib keldim. Boqib yotgan bir qo'yimni so'yib
berdim.**

45

**Qishloq tag'in otlarga to'ldi.
Chavandozlar otlarini boylovga tashladi.
Tarltonni-da boylab boqdim.**

46

**Qarluqda to'y bo'ldi.
Shu to'yga yo'l oldim. Yo'lda Tarlon tezak tash-
lab-tashlab bordi. Ajabo, bundaychikin qilig'i yo'q
edi...**

**Bir muallimnikiga tushdim. Qoziqni molxona
yoniga qoqdim.**

**Tarlon quloqlari shalipaydi. Boshi egildi. Devor
kavagiga munis termilib qoldi. Yem yemadi.
Irimiga labini-da tegizmadi.**

**Ko'nglim hadiksiradi. Tomog'imdan tuz
o'tmadi. Tarlondan ko'z uzmadim.**

**Uzangi yo'ldoshlarim-da oromini yo'qotdi.
Qarluqda otni zo'r biladigan bir sinchi chol bo'ldi.
Ana shu cholni aytib keldi.**

**Chol Tarlonni aylanib ko'rdi. Enkayib, ko'zlariga
qarab ko'rdi. O'zicha, bosh irg'adi. Keyin, tir-
sagimdan ushladi. Meni mehmonxonaga
ergashtirib bordi. Yelkamga qo'lini qo'ydi.**

**— Menga qara, el chavandozi, — dedi. — Shu
otni menga sotmaysanmi? Yigirma qo'y beraman.
Gapning erkagini ayt.**

**Zardam qaynadi. Men nima g'amda-yu, chol
nima g'amda!**

**— Bova, — dedim, — erta birov aytgan ekan,
men o'z g'amim bilan, mulla mening... deb! O'zi
nima gap, avval aytin-da!**

Chol mujmaltob bo'ldi.

— Sen bo'larini ayt, el chavandozi. Keyin men aytaman, — dedi.

— Yo'q! Qiyomatda-da sotmayman! Bo'ldimi?

— Ha, mayli. Unda eshit, el chavandozi. Oting, zo'r ot. Ko'rgandan besh ketdim. Adashmasam, yaqinda og'ir bir dardni boshidan kechirgan deyman-ov!

Tarlon kamarda o'n kun och yotdi, ana shu xayolimdan o'tdi. Ammo cholga sir bermadim.

— Ha, dardga chalinib edi. Keyin, forig' bo'lib edi.

Chol mahobat qildi.

— Bali, el chavandozi, — dedi. — Ot hozir shuni eslayapti, ertaga bo'ladigan ko'pkarini o'layapti. Darddan avvalgiday chopolamanmi, yo'qmi, degan g'am otni o'yga solayapti. Men buni ko'zlaridan bildim. Meniyam aytdi dersan, el chavandozi.

Chol ketdi.

Men bemahalgacha gurunglashib o'tirdim. Tarlonning qayg'usi ko'nglimdan ko'tarilmadi. Qayg'u yuzimga-da urdi shekilli, uy xo'jasni ko'nglimni ko'tardi.

— Ko'p qayg'ura bermang, chol sinchi, bilong'ich, — dedi. Keyin, chol kimligini aytib berdi.

Emishki, otlar bir yilda bir marta kavsh qaytaradi. Ot kavsh qaytarganda yonadi! Badanlari tovlanadi, ko'zni qamashtiradi! Ayniqsa, ko'zlar porlab yonadi! Ot — dev-dal Ot kavsh qaytarishi horiquodda* yerda, horiquodda vaqtida kechadi. Ko'z ochib, ko'z yumguncha bo'lib o'tadil! Ot kavsh qaytarishini ko'rgan odam, yo telbanamo bo'ladi, yo sho'rpeshona bo'ladi, yo baxtli, yo dono, yo nuktadon bo'ladi!

Emishki, chol ot kavsh qaytarganini ko'rgan emish...

* *horiquodda* kutilmaganda.

Ko'pkari ekinsiz qisirpoyada bo'lди.

Men Tarlonni qizitdim. Qisirpoyani aylantirib chopdim. Tarlon xiyol o'zgardi. Boshini tik tutdi, dirk-dirk o'ynadi. Suvlig'ini shiqirlatib-shiqirlatib chaynadi. Tarlon to'daga talpindi, Tarlon meni uloqqa chorladil.

Ayni qishning ilk ko'pkarisi-da, ot mo'l yig'ildi.

Demak, ko'pkari yaxshi bo'ladi. Boisi, oz otli ko'pkarida yerdan uloq olish mushkul bo'ladi. Sababi, bari ot o'zini zo'r deb biladi. Oqibat, yop-pasiga uloqqa yopishadi. Talashib-tortishadi. Uloqni na o'zi oladi, na birovga beradi. Bir-biriga xalaqit beradi, bir-biriga ziyon beradi. Talashib yota beradi.

Ot mo'l bo'lsa, aksincha bo'ladi. Bunda zo'rlar zo'ri, otlar oti uloqqa talpinadi. Bundayroq otlar to'da chetida tomoshago'y bo'ladi. Bordi-yu, uloq-qa intilsa, to'dadagi o'zr otlar yo'l bermaydi, ketiga surib yuboradi.

Shu boisdan mo'l otli ko'pkarida to'dadan uloq olib chiqish oson bo'ladi.

Uloq keldi.

Tarlonni gijinglatib-gijinglatib bordim. Uloqni iskatib-iskatib oldim. Uloq butidan ko'tarib-ko'tarib ko'rdim. Uloq bir tana bo'lди. Ellik-olt-mish kilolar keldi. Uloq jiqqa ho'l bo'lди. Boisi, kechasi bilan suvg'a pishib qo'yilgan bo'lди. Buning nafi — uloq zilday og'ir bo'lди. Ana endi torta-torta uloq terisi ayrilmaydi, bo'lak-bo'lak bo'lib ketmaydi. Bo'lmasa, torta-torta uloq butun qoladimi?

Bakovul zotlarni aytди:

— Bir juft kalish, o'n so'm puli bor! Ol!

To'da uloqqa talpindi. Uloqni bir jiyyron olib chiqib ketdi.

Keyingi zot qo'yildi:

— Bunisida bir qo'y, bir to'n, o'n so'm puli bor!
Zot kattardi, armonda qolma!

Tarlonni uloqqa soldim. Tarlon pishqirib-pishqirib qimtinadi. Uloqqa men o'ylagan, men xohlagandan-da vaqtliroq, osonroq bordi. Odaticha uloqni bir aylandi. Uloq boshida oyoq ildi.

Bir chavandoz Tarlon o'ktamligidan g'ashlandi.
Tarlon sag'risiga qamchi urdi.

Tarlon bir seskandi. Lekin joyidan qimirlamadi.
Ikki ko'zi uloqda bo'ldi.

Men uloqqa teskari yoqdagi tovonimni uzangidan olmay, egar korsoniga ildirdim. Uloq taraf uzangidagi oyog'imni bukdim. Tizzamni Tarlon biqiniga bosdim.

Tarlon menga kift berdi, kift!

Men enkaydim, uloqni bir qo'llab ushladim. Qomatimni ko'tarayotib, bukilgan oyog'imni uzangiga tik tiradim. Bor qiyinchilik, shu oyog'imga tushdi. Busiz uloqni ko'tarib bo'lmaydi.

Shunda, bir mug'ambir ot uloqni tuyoqlari bilan bosib qoldi.

Men tag'in uloq butidan ushladim. Tag'in ot tizzasi baravar ko'tardim.

Tarlon uloqqa qarab-qarab olg'a yurdi.

Uloqni atayin yerda sudrab bordim. Birdan ko'tarsam bo'lmaydi, poylab turganlar yopishadi.

— Uloq ko'tarilayapti, uloq ko'tarilayapti!

Sag'al ochiqqa keldim. Uloqni dast ko'tarishga shaylandim.

— Uloq Tarlonda ketayapti, Tarlonda!

Uloqni zarb bilan ko'tarib oldim. Ko'tarayot-ganimda Tarlon sozlab bir silkindi. Madad berdi, ko'tarishib yubordi!

Tarlon bilan olg'a chopdim. Otlar keyinda qolib ketdi. Ammo bir to'riq qolmadi. Chavandozi uloq butidan ushlab, biz bilan baravar chopdi.

— Yo'q, uloq Tarlon bilan To'riqda ketayapti!
Uloq Tarlon bilan To'riqda!

Uloqni taqimimga bosib oldim. Yonimga chal-qaydim. Jilovni qo'yib yubordim. Uloqni qo'sh-qo'llab ushlab oldim.

Ko'p otlar avval-avval asta-asta chopadi. Keyin-keyin tezlab chopadi.

Bizning Tarlon bo'lsa turgan joyidan zabit oladi. Birinchi qadamidanoq shiddat bilan, birdan otilib chopadi. O'zga otlar bundayin zabitli shiddatga hozirlanmagan bo'ladi. Oqibat, o'zga otlar o'zlarini o'nglab olgunlaricha, Tarlon o'zib ketadi. Hozirda shunday bo'ldi.

Tarlonda yana bir fazilat bor. Bordi-yu, biror bir ot yetib olsa, Tarlon shu ot bilan baravar chopadi. O'zib-da ketmaydi, keyin-da qolib-da ketmaydi. Go'yo, oxirgi holi shunday, bir me'yorda chopadi. Qabatidagi ot shu me'yorga ko'nikadi. Baravar chopib borayotgani bilan qanoatlanadi. Shunda, Tarlon birdan zabit oladi, shiddat oladi! Bunday bo'lishini xayoliga-da keltirmagan qabatidagi ot keyinda qolib ketadi.

Ayni shu vaziyatda chopayapmiz! Mendan Tarlon uchun bir so'z kifoya bo'ldi.

— Ha-al

Tarlon, tarlonligini qildi, horiqulodda yulqindi, zabitini birdan oshirdi.

Qabatida kelayotgan to'riq chavandozning qo'li uloqdan uzildi. To'riq keyinda qolib ketdi.

Men jo'shib ketdim:

— Hu-u-uy, hu-u-uy, hu-u-uy!..

Tarlon yulduz uchganday chopdil

— Halo-o-ol. Tarlonniki halol! Tashla, Tarlon, tashla!

Ellik-oitmish kilolik uloqni yerdan qanday qilib ko'tarib oldim? Belim barobar devorda o'tirib, ellik kilo yukni yerdan bir qo'llab ko'tarib ololmayman. Ellik kilo yukni qo'shqo'llab ko'tarib, otga kuchana-kuchana ortaman. Ko'pkarida bo'lsa, otda enkayib, ellik kilo uloqni bir qo'llab ko'tarib ola-man! Buning siri nimada?

Birodarlar, otning shamoli bor! Uloqni ana shu shamol olib ketadi! E'tibor etgan bo'lsangiz, ot uloqdan ko'z uzmadi! Ot menga kift berdi! Atayin, men uchun qulaylik yaratdi! Uloqni ko'tarayotganimda esa, yelkasiga yuk olayotgan odamdayin bir silkindi! Ana shunda men uloqni yerga tashlab yubormasam bo'ldi, birovga berib yubormasam bo'ldi. Chavandozligimni qilsam bo'ldi! Ot — otligini qiladi!

Bilayapsiz, ko'pkarining sakson-to'qson foizi ot bo'ynida bo'layapti. Shu boisdan-da ko'pkarida chavandoz emas, ot nomi aytildi! Ko'pkari boshidan-adog'igacha ot nomi jaranglaydi! Ot nomi sharaflanadi! Ot nomi ulug'lanadi!

Tarlon ellik-oltmisht kilolik uloq bilan, yana tag'in men bilan qanday qilib chopdi? Atayin, otga oltmisht kilo bug'doy ortib oldim, deyin. Yana tag'in, o'zim-da minib oldim, deyin. Ana shundan keyin ot ana shunday shiddat bilan chopoladimi? Chopolmaydi! Uloqqa kelganda esa, quyunday uchadi!

Birodarlar, uloqning havosi bor! Otga ana shu havo quvvat beradi, qanot beradi!

Tarlon g'ayrat qildi. Yana ikki marta uloq ayirdim.

Shunda, g'uj odamlar orasidan kimdir birov ovoz berdi.

— Tarlon, buyoqqa bir qarang! — dedi.

Bordim, ovoz bergan kechagi chol bo'ldi. Chol kaftini qoshiga qo'yib qaradi. Boshini irg'ab-irg'ab qaradi. Kulimsib-kulimsib qaradi.

— Endi qandaysiz, el chavandozi? — dedi.

— Qulluq, qulluq.

— Endi menga qarang, el chavandozi, otga dam bering, ha. Bo'lmasa, ko'ziktitrib qo'yasiz...

Tarlon halollagan to'nlar bilan pullarni cholga uzatdim.

— Olmayman, yo'q, olmayman!.. — dedi chol.

Qo'yarda-qo'ymay berdim. Keyin, jabduqlar tarafga yurdim.

Birodarlar, hamsoyamiz Qulmat polvon bozorlab keldi. Mayiz sotib keldi.

Devorimizdan avaylab bo'yladim. Marx-navoni so'radim.

— Qani, polvon, — dedim, — mayiz qanchadan bo'lди?

Polvon qo'llarini ko'ksi barobar qildi. Kaftlarini katta-katta ochdi. O'nta barmog'ini yoyib ko'rsatdi. Og'zini to'ldirib:

— O'n so'm! — dedi.

— Yo'g'-e?

— Chinim, o'n so'mdan bo'lди. Mayizingiz bo'lsa, armonda qolmang!

Mayiz bizda bor-da! Olti unxalta! Saratonday sariq mayiz!

Qo'chqorday-qo'chqorday o'g'illarim bor! Katta bo'lsa otning Tarlonini minaman deyapti! Mayizni shularning to'yiga bosib yotibman! Bu qish kuchim yetmaydi, kelasi qishda katta to'y beraman! Nasib bo'lsa!

Shanba oqshomi ombordan bir xalta mayiz sudrab chiqdim. Supadagi gilamga yoydim. G'alvirda elab-elab, changdan pokiza etdim.

Subhi sodiqda Tarlon bilan bozorladim.

Qizilsuvga doxil bo'lдim. Daryodan kechib o'tib, yuqoriladim.

Mol bozori oldida tevaragi sim bilan o'ralgan yer bo'ladi. Bozorlab keluvchilar ot-ulovlarini ana shu yerga bog'lab qo'yadi. Tarlonni-da shu yerga bog'lab qo'ydim.

Mayizimni orqalab, bozor oraladim.

Dimog'im manti hidini tuydi.

Bukilib-bukilib yurdim.

— Po'sht-po'sht! — deb yurdim.

Bozorchilar qatoridan joy oldim. Mayiz xaltamni ochdim. Mayizimni maqtаб-maqtаб o'tirdim. O'n so'mdan pastga tushmadim!

Chipor gulstukli bir odam mayizimni kaftiga olib ko'rdi. Salmoqlab-salmoqlab ko'rdi.

— Sal tushing, dehqonsiz-ku! — dedi.

— Nima, dehqon mayizni ko'chadan topib oladimi? — dedim.

— Tok tuggan noz-ne'matni o'n so'm deb o'tiribsiz-a!

— Noz-ne'mat degani dehqonning peshona teri deganil

— Ko'p minnat qilmang! Shusiz ham oy bitsayam, kun bitsayam, dehqonga bitib yotibdi!

— Bitadi-dal Ust-boshlaringdan tortib, yegan-ichganlaringgacha dehqonning peshona teridan kelayapti! Idorada o'tirib qog'oz qoralaganlaring bilan osmondan yeydigan, yo, kiyadigan biror nima tushmaydi! Dehqon topganining to'qson foizini sizlarga jo'natib, qolgan o'n foizinigina o'zi yeydil..

Chipor galstukli odam unday desa, bunday dedim, bunday desa, unday dedim. Ishqilib, galstuklidan qolishmadim!

Birodarlar, sochim bo'lmasa-da tarog'im tillo-dan!

Qaradim-qaradim, savdoning ma'quli bo'lmadi.

— Bor-ye, yetti so'mdan bo'ldi! — deb yubordim.

Shu zahotiyoy qorilishga qolishmadim. Ko'tarasavdo qilib olib ketdi.

Xaltamni tizzamga urib qoqdim. Buklab-buklab qo'ltig'imga qisdim.

Bozor oralab, bozorlik qildim. Noz-ne'matlar oldim. Jiydaga boshqorong'i ayolimizga Xorazm jiydasi oldim. O'g'illarimizga xo'roqzand, qog'o-zida kuchugi bor qand, teshikkulcha oldim. Barini xaltamga solib, choyxonaga yo'l oldim.

Tashqari so'rilarda-da odam mo'l bo'ldi.
Birovlab sanasa yuzlar bo'ldi.

Xaltamni so'ri ustuniga suyab qo'ydim. Bo'sh joy izladim. Bir odam turib ketdi, joyi bo'shab goldi. Xaltamni oldim. Yaqinimdag'i odamga:

— So'raganlarga bu joy egalik deng, — dedim.

Choy bilan kulcha olib keldim. Ko'chaning nari-gi yuzida bir sermo'ylov odam katta qozonda baliq qovurdi. Ana shu mo'ylovdan ikki kilo baliq olib keldim.

Chordona qurib, baliq tushirdim. Baliq serqiltiq bo'ldi, xo'p xunob qildi.

Shunda, burchak so'rida ikkita militsioner paydo bo'ldi.

Og'zimdagi og'zimda, bo'g'zimdagi bo'g'zimda goldi. Ko'nglim aynidi, ishtaham buzildi.

Ko'rmayin-da, kuymayin-da, dedim. Chappa burilib o'tirib oldim. Tag'in, o'shalar bo'lsa-ya, deya hadiksiradim. Ko'z qirim bilan qarab-qarab oldim. Yo'q, ular emas, boshqalar bo'ldi.

51

Shu vaqt, bozor darvozasi tarafdan ovozlar keldi.

— Ushla, o'g'rini, ushla! — dedi ovozlar.

G'uj-g'uj odamlar orasidan bir bola chopib chiqdi. Ketidan bir beqasam choponlik odam quvib keldi.

Bola ko'chani kesib chopdi. Yuqoridan kelayotgan qizil mashinaga bel bo'ldi. Mashina «shig'g» etib, toyib kelib to'xtadi. Bola o'zini yo'lning berigi betiga otdi. Qop-qora suvli ariqqa shaloplab tushdi. Loy bo'limgan yeri qolmadni.

Quvib kelayotgan odam mashina ketidan o'tdi. Bolaning loy yoqasidan juftlab ushladi. Bola tipirchiladi, ammo beqasam choponlik changalidan chiqolmadni. Beqasam choponlik, bolaning oyoqlari-ga qo'shib, qoqib, yerga yumalatdi.

— Pulni chiqar! Qani pul?! — dedi beqasam chopnlik.

— Men emas! — dedi bola.

— Sen! Qo'lingni kissamda ushladim-kul! Yaxshilikcha chiqar, bo'lmasa enangni Uchqo'r-g'ondan ko'rsataman!

— Men emas deyapman-kul!

— Unda o'zim topaman! Tort qo'lingni! Manavi kissangni ko'rsat!

Yo'ldan o'tkinchi-ketkinchilar oyoq ildi. Choyxonadagilar borib qaradi. Tumonat odam bo'ldi.

Men so'rida tik turib qaradim.

Beqasam choponlik bolaning kissasini kovladi. Qo'yniga qo'lini tiqdi. Qo'ynidan bir dasta pul oldi. Bolaning tumshug'iga olib bordi.

— Bu nima, enangning qalnim? — dedi.

Bola boshini yelkalari ichiga oldi. Yuzini loy kaftlari bilan pana qildi.

Beqasam choponlik bolaning qulqoq-chakkasiga qulochkashlab soldi. Bola balchiq suvga shalop etib tushdi.

Beqasam choponlik bolaning yoqasidan juftlab ushladi. Suvning oqishiga qarab sudradi.

— Senga kissavurlik qilishni ko'rsatib qo'yaman! Yur melisaga!

Bola oyoqlarini tiradi, gavdasini orqasiga tashladi.

Shu vaqt, olomon orasidan ikkita novcha bo'zbola sug'urilib keldi. Ikkovining-da sochlari yelkasida bo'ldi. Ust-boshlari badanlariga chippa yopishib turdi. Botinkalari tovoni ot tuyog'iday-ot tuyog'iday qalin-qalin bo'ldi.

Bo'zbolalar beqasam choponlik ketidan keldi. Bir bo'zbola beqasam choponlik tirsagidan ushladi. Beqasam choponlik, bolani qo'yib yubordi. Ketiga qayrilib qaradi. Shunda, bo'zbola beqasam choponlik iyagiga qulochkashlab bir urdi.

Beqasam choponlik zuvalasi pishiqlardan bo'ldi. Ketiga gandiraklab-gandiraklab bordi. Ammo yiqilmadi.

Olomon haybarakallachi bo'ldi:

— Ur! Sol, tumshug'igal!

— Ur! Musht turganda muomala nima kerak!
Beqasam choponlik bir bo'zbolani qo'shqo'llab
bir urdi. Bo'zbola chalpak bo'lib tushdi.

Omon turgan bo'zbola beqasam choponlik keti-
dan keldi. Biqiniga sozlab bir tepdi.

Beqasam choponlik enkaydi. Biqinini ushlab-
ushlab, enkayib qoldi.

Olomon haybarakallachi bo'ldi:

— Ur! Kalla qil, kalla!

Shunda, maydagina bir qora kuchuk vangillab-
vangillab chopib keldi. Keldi-yu, beqasam chopon-
likni urayotgan bo'zbola butiga yopishdi. Bo'zbola
kuchukka oyog'ini sermadi.

Kuchuk ketidan sermo'ylov baliqpaz chopqillab
keldi. Kuchugini urishib-urishib, oldiga solib
haydab ketdi.

Chalpak bo'lib yiqilgan bo'zbola joyidan sapchib
turdi. Beqasam choponlikni tepe ketdi. Loyga
belangani-da qo'shilib tepdi. Bo'zbolalar ko'zlariga
qaramay tepdi. Beqasam choponlik yuzlari burish-
di. Bir ichini, bir biqinini ushladi. Keyin, yerga
cho'k tushdi.

Men olazarak bo'ldim. Tevarak-atrofimga
alangladim. Burchakda o'tirgan militsionerlarga
qaradim.

— Ay, anavilarni oracha qilinglar-ay! —dedim.

Militsionerlar parvoysi falak bo'ldi. Beg'am-
beg'am choy ichdi. Boshlarini sarak-sarak etdi.

— Bizga aloqasi yo'q! — dedi.

— Bu yer boshqa birovning uchastkasi! Bizning
uchastkamiz vinzavod tarafda! — dedi.

Olomon yakun yasadi:

— Tamom, nokdaun!

Yo'q, tamom bo'lmadi.

Beqasam choponlik cho'kkalab o'tirdi-o'tirdi-da,
birdan sapchib turdi. Biqiniga tegan bo'zbola
yuziga kalla qildi.

Bo'zbola yuzlarini kaftlari bilan yopdi. Xiyol enkaydi. Barmoqlari orasidan qon sizib chiqdi.

Shunda, birovi kaftiga bir qora nima qo'ydi. Shu qora nima bilan beqasam choponlikning peshonasiga qulochkashlab bir urdi.

Beqasam choponlik:

— Voh, o'ldim-a! — deya baqirdi. Peshonasini ushladi. Taltangladi, gandirakladi. Ana yiqilaman, mana yiqilaman dedi.

Kalla yegan bo'zbola turgan joyida sapchib, beqasam choponlikning ko'kragiga tepdi.

Beqasam choponlik bargday uchib tushdi. Qo'llarini yonlariga yoyib, qimirlamay qoldi.

Bo'zbolalar beqasam choponlikni o'rtaga olib tepdi. Oyoqlari ostiga olib tepdi. Ko'zlariga qaramay tepdi.

Birodarlar, ezilib ketdim, ich-ichimdan ezilib ketdim! Jonim halqumimga keldil!

Alam ham armon bilan burchakka qaradim. Yo'q, militsioner yo'q. Tevarak-atrofga alangladim. Militsionerlar oldinma-keyin bo'lib, choyxona yonalab pisib-pisib ketayapti.

Qahr bilan, nafrat bilan so'ridan tappa tashladim. Beqasam choponlik bilan bo'zbolalarni oracha qilayin, dedim. Olomonni qulochlarim bilan yorib, o'rtaga kirib bordim.

Bir bo'zbolani bilagidan qo'shqo'llab ushladim. Ketiga sermab yubordim. Bir bo'zbolani sochlardan g'ijimlab ushladim. Sochlardan chetga tortdim.

— Imoning kuygurlari! Bir mo'min bandani o'ldirasanmi! — dedim. Sochlarni g'ijimlab turgandim, yulqindi. Bo'ljadi. Tag'in yulqindi. Yana bo'ljadi. Keyin, chotlarim orasiga o'xshatib bir tepdi.

Birodarlar, orachiga --- olti tayoql!

Esankirab qoldim, dovdirab qoldim. Jon shirindal! Jon achchig'ida qo'lim yuzasi bilan bo'zbola ko'zlarini oralatib bir soldim.

Bo'zbola chinqirib yubordi.

Shu vaqt, mashina ovozi eshitildi. Katta ko'chadan bemorxona mashinasi keldi.

Olomon o'zini chetga oldi. Ko'cha yuzida to'p bo'ldi.

Mashinada o'tirgan oq kiyimlik odam ko'zoy-nagini ustidan qaradi. Sulayib yotgan beqasam choponlikni ko'rди.

— Nima bo'ldi bunga? — dedi.

Xo'rligim kelib... yig'lab yubordim...

— Bechorani qarang... Ular uchov bo'lsa, bu bechora birov bo'lsa! — dedim.

— Tushunarli! Dam olish kuni deb, o'zidan ketib qolmay, kamroq ichsin!

— Buni olib keting, birodar, o'lib qoladi...

— Bizning zakazimiz bor! Boshqa «Skoriy pomosh» chaqiringlari Ketdik, haydang!

Bemorxona mashinasi shunday oldimdan o'tib ketdi. Ketidan qarab qoldim. Keyin, qoniga belanib yotgan beqasam choponlikka qaradim. Qaradim-qaradim...

Birodarlar, o'pkam to'lib keldi. To'lib-to'lib keldi... Yenglarimga yig'ladim, choponimning yoqalariga yig'ladim, o'ngirlarimga yig'ladim...

Olomonga alangladim.

— Ay, birodarlar, bir bechora inson shunday o'lib keta bersa yaxshimi? Uyida bola-baqrasi bording! — dedim.

Birov ovoz berdi:

— Tanishingiz bo'lsa, olib keting! — dedi.

Shunday ko'cha yuzida turgan maydagina mashina xo'jasiga elandim. Bir amallab ko'ndirdim.

Beqasam choponlikni yelkasidan sudrab keldim. Quchoqlab ko'tarib, mashinaga soldim. Yerda shalvirab qolgan oyoqlarini ichkari oldim. O'zim qabatida o'tirdim. Bir qo'lim bilan bilagidan ushlab oldim.

Birov endi kelib, shu yerdagilardan so'radi:

— Nima bo'ldi-a, nima bo'ldi? — dedi.

— Zo'r tomosha bo'ldi! Uchchalasi bittasini shunaqangi soldil! Paq-paq! Nokdaun!

52

Beqasam choponlikni bemorxonaga olib jo'nadim.

Bemorxona beqasam choponlikni olmadi. Oppoq kiyimlik bir ayol:

— Bu sudebniy ish! — dedi.

Militsiyaga sim qoqdi.

Bir militsioner kelib, beqasam choponlikni aylantirib ko'rdi. Suratga tushirdi. Daftar to'l-dirdi.

Keyin, meni so'roq qildi. Zot-makonimni so'-radi. O'zimni aytib berdim. Militsioner yozib oldi. Undan keyin, nima bo'lди, deb so'radi. Men oqiz-may-tomizmay aytib turdim. Militsioner yozib bordi.

— Hozircha bo'shsiz, keyinchalik uchastka-voyingiz orqali chaqiramiz! — dedi.

Mashina xo'jasiga uch so'm uzatdim. U olmadi.

— Qulluq, qulluq! — deb ketdi.

53

Choyxonaga qaytib bordim. Bozorlik xaltamni qaradim. Yo'q. So'ri ostini qaradim. Yo'q, bozorlik xaltam yo'q.

Choyxonachidan so'rab-surishtirdim.

— Mabodo, bizning xaltamizga ko'zingiz tush-madimi? — dedim.

— Yo'g'-a, ko'zim tushmadi-ya! — dedi choyxonachi. — Shunga ko'zim tushmadi-ya! Qanday, beqasam choponlik oshnaginangiz qanday?

— Bir balo qilib joylashtirib keldik...

— Iya-iya...

Choyxonachi angrayib qoldi. Yuzlari bo'zardi. Qo'llarini etagiga artdi. Fotiha o'qimoqchiday, kaftlarini hozirlay boshladи.

— Bandachilik qildimi-a, — dedi. — Voy, bechora-ye, voy, bechora-ye...

— Yo'g'-e, bemorxonaga joylashtirib keldik, deyapman.

— E, ha-a, shunday deng...

Bozor oralab, boshqatdan bozorlik qildim.
Barini belbog'imga tugib oldim.

Tarlonimiz oldiga bordim. Tugunimni egar qoshiga ilib oldim. Darvoza oldida o'tirgan cholga bir so'm uzatdim. O'zimga o'zim oq fotiha berdim. Otlanib, bozordan qaytdim.

Birodarlar, osmondan tushganday bo'lib qoldim,
dunyoni endi ko'rayotganday bo'lib qoldim...

54

Vo darig'o, shunday kunlar-da bo'ladi!

Bosgan qadamimiz ketimizga ketadi. Jamiki ishlarimiz chappasiga yuradi. Omad deganlari salo-mini-da bermaydi. Og'zimizdag'i oshimizni-da oldirib qo'yamiz.

Birodarlar, nasib etsa, kelar Shom-u Iroqdan,
nasib yitsa, ketar qosh-u qaboqdan!

Xurram soliqchining ko'pkarisida shunday bo'ldi. To'daga kirolmadim, kirsam, uloqni ololmadim. Bordi-yu olsam, birov yo qo'lidan yilib ketdi, yo yerga tushib ketdi. Taqimimdag'i uloqlarni-da oldirib qo'ydim.

Birodarlar, davlat-da egiz-egiz, mehnat-da egiz-egiz!

Tarlon mendan hayron bo'ldi, men Tarlondonan hayron bo'ldim.

Unday qildim bo'ljadi, bunday qildim, bo'ljadi. Puf sassiq, deya ketib qolmoqchi bo'ljadi. Yana tag'in shaytonga hay berdim. Elan-qaran keldim, endi ketmayin, dedim.

Tarlonni qamchilab-qamchilab to'daga soldim.

Otlar g'ij-g'ij bo'ldi. Osmondan telpak tashlasa yerga tushmadi.

To'dani yorib, uloqqa keldim. Uloqqa har alvonda uzaldim. Qo'lim yetmadi. Yana-da uzalgani, otlar qo'yamadi.

Quyuq chang'a ko'rib turdim, bir qo'l uloqni ushladi. Shunda, Tarlon uloqni o'ng tuyog'i bilan tappa bosib qoldi. Tarlon buni ilkisdan qilmadi. Yo'q, bilib-ko'rib qildi. Uloqni bergisi kelmadil!

Uloqqa havoyilarcha yopisha berish Tarlonimiz
joniga tegdi. Tarlon uloqqa tashna bo'ldi!

Men qamchi sopidan tishladim. Tarlon qop-qog'iga shapatiladim. Tarlon boshini sarak-sarak etdi. Tevaragidagi otlar boshini o'zidan xolislatdi. O'ziga kenglik yaratdi, erkinlik yaratdi.

Keyin, Tarlon old tizzalarini bukdi. Uloq oldida cho'k tushdil! Tarlon uloq oldida cho'kkaladi!

Quyuq changda ko'zlarimni arang ochdim. Tarlon ko'kragi oldida yotgan uloqni qo'shqo'llab ushladim. Panjalarimni botirib ushladim.

Tarlon ko'z qiri bilan qarab turdi. Barini ko'rib turdi, bilib turdi. Uloqni mahkamlab ushlaganimga amin bo'ldi.

Shundan keyin, bir silkinib, tizzalaridan turdi. Sonsiz otlar poylab turgan oldiga emas, yo'q, ketiga tisarildi. Ketiga tis bo'lib, to'dadan sug'urildi. Ochiqlikka chiqib olib, birdan oldiga burildi. Joyidan zarb bilan uchdi, yelday uchdil! Ko'rganlar ko'rib qoldi, ko'rmanlar armonda qoldi!

Tarlon qoralik chuqurchani yonlab keldi. Uloqni taqimimdan tashlab yubordim. Qo'llarimni ko'tarib chopib ketdim.

Ammo bakovul ovozidan darak bo'lmadi. Hayron bo'ldim.

Qoralik joyga qaytib keldim. Chuqurchaga qarab... tars etkazib tizzamga urdim. Uloq chuqur ichiga emas... labiga tushibdi!

Alamimdan, arazlagim keldi!

Barchaga, inchunun, bakovulga eshittirib ayt-dim:

— Biz ketdik! Bizga qachon haq berilib edi-da, endi beriladil — dedim o'zimcha, ko'pkariga qo'siltab jo'nadim. Tarlonni tars-tars qamchiladim.

— Ketdik, Tarlon, ketdik, odamlar biz sag'irlarga qayishmaydil — dedim.

To'dadan olislab bordim. Tarlonni tag'in tars-tars qamchiladim.

— Ketdik, Tarlon, ketdik, bizning kallamiz kal! Biz kallarga haq yo'q! — dedim.

Ketimga qayrilib qaradim. Uzangi yo'ldosh-

larim yo'ldan qayirar, deya umidlandim. Tarlonni imillatdim. Tag'in o'girilib qaradim. Izimdan birov-da kelmadil!

Devorda tizilib o'tirgan tomoshago'ylarni yonlab yurdim. Birovi yo'ldan qayirar, deya o'yladim. Shuncha odam oldidan o'tdim, qani endi birovgnasi miq etsal Aqalli, yo'l bo'lsin, Ziyodulla chavandoz demadil! Shular ham odam bo'ldi-yul Suf-el..

Endi tomoshago'ylardan arazladim!

— Ko'r bo'lib ko'pkarini tomosha qilib o'tira beringlar, men uyg'a borib, maza qilib yotaman, — deya pichirladim.

Qishloqqa olib boradigan yo'ldan yurdim. Yo'lni kesib o'tadigan ariq bo'yida oyoq ildim.

Tarlon suvg'a talpindi. Suv ichirmadim. Shokirqulning tomidan chiqib turgan dastak uchiga bog'ladim.

Ust-boshlarimni qoqdim. Yuzlarimni yuvdim. Qo'shhovuchlab-qo'shhovuchlab suv ichdim. Entikib-entikib suvg'a termuldim.

Shunda, ariq bo'yida suvg'a kucha botirib yeb o'tirgan bolaga ko'zim tushdi. E'tibor berib qaradim. Ishtoni ho'l.

— Kimning uli bo'lasan? — dedim.

— Otamning.

— Otang kim?

— Shokirqul.

— Ha-a, oting nima? Karim? O'lma! Bu, ishton ho'l-ku, Karimboy?

— Enam to'yda.

— Ha-a, o'zim kiyolmayman deng. Bizdan so'rasangiz, Karimboy, biz ko'pkaridan qaytdik, hal! Ko'pkarida adolat qolmadi, Karimboy. Bari oshna-og'aynigarchilik bo'lib ketdil!

— Ko'pkari tamom bo'ldimi?

— Yo'q, hali bo'layapti.

— Unda, boring-da.

Men sergak bo'ldim. Bolaga e'tibor berib qaradim.

— Bir nima deganday bo'ldingizmi, Karimboy?

— Suv ichib bo'ldingiz-ku.

— Ha, suv ichib bo'ldim, Karimboy. Endi nima qil deysiz, Karimboy?

— Ko'pkariga boring.

— Borsam degan edim, Karimboy. Bizga haq yo'q!

— Bormasangiz ado bo'ladi.

— Ko'p qo'y madingiz-qo'y madingiz-da, Karimboy. Borsam-borayin, sadqayi suxaningiz.

Tarlonni yechib, tag'in otlandim.

— Karimboy, sizning so'zingizdan o'tolmay qaytayapman. Bo'lmasa qaytmash edim, — dedim.

Qaytishimda tomoshago'ylarni qoralab yurdim. Tomoshago'ylarga xo'mrayib-xo'mrayib qaradim.

— Senlar ham odam bo'lding-u, ana, haqiqiy odam Karimboy ekan, — deya pichirladim.

To'da chetiga borib turdim. Bakovul menga ajablanib qaradi. Bildim.

Bakovul menga qarab-qarab qo'ydi. Keyin, yonda turgan chavandozga bir nima dedi.

— Itga o'xshab, o'zi ketib, o'zi keldi. — Bildim, shunday dedi. Boshqalar-da shunday dedi.

Endi, men nima desam ekan?

Karimboy qaytardi desam, qaysi Karimboy desalar-a? Shokirqulning ishtoni ho'l o'g'li deymanmi? Ha yo'g'-e... surishtirib borayaptimi. Bordi-yu, surishtirsalar, Karim muallim, deyman...

Samad chavandoz uzangi yo'ldoshimga aytdim, barcha-barchaga eshittirib aytdim:

— Yo'lda Karimboy jilovni ushladi! Qayting-chi qayting, deb qo'y madil! Odamning yuzi issiq-da, yuzidan o'tolmadim!..

Otar adirda yoyilib o'tladi.

To'dalagunimcha kech bo'ldi. Uyga qosh qorayganda keldim.

Uchastka militsionerimiz bir parcha qog'oz tashlab ketibdi. Ayolimizga qayta-qayta tayinlabdi.

— Ertaga soat o'nda organda bo'lsin, — debdi.
Sherigimiznikiga borib uzrimni aytdim.

— Ertaga qo'yni sen boq, zaril ishim chiqib qoldi, biror kun qaytararman, — dedim.

Sahar-mardonda Tarlon bilan shahar jo'nadim.
Eshik oldida o'tirgan militsionerga qo'ynimdag'i qog'ozni olib ko'rsatdim. Militsioner meni eshigi g'ilofli xonaga kiritib bordi.

To'rda o'tirgan yigit o'rnidan turdi.

— Keling, keling, — dedi.

Men bilan qo'l berib ko'rishdi. O'zini kapitan Ro'ziyev, dedi.

Kapitan katta baxmal pardani tushirib qo'ydi, ko'rsatdi. Men kapitan katta ko'rsatgan joyga o'tirdim.

— Xo'sh, familiyangiz Qurbonov-a? Nega kechikib yuribsiz, aka? Soat o'n ikki bo'ldi-yu? — dedi kapitan katta.

— Men sizga aytsam, kapitan katta, Tarlonning oyog'iga qaradim.

— Xo'sh, Tarloningiz kim?

— Bizning otimiz-da, kapitan katta.

— Xo'sh, hali otda keldingizmi? Shuncha texnika turib-al!

— Esa-chi, kapitan katta. Texnika bizga bo'lmaydi, kapitan katta. Benzin isini xush ko'rmayman, kapitan katta.

— Xo'sh, banditlarni izlayapmiz, aka. Shubhali tiplarni jabrlanuvchiga yuzma-yuz qildik. Bular emas, dedi. Siz esa kelmadtingiz. Endi boshqa kun chaqiramiz.

Tarlon bilan qishloqqa qaytdim.

56

Kechqurun televizorga qarab o'tirib edim, Rixsiyev keldi. Bolishni buklab yonboshladi, damini uzun oldi.

— Radiouzel orqali o'qigan dokladimni eshitdingizmi, o'rtoq Qurbonov? — dedi.

— Yo'q, qachon o'qidingiz?

— Ana xolos, hozirgina o'qidim-ku. Yigirma minut, qirq sekund!

— Men televizorga qarab qolibman. Nima deb o'qidingiz?

— Xalqaro ahvol xususida!

— Ha-a, olamda nima gap ekan?

— Aha, xalqaro ahvol chatoq, o'rtoq Qurbanov, juda chatoq. Vaziyat tobora keskinlashib borayapti. NATO mamlakatlari Yevropada qanotli raketa joylashtirayapti. Salvadorda qonli jang bo'layapti, Nikaraguada vaziyat tobora murakkablashayapti, Falastin xalqining ahvoli ayanchli. Aha, hammasiga AQSH imperialistlari aybdor, o'rtoq Qurbanov. Imperializm provokatsiya bilan shug'ullanayapti. Aha, masalan, AQSH imperialistlari Polsha davlatida diversiya-provakatsiya tashkil qildi. Xalqni mafkuraviy zaharladi, aha. Polshada sotsialistik jamiyatni qo'porib tashlamoqchi bo'ldi. Lekin imperialistlarning yovuz planlari fosh bo'ldi. Polsha Birlashgan Ishchi partiyasi sotsializmni himoya qildi...

Gapning biroviga-da tushunmadim. Televizorga qarab, ha-ha, deb o'tirdim.

57

Ikki kun deganda uchastka militsonerimiz tag'in qog'oz olib keldi.

Tarlon bilan azonda yo'l oldim. Bu safar Tarlonni qichab haydadim. Vaqtida yetib keldim.

Kapitan katta to'rtta bo'zholnani ro'para qildi.

— Yo'q, bular emas edi, — dedim. — Ularning sochi uzun-uzun edi, — dedim. Kapitan katta kuldi.

— Xo'sh, eslay olmaysizmi, aka, ularning yuzida biron jarohat izi yo'qmidi?

— Esa-chi, kapitan katta. Iziyam gapmi, yارانing o'zi bor edi, kapitan katta.

— Xo'sh, qanaqa jarohat?

— Ikkovining yuzidan qon oqdi. Beqasam chonlik kalla qilib edi-da.

— E-e-e, shuni ertaroq aytmaysizmi, aka. Ana bu boshqa gap!

— Keyin, bir maydarog'ining ust-boshi loy bo'ldi, kapitan katta.

Kapitan katta yoza-yoza, bosh chayqab kuldi. Nimaga kuldi — farosatim yetmadi.

— Xo'sh, ayting-chi, aka, shu voqeani ko'rganlardan aqalli birontasini taniysizmi?

— Men sizga aytsam, kapitan katta, lof bo'lsada, yuzdan oshiq odam bor edi. Qaysi birini taniyman. Hatto ikkita melisa-da bor edi.

— Kim-kim? Melisa? Xo'sh, formadami?

— Esa-chi, kapitan katta. Melisalar shunday burchakda o'tirib choy ichdi.

— Xo'sh, ular shu voqeani ko'rdimi?

— Esa-chi, kapitan katta. Barini ko'rib turdi, kapitan katta.

— Xo'sh-xo'sh!

Kapitan katta temir sandig'idan bir qalin qog'oz olib yoydi. Ichi to'la g'ij-g'ij surat bo'ldi.

— Qarang-chi, aka, shuning ichida siz ko'rgan melisalar bormi.

Suratlarga barmog'imni yogurtirib qaradim. Oxiri, ko'rganlarimdan birovini tanidim. Peshonasiga barmog'imni nuqib turdim.

— Hayla, anavi! — dedim.

Kapitan katta enkayib qarab, bosh irg'adi. Suratlarni taxlab, yana sandig'iga soldi. Tash-qarilab qaytdi.

— Xo'sh, siz, aka, mana bu xonaga kirib turing. O'zim chaqiraman.

Yon xonaga kirib o'tirdim. Xona eshiksiz bo'ldi.

Kapitan katta baxmal pardani tushirib qo'ydi. O'zi, o'z xonasida qoldi.

Xiyoldan keyin kapitan katta oldiga birov kirib keldi. Kapitan katta undan so'radi.

— Xo'sh, siz yigirma to'rtinchchi yanvar yakshanba kuni soat o'n ikkilarda qayerda edingiz? — dedi.

— Qaysi yanvar, bu yilgi yanvarmi? Uchastkada edim, — dedi kelgan odam.

— Xo'sh, aniqroq ayting!

- Vinzavod atrofini nazorat qilib yurgan edim!
 - Xo'sh, demak, zavodda?
 - Ha, zavodda!
 - Xo'sh, shu kuni choyxona oldida bo'lgan voqeadan xabaringiz bo'lmadimi?
 - Qanaqa voqeadan?
 - O'sha yerda bo'lgan to'polondan?
 - O'limdan xabarim bor, bundan xabarim yo'q!
 - Xo'sh, buyoqqa bir qarang, Qurbonov aka!
- Kapitan katta oldiga qaytib chiqdim. Kelgan odam xuddi o'sha militsionerlarning birovi bo'ldi. U meni ko'rди-yu, rangi oqarib jo'nadi. Kapitan katta meni ko'rsatib so'radi:
- Shu odamni biron marta ko'rganmisiz?
 - Militsioner menga tikilib turdi-turdi-da, yelkasini qisdi.
 - Eslayolmayapman, — dedi.
- Kulgim keldi. Balki tanir, deya choyxonani eslatdim. Militsioner shipga qarab o'ylab-o'ylab, ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga nuqidi.
- E, hal! Bo'ldi, bo'ldi! Endi esladim. O'sha yer dan uchastkamga o'tib ketayotgan edim. Ko'chada odamlar to'planib turgan ekan. Biron nima sota yotgan bo'lsa kerak, deb o'yadim.
 - Eb-ey, ikkovimiz gapirishdik-ku, inim! Men sizga...
 - Men bilan-a? Bekorni aytibsiz! Tuhmat! Soqolingiz bor, og'zingizga qarab gapiring! Siz meni boshqa odamga adash tirayapsiz!
- Kapitan katta baxmal pardani tushirib qo'ydi.
- Ana, bo'limganman deyapti-ku? — dedi.
 - Men yoqamni ushladim.
 - Yo tavba, yo tavba! — dedim.
 - Xo'sh, yana biron kishini eslay olmaysizmi, aka?
 - Esa-chi, kapitan katta. Shu gaplarni choyxonachi-da ko'rdi.
 - Choyxonachi? Yana?
 - Keyin, baliqpaz-da biladi.
 - Xo'sh choyxonachi, baliqpaz... Buguncha bo'ldi, aka, qolganini boshqa kun gaplashamiz.

Endigi qog'oz kelishida bormadim.

Boisi, Dono momo bandalik qildi. Janozasiga bordim. Momoni o'rab-chirmab, yig'lab-yig'lab qo'yib keldim.

Uyda azali kayfiyatda yonboshlab yotib edim, Rixsiyev kelib qoldi.

— Ahay, choy qo'yinglar! — dedim ayolimizga.

— Kayfiyattingiz yo'q, o'rtoq Qurbonov? — dedi Rixsiyev.

— Dono momoni qo'yib keldik, — dedim.

— Qayoqqa qo'yib keldingiz?

Shunda, Rixsiyev janozada bo'limganini bildim.

— Dono momo olamdan o'tdi, shuni aytayapman, — dedim.

— Aha, dafn qildik deng. Qo'yib keldik deganizingizga biror nimani qo'yib kelibdimi debman.

Yuzimni o'girib, ko'zlarimni yurdim. O'zimni bosolmadim. Tag'in o'ng bo'ldim. Ko'nglimga qaybir gaplar keldi. Gap kelganda gapirmsa, shu gap o'ldim, deb ketadi. Shu bois, umrimda birinchi marta Rixsiyevga oqsogolchilik qilishga jur'at etdim:

— Rixsiyev aka, — dedim, — siz o'qigan odamsiz, olamdag'i bor gapni bilasiz. Sizga o'rgatib bo'lmaydi. Hech qachon eldan qolmang, aka. Xususan ikki vaqt elning yonida bo'ling. Biri — to'yida. Elning to'yini belingizni besh joyidan boylab xizmat qilib, o'ynab-kulib, xush-xushvaqt o'tkazib bering. To'y ko'pniki, ha. Yana biri — azasida. Yig'lab-siqtab elning qayg'usiga hamdard bo'ling. O'lim qayg'usini bir odam ko'tarolmaydi. Og'irlik qiladi. Shunda siz yonida bo'lib, qayg'usiga sherik bo'ling. Odam ana shu ikki vaqtida odamligini bildiradi.

— Men unday momoni tanimayman, u kim?

— O'zimizday odam. Faqirgina bir momo edi. Umri kolxozda ishlab o'tdi. Qarigan chog'ida magazinda qorovul bo'ldi. Na qizi bor, na uli bor edi. Bechorahol momo edi. Yig'laydiganlari-da bo'l-

madi. O'zimiz momomlab, xolamlab yig'lab jo'nat-dik. El ko'mdi...

— Aha, qulog'imga bir chalinganday bo'ldi. Matabga darsga ketayotgan edim, kimdir, birov o'libdi, dedi. E'tibor bermabman.

— Ana shu-da. Shu sababli-da janozada odam taxchil bo'ldi. Ko'nglim yarim bo'lib qaytdim. Odamzotning qadri endi shu bo'ldimi, dedim. Rixsiyev aka, bir kun kelib biz ham ketamiz. O'lim barimizning boshimizda bor savdo. Shunday kunda bir-birovimizning kunimizga yaramasak, odam bo'lib nima qilib yuribmiz...

Rixsiyev gapimni og'zi bilan eshitdi.

— Hammaning borishi shartmi, o'rtoq Qurbonov, — dedi. — Qarindosh-urug'idan to'rt kishi borsa bo'ldi-da. Tobutning to'rt yog'ochidan ushlab ko'tarib boradi. To'rt kishidan ortig'i ortiqlik qiladi. Aha, xo'p, olti kishi ham bo'lzin. Ikkiasi go'r qazib turadi.

— Rixsiyev aka, odam it bo'lsa ekan, oyog'idan sudrab olib borib, chuqurga tashlab kela bersa. Odam o'z nomi o'zi bilan odam. Odamdan ulug' jonzot bormi...

Rixsiyev gapimni og'zi bilan eshitdi.

— Ha, endi, bir kampir ekan-da. Bor-yo'g'i qorovull — dedi. — Xalqaro ahamiyatga, aqalli mahalliy ahamiyatga molik shaxs bo'lsa ekan, bilagimizga qora lenta taqib faxriy qorovullikda tursak! Motam tutsak, nutq so'zlasak!

— Rixsiyev aka, odamning katta-kichigi bo'lmaydi. Bariyam odam. Bir odam yaxshimi-yomonmi bir umr yashadi. Qo'lidan kelgancha tirikchilik qilib, o'zini odam sanab yurdi. Biz bilan betma-bet bo'ldi, yelkama-elka bo'ldi, davra-davr bo'ldi. Endi qaytmas bo'lib ketayapti. Odam qaytmas bo'lib ketayotganda bormagan odam odammi...

Rixsiyev gapimni og'zi bilan eshitdi.

— Kampirlarning o'limi mahalliy gap, o'rtoq Qurbonov, — dedi. — E'tiborga molik emas. Ana, xalqaro arenada qanchadan qanday tragediyalar

sodir bo'lmoqda. Eron shohi Pahlaviy yashirin buyruq berib, bir kinoteatrni yoqib yuboribdi. Ichida besh yuz inson bor ekan. Aha, tragediya deb buni aytadil Dahshat! Men Eron xalqiga chuqr ta'ziya bildiraman. Men xalqaro ahvoldan tashvishdaman, o'rtoq Qurbonov, qattiq tashvishdaman! Xalqaro vaziyat kun sayin keskinlashib bor-moqda...

59

Ertasi ertalab uchastka militsionerimiz keldi. Salom yo'q, alik yo'q, ostonada turib siyosat qildi:

— Sovet organi sizga o'yinchoqmi? — dedi.

— Eb-ey, biz nima qildik? — dedim.

— Nega chaqirgan vaqtida bormaysiz?

Zardam qaynab ketdi:

— Borgim kelmadil! Ayolimiz bilan kinoga bordanik! Bo'ldimi? — dedim.

— Mashinaga chiqing!!

Hayron bo'lib, devordan bo'yladim. Eb-e-eb-e! Darvozamiz oldida militsiya mashinasi turibdi! Sap-sariq!

Ko'nglim, «shig'g» etdi. Etlarim uvishdi. Ichimda nimadir bir nima o'pirilib tushdi.

— Uchastkovoy birodar, — dedim, — bu ishing bo'lmaydi! Mashinangni tez eshikdan oll!

— Nima, mashinani yelkangizda ko'tarib yurib-sizmi?

— Birodar, hech bandaning eshigiga do'xtirning mashinasi bilan melisaning mashinasi kelgulik qilmasin! Tez ket, birov ko'rmasin!

— Bo'ling, bo'ling, falsafa sotmang!

Militsioner tumshug'i ostiga tiqilib bordim. Yuz-ko'zlariga o'grayib-o'grayib qaradim. Militsioner niyati qat'iy bo'ldi.

O'grayib turdim-turdim, keyin, choponim yoqalarini ochdim. Militsionerga ko'kragimni tutdim.

— Mana, otib tashla! Leking melisaning mashinasiga chiqmayman! Juda zaril bo'lsa, avtobusda boraman! — dedim.

— Unda, tez izimizdan yetib boring!

Tag'in, militsiya mashinasini birov-yarim ko'rib qolgan bo'lsa-ya, degan hadikdan devordan ko'cha-ga qaradim. Bovujud, ko'chada odam bo'lmasdi.

60

Avtobusda rayon jo'nadim. Yo'lda derazadan qusib-qusib bordim.

O'sha g'ilofli eshikni ochdim. Kapitan kattaga Dono momoni aytib berdim. Kapitan katta bosh irg'ab, hamdardlik bildirdi.

Xonaga bir militsioner kirib keldi. Kapitan katta oldiga bordi.

— Ayrimlar, Furqat ko'chasida turadigan Mo'mindan ko'rayapti, o'rtoq kapitan, — dedi.

— Xo'sh, qayerda ekan, bu bola?

— Ko'rinxmayapti. Bildirmay, hamsoyalaridan surishtirdim. Uyida yuzlariga dori surtib yotgan emish.

— Unda, hozircha ko'z-quloq bo'lib turing, hidlanmasin. Men aytganda olib kelasiz. Hozir borib bozorning og'zidagi choyxonachi bilan baliqpazni olib keling.

Xiyol o'tib, militsioner qaytib keldi.

— Olib keldim, o'rtoq kapitan, kirsinmi? — dedi.

— Olib kiring.

Ostonada choyxonachi bilan baliqpaz ko'rindi. Choyxonachi egilib salom berdi.

Kapitan katta qalami uchini choyxonachiga nish qildi.

— Avval siz kiring. Siz esa koridorda o'tirib turing, — dedi.

Choyxonachi qo'llari ko'ksida gilamdan yurib keldi. Kapitan katta bilan ko'rishmoqchi bo'ldi.

Ammo kapitan katta qog'ozdan boshini ko'tarmadi. Qalami uchi bilan choyxonachiga joy ko'r-satdi.

Choyxonachi dovdirab, qalamni qo'shqo'llab ushlab olishga bir bahya qoldi. Qo'llarini tez tortib

olib, qalam uchi tarafga o'tirdi. Menga ro'para bo'ldi. Men bilan bosh irg'ab so'rashdi.

Kapitan katta bir dasta qog'ozning uyog'iga qaradi, buyog'iga qaradi. Keyin, choyxonachiga yuzlandi. Choyxonachining kimligini yozib oldi.

— Xo'sh, endi bizga choyxonangizda bo'lган urushni gapirib bering, Sattorov aka, — dedi.

— Urush? Qanaqa urush?

— Yigirma to'rtinchı yanvar, yakshanba kuni bo'lган urushni.

— Qanaqa urush? Tush mahali? E, ha-a, bo'ldi, bo'ldi! Bu bizning choyxonada emas, ko'chada bo'lган, kapitan uka.

— Ishqilib, choyxonangiz oldida bo'lган-da.

— Endi, kapitan uka, bozor kuni odam ko'п bo'ladi. Qo'lim qo'limga tegmaydi. Hatto qulog'im eshitmaydi...

— Xo'sh, oddiy choyxona shovqini bilan urto'polon shovqinining farqiga borarsiz?

— Bormayman, kapitan uka, bormayman. Hamma gap shunda! Mana shu qulqolarim osti «g'uvv-g'uvv» etadi. Kim gapirayapti, nimani gapirayapti, farqiga bormayman. Sizga yolg'on, menga chin. Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarning ichida cholnikiyam bor — bir! Yoshnikiyam bor — ikkil! Momonikiyam bor — uch! Qiznikiyam bor — to'rt! Chaqaloqnikiyam bor — besh! Xo'-o'sh, beshta bo'ldimi? Endi boshqalar niyam sanaymiz. Bulardan boshqa ko'chadan o'tayotgan «Jiguli»nikiyam bor — bir! Bozordan qaytgan sigirnikiyam bor — ikki...

— Bo'ldi, bo'ldi. Siz menga ko'rgan voqeangizni gapirib bering!

— Iya, eshitmagandan keyin qanday qilib ko'raman, kapitan uka?

— Ko'zingiz bor-ku, ana-ku.

— To'g'ri, ko'zim bor. Yaratganning o'zi bizgayam ko'z bergen, ko'rib turibsiz. Lekin bilasizmi, kapitan uka, choyxonamizning bir piyola choyi nasib etganda ko'zingiz tushgandir, samovar choyxonaning ichida, hal Maydagina tuynugi bor.

Mana shunchal Shu tuynikdan choy beraman. Tuynuk ko'kragim baravar keladi. Mana shunday enkayib qaramasam, tashqarini ko'rmayman. Egila berib-egila berib, bellarim og'rib ketdi, kapitan uka.

— Xo'sh, shu voqeadan sal bo'lsayam xabar-ringiz bordir?

— Bor, kapitan uka, bor. Bir egilib qarab, ko'cha yuzida odamlar to'dalashib turganini ko'rdim. Boshqa hech nimani ko'rmadim.

— Bo'pti, boring. Zaril bo'lsa, yana chaqiramiz. Hamrohingizga ayting, kirsin.

Choyxonachi qo'llari ko'ksida kapitan kattaga bosh irg'adi. Go'yo birov quvib kelayotganday pildirab, eshikka qarab yurdi.

Baliqpaz kirib keldi.

Kapitan katta baliqpazning-da kimligini yozib oldi.

Baliqpaz yoyilib o'tirishi, eshitamiz, deganday kapitan kattaga qoshlarini chimirib qarashidan dimog'dor, ko'pni ko'rgan odam bo'ldi.

Birodarlar, men shu odamdan umid qildim!

— Xo'sh, endi sizdan eshitamiz, Shukurov aka?

Baliqpaz pinagini-da buzmadi. Mijjasini-da qoqmadi.

— Nimani eshitasiz? — dedi.

— Xo'-o'-o'sh...

— Eshitdim, uchastkavoy aytdi. Men hech nimani ko'rganim yo'q. Shul! Yozib berishim ham mumkin. Shul! Ketsam maylimi? Uyog'da ish qolib ketayapti. Shul!

— Gap endi boshlandi, shoshilmang. O'rningizga odam qo'yib kelgandirsiz.

— O'g'lim qoldi. U hali yosh, xo'randalarni ranjitib qo'yishi mumkin. Shu!

— Xo'sh, ko'p shushulamang! Gapga javob bering! Bir inson taqdiri hal bo'layapti! Tushundingizmi?

— Siz ham mansab stolingizdan foydalanib, xalqqa baqirmang! Shu!

— Men xalqqa emas, sizga gapi rayapman!

— Xalq bir kishidan boshlanadi! Shu! Men

xalqning bir bo'g'iniman, shunday ekan, menga ko'p baqirmang! Shu!

- Baqirayotganim yo'q, gapirayapman.
- Baqiryapsiz! Shu!
- Xo'sh, ana baqirmadik. O'zi bugun chap yog'ingiz bilan turganga o'xshaysiz, Shukurov aka. Boring, sizga ruxsat, yana chaqiramiz.

— Ixtiyorингиз! Baribir, shu gapim gap! Shu!

Baliqpaz g'o'dayib chiqib ketdi.

Kapitan katta menga-da javob berdi.

— Yana kelasiz, — dedi.

— Kapitan katta, uyda ishlarim qo'qib yotibdi.

Buyog'i ko'pkarilardan qolib ketayapman. Boshimi ni qashigani fursatim yo'q...

— Xo'sh, men nima qilay, aka? Bu ishga o'zi guvohning keragi yo'q, ana meditsina xulosasi bor. Sizlar faqat jinoyatchilarni aniqlashga yordam bersalaringiz bo'ldi. Haligi baliqpaz bilan choixonachi jinoyatchilarni taniydi. Ularning gapini esa eshitdingiz...

61

Yo'l chetidan yurdim. Shu gap bo'lgan yerdan o'tdim.

Bir mahal oq xalatlik bir odam yo'limni to'sdi. Bu o'sha baliqpaz bo'ldi. Baliqpaz tirsagimdan ushlab, meni baliqxonasiga yetakladi. Qozondan xolisroq bir joyga o'tirg'izdi. Tizzamga kaftini qo'yib so'radi:

— Meni siz chaqdingizmi, aka?

— Chaqqanim yo'q.

— Chaqibsiz-da! Shu! Chaqish bundan ziyod bo'ladimi?

Men ko'rganimni aytdim, birodar.

— Aka, chaqish — ayolning ishil Shu! Siz binoyiday erkaksiz-ku! Ko'rganimni aytdim, deysiz. Nimani ko'rdingiz? Xo'sh, qani?

— Endi, birodar, men sizga aytSAM, o'zingizdan ham o'tdi-da. Ko'rib turib bormadingiz-a. It boshi bilan kuchugingiz chopib keldi.

— Endi u — it! Shu! O'zi oti o'zi bilan — it! Bo'lgan-bo'lma ganga aralashib, hurib yotadi! Bo'lmasa, birov bilan nima ishi bor? O'zini bilib yotmaydimi? It — it-da! Itligiga boradi-da! Axir, siz bilan biz odammiz-ku, odam! Kelib-kelib, itga teng bo'lib o'tiramizmi! Itga teng bo'lmasligimiz kerak! Shu! O'zi, qarindoshingiz ajab odam ekan. Bolalar urib yiqitadi, yana turadi, yana yiqitadi, yana gandiraklab turadi.

— Nima qilsin bo'lmasa?

— Yota bersin! Shu! Uch yigitga yolg'iz o'zi bas kelarmidi! Men bo'lganimda bиринчи musht kelib tushdimi, bo'ldi, o'zimni yerga tappa tashlardim. Qaytib joyimdan turmasdim! Shu! Tursam, baribir, yana uradi-da! Ular ketguncha o'zimni behushlikka olib yotardim. Qarabsizki, bir musht bilan qutulib qolardim! Biron yerim ham shikast yemasdi! Shu! Ana, oqibat, qarindoshingiz chalajon bo'lib, kasalxonaga ketdi! Shu! Holidan xabar olib turibsizmi? Qalay endi?

— Borganim yo'q!

— Iya, nega?

— Men uni tanimasam, bilmasam...

— Iya, hali tanimaysizmi?

— Esa-da.

Baliqpaz yuzimga enkayib qaradi.

Gapim jiddiyligini bilib, tizzasiga urib kului.

— E, aka-ye, aka-yel Afandi ekansiz-ku!

Baliqpaz yog'och panjara oldida yotgan kuchugiga qaradi. O'zicha boshini chayqadi. Tag'in kului.

— E, aka-ye, e, aka-yel! Qarindoshingiz bo'lmasa, aqalli tanishingiz bo'lmasa, sizga nima? Qipqizil Afandi ekansizi! Shu! Yo, undan biron nima undirdingizmi!

— Nima undirardim, birodar...

Baliqpaz barmoqlarini bir-biriga ishqab ko'r-satdi.

— Pulmi? Unday demang, birodar, unday demang...

— Bo'lmasa nimaga buncha kuyib-pishasiz? E,

aka-ye! Afandil Shu! Hali yana borasizmi? Unda, bunday, aka, siz meni ko'rganingiz yo'q, men sizni ko'rganim yo'q. Agar yana chaqsangiz, qattiq xafalashamiz! Shu!

Avtobusga o'tirdim. Ko'zim ilinib-ilinib ketdi.
Birodarlar, boshim og'riyapti, boshim...

62

Nazir juvozkash ko'pkariga Olmako'z baytalini minib keldi.

O'ziyam, baytali Olmako'zmisan, Olmako'z bo'ldi-da! Ko'zlar bo'taloq ko'zlariday katta-katta, dum-dumaloq, olmaday-olmaday keladi! Yana tag'in, chuqur-chuqur, qop-qora! Sag'rirlari enlik-enlik! Sag'rirlari lo'mbillaydi, biliq-biliq etadi!

Tarlonimiz ko'zi ana shu Olmako'zga tushdi! Tarlonimiz bir boshqa bo'lib qoldi! Tarlonni uloqqa soldim — Tarlon Olmako'z tarafga yurdi. Jilovni tortdim — Tarlon Olmako'zga qarab talpindi. Tarlonni uloqchi ot ketidan qo'ydim — Tarlon Olmako'z tarafdan chopdi! Nima qilishimni bilmadim.

Nazir juvozkashga aytgichimni aytdim:

— Ay birodar, shu baytalingizni ko'zdan pana qiling, baraka toping!

Chavandozlar hingir-hingir kuldi. Sho'xchan-sho'xchan gaplar otdi.

Nazir juvozkash ko'pkaridan ketdi.

Shukur qilib, Tarlonni uloqqa soldim. Tarlon tag'in taysalladi. Bo'lmasa, kayfiyati binoyiday bo'ldi.

Toqatim toq bo'ldi. Zardam qaynadi. Qamchi dastasi bilan Tarlon boshiga soldim.

— Padaringga la'nat, mana senga, mana! — dedim.

Tarlon old oyoqlarini ko'tarib-ko'tarib falakka sapchidi. Bo'g'ilib-bo'g'ilib pishqirdi. Olislarni aylanib chopdi. G'arq terga botdi. Peshonasidan terlar oqdi. Baliq og'ziday kappa-kappa ochilib-yopilayotgan burniga sizib tushdi.

Choti aralash qamchi solib-solib, tag'in uloqqa qo'ydim. Tarlon tag'in o'zini keyiniga oldil!

Bu safar qamchi dastasi bilan quloqlari orasiga urdim, yuzlariga urdim...

— Hali kammi? Mana bo'lmasa, mana! Yeganing burningdan chiqqur! — dedim.

Tarlondon egar-abzalini, yuganini shilib oldim. Kallasiga bir urdim.

— Ket, hayvon, ket! Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan! Tortding, aslinggal! Ket! — dedim.

Tarlon yollari selkillab-selkillab qochib qo'ya berdi.

Birodarlar jahl kelganda aql ketadi, deganlari shu-da!

Ko'pkari oxirini qaramadim. Egardabzallarni qo'ltiqlab, uyimizga jo'nadim.

Ayolimiz alag'da bo'lib, Tarlonni so'radi.

— So'rama ayol, so'rama, — dedim. — Termizdan artistlar kelib, klubda teatr qo'ygani esingdami? O'sha teatrda Alisher Navoiy nima deb edi? Hayvонни qancha tarbiya qilma, it bo'ladi, eshak bo'ladi, aslo odam bo'lmaydi, deb edil Navoiy haq ekan, ayol! Bekorga Navoiy, Navoiy, demas ekanlar! Ko'kayim qurib ot boqdim. O'zim yemadim, Tarlonga yedirdim, o'zim ichmadim, Tarlonga ichirdim. Bolalar rizqidan-da urib, Tarlonga yedirdim. Tarlon baribir odam bo'lmadi! Urib-urib haydab yubordim! Bahridan o'tdim! Tarlon ko'r bo'ladi, Tarlonni tuzim ko'r qiladi...

— Bekor qilibsiz-da, ko'p pullik mol edi, — dedi ayolimiz.

— E-e, puli boshimdan sadaqa! Ayol zoti boshdan adoq zarga o'ralgan bilan, shoyi-shomilaga belangan bilan, o'zi yomon bo'lsa, unday ayolning kimga keragi bor? Unday ayolni zari bilan qo'shib, shoyi-shomilasi bilan qo'shib, uch taloq qo'ymoq lozimi! Ot ham shu-da! Yomon ot — yomon ayolday gap! Erkakni el orasida sharmanda qiladi! Mana, Tarlon yuzlab chavandozlar oldida yuzimni yerga qaratdi!

Shunday deyishga dedim. Ana, dedim. Ammo ko'nglim tub-tubida nimadir... nimadir bir nima mayda-mayda ushoq bo'lib-bo'lib ketdi. Tarlon uchun ich-ichimdan rahmim kelib-kelib ketdi...

63

Kechasi bir mahalda katta darvoza do'q-do'q etdi.

Yelkamga choponimni tashlab, tashqariladim.

— Kim u bemahalda kelgan? — dedim.

Tashqaridan ovoz bo'lindi. Darvoza zanjiri shildir-shildir etdi. Oshiq-moshig'i g'iyq-g'iyq qildi.

— Hozir, mana hozir! — dedim.

Borib, darvoza tambasini oldim. Zanjirini yechdim. Darvozani lang ochdim.

— Eb-ey-eb-ey!

Ostonada o'zimizning Tarlon turibdil Bir o'zil

Kambag'al iltijoli pishqirdi, kambag'al tumshug'ini cho'zdi, kambag'al mo'ltayib qaradi.

Nima deyishimni bilmadim, nima qilishimni bilmadim.

— Kelibsan-da... Kelmasang, oq butum qora kuyarmidi... — deya to'ng'illadim.

Tarlon bilan gap qo'shmadim. Yuziga-da qaramadim. Yuzimni teskari burdim.

— Sen ham odam bo'lding-u... — deya to'ng'iladim.

Birodarlar, eshikdan kelgan odamni ket, deb bo'ladi? Bo'lmaydi, bo'lmaydi!

Shu bois, miq etmadim. Gapsiz-so'zsiz ichkari yurdim.

Tarlon ketimdan ergashib keldi.

Borib, otxona eshigini ochib turdim.

Tarlon mo'mingina bo'lib kelib, otxonaga kirib oldi. Ichkari kirib olib, pishqirdi. Endigi pishqirishida ko'ngli to'qlik bo'ldi.

Ustdidan zanjirlab keldim.

64

Ertasi ertalab Nazir juvozkash keldi. Devordan bo'ylab ovoz berdi.

— Ziyodulla chavandoz, berman bir qarang! — dedi. Bir-bir bosib bordim. Devordan qo'l uzatdim. Ko'rishib-so'rashdim.

Nazir juvozkash bola-baqrani so'radi, tomi toshni so'radi. Keyin, mol-holga o'tdi.

— Ha-a, — dedi. — Bizning kuyov qanday? Xo'p damliginami?

O'ylab turdim-turdim. Nazir juvozkash nima dedi, tushunmadim.

Qanday kuyov? — dedim.

— Qanday kuyov bo'lardi, Tarlon kuyovimiz-da.

— E, ha, Tarlonmi? Shukur, shukur.

— O'zi, kuyov keldimi?

— Keldi, ha, keldi. Nima edi?

— Shunday, alag'da bo'lib so'rayapman-da.

Nazir juvozkash bo'lib o'tmish gapni bir boshidan aytib berdi.

Emishki, bizning Tarlon o'sha ketishida to'g'ri Nazir juvozkashnikiga boribdi. Darvozadan kishnab-kishnab kiribdi.

Bu vaqtida Nazir juvozkash Olmako'zini yalan-g'ochlayotgan bo'libdi. Tarlonni ko'rib, hayrondan hayron qolibdi. Nima qilishini bilmabdi, nima deyishini bilmabdi.

Nazir juvozkash nima-da qiladi, nima-da deydi? Kuyov o'z oyog'i bilan o'zi kirib keldi. Eshikdan egilib kelib turgan kuyovga bir nima deb bo'ladi-mi? Bo'lmaydi, bo'lmaydi!

Nazir juvozkash o'ylab qolibdi. Kuyov-ku uyal-madi, kuyov-ku, or qilmadi. Endi men uyalayin debdi, endi men or qilayin, debdi. Chaponi yoqasi bilan yuzlarini berkitibdi, yerga qarab-qarab, uyiga kirib ketibdi.

Birodarlar, kuyovni payg'ambarlar-da siylagan! Ahay-ahay!

Men devorga tirsaklarim bilan suyanib eshit-dim. Boshimni sarak-sarak etib eshitdim.

Tarlon Olmako'zga bo'y berib-bo'y berib boribdi.

Olmako'z hurpayibdi, quloqlarini dikkaytiribdi, yollarini hurpaytiribdi, dumlarini tikraytiribdi. To'lg'onib-to'lg'onib kishnabdi. Orqa oyoqlarini

sermabdi. Tepib yuboraman-tepib yuboraman, debdi.

Tarlon bir sapchib chetlanibdi. Olmako'zni aylanib chopibdi. Dirk-dirk o'ynabdi. Olmako'z tevaragida doira yasabdi.

Tarlon Olmako'zga kift berib-kift berib boribdi.

Olmako'z zinkiyib-zinkiyib pishqiribdi. Tishlarini irjaytirib-irjaytirib g'ijirlatibdi. Tishlab olaman-tishlab olaman, debdi.

Tarlon epchillik bilan chetlanibdi. Olmako'zni aylanib chopibdi. Dirk-dirk o'ynabdi. Olmako'z tevaragida doira yasabdi.

Tarlon Olmako'z bilan yuzma-yuz boribdi. Yuzlarini yuzlariga tekkizibdi.

Olmako'z pishqirib-pishqirib, yuzlarini chetga buribdi. Yuzlarini olib qochibdi.

Tarlon Olmako'zni aylanib chopibdi. Dirk-dirk o'ynabdi. Olmako'z tevaragida doira yasabdi.

Tarlon Olmako'z bilan tumshuqma-tumshuq kelibdi. Olmako'z bilan tumshuqlarini tekkizib-tekkizib iskashibdi. Pishqirib-pishqirib iskashibdi. Olmako'zining og'ziga pishqirib iskashibdi, burniga pishqirib iskashibdi. Olmako'zga bir nimalar debdi, bir nimalar aytibdi. Nimalar debdi, nimalar aytibdi — unisini yolg'iz o'zi bilibdi, yolg'iz Olmako'z bilibdi...

Tarlon ko'ngil beribdi, Olmako'z ko'ngil olibdi!
Ahay-ahay!

Oxir-oqibat... Olmako'z dildorlik beribdi!..

— Yo'g'-e? — dedim.

— Ha-da! — Endi quda bo'ldik, Ziyodulla chavandoz, quda-qudag'ay bo'ldik!

— Hazillashmang-e, juvozkash, hazillashmang-e!

— Behazil, quda, behazil! O'ziyam qayliq o'yini misan, qayliq o'yini bo'ldi-da... O-o-o!.. Kuyovni nima berib boqqansiz, Ziyodulla chavandoz?

Boshimni chayqab-chayqab kuldim. Qo'limni siltab-siltab kuldim.

— Gapingiz qursin-e, juvozkash-e, gapingiz qursin-e!

— Ebo-e, ana qayliq o'yini, mana qayliq o'yini...
O-o-ol..

Yuzlarimni ushlab-ushlab kuldim, yuzlarimni
berkitib-berkitib kuldim.

— Bo'ldi-e, juvozkash-e, bo'ldi-e!

— Ebo-e... Qarang-a! Ebo-e... qarang-a!

— Astarog'-e, ayol eshitadi-el

— Ebo-e... Qarang-al Biz ham yurgan ekanmiz-
da... O-o-o, ana mana!..

— Qanday-qanday?.. Bo'ldi-e, ayol eshitadi-e!

— Siz bilan biz ham... yurgan ekanmiz-da,
Ziyodulla chavandozl O-o-o, ana... mana...!

— Astaroq deyman-e, ayol eshitadi-e!

— O-o-o, haloling bo'l-e, kuyov-e, haloling
bo'l-el..

Xandon-xandon otib kuldim.

— E, tavba-e, e, tavbangdan-e! Sho'xlash-
mang-e, juvozkash-e, sho'xlashmang-el

— Besho'xi, quda, besho'xi! Ana kuyov, mana
kuyov! O-o-o, ana... mana..!

Qah-qah urib keldim.

— Bo'ldi-e... Bizning Tarlon sho'x ekan-da, a,
sho'x ekan-da?

— Ha-da! Egasiga tortganmi, bilmayman! Mol
egasiga o'xshaydi, deydi-ku...

Ketimga chalqayib-chalqayib kuldim.

— Nima-nima? — dedim.

— Mol egasiga o'xshamasa, harom bo'ladi...

Devordan bug'doyday kesak olib, Nazir
juvozkashga otgan bo'ldim. Juvozkash bilagi bilan
betini pana qilgan bo'ldi.

— Astarog'-e, ayol eshitadi, astarog'-el —
dedim. Kaftlarimni kaftlarimga qars-qars urib
kuldim.

— Bizning Tarlon sho'x ekanmi-a, shunchalik
sho'x ekanmi? Ay, Tarlon-e, ay, Tarloni tush-
magur-ey! Qo'llarimni bir-biriga ishqab-ishqab
kuldim.

— Bizning Tarlon sho'x-da, sho'x! Bir sho'x-
lashibdi-da! O'tadigan dunyoda bir sho'xlashayin,
debdi-da! — Kula berib-kula berib, ichlarim og'rib

goldi. Kula berib-kula berib, ko'zlarim yoshlanib goldi.

— Mol egasiga o'xshaydi, deysiz-da? Ay, ukkag'arning qudasi-e! — dedim. — Ayniqsa, ot egasiga o'xshaydi, deysiz-da? Ay, ukkag'arning qudasi-e!..

Garchi qo'limga bir nima ilashmasa-da, devordan kesak olib otgan bo'lidi. Garchi bir nima otilib bormasa-da, juvozkash pusib qolgan bo'ldi.

— Ay, kuchingdan Tarlon-ey, kuchginang-dan-e! — dedim.

Miriqib kuldim, huzurlanib kuldim, maza qilib kuldim!

Bir amallab o'zimni bosib oldim. Yuzko'zlarimni artdim.

— Ha-e, shunday-shunday bo'ladi-da-e! Issiq jonda-e, issiq jon! — dedim. — Qani, ichkarilang, quda, choy ichamiz?

— Yo'g'-e, quda, yo'g'-e. Esimning borida juvozxonamga ketayin. Bo'lmasa, kuyov bo'l mish kelinni ko'rib qoladi-da, tag'in hiqillab yopishadi!

— Shundaymi, unda, maylingiz. O'zi, kelin qaerda, quda?

— Ana kelin, ana!

Devordan uzalib qaradim.

Nazir juvozkash ostidagi otini ko'rsatdi.

65

Samad chavandoz ko'pkarining olgan-olganini — oxirini oldi.

Qaytishimizda barimizni uyiga aytdi. Samad chavandoz uyi oldiga kelganimizda o'ylanib qoldim. Menden bo'lak chavandozlar uyi yaqin bo'ldi. Chavandozlar otlarini bog'laydi-yu, keladi.

Bizniki xiyla olisda bo'ldi. Tarlonni uyimizga bog'lab kelaman degunimcha, qozon ikki qaynaydi. Chavandozlar mening yo'limga qarab o'tirmaydi. Go'shtni yeysi-qo'yadi!

Yana tag'in, erinib, kelolmasligim-da bor.

O'ylab-o'ylab, qoladigan bo'lidi. Nafs qurg'ur yomon-dal!

Tarlonni darvoza ustuniga bog'ladim. Ko'pkari-dan olgan gilam, to'nlarni egardan oldim.

Shunda, ko'chadan kenja qaynimiz Qoraqul o'tdi.

— Yo'l bo'lsin? — dedim.

— Siznikiga, — dedi qaynim.

— Ma, Tarlonni-da ola ket, — dedim.

Qaynimni oyog'idan olib, otga mindirib yubor-dim.

Samad chavandoznikida yonboshlab olib, tana ilik so'rdim.

Chavandozlar bo'lib o'tmish ko'pkari gurungini qildi. Otlarga ta'rif berdi. O'zlaridan o'tgan xatoliklarni betlarga aytdi. Yaxshiliklarini yodladi. Bir-birlari yelkalariga qoqdi, tizzalariga shapatiladi.

— Ay, yasha-e, yasha! — dedi.

Chavandozlar hamroz bo'ldi. Bir-biriga aql bo'ldi.

Samad chavandoz mixda osig'liq do'mbirasini oldi. Tinqillatib-tinqillatib sozladgi. Chertib-chertib boshladgi.

Xayollarga g'arqob bo'lib yonboshlab yotib edim, gal menga keldi. Men chordona qurib o'trib oldim. Bilaklarimni turdim. Do'mbirani sozimga soldim. Hakkalabosim-hakkalabosim nag'malardan chaldim. Chavandozlar ko'nglini qitiqladim.

Samad chavandoz o'tirgan yerida yelkalarini qoqib-qoqib o'ynab qo'ya berdi!

So'zni so'zga cho'qishtirdim, gapni gapga urishtirdim, otlarni nag'malarga soldim. Otlar ashula bo'ldil Ahay-ahay!

*Bul sag'ringga qarayman
Kuyovli qiz yotguday.
Burningdan chiqqan damingga
Karrak bossa yonguday.
Quloqlaring orasidan
Qo'shtegirmon suv o'tguday!..*

Birodarlar, ashula ichidagi ot bor-ku? O'sha o'zimizning Tarlon, ha!

Ana, Tarlon dirk-dirk o'ynadi. Beponyon Vaxshivor adirlariga qarab kishnadi. Zalvorli adirlardan aks sado keldi...

Yo, sizning otingiz-da bizning Tarlondaymi? Bizning Tarjonga kelbat beradimi? Unda, sizning otingiz-da ashula bo'libdi-da? Ahay-ahay!

Hadeb otни ashula qila berish bo'lmas! Endi chavandozlariga-da o'tayin! Kimni ashulaga solsam ekan? Shu burchakda o'y surib o'tirgan Odina chavandozni ashulaga solsammikin? O'ttizni urib qo'ydi, hali-da uylanmadi! Bir qitig'iga tegayin! Zora, yigitlik g'ururi varaja qilsa! Ahay-ahay!

*Qidirib chopsang biror kun
Keng Qo'ng'irotning to'yini,
Olib yotsang, jo'rajon
Qora uyning to'rini,
Olib quchsanq naylayin
Burni kulgan bir parini,
Shu chiqarar kuygan yurak cherini!*

— Ha, do'-o'-o'stl!

— Qo'yma, Ziyodulla chavandoz, qo'yma! Chavandozlar gap qayoqqa borayotganini bildi. Gap egasi-da o'zini bildi, o'zini tanidi. Ko'zlari pir-pir etdi. Ko'zlari yerga qadaldi.

Birodarlar, bo'ydoqning aqli ikki ko'zida bo'ladi!

Men endigi gapimni nag'malarsiz aytdim:

— Odina chavandoz deyman-ov! Yigitning boshi ikkita bo'lmagunicha, moli ikkita bo'lmaydi! Uylan-da endi, birodar! Og'zingga tolqon solganday miq etmay yurasan! Ayt-da, o'zi nima gap? Biz se ning uzangi yo'ldoshlariningiz! Yaxshi kuningga da, yomon kuningga-da yaraymiz!

Chavandozlar gapimni quvvatlab turdi, ma'qul lab turdi.

Oxiri, Odina chavandozdan sado chiqdi! Odinasi qurg'ur, bizning qaynsinglimizni ko'z ostiga bosib yuribdi ekan! Ana, gap! Bir safar sovchi-da qo'yibdi, ammo qaynonamiz yo'q, debdi! Ana.

— Odina chavandoz-ov, yosh yigit ko'zi bilan qiz olma, deydilar. Bizning qaynisinglimizdan boshqasi bo'lmaydimi? — dedim.

— Yo'q, bo'lmaydi! — dedi Odina.

Odina chavandoz olamda bizning qaynsinglimizdan o'zgasini tan olmas emish! Qaynsinglimiz olamda yakkayu yagona emish!

— Yo'g'-e? — dedim.

— Ha! — dedi.

— Chiningni ayt? — dedim.

— Chinim! — dedi.

Birodarlar, dil ketgan emish, dil! Ahay-ahay!

— Ay, Odina chavandoz, unda, qo'lni ber, o'zim sovchi bo'laman! — dedim. — Qaynsinglimni senga olib berib, sen bilan boja bo'lmasam, Ziyodulla chavandoz otimni boshqa qo'yaman! Shu kundan e'tiboran, ikkovimiz boja! Ay, Odina chavandoz-ov, nariroq o'tir, boja bojani ko'rsa... — dedim.

66

Birodarlar, yosh bolaga ish buyur-u, izidan o'zing yugur, degani haqqost chin bo'ldil!

Qaynimiz nima qilibdi deng? Qaynimiz uyimiz oldidan oqadigan ariqqa kelib, Tarlonni suvg'a qo'yibdi. G'arq terga botib turgan Tarlon to'yib-to'yib suv ichibdi. Keyin, Tarlonni otxonaga olib kirib bog'lab qo'yibdi...

Ertalab Tarlonni otxonadan yetaklab chiqdim. Aylantirib qaradim. Qorin etlari dir-dir uchdi, pir-pir uchdi!

Birodarlar, otga suv tushsa ana shunday bo'ladi! Tarlonga suv tushibdi!

Ay, qaynim-e, ay, kalla-e! Endi senga nima deyin? Ot g'arq terga botsa, suv ichirib otxonaga bog'lab bo'lmaydi, deyinmi? Mabodo ichirsa, xiyla yo'l yurish lozim bo'ladi, bo'lmasa otga suv tushadi, deyinmi? Keyin, ot ko'pkariga yaramay qo'ladi, deyinmi! Maktabda komsomollar kattasi bo'lsangda, shuni-da bilmaysanmi, deyinmi? Bitta-da to'rti yo'q a'luchi Qodirov Qoraqul bo'laturib, shunga-da

farosating yetmadimi, deyinmi? Omon surnaychining qizi bilan partaning ostidan xat olishib-xat berishib turishga yetgan aqling shunga yetmay qoldimi, deyinmi? Mendayin bir kal bo'lsang ekan, aqli sochi bilan qo'shilib to'kilib ketgan desam, deyinmi? Kallang to'la jun bo'lsa, deyinmi?

Demayin, demayin! Qayniga ilkis gapirib bo'ladimi...

Opasi bizda!

67

Tarlonni mindim, suvini tushirish bilan mashg'ul bo'ldim.

Ko'pkarilarga minib bordim.

Borsam-da, chopmadim. Birovlar otida chopdim.

68

Vaxshivordagi bir ko'pkarida-da shunday bo'ldi.

Mag'ribdag'i oppoq tog' Keragatog' bo'ldi.
Keragatog' Hisor tog'lari davomi.

Keragatog'ni yaqin deb bo'lmaydi. Purviqorligidan bir qadam bo'lib ko'rindi. Keragatog'dagi mayda-mayda olachiporlar archa bo'ldi. Aslida archalar-da mayda emas. Olisdan mayda ko'rindi. Archalar ulkan-ulkan, bo'yi qayrag'ochday keladi. Beli odam beliday keladi.

Qirlar, adirlar qor bo'ldi. Amirlar o'ngiridagi Qorbosdi dashtida qora bo'ldi. Etik ko'mar qor bo'ldi.

Qorda jonivorlar izi bo'ldi. Izlar tevaragida tovuq patlari sochilib yotdi. Bular tulkilar ishi bo'ldi. Besh panjali izlar bo'rinki bo'ldi.

Osmon yuzi pokiza bo'ldi.

Boshimizda kun yondi. Kun betiga qarab bo'lmadi. Bاليq tangasiday-bاليq tangasiday qor uchqunlari yilt-yilt etdi, ko'zdan yosh oqizdi.

Tevarak moyakdayin ravon, supradayin oq bo'ldi. Qayer chuqur, qayer o'r, bilib bo'lmadi.

Ko'nglimga hadik tushdi. Uloqqa oyog'im tort-

259

madi. Kelishga-ku-keldim, endi chopayin, dedim.
Chopadigan bo'ldim.

Jo'ra boboning otida chopishni azm etdim.

— Ko'zingga qarab chop! — dedi Jo'ra bobo.

Ko'nglimga yanada hadik tushdi. Telpagimni qoshimgacha bostirib, ko'zimni kundan pana etdim. Ichimda kalima qaytardim. Supraday oppoq dashtda uymalashayotgan qop-qora to'daga qarab yurdim.

Chavandozlar bilan otlar nafasi bug'lanib-bug'lanib yoyildi. Otlar chopishini ko'rib, otlarga rahmim keldi, kulgim-da keldi. Otlar oyog'ini qordan zo'rg'a oldi. Tor-tor odim otdi. Yo'rtib yuratganday bo'ldi. Zabtli-zabtli chopolmadi. Oyog'i qorga botib-botib qoldi.

Qor, ot ko'zini shafaqlatdi, ot ko'zini oldi.

69

Uloqqa ko'nglim chopmadi. Chetroqda tomosha-go'y bo'lib turdim.

Shunda, ajab bir chavandoz ko'rdir. Qo'limni qoshim ustiga qo'yib ko'rdir.

Chavandoz ostidagi ot maydagina, yermitti ot bo'ldi. Sariq junlari buzoqnikiday uzun-uzun bo'ldi.

Uzangisiz shekilli, chavandoz oyog'i qorga shalvirab-shalvirab turdi.

Kulgim keldi. Bu chavandoz kim bo'ldi ekan, deya yaqinroq borib qaradim. Chavandoz betiga qarab, angrayib qoldim. Kulgim qochib ketdi. Bu chavandoz... o'sha qatron bo'ldi! Qatron kal bu yoqlarda nima qilib yuribdi?

To'da naryog'ida turgan Jo'ra bobo oldiga bordim. Jo'ra bobodan so'radim.

Jo'ra bobo qo'l siltab javob berdi.

— Bir yaxshiga bir yomon har yerda bor. Darrov tanidingmi? — dedi.

— Kalladosh bo'lgandan keyin taniymiz-da... — dedim.

Qabatimdag'i birov gapga aralashdi:

— Shu, boshqarmaning eski boshlig‘imi? O‘zim ham aytdim-a, bir gap bor deb.

— Nima bo‘pti?

— Kal deganimni ko‘nglingizga olmang-u, Ziyodulla chavandoz, bu kalning yuzi qursin! Ana, xalqning qarg‘ishi urdi!

— Indamagin kalga — o‘zi kelar holga, deydlar.

— Otangizga rahmat. Ana, ko‘chada itday tentirab qoldi.

— Nima sizlarga-da kelib edimi?

— Eha, siz so‘ramang, men aytmayin! Otlarni qiyratib ketdi! Shu to‘y xo‘jasni oshnasi bo‘ladi, buniyam oti qolmadi! Bechora o’shanda oti ketidan yig‘lab qoldi! Kal endi to‘yiga kelib o‘tiribdi! Bilmayman, qaysi yuz bilan keldi. O‘zi, kallasi bilan yuzining farqi yo‘q ekan...

— Unga o‘zi otni kim berdi?

— O‘zi so‘radi. O‘zi dir-dir qaltiraydi, botinkasini botinkasiga uradi. G‘irt mast! Hojiquylboy ham bopladi! Hurmat qilgan bo‘lib, bir eshakday ot ni o‘ngladi. Siz kattasiz, yaqinroqdan borib ko‘pkarini nazorat qilib turing, dedi. Bechora ishonib, ko‘pkariga rahbarlik qilgani keldi.

— Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi...

Chavandozlar otini zo‘r berib niqtadi, sag‘risiga qamchi bosdi. Hayqiriqlar berib, uloqqa chorladi.

Bakovul to‘dani aylanib, haybarakallachi bo‘ldi:

— Ot qo‘y! Ha, ot qo‘y!

Qatron kal, hayqirib chorlayotgan chavandozlarini tartibga chaqirib turdi:

— Shovqin, o‘rtoqlar, shovqin! Shovqin kamroq bo‘lsin! — dedi.

Bir chavandoz oti uloqqa bora bermadi. Shunda chavandoz otini qamchi ostiga oldi.

— He, padar la’nati! Mana, bo‘lmasa, mana! — dedi.

Qatron kal chavandozga ogohlantirish berdi:

— So‘kinmang, o‘rtoq chavandoz! Bu yer jamoat joyi! — dedi.

Chavandoz eshitmadni.

Ammo bakovul eshitdi. Qatron kalga xo'mrayib-xo'mrayib qaradi.

— Kal o'zini ovutar — qo'ltig'ini sovutar, degani shu-da — deya to'ng'illadi.

70

Birodarlar, ko'nglimda armon bolaladi!

Tarlon yaxshi bo'lsa edi, uloqqa solardim...
Qatron kalga bir ko'rsatib qo'yardim...

Jo'ra boboning To'rig'i gijingladi. Jilovni sil-kib, uloqqa talpindi. To'riq uloq ayirgisi keldi! Bunday vaqtida otni yo'lidan qayirish insofdan bo'l-maydi. Otni suvg'a olib borib, quruq qaytarib kelish bo'ladi. Oqibat, ot yomon o'rganadi. Uloqdan, chavandozdan ko'ngli qoladi.

Jo'ra boboning To'rig'i jilovni tag'in silkidi. Shunda, to'daga soldim.

Uloqni bir saman Burnoch bilan baravar olib chiqdim! Saman Burnoch abjirroq bo'ldi, yo'lini burib soldi.

Uloqqa ushlashib bora berdim. Bir mahal qo'limsovuuqqa qotib, uloqdan chiqib ketdi.

Shunday bo'lsa-da, Jo'ra boboning oti Burnochdan qolmay chopdi. Uloq bilan oramiz bir qulochcha bo'ldi. Ketimizdan otlar chopib keldi. Bunday vaziyatda uloqqa uzalish qaltis bo'ladi. Boisi, ketimizdan kelayotgan otlar abjirrog'i oramizga yorib kiradi, uzalgan qo'lni sindirib yuboradi...

Shu boisdan uloqqa qo'l uzatmadim. Jo'ra boboning otini burib ketdim.

Men endi qizib boshladim. Badanim jimirlab, varaja qildi. G'ayratim keldi.

Uloqni bir Buyra ot ko'tardi.

Junlari qo'zichoq junlariday jingala-jingala, ko'zlar olako'z-olako'z otni ko'rib edingizmi? O'lman! Buyra ot ana shu! Buyra ot olako'z bo'ladi!

Bu safar Jo'ra boboning oti uloqqa jipsroq chop-di. Uloqdan bir qadamcha keyinda. Chil ot sag'risi baravar chopdim.

Bunday vaziyatda uloqqa uzalish o'ta, o'ta qaltis bo'ladi! Boisi, bordi-yu, uloqni yulib olsam, uloq kelib otimning ko'kragiga, undan keyin tizzalariga zabitli kelib uriladi. Oqibat, ot qoqlib yiqladil!

Bunday uloqni olishning yaxshi yo'li bor. O'zib o'tayotib, ha-ha, o'zib o'tayotib, uloqni yulib olib ketish lozim bo'ladi.

Shunday qilmoqchi bo'ldim. Uloqni uzalib ushab, Jo'ra boboning otiga qamchi bosdim. Ammo Jo'ra boboning oti bizning Tarlondayin olg'a emas, yoniga burib soldi.

Uloq mening qo'limga o'tdi. Uloqni dast ko'tarib ololmadim. Uloq Jo'ra boboning oti ko'kraklariga, undan o'tib, old oyoqlariga zabitli kelib urildi. Jo'ra boboning oti bir munkidi. Endi munkishida oldiga egildi.

Qo'limda uloq bilan ot boshidan oshdim...

71

G'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz eshitdim.

Ko'zimni ochib, osmonrang olamni ko'rdim. Yaxshilab qaradim, ko'rayotganim osmonning o'zi bo'ldi.

Hayron bo'lib, tevaragimga alangladim. Tevaragimda Jo'ra bobo bilan besh-olti uzangi yo'ldoshlarim turibdi. Oyog'im tarafda otlar turibdi.

Uzangi yo'ldoshlarim jonlandi.

— Ko'zini ochdi, xayriyat-e, — dedi.

— O'ziga keldi, betiga yana qor surtinglar.

— Ziyodulla chavandoz, qalay suyaklar yengilmi?

Shundagina nima gapligini bildim. Joyimdan turmoqchi bo'ldim. Uloq ushlagan o'ng qo'lim qimirlamadi. Go'yo joni yo'qday bo'ldi. Bor kuchim bilan intildim. O'ng qo'lim zirillab og'ridi. Ko'z oldim xira bo'ldi. Oppoq qor qop-qorayib qoldi...

— Turaman deyapti, turg'izinglar.

O'zimga kelib, ko'zimni ochdim. Oyoq tarafimdag'i otliqlardan birovi qatron kalligini bildim.

263

Qatron kal betiga sinchiklabroq qaradim. Kal yuzlarida xushvaqtlik bo'ldi, tabassum bo'ldi. Kal — kalga kuldil!

Qatron kal tevaragidagilarga qarab gapirdi:

— Men bundan ko'p yillar muqaddam aytgaman, ko'pkari eskilik sarqiti, salomatlik dushmani, hayot uchun xavfli deb! Mana isboti! — dedi. — Mana shu otini go'shtga bermay, men bilan qonunlashgan! — Mana oqibati! Go'shtga topshirib yuborganida bunday falokat bo'lmas edi! Ana endi mayib-majruh bo'lib qoladi, tamom!

— Yaxshi otdan yiqilsa, yomon ta'nachi bo'ladi!

Bu gapni Jo'ra bobo aytdi. Bobo bir o'q bilan ikki quyonni urdi!

Men og'zimda qo'lansa bir nima tuydim. Jag'larimni qimirlatdim. Bir nima g'ijirladi. Tilim uchi tishlarim orasiga kirdi. Barmog'imni og'-zimga solib ko'rdim. Barmog'im qon bo'ldi. Yonimga yashirib, o'ngirimga artdim. Bildim, og'zimdagi qo'lansa is qon bo'ldi. Lunjlarimda g'ijirlab o'ynayotgan tishim bo'ldi. Tilim uchi kirib chiqayotgan kavak tishim joyi bo'ldi.

Ko'nglimda nimadir bir nima qo'zg'oldi. Kuchanib-kuchanib, bor vujudimni tarang etdim. O'ng qo'lim zir-zir og'ridi. Chap tirsagimga suyanib qo'zg'oldim.

Uzangi yo'ldoshlarim qo'ltig'imdan oldi.

Bir amallab joyimdan turdim. Boshim aylanib-aylanib ketdi. Ko'z oldim zim-ziyolandi. Tishimni tishimga qo'yib kuchandim. Tosh bo'ldimi! Olam yana asliga keldi.

Og'zim limmo-lim qon bo'ldi. Sag'al xayolladim, og'zimdan otilib ketaman-otilib ketaman, dedi. Qaerga tupurishimni bilmadim. Tevarak oppoq, tupursam, qor qip-qizil bo'ladi. Keyin, Qatron kal qonni ko'radi...

Mening ko'zim Qatron kalda, Qatron ka'l ko'zi menda bo'ldi!

Bo'ljadi, bo'ljadi! Og'zimdagi qonni tishim bilan qo'shib, ichimga yutib yubordim! Yana bir yutinib, qolgan qonlarni-da yutdim!

Kiprik qoqmay, alp-alp odim otib, Jo'ra boboning oti oldiga bordim. Chap qo'lim bilan egar qoshidan olib otlandim. Shunda, o'ng qo'lim yomon og'ridi...

Jilovni chap qo'llab ushlab, to'daga yurdim. O'ng qo'limni qimirlatmadim.

Ulog'ini berib qo'ygan chavandoz ko'ngil so'radi.

— Qalay, chavandoz, biron yeringiz lat yemadimi? — dedi.

Kulimsirab, sog' qo'limni siltadim.

— Mijjamga-da kelmadi. Ust-boshimga sag'al qor ilashdi, — dedim. Hamon angrayib qarab turgan qatron kal, gaplarimni-da angrayib eshitdi!

Zirq, zirq! Uh, qo'lim-a, qo'lginam-a!..

O'ng qo'limni avaylab, qo'ynimga soldim. Bir oz orom oldim.

Uloq ko'tarildi. To'da ketidan chopdim. Beixtiyor qo'limni qo'ynimdan oldim.

Zirq, zirq! Uh!..

Uloq kimda ketdi, bilmadim. Otlar ketidan shunchaki chopib bordim.

Qo'limni yana qo'ynimga soldim. Jo'ra boboning otini uloqqa niqtadim. To'riq zor bo'lib turgan ekan shekilli, to'dani yorib kirdi-qo'ydi! Ich-ichimdan zil ketdim! Endi uloqni qanday ko'taraman?

Nima qilishimni bilmay, gangib qoldim, Bovujud, bir Saman yo'limizni yopib oldi. Jo'ra boboning oti uloqqa borolmay qoldi.

Shundagina ko'nglim tinchidi. Yengil nafas oldim. Samanga qarab, boringga shukur-e, dedim.

Zirq, zirq!..

Boshqa vaqtłari ana shunday qarab tursam, uloq men tarafga kelmaydi. Kelib-kelib, uloqli ayni shunday vaqtida menga qarab yursa bo'ladim! Men uloqqa zormidim, dardim uloqmidi...

Ana, uloq keldi! Barcha qarab turibdi. Ayniqsa qatron kal!

Men tishimni tishimga qo'ydim. Og'riq qo'limni

uloqqa uzatdim. Bor kuchim bilan butidan changal-lab ushlagan bo'ldim. Aslida, barmoqlarimni uloq junlariga shunchaki tegizib turdim!

Zirq, zirql..

Go'yo uloqni olib ketmoqchiday bo'ldim. Jo'ra boboning otiga ayqirib qamchi bosdim.

— Ha, jonivor-al — dedim.

Jo'ra boboning oti uloqdan keyinda qolib ketdi.

Men xo'jako'rsinga bosh irg'adim! Qamchili qo'limni alamli siltadim. Go'yo, hay, attang-a, omad kulib boqmadi, dedim. Omaddan noligan bo'ldim.

Zirq, zirql..

Xayriyat, xayriyat-e, ko'pkari sob bo'ldil

73

O'zimizning Tarlonni minib, uyga keldim.

— Chopib borib, do'xtirni aytib kelngilar! — dedim. Xudoyqul do'xtir bir quticha ko'tarib keldi. Og'riq qo'lim yengini silkib tortdi.

Men ingrab yubordim!

Zirq, zirql..

Yengim hadeganda sug'irila bermadi. Shunda, Xudoyqul do'xtirga pichog'imni olib uzatdim.

Do'xtir yengimni pichoq solib ayirdi.

Tirsagim yo'g'onligi sog' tirsagimdan uchov keldil Tirsagim tirsillagan shish bo'ldil

Xudoyqul do'xtir bosh chayqab-bosh chayqab, meni mashinasiga soldi. «Xazorbog» sovxozi bemorxonasiga olib bordi.

Do'xtirlar shishgan qo'limni bir apparat ostiga qo'yib ko'rdi.

— Ko'p qo'rwmang, tirsakdan chiqibdi, xolos, — dedi.

Qo'rqarmidim-e, qo'rqarmidim! Qo'lim chiq-qanini otdan yiqilibiq bilib edim!

Birodarlar, og'zing qora qon bo'lsa-da, g'anining oldida tupurmal!

Shu yotishimda yigirma kundan ko'p yotdim.
Nihoyat, do'xtirlar gipsni oldi, uyg'a javob berdi.

Ko'ngil so'rab keluvchilarga qo'limni yalan-g'ochlab ko'rsatdim. Hasan bobo qo'limni aylan-tirib ko'rди.

— Eb-ey, qiyshiқ-kul — dedi Hasan bobo.

E'tibor berib qaradim, qo'lim chindan-da tirsagimdan qiyshiq bo'ldi.

— Qurbon tabibga bor, nima gapligini aytadi, — dedi Hasan bobo. Ertalab Tarlonni mindim. Qoraxonga yo'l oldim.

Bir vaqtłari Qoraxonda Xidir degich bo'ldi. Odamlar uni Xidir mirob, dedi. O'zi, miroblik qilardi-da!

Ana shu Xidir mirob chiqqan suyaklarni joyiga soldi, singan suyaklarni davoladi.

Shu odam ketdi! Qayoqqa? Qayoqqa bo'lardi, qiyomatga-da!

Shunday odam-da ketdi-yal Hech ishongim kel-maydi! Men, bunday odamlar dunyo turguncha turadi, deb o'yladim. Keyin-keyin bilsam, birov-da bu dunyoga ustun bo'lolmas edi...

Shu odamdan Qurbonnazar degan o'g'il qoldi. Qurbonnazar otasining qo'lini olib qoldi. Otasi og'ziga tupurgan bo'lsa ajab emas!

O'zi, rais! Lekin men raisman, demaydi! Kattaga-da bir, kichikka-da bir!

Shu odamning darvozasini qamchi dastasi bilan taq-taq urdim. Ichkaridan bir zaifa chiqdi.

— U kishi ishdalar. Kirib o'tirib turing, hamzamat kelib qoladilar, — dedi zaifa.

Qurbonnazar mehmonxonasiga salom berib kirdim.

Zaifa dasturxon yozib ketdi.

Choyni o'zim quyib, o'zim ichib o'tirdim.

Qurbanazar ukamiz keldi.

Quchoqlashib ko'rishdim. Taomlardan keyin dardimni aytdim.

Qurbanazar dasturxon chetini qayirib qo'ydi. Oldimga siljib keldi.

— Qani, yeching qani, — dedi.

Qo'limni yalang'ochlab tutdim. Qurbanazar qo'limni aylantirib ko'rdi, uyoq-buyog'ini ko'rdi. Yelkamdan barmoqlarim uchigacha siladi. Bo'g'inlarim qo'shilish yerida sabr qildi. Ayniqsa, tirsagimda ko'p sabr qildi. Ko'zlarini yumib turdi.

Xayolimda, Qurbanazar tirsagimdan bir nimalarni eshitdi. O'zicha bosh irg'adi. Yana eshitdi. Ko'zlarini yumib eshitdi.

Hayron bo'lib qoldim. Avvalambor, tirsagim nag'ma chalayotgan radio emas, televizor-da emas! Bor-yo'g'i et bilan suyak! Yana aytSAM, eshitgan odam qulog'i bilan eshitadi-da! Nima, qo'li bilan eshitadimi?

Lekin bu gaplarni Qurbanazarga aytmadim. Ichimda aytdim. Qani, nima deyar ekan, deb sabr qildim.

— Bekor ovora bo'libsiz-da. Sag'al lat yegan ekan, yaxshi bo'p ketibdi. Do'xtirlarning gipsi tuzatibdi, — dedi Qurbanazar.

— Men sizga aytSAM, kelmas edim, Hasan bobo qo'ymadi, bor-chi bor, deb.

— Ha, mayli, Kelganingiz yaxshi bo'pti. Shu bahona bir mehmon bo'p ketasiz. Qani, yoting, bir muolaja qilib qo'yayin. Yana qaytib lat yemaydigan bo'ladi.

Men ko'rpaChaga cho'zildim, yostiqqa bosh qo'ydum. Qurbanazarga qo'limni berib, shipga qarab yotdim.

Qurbanazar barmoqlarim uchidan boshlab uqaladi.

— Ko'zingizni yuming, yaxshi bo'ladi, — dedi Qurbanazar. — Ha, ana shunday! Endi, pinakka keting! Go'yo, uxlayotgan bo'ling. Qo'lingiz pishiq suyakli ekan. Ilgarilariyam otdan yiqlilib, lat yeganmisiz?

— Yo'q, — dedim.
— Nimaga kelib-kelib, endi shunday bo'ldi?
— Ot o'zimniki emas edi. Jo'ra boboning oti
menga tushunmadi, men otga tushunmadim.
Oqibati mana shunday bo'ldi.
— Ha-a, o'zingizning otingiz qayerda edi?
— Bizning Tarlonga suv tushib edi.
— Otga suv tushishini-ku, bilaman. Ot oyog'iga
yem tushdi, degani nima degani?
— Ot oyog'iga yem tushsa, oyog'i qotib qoladi.
Paylari dirillab-dirillab uchadi.
— Ha-a, har ikkovidayam ko'pkariga chopib
bo'lmaydi-ya?
— Esa-chi.
— Qora ot yaxshi bo'ladimi, yomon bo'ladimi?
— Yomon bo'ladi. Qora ot o'jar, serjahl bo'ladi.
— Ha-a. Seton-Tompson ham shunday yozgan.
Demak, chin ekan-da.
— U chavandoz qayerdan?
— U chavandoz emas, kanadalik yozuvchi.
O'zining «Yovvoyi yo'rg'a» degan kitobida shun-
day yozgan.
— Kim bo'lsa-da, otni bilar ekan.
— Ot xomlab qoldi, deydi, u nima degani?
— Unda, ot moy tashlaydi. Keyin, ko'pkari-
ga yaramay qoladi. Boqilgan otni bilib-bilmay
chopib qo'ysangiz, ot ichida moy to'lib qoladi.
Bunday otni-da bir yilgacha ko'pkarida chopib
bo'lmaydi.
— Ha-a, Ot odamni bosmaydi, nimaga shunday?
— Boisi, ot odamzotni ulug'laydi. Odamzotga
vafo qiladi. Hayvonlar ichida ot bilan it shunday.
Pishakni-da shunday deyishadi. Men bu gapga
qo'shilmayman. Pishak suyuqyoq ayolday gap.
Kim qornini to'yg'azsa bo'ldi, pish-pish, deya
boshini silasa bo'ldi, ketidan ergashib keta beradi.
Eshik egasini tanimaydi, pishak bekasini tanimay-
di. Keyin ot joyida taqqa to'xtay oladi. Eng yaxshi
mashina qaysi mashina? O'lmand! Ot tormozi, ana
shu «Chayka» tormozidan-da yaxshi ishlaydi.
Oldida odam borligini ko'rdimi, bo'ldi, taqqa

to'xtaydi. Bordi-yu, dovdirab qolsa, odam ustidan oshib o'tadi.

— Ha-a. Aytishlaricha, ayol boqqan ot yaxshi bo'lar emish. Shu chinmi?

— Esa-chi. Boisi, ot sag'ali kam oadamday bo'ladi. Qonida pichagina devning qoni bor, xolos. Otga yem bergani borsak, u hamisha bizga suykanadi, erkalik qilgisi keladi. Bizni iskaydi, dumil bilan yelkamizga uradi. Shunda biz uni tek o'tir-e, sabil qolgur, deb qamchilaymiz. Bu qilig'imiz otga malol keladi. Ayol bizga nozlanib suykalasa, shunda uni jerkib tashlasak, ayolga qanday malol keladi? Ot ham shunday-da! Ot ko'ngli ayol ko'ngliday nozik bo'ladi. Ayollar bo'lsa, otni urmaydi, otning erkasini ko'taradi. Ayolning muloyim tabiatni otga xush kelib qoladi. Ayol boqqan otning yaxshi bo'lishiga yana bir sabab, ayol hamisha uyda bo'ladi. Ayol ichkari kiradi, tashqari chiqadi. Otning ko'zi ertadan kechgacha ayolga tushib turadi. Ayol ot kishnaganda darrov yemini beradi, suvini beradi. Biz erkaklarning bo'lsa, uyda borligimizdan, uyda yo'qligimiz ko'p bo'ladi. A-a-ay, o'ldim-el...

Tirsagimda bir nima qirs etdi. Vujudim qizidi, peshonamdan ter chiqdi. Qurbannazarga qaradim. Qurbanazzar kulimsib turibdi.

— Ana endi qo'lingiz yaxshi bo'ldi, — dedi Qurbanazzar.

Ana shundagina Qurbanazzar meni jo'rttaga gapga solib, meni gap bilan alahsitganini bildim.

Meni, aldab-avraganini bildim...

Xyla yotdim. Og'riq tindi. Shundan keyin joyimdan turdim.

Qurbanazzar qo'limni ipga solib, bo'ynimga osib qo'ydi. Dori-da ichirmadi, igna-da suqmadi, rasmaga-da turishmadi.

— Vrachlar qo'lingiz chiqqanini ko'rib-bilib gipsga solgan, — dedi. — Vrachlar hamisha shunday qiladi. Kitoblarida shunday yozilgan-da. Agar kelmaganingizda qo'lingiz hadeb qo'zg'ala berib-qo'zg'ala berib, o'ynama bo'lib qolardi. Endi

butunlay bitib, asliday bo'ladi. Oz-ozdan mo'myo tanovul qilib turing, suyakka madad bo'ladi...

Oqshom qo'nguncha gurunglashib o'tirdim.

Keyin, otlanib qaytdim. Qaytayotganimda Qurbonnazar bot-bot tayinlandi:

— Tag'in, qo'lingizni solganimni birovga aytib yurmang. Yaxshi bor, yomon bor... — dedi.

Uyga borgunimcha o'ylab bordim. Ay, do'xtirlar-e, nimaga qo'lim chiqqanini ko'ra-bila turib gipsga solding? Ko'ra-bila turib qotirib tashlading? Bilasan, chiqqan suyak joyiga tushmasa, hadeb qo'zg'ala beradi! Odamni yarimjon qilib qo'yadi! Umr bo'yi qiyndil! Bilmasang, Qurbonnazardan so'rab bil! Yo Qurbonnazar tabibga bor, del Chopib kela beraman!

Bovujud, Qurbonzarlar bor... Hali-hali Qurbonnazar bor, keyin-keyin nima qilamiz?

76

Birodarlar, uchastka militsionerimiz odam bo'lib qoldi!

Ha, odam bo'lib muomala qildi, odam bo'lib gapirdi.

— Qanday, jiyanlar katta bo'layaptimi, suyaklar yengilmi, aka?... — dedi.

— Shukur, shukur, — dedim.

— Ikki marta kelib ketdim...

— Ayolimiz aytdi, yo'qladi, dedi.

— Chavandozchilikda shunday-shunday bo'ladi-da, aka. Odamlar samolyotdan tushib ketayapti. Siz yiqilsangiz, otdan yiqilibsiz-da.

— Shunday, shunday...

— Qalay, endi tuzuk bo'p ketdingizmi, aka?

— Shukur, shukur?

— Unda, rayondan bir xabar oling, aka. Kaptitan ko'p so'radi, aka.

— Maylingiz, inim, maylingiz.

Endi, bir dushman ko'zi qilayin, dedim. Qo'limdan ipni olib tashladim. Qo'limni qo'ynimga solib oldim.

Otlanib, rayon bordim.

Kapitan katta eshididan ichkariladim. Ichkarida o'sha beqasam choponlik odamni ko'rdim. Bechora, yuzlari yarasi hali-da bitmabdi, bechora...

Beqasam choponlik meni tanimadi. Kapitan katta tanitdirdi.

Shunda, beqasam choponlik meni bot-bot bag'riga bosdi. Kipriklari nam bo'ldi...

Biqinma-biqin o'tirib dardlashdim. Zot-boborakotini, mazgilini so'radim. Beqasam choponlik •Navoiy• kolxozidan bo'ldi, oti Rahmon bo'ldi.

Rahmonboyning ko'ngli buzildi. Ovozi qaltirab chiqdi:

— O'la-o'lgunimcha sizga qulluq qilib o'taman, mana ko'rasiz, — dedi.

— Unday demang-e, nima karomat ko'rsatdimkin, menga qulluq qilasiz, — dedim.

Kapitan katta ishlarini aytib bordi. Ishlar deyarli hal bo'libdi. Bezorilarni ushlab, Rahmonboyga yuzma-yuz qilibdi. Rahmonboy shular edi, debdi. Lekin bezorilar tonibdi, aybini bo'yninga olmabdi.

Gap menda qolibdi.

— Hozir olib keladi, — dedi kapitan katta.

Aytganiday, bir millitsioner bo'zbolalarni haydar keldi. Birovi o'tirmoqchi bo'ldi.

Kapitan katta:

— Tur, tur deyman! — deb baqirib berdi.

Bo'zbola qo'llarini qovushtirib qotib qoldi.

— Manavi odamni taniysizmi?! — dedi kapitan katta.

Bo'zbolalar men tarafga sigir qarash qildi.

— Tanimaymiz, — dedi.

Kapitan katta menga yuzlandi.

— Shularmi? — dedi.

— Shular, ha, shular, — dedim.

— Olib keting bularni! — dedi kapitan katta.

Militcioner bo'zbolalarni haydar ketdi.

Kapitan katta menga javob berib yubordi.

— Xo'sh, sizga katta rahmat, aka. Tergov tuga-

gach, deloni sudga oshiramiz. Sud kuni bordi-yu chaqirsalar, bir kelib keting.

— Men sizga aytsam, kapitan katta, shuncha kun mazam bo'lmasangiz ham bo'ladi. Sherigim mening navbatimda-da qo'y boqdi. Odamning yuzi chidamayapti...

— Xo'sh, tushunaman, aka, tushunaman. Siz sudda bo'lmasangiz ham bo'ladi. Lekin anavi tirriqlar ko'p ishlarni bo'yniga olmasligi mumkin. Ish yana lanj bo'ladi. Siz sudda savol tug'ilganda ha yo yo'q, deb tursangiz bo'ldi. Sizdan boshqa jonli guvoh yo'q. Mana shu birodaringiz uchun yana bir kelasiz, endi.

Birodarlar, kapitan katta jon joyimdan ushladi! Bilibmi, bilmaymi, ishqilib, birodaringiz uchun, dedil Shu gap ko'nglimni oldil Rahmonboy birodarimizni deb, yo'q demadim.

Rahmonboy birodarimiz meni uyiga yetakladi.

— Mazam yo'qroq, boshqa vaqt borarman, birodar, — dedim.

— Unda, biror kun o'zim uyingizga boraman, to'n yopishib og'a-ini bo'lamiz, — dedi.

— Shunday-da og'a-ini, birodarmiz, — dedim.

77

Militsiya mashinasi eshigimizga kelganini el bildi.

Birodarlar, elning qulog'i ellikta!

El ajablandi, el hadiksiradi...

Duv-duv gap bo'ldi...

Birodarlar, yomon gap, raketadan oldin yuradi, yaxshi gap, toshbaqadan keyin yuradi!

Xufton vaqt-xufton vaqt uzangi yo'ldoshlarim bilan hamsoyamiz Rixsiyev ko'ngil so'rab keldi.

Ayolimiz dasturxon yozdi.

Bo'lg'usi bojamiz Odina chavandoz ayolimizdan nam tortib, yerga qarab o'tirdi.

Uzangi yo'ldoshlarim gapni nimadan boshlashini bilmadi. Istihola qildi.

Shunda, Rixsiyev gapni indallosidan boshladi:

— Sizni militsiya mashinasi uyingizdan olib ketibdimi, o'rtoq Qurbonov? — dedi.

— Bekor gap-e! — dedim.

— Ana, hamma shunday deyapti-yu?

— Olib ketgan yo'q, aytib ketdi. Men avtobusda bordim, — dedim.

Farosat etsam, el og'zida ko'p gap bo'libman. Elga bir gap tegmasin. Chibinday gapni tuyaday qilib gapisradi. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Endi bor gapni aytayin...

Aytib-aytib berdim. Bir gapni-da qoldirmadim!

Uzangi yo'ldoshlarim dildo'z so'zlar aytdi, dildo'z gaplar aytdi.

— Xo'p juvonmardlik bo'pti-dal — dedi.

Rixsiev bolishdan tirsagini oldi. Chavandoz-larga sigirqarash qildi.

— Katalizatorlar! — dedi. — Bu, sargardonlik-ku, sargardonlik!

— Sargardonligi bo'ptimi, shu bahona Tarlon ikkovimiz shaharni sayil qilib kelayapmiz, — dedim.

— Aha, u falsafangizni boshqalarga o'qing, o'rtoq Qurbonov. Sayil emish! Bunday ishlar tur-gan-bitgani g'alva, sargardonlik!

— Sayil-da — sayil, sargardonlik-da — sayil.

— Siz endi ko'rayotgandirsiz-da? Aha, men shaharda yashayotganimda bunday ishlarning bir nechtafiga duch kelganman. Sizdan yaxshi bilaman, oqibati nima bo'lishini! Bir dam olishda bizni paxtaga olib bordi. O'zingiz bilasiz, bir kunlikka borgan hasharchilar paxta termaydi. Ichib, kayfsafo qilib qaytib keladi. Men ham tagimga qo'yish uchun ikki kilocha paxta terib, etagimdag'i paxtaga yonboshladim, mudrab yotdim. Shunday pastimdan bir daryo loyqa suv oqayapti. Shunda, daryo bo'yida ikki-uchta qora ko'rindi. Ko'zimni kattaroq ochib qaradim. Bizning hasharchilar emas, shu yerning yigitlariga o'xshadi. O'zlaricha bir-birlarini turkiladi. Hazillashayapti, deb o'yladim. Aslida urishayapti ekan. Ikkitasi bittasini o'rta ga olib urdi. Tayoq yeayotgani yoqalab qoch-

di. Daryo ustidan bir ingichkagina truba o'tar edi, shu trubadan qochdi. Truba o'rtalarida muvozana-tini yo'qotdi. Goh o'ng, goh chap qo'lini ko'tarib-ko'tarib, suvga tushib ketdi. Boshqalari qochdi. Bola suv yuzida goh ko'rinib, goh yo'qolib oqdi. Boshi ko'ringanda dodlab baqirdi.

— Siz ko'rib turdingizmi? — dedim.

— Bo'lmasam-chi! Shunday oyog'im ostidan oqib o'tdi! Suzishni bilmas ekan-da, bo'lmasa, suv sekin edi, bemalol suzib chiqsa bo'lardi. A? Yo'q, pastroqda bir operator yigitimiz ovozini eshitib qolib, o'zini suvga tashladi. Sudrab olib chiqib, oyog'ini osmonga ko'tardi. Baribir kech bo'ldi, bola o'lib qoldi... Ishonsizmi, shu operator yigitimiz bir oydan ortiq organga qatnab, so'roq berdi! Ona suti og'ziga keldil Ko'r bo'l, dedim, o'zini bilmaganning kuni — shunday bo'ladi, dedim. Dunyo shunday, o'rtoq Qurbonov, o'zingizni biling, o'zgalarni qo'ying!

— Ha-e, taqdir peshona ekan-da. Olamda nima gap?

— Olamda gap ko'p, o'rtoq Qurbonov. Xalqaro vaziyat tobora keskinlashib borayapti. Tinchlik xavf ostida...

— Kim xavf solayapti?

— AQSH imperalistlari! Buni xalqaro panogramma o'rtoq Zorin ham aytib o'tdi. Aha, «Za rebejomda ham yozibdi. Mana, faktlarga murojaat qilamiz. AQSH ma'muriyati 1983-yilda 810 million dollar miqdorida ximiya-bakteriologiya quroli ish-lab chiqarishni planlashtiribdi.

— U qanday miltiq?

— Aha, miltiq emas, zaharli ingredient.

— O'zimizning dehqonchasiga gapiring. Biz bir iyig'i chiqqan kal bo'lsak, unday gaplarni qayerdan bilamiz.

— Aha, ingredient bu, ikki xil suyuq mod-dadan tashkil topgan zaharli dori. Miyani shol qilib tashlaydi. Aha, o'n-o'n besh daqiqa ichida vafot etasiz!

— Shuni inson o'ylab topdimi? Odamzotni

qirish uchunmi? Yo, tabba! Biznikilar nima de-yapti?

— Aha, bizning hukumatimiz tinchlik posboni bo'lib keldi, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi!

78

Uzangi yo'ldoshlarim uy-uyiga ketdi.

Ayolimiz dasturxon yig'ishtirdi.

Kenjamizni qo'limga berdi.

— Manavini picha ushlab tursin, qozontobog'imni yuvib olayin, — dedi. Kenjamizni tizzamga oldim.

Kenjamiz dasturxon olib ketayotgan onasiga jimit qo'llarini cho'zib ingilladi.

— Ing-ing-ing!... — dedi.

— Bo'ldi, enang hozir keladi! — dedim. — Hay, anavi suratdagi kim? Aka-ya? Aka de, aka!

Kenjamiz ovunmadi. Ingillay berdi.

Shunda kenjamizni tizzamda tebratib suydim:

Kelgin, bolam, tizzamga,

Yol bo'larsan o'zimga,

Quloq solgin so'zimga,

Huyyo, bolam, huyyo!..

Birodarlar, kuygan — o'lanchi bo'ladi, suygan — laparchi bo'ladi?

O'z-o'zimdan kuyib-kuyib, ich-ichimdan kuyib-kuyib, kenjamizni suyib-suyib, o'lanimni aytib qo'ya berdim:

Jonim bolam ot chopsin,

Otiga baxmal yopsin,

Huyyo solsin otasi,

Orqasidan yol topsin,

Huyyo, bolam, huyyo!..

— Ay, enasi-ya, kel, ulimga mamma ber! Ulim mammasirab qopti. Ana, aytdim, enang keladi, mamma beradi!

*Bolam, sen ham botirim,
Chopib kelayotirim,
Cho'pon bo'lsang qo'ylarga,
Boqarsan o'tloq, soylarga,
Huyyo, bolam, huyyo!..*

— Bo'ldi-ye, enag'ar! Og'zim bor deb ingillay berasanmi! Og'iz bir senda bormi? Mana, bizda-da bor! Nimaga biz ingillamaymiz? Izzatingni bil-da! Yo, otiga baxmal yopsin, qo'ylarini boqsin, deganimga o'zingdan ketayapsanmi? Qani o'sha ot-laring, qo'ylaring? Hovlidagilarni aytayapsanmi? Eb-ey, eb-ey, ular sening bovangdan qoldimi? Ular mening otamdan qoldil! Ular meniki, bildingmi?

*Huyyo-huyyo, huyyo qani?
Bovang bergan tuyang qani?
Bovang bergan tuyang bo'lsa
Boqib yurganlaring qani?
Boqib yurgan tuyang bo'lsa
Adir ham cho'llaring qani?*

— Ana bo'lmasa, ukkag'arning kenjasil! Mard bo'lsang javob ber, ukkag'arning kenjasil! Ana, sa-sing chiqmay qoldi-ku! Ingillaysan-a, ingillaysan! Ha? Ha-ha-ha! Sho'xlashdim, ukkag'arning kenjasil, sho'xlashdim! Sho'xlashishni-da bilmaysanmi. Ulim, manavi uylar-da, qo'tondagi qo'ylar-da, osmondag'i oylar-da, ko'pchib yotgan yerlar-da, bari-bari senikil! Bor-e, Tarlonni-da berdim, bor-el Ol-e, ukkag'arning kenjasil-e, ol-e!..

*Huyyo qilay huydad
Oting solgin to'daga
Huyyo qilsam uxlagin
Otang sendan sadag'a
Huyyo, bolam, huyyo-i-i!..*

— Ulim, bir nima esingda bo'lsin. Gagarinday boshing osmonga yetsa-da, olim bo'lib yetti iqlimni so'rasang-da, sen avvalambor Ziyodulla chavan-

dozning uli bo'll! Mening ulim bo'll! Menday bo'l,
menday! Menday bo'lasan-a, menday bo'lasan-a?..

79

Suddan qog'oz keldi.

Oyog'im tag'in uzangida bo'ldi, organ yo'lida
bo'ldi.

Bora-borgunimcha Yaratganning o'ziga sig'inib
bordim. Shu yurishimni bo'ldi qil endi, meni bun-
chalar jonhalak qilma endi, deb bordim.

Sudda odam serob bo'ldi.

Bir tarafda urgan bo'zbolalar, bir tarafda
Rahmon birodarimiz o'tidi.

Kattalar yuqorida bo'ldi.

Bo'ldi so'roq, bo'ldi javob!

Urgan bo'zbolalar aybini bo'yniga olmadi. Bir-
birlariga to'nkab turib oldi.

Shunda, yuqorida o'tirgan kattalar mendan
so'radi. Da'volarini mendan ma'qullatib oldi. Men
asqotib turdim.

Bir katta Rahmon birodarimizni so'roqqa tutdi:

— Ayting-chi, nega voyaga yetmagan bolani
urdingiz? — dedi.

— Urganim yo'q, kalla qildim, — dedi Rahmon
birodarimiz.

— Baribir, urgan hisoblanadi. Yuzida jarchat
bor. Pulingizni o'g'irlagan ekan, yana tag'in ush-
lab olibsiz ekan, militsiyaga topshirish kerak edi!

— Kuchim yetmadi.

— Urishga yetgan kuchingiz, militsiyaga yetak-
lab borishga yetmadimi?

— Uch birday yigitga qanday qilib kuchim yeta-
di?

— Unda militsiyaga telefon qiling edi. Yoki,
odamlrani yordamga chaqiring edi. Ana, ko'cha
to'la odam!

— Odam? Qanday odam? Qani odam...

Rahmon birodarimiz gapirolmadi. Dimog'i
to'lib keldi. Ovozi ichiga tushib ketdi. Yengi bilan
ko'zlarini artib-artib oldi.

278

— Bir soat tanaffus! — dedi kattalar.
O'tirib-o'tirib, qornim ochqadi. Choyxonaga
qarab yurdim.

Men choy ichib qayta berdim, odamlar suddan
chiqib kela berdi.

Demak, sud sob bo'pti, endi sud oqibatini
so'rayin, dedim. Rahmon birodarimizni qidir-
dim.

Shunda, bir to'da momolar bilan ayollarga
ro'para keldim. Momolar sel-sebor yig'ladi. Pe-
shonalariga uring-uring yig'ladi. Tizzalariga musht-
lab-mushtlab yig'ladi...

Bildim, bular ana shu bo'zbolalar momosi
bo'ldi, ana shu bo'zbolalar onasi bo'ldi.

Men ana shu ko'z yoshlar oqishi uchun o'zimni
aybdor deb bildim. Yoshlar to'la ko'zlarga, yosh-
larga belangan yuzlarga qarab turolmadim...

Birodarlar, barmog'imning qaysi birini tish-
lasam-da og'riydi!

Ohista-ohista ketimga qayrildim.

Tarlonimiz oldiga bordim. Otlanib, qishloqqa
qaytdim. «8-Mart» kolxozidan o'tib, Hayrondaraga
doxil bo'ldim.

Tevarak mayda-mayda adirlar bo'ldi. Arg'am-
chiday yo'l bir yuqoriladi, bir adoqladi.

80

Oqshom vaqtি bo'ldi.

Olamga-da oqshom qo'ndi, ko'nglimga-da
oqshom qo'ndi. Ko'nglim oqshomday mahzun
bo'ldi.

Beixtiyor ketimga qayrilib qaradim. Bir qizil
mashinani ko'rdim. E'tibor bermadim.

Adirga o'rладим. Adir qoq ustida tag'in ketim-
ga qayrilib qaradim. Mashina qorama-qora keldi.

Adirdan enib boshladim. Adir tikkaligidan
Tarlon o'zini ketiga tashlab-tashlab yurdi. Old
oyoqlarini og'ir-og'ir bosdi.

Adir adog'iga tushdim. Mashina adir ustida
imillab qoldi. Hayron bo'ldim. Mashina degani tez

yurar bo'lardi, bu mashina xiyladan buyon bir otdan o'tolmaydi. Yo, biron yeri nosozmikin?

Yo'lni kesib o'tadigan ariqqa keldim. Ariqdan loyqa suv oqibdi. Ichi qip-qizil loy bo'libdi. Loy ot tizzasiga keladi.

Shu bois, Tarlonni ariqqa solmadim. Ariqdan hatlattirmoqchi bo'ldim. Ammo bu niyatimdan-da qaytdim. Vaji, ariq yoqalari-da loy. Tarlon toyib ketadi.

Ariq yoqalab, yuqoriladim. Sayozroq yer qidirdim.

Mashina-da quyiga endi. Ariq bo'yida oyoq ildi. O'tolmasligini bildi shekilli, bizning izimizdan yurdi.

Bizning Tarlon torroq bir yerdan cho'chib o'tdi. Mashina Tarlon hatlagan yerda oyoq ildi.

Mashinadagilarga qamchi sopi bilan yuqorini ko'rsatdim.

— Yana sag'al yursalaring yuqorida yoyilma bor! O'shandan mashina o'tadi!

Shunday deya yo'limga burildim.

Shunda, ketimdan ovoz keldi:

— U, shef! Tormoz!

Ovozni tanimadim. Nima deyapti, tushunmadim. Kim bo'lsa-da, bir inson ovoz berayapti, borayin, dedim. Ariq yoqalab bordim.

Mashinadan to'rt odam tushdi. Ikkovi olisroq-dan chopib kelib, ariqdan hatlab o'tdi.

Tarlon hurkib, keyiniga tisarildi.

Keyin, qolgan ikkovi-da keldi. Barining ko'zida qora ko'zoynagi bo'ldi. Ko'zlari ko'rinnadi. Sochlari yelkasiga tushdi, qulogqlari sochi ostida bo'ldi. Kiyimlari ajabtovur bo'ldi. Birovning soqolida bo'ldi. O'zimizday o'rta yoshli odammikin, deya sinchiklab qaradim. Yo'q, u o'ttizlarda bo'ldi.

— Chaqirganday bo'ldilaringizmi, birodalar? — dedim.

Ular miq etmadni. Soqoldori oldin yurdi.

— Otdan tushing-chi, shef! — dedi.

— Ayta beringlar, qulog'im kar emas, — dedim.

— Tush degandan keyin, tush!

Ularning sensirashi ko'nglimga tegdi. Tusha-tusha, ko'nglimni aytdim.

— Sensiramang, birodar, salkam otingiz qatoriman-a, — dedim.

— He, senday otam qatorining...

Qo'limda jilov, serrayib qoldim. Qahrim keldim. Qamchi sopini mahkam ushladim.

— Otingni bog'lab, buyoqqa yur!

— Nima gapingiz bor, birodar, shu yerda ayta bering.

— Yur, degandan keyin, yur!

Ular ariq yoqalab yuqoriladi. Birovi-da ko'zoy-nagini olmadi.

81

Jilovni egar qoshiga qistirdim.

Tarlonni bo'sh qoldirdim.

Keyin, ular oldiga bordim.

— O'zi kimsizlar? Kimning bolasi bo'lasizlar? O'zlariningni tanitinglar-da axir, birodarlar, — dedim.

Ular meni o'rabi oldi. Go'yo yovvoyi odamni tomosha qilayotganday bo'ldi. Birovi o'z-o'zidan to'ng'iladi. Hali tanishib qo'yamiz! — dedi.

Tavba, bularning menda nima ishi bor ekan? Ertaroq aytmaydimi, kech bo'layapti...

— Ay, birodarlar, zaril gaplaring bo'lsa ayting-lar. Bo'lmasa ketayin, bola-baqra alag'da bo'ladi, — dedim.

— Ketasan, ketasan, shoshilma. Qaytmaydigan bo'lib ketasan...

Zardam qaynadi, ketimga burildim.

Shunda, ulardan birovi yo'limga g'ov bo'ldi. Birovi chapimga o'tdi. Ikkovi oralig'idan o'tib ketmoqchi bo'ldim.

Shunda, o'ngimdagisi yelkamdan g'ijimlab ushlab oldi.

Men qo'lini shartillatib urib tashladim.

— Qo'lingizni oling, birodar! — dedim.

Shunda, u iyagim ostiga o'xshatib-da bir urdi!

Ketimga gandiraklab-gandiraklab borib o'tirib qoldim. Nogiron qo'lim zirqirab og'ridi.

Qamchi o'rimini qo'limg o'rabb-o'rabb joyimdan qo'zg'oldim. Shu urganning bo'yin tomirini mo'ljallab qulochkashladim.

Ketimdagisi qamchini ushlab qoldi.

Yana o'tirib qoldim. Endi qamchini ushlab qolganiga qarab, qo'zg'oldim.

Shunda birovi ketimdan keldi, belimga tepdi.

Men yuztuban yiqildim. Nogiron qo'lim zirqirab-zirqirab og'ridi.

Turib o'tirdim. Tevarakka alangladim. Rayon o'ng yog'imdag'i adir ortida bo'ldi. Ko'rinnadi. Qishloq chap yog'imdag'i adir ortida bo'ldi. Qishloq-da ko'rinnadi. Osmon boshimda bo'ldi. Baribir olisda bo'ldi.

Xo'rligim keldi: ay, yolg'izligi qursin-al!

Ko'nglim buzildi: ay, nogironligi qursin-al

O'pkam to'lib keldi. Qo'ynimdag'i nogiron qo'limni tashqari chiqardim.

— Birodarlar, Jo'ra boboning otidan yiqilib, qo'lim chiqib edi, mana... mana... — dedim.

Ular xoxolab-xoxolab kuldi. O'zaro gapirishdi:

— Bu o'zi unga kim bo'ladi?

— Hech kim!

— Hech kim? Yo'g'-e?

— Demak, bu o'zicha ritsarlik qilmoqchi bo'libdi-da?

— O, ritsar! XX asr ritsari!

— Don Kixot!

— Don Kixot! XX asr Don Kixot!

Men shundagina ular kimligini bildim. Qo'lim nogironligini aytib, yig'lamsiraganlarimga ming-ming pushaymon bo'ldim...

Yerga qaradim. Qo'limni qo'ynimga solmadim. Sog'lom qo'limdayin yerga tiradim.

Nogiron qo'lim zirqillab og'ridi. Tishimni tishimga bosdim. Yuzlarim lovullab yondi...

Bir balo qilib, joyimdan turdim. Oyoqlarida tik turdim.

Shunda birovi jag'imga urdi.

Men ketimga tisarilib-tisarilib, bunisiga borib urildim.

Bunisi yelkamdan suyab qolib, harommag'izimga urdi.

Gandiraklab-gandiraklab, unisiga bordim.

Unisidan iyagimga yedim.

Bir aylanib tushdim. Osmon gir-gir aylandi. Osmon qop-qora bo'ldi.

Tag'in turdim. Dalbanglab-dalbanglab bordim. Birovning bo'yniga osildim.

— Birodarlar, men sizlarga nima qildim... — dedim.

Uni jonimning boricha quchoqlab turdim.

U, ichimga ko'p musht urdi.

Nafasim hiqillab bo'lindi. Ichimda bir nima ezildi. Qo'llarim bo'shashib, yelkasidan sidirilib tushdi.

Oyog'imda majolim qolmadi. O'zimni yerga chalqancha tashladim...

— Birodarlar, aybimni ayting, aybimni... — deya ingrandim.

Belimga uchli bir nima zarb bilan tegdi. Keyin biqinimga tegdi. Zarb har tekkanda jonim hal-qumimga kelib ketdi.

— Birodarlar, men ham odam-ku... — deya ingrandim.

82

Shunda... shunda, ot kishnadi.

Umrим ot bilan o'tdi. Hay bir otlarni ko'rdim, hay bir kishnashlarni eshitdim.

Ot suvsab kishnadi, ot ochqab kishnadi. Shunda ot ko'nglini suv berib oldim, ot ko'nglini yem berib oldim.

Ot avlod-ajdodlarini qo'msab kishnadi, ot ulpitomirlarini yo'qlab kishnadi. Otlar ovozini eshitib kishnadi, baytallar havosini olib kishnadi.

Shunda, otni egarladim, dasht-u dalalarni aylantirdim, ot oyog'ini yozdim. Otni sovutdim, otni yupatdim.

283

Ot ilon sharpasini olib kishnadi. Uydan otilib keldim. Ot yonini oldim, bo'yinlarini uqaladim. Otga yo'ldosh bo'ldim.

Ot bo'ri hidini olib kishnadi. Ha, jonivor, ha, deya ovoz berib chopdim. Ot bo'yniga qo'limni qo'ydim, ot yollarini siladim. Ot oldida bo'ldim. Otga gapirib-gapirib turdim, birodar bo'lib-bo'lib turdim.

Kishnash ko'rdim, kishnashlar ko'rdim, ammo ushbu oqshomdagidayini ko'rmadim.

Vo darig'o, bu qandaychikin kishnash bo'ldi? Kishnash ko'ngil-ko'nglimni o'yib yubordi, vujud-vujudimni qaqshatib yubordi. Tanamdag'i og'riqlarda bilinmay qoldi.

Bizning Tarlonga nima bo'ldi, birodarlar? Nima bo'lsa-da, yomon bo'ldi! Bizning Tarlon nima ko'rди, birodarlar? Nima ko'rsa-da, yomon ko'rди!

Bizning Tarlon ilon ko'rdimikin? Yo'q, bizning Tarlon ilon ko'rsa bundayin kishnamaydi. Bizning Tarlon bo'ri ko'rdimikin? Yo'q, bizning Tarlon bo'ri ko'rsa-da, bundayin kishnamaydi.

Bizning Tarlon ilondan-da yomonini ko'rди, bizning Tarlon bo'ridan-da yomonini ko'rди!

Tarlonni yo'qlab qarayin dedim. Boshimni ko'tarayin dedim. Bo'ljadi, bo'ljadi!

Ko'zim osmondaligicha qoldi. Osmon olis, yer qattiq bo'ldi...

Ot uzib-uzib kishnadi.

Ko'zlarim tindi. Bepoyon osmon, beg'ubor osmon qop-qora qozon bo'ldi!

Yuzimni chapimga burdim. Avval-avval bir nimada ko'rmadim. Keyin-keyin oq bilan qorani fahmladim. Ana shunda Tarlonni ko'rdim.

Tarlon bo'ynini gajak-gajak qildi.

Tog'larga qaradi, zorlanib-zorlanib kishnadi.

Tarlon dumlari yoyilib-yoyilib kishnadi, yolları hurpayib-hurpayib kishnadi.

Adirlarga qaradi, chorlab-chorlab kishnadi.

Tarlon quloglari chimirilib-chimirilib kishnadi, pishqirib-pishqirib kishnadi.

Qishloqqa qaradi, yolvorib-yolvorib kishnadi,
zor-zor kishnadi.

Tarlon jilovini silkib-silkib kishnadi, yulqib-
yulqib kishnadi.

Keyin, men sari yuzlandi. Oyoqlarini katta-
katta yoydi. Bo'ynini cho'zdi. tumshug'ini cho'zdi.
Quloqlarini chimirdi.

Tarlon zinkiydi!

Old tuyoqlari bilan tarsillatib-tarsillatib yer tir-
nadi. Keksaklab-kesaklab yer otdi. Tuyoqlari osti
changidi.

Tarlon qahr ham iztirob bilan kishnadi. Oqshom
kishnashdan zir titradi.

Oqshom, Tarlon kishnashidan, Tarlon kish-
nashi, oqshomdan-da mungli bo'ldi, oqshomdan-da
ayanchli bo'ldi.

Uchli zarb, chap tizzam ko'ziga kelib tegdi.

Chinqirib yubordim. Ko'z oldim qop-qora
bo'ldi...

— Tepib o'tirasanmi, biqiniga tiqib oll..

— E-e-e, ot!

— Qoch, ot kelayapti!

Shunda, tag'in hushimga keldim. Ohista
ko'zimni ochdim.

Tarlon tumshug'ini cho'zib zinkiyib, ularni
quvdi. Birini qo'yib, birini quvdi.

Ular ariqdan hatlab ochdi. Birin-ketin
mashinasiga kirdi.

Ammo birovi Tarlondon qochib qutulolmadi.
Uyoqqa burib soldi, bo'ljadi, buyoqqa burib soldi,
bo'ljadi. Nima qilishini bilmadi. Oxiri yerdan
nimadir olib, Tarlonni boshiga bir urdi.

Tarlon boshini silkib-silkib ohistaladi.

Unisi-da ariqdan hatlab o'tdi.

Tarlon-da ariqdan o'tdi. Mashina oldiga
keldi. Old tuyoqlari bilan yer tirnab-yer tirnab
kishnadi.

Mashina g'izillab jo'nadi.

Tarlon mashina ketidan xiyla yo'lgacha chopib
bordi. Keyin, iziga qaytib keldi.

Ariqdan o'tib, boshimga keldi. Yuzlarimga

tumshug'ini tekkizib-tekkizib ko'rdi. Yuzlarimni iskab-iskab ko'rdi.

Men Tarlon nafasini tuydim. Tumshug'ini qo'shqo'llab quchoqladim. Jag'lari, peshonasini siladim.

Shunda, kaftim ho'l bo'ldi. Ter, ot teri deb o'yladim. Kaftimni ko'zlarimga olib kelib qaradim. Keyin, Tarlonga tikilibroq qaradim.

Tarlon peshonasidan qon sizdi...

Ho'ngrab yig'lab yubordim. O'pkamni bosayin dedim, bosolmadim...

83

Qosh qoraydi.

Odam odamni tanimaydigan bo'ldi.

Bir amallab chap yonbosh bo'ldim. Tarlon oyog'ini quchoqladim. Tizzasiga peshonamni qo'ydim. Uzalib, old qopqog'iga shapatiladim.

Tarlon yelkalarimni iskadi. Keyin, old oyoqlarini asta-asta buksi. Tarlon tizzaladi!

Men chap qo'lim bilan egar qoshidan oldim. Egarga ko'kragimni berdim. Timtalanib-timtalanib egarga bel bo'lib yotdim. Nafasimni rostlab oldim. Tag'in qimtinib, oyog'imni egardan oshirdim. Tarlonni quchoqlab oldim.

Tarlon qaddini rostladi.

Shamol boshimni yalab o'tdi. Shunda, bosh yalangligimni bildim. Telpagim yerda qolibdi.

Tushayin dedim, tag'in, minishimni o'yladim. Telpagimga qo'l siltadim. Belbog'imni yechib, boshimni tang'ib bog'lab oldim.

Katta yo'l chetidan yurdim.

Bor bo'yicha qorong'i tushdi. Adirlar qop-qora soyaday bo'ldi.

Egarda chayqalib-chayqalib, ko'nglim shu kechaday zim-ziyo bo'lib-bo'lib, o'ksib-o'ksib bor-dim...

84

Tarlon-ay, nima kunlarga qolding-a?...

Tushda bo'layaptimi, yo o'ngda bo'layaptimi?

Sen farqlamasang, men farqlay olmay qoldim,
Tarlon...

Halgilar qanday jonzot edi, Tarlon! Sin-simbati
odamga kelbat beradi. Ust-boshlari-da bor. Odamga
mayzab gapiradi, odamga mayzab kuladi...

Bilmadim, Tarlon, bilmadim. Sen bilmasang,
men bilmadim. Men seni bilaman, Tarlon. Ular men
uchun begona, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening ukamsan, ukam.

Bo'ldi, men endi ularni ukam demayman.
Mening ukam sensan. Sen mening ukamsan,
Tarlon. O'zi menga o'xshaysan, Tarlon, menga...
Ukasi akasiga o'xshaydi-da, Tarlon...

Tarlon ukam-ov, endi nima qilamiz? Endi, bola-
chaqaga borib nima deymiz? El so'rasha nima
deymiz?..

Ayo Tarlon, sen mening jiyanimsan, jiyanim.

Bo'ldi, men endi ularni jiyanim demayman.
Mening jiyanim sensan, Tarlon. Sen menga tort-
ding, Tarlon. Jiyana tog'asiga tortmasa, kimga tor-
tadi, Tarlon...

Tarlon jiyanim-ov, yo yo'lida yiqildik, deymiz-
mi? Ko'zlarining bor edi-ku, desalar-chi? Arik loy
ekan, toyib ketdik, deymiz. Binoyimi, Tarlon jiya-
nim? Bo'lmasa, elga ermak, xalqqa shaloq
bo'lamiz...

Ayo Tarlon, sen mening akamsan, akam.

Bo'ldi, man endi ularni akam demayman.
Mening akam sensan, Tarlon. Uka desa degulik,
mendayin ukang bor, aka desa degulik, sendayin
akam bor, nima g'amim bor, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, biro-
darim.

Bo'ldi, men endi ularni birodarim demayman.
Mening birodarim sensan, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarim-
san, qiyomatlik birodarim...

1979

Asr oshgan asarlar

TOG'AY MUROD

OT KISHNAGAN OQSHOM

Qissalar

•Sharq• nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2006

Muharrir Z. Mirzahakimova
Badiiy muharrir M. Samoylov
Texnik muharrir R. Boborjanova
Musahhihlar: J. Toirova, Y. Bizaatova

Terishga berildi: 03.11.2005. Bosishga ruxsat etildi: 18.01.06.
Bichimi 84x108¹/22. «School Book» garniturası. Ofset bosma. Shartli
bosma tobog'i 15,1. Nashriyot hisob tobog'i 15,6. Adadi 3000 nusxa.
Buyurtma № 4912. Bahosi shartnomaga asosida.

•Sharq• nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, •Buyuk Turon• ko'chasi, 41.